



811.  
Б-34.

NORQUL BEKMIRZAYEV

# NOTIQLIK SAN'ATI



U.11.  
8.14.

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA  
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

**Norqul BEKMIRZAYEV**

# **NOTIQLIK SAN'ATI**

**(NUTQ MADANIYATI VA IFODALI O'QISH SIRLARI)**

*To'ldirilgan va qayta ishlangan 2-nashri.  
Uchinchi nashr «Notiqlik asoslari» nomi bilan chop etilgan*

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI  
TOSHKENT VILOYATI CHIRCHIQ  
DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI  
AXBOROT RESURS MARKAZI



O'zbekiston Respublikasi  
Fanlar akademiyasi  
«Fan» nashriyoti  
Toshkent - 2019



U'ZBEKISTON RESPUBLIKASI O'LY VA O'RTA  
MAKSUS TAJLIM VAZIRLIGI  
U'ZBEKISTON MILLYI UNIVERSITETI

Notdaj BEKMIRZAYEV

# NOTIQLIK SANA'TI

(MUTO MADANIYATI VA IFODALI O'GISH SIZLARI)

Birinchi nashr «Notidlik asoslar» nomi bilan chop etilgan  
To'ldirilgan va qayta ishlangan 3-nashr

MUTOLIK	MUTOLIK

U'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
O'LY VA O'RTA MAKSUS TAJLIM VAZIRLIGI  
YOSHIMTIL O'LYATI QURULGHI  
DAVLAT TEGHOBOSIQA INSTITUTI  
AXBOROT RESURS MARKAZI



U'zbekiston Respublikasi  
Fanlar akademiyasi  
«Fan» nashriyoti  
Toshkent - 2019

«Hozirgi notinch va tahlikali zamonda butun bashariyat oldida yangi hayotning, biz ilgari duch kelmagan g'oyat murakkab vaziyatlar, global xavf-xatarlarni birgalikda bartaraf etish, ularni yo'qotib barcha ezgu niyatli insonlarni birlashtirishda, dunyo aholisining qariyb uchdan bir qismini tashkil etayotgan yoshlarni g'oyat va mas'uliyatni har qachongidan ham yuksaltirish zarurligini hisobga olib, butun hayotning o'z taqozo etmoqda».

Shavkat MIRZIYOYEV

### SO'Z BOSHI

Makol qo'llanma Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti o'zbek filologiyasi fakulteti talabalariga «Notiqlik san'ati» kursini o'tish jarayonida o'qilgan ma'ruzalar asosida yaratildi. Chunki notinch bo'lishni orzu qilgan talabalar to'g'ri va savodli yozish, o'qish hamda nutq bilan birga chiroyli gapirish, madaniy nutq va notiqlik san'ati sirlaridan voqif bo'lishlari ham qarz, ham zarur. Ayniqsa, hozirgi teskor zamonda Mustaqil O'zbekiston fuqarolarida yangicha dunyovparashning shakllanishida notiqlik san'ati sabog'i muhim ahamiyatga ega.

Notiqlik san'ati, avvalo, notiqdagi mavjud qobiliyat va iste'dodni shakllantirishga qaratilgan soha bo'lib, u notiqning qobiliyati hamda iste'dodini o'rganuvchi va shakllantiruvchi ilm.

Notiqlik san'ati – azaliy mumtoz fan sifatida butun borlig'i bilan aqlni shakllantiradigan, jamiyat hayotini boshqarishda aql-farosat uskunasi bo'lib, shaxsning shakllanishini uning so'zi, nutqiy mahorati orqali namoyon etib kelgan va jamiyat taraqqiyotining yanada farovonligi sari yetaklagan.

Notiqlik san'ati nima?

U san'atning tarixi qadim zamonlarga borib taqaladi. Zardushtiylarning «Avesto»si, xalq ijodi sanalgan «Alp Er To'nga» dostonidan tortib sohibqiron Amir Temur tuzuklarigacha, Nizomiddin Mir Alisher Navoiyning «Mahbub ul-qulub», «Navodir ush-shabob» asarlarigacha, Kaykovusning «Qobusnoma»siyu Yunon va Rim notiqlik maktablari namoyondalarigacha notiqlik san'ati haqida fikr-mulohazalar, notiqlikning amaliy va nazariy asoslari mukammal

yoritib berilgan. Ayniqsa, Allohning kalomi, «Qur'oni karim» oyatlarida Payg'ambarimiz Muhammad (s. a. v.)ning Hadisi Shariflari notiqlik san'ati borasida yuksak o'ringa ega. Notiqlik bu – chiroyli og'zaki matn so'zlash, gapirganda fikrlarini ravon, go'zal va lo'nda ifoda eta bilgan san'atidir.

Yunonistonda VII–VI asrlarda Solon hukmronligi davrida chiqarilgan qonunga ko'ra, har bir odam o'zini o'zi nutqi bilan himoya eta olishi lozim bo'lgan. O'zini erkin so'zlari bilan himoya qilishni esa hammasi ham uddalay olmagan. Ayniqsa, sud majlisida odamlar erkin gapirishga qiyinalishgan. Bu zarurat esa «logograf»larning paydo bo'lishiga olib kelgan. Logograflar kimlar edi. Ular sudga ishi tushgan fuqarolarni o'z u yerda nimalarni so'zlashi kerak bo'lgan matnlarni yozib berib, ta'kid kasbni o'zlarining tirikchilik manbaiga aylantirgan o'z davrining savodli kishilari, ya'ni notiqdari bo'lgan (Sitseron, Demosfenlar kabi).

Logograflar yozgan sud nutqi matnlari o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan. Masalan, Logograf o'ziga iltimos bilan kelgan odamning iqtisodiy sharoiti, mavqei, ruhiyati kabilarni ish bilan tanishish asnosida o'rganib, uning xarakter xususiyatlariga qarab sudda so'zlaydigan matnni yozib bergan. Yoki faktlar orqali barcha sharoitni bilib olib, mijozining sud oldida so'zlashi lozim bo'lgan nutqini yozgan. Shuningdek, mijozining sudda yutib chiqishi uchun agar mijoz bechorahol bo'lsa, o'z holatini namoyon etadigan matnni yozib, mijozning holatiga moslagan. Logograf huzuriga kelgan da'vogar yoki sudlanuvchi yozilgan matnni yodlab, logograf oldida so'zlab berib, mashq qilgani haqida ma'lumotlar yetarli. Yuqoridagilardan ko'rinadiki, notiqlik san'ati asrlar osha shakllanib, taraqqiy etib kelgan. Badiiy adabiyotning yuzaga kelish ildizlari ham o'sha «logograf»larning yozgan sud notiqligiga borib taqaladi. Chunki ba'zi voqealarni obrazli qilib yoritgan logograflarning yozgan asarlar shundan darak beradi.

Hozirgi kunda, xuddi qo'shni mamlakatlarda bo'lgani kabi, notiqlik san'ati ilmini milliy ruhda, milliy qadriyatlarimizga tayanganimiz holda yaratish hamda mazkur fanning respublikamiz oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarida alohida filologik fan sifatida o'qitilishiga erishish dolzarb hisoblanadi.

**Muallif.**

## KIRISH

Biz huzun ko'rib turganimiz – butun borliq hissiyot va tuyg'ularimiz orqali tanavev etayotqanimiz barcha-barchasini SO'Z orqali ifoda etamiz. Yaratqanning kalomini ham shu bois anglashimiz, Parvardigorni tanibimiz va unga ibodatu iltijolarimiz, Allohning rasuli Muhammad ibnabi adlallohu alayhissalomning hadisi shariflarini anglashimiz, shakllarning bir-birlariga bog'lanishida, muomala-munosabatida asosiy vosita bo'lgan so'zning (nutqning) tarixiy taraqqiyotimiz tarixidagi, madaniy-maishiy ishlarimizdagi, ijod va ilm olish borasidagi ahamiyatini chegaralab bo'lmaydi.

Insoniyatni maxluqot olamidani ajratib turgan ham shu so'z bo'ladi. Insonga fikrini ijro etish uchun sezgi organlaridan biri sifatida Alloh insonni tili berildi. Aqlni esa inson ixtiyorida qoldirdi. Endi inson ibodat aqlini ishga yulib, tili orqali so'zlarni (nutqini) ifodalashga ibtilohi. Yaratqan egam tanamizdagi sezgi organlarimizdan biri tilni (sahobimizni) ehtiyot qilib joylagan. Unga o'ttiz ikkita tishlarimiz orqidan joy berib, yana lablar bilan berkitdi. Bu suyaksiz tilimizga ehtiyotkorlik chorasi ham edi. Chunki shu bir parcha (go'sht) til orqali har narsaga: yaxshilik va yomonlikka; go'zallik va xunuklikka; muvaffaqiyat va yovuzlikka; baxt va baxtsizlikka; mansab va inqisodlikka; boylik va kambag'allikka; do'stlik va dushmanlikka, birlik va ayriliqqa; obro' va obro'sizlikka; omad va omadsizlikka; ezgulik va jahillikka, mehnatsevarlik va dangasalikka; halimlik va qo'pollikka; hayot va hasadga; taraqqiyot va zalolatga; yarashish va janjalga; tinchlik va urushga; ruhiy tetiklik va tushkunlikka; sog'lomlik va bemorlikka; turmush va ayriliqqa; mo'min va kofirlikka; izzat va sharmandalikka; kursandchilik va dilxiralikka; madaniyatlilik va madaniyatsizlikka kabi bu foniy dunyoda mavjud bo'lgan barcha narsaga, oxiratda esa jannat yoki jahannamga erishish mumkin.

Sezgi organlarimizning ko'z, quloq va burundan tashqari barchasini odam o'ziga bo'ysundira oladi, jumladan, tilni ham. Ana shu bizga



bo'ysunmaydigan a'zolarimiz gunoh yig'ishimizga sababchi bo'ladi. Chunki ko'zlarimiz bilan yaxshi va yomon narsalarni ko'rishimiz, quloqlarimiz orqali ahloqli va axloqsiz so'zlarni eshitishimiz, burun bilan xushbo'y hamda badbo'y hidlarni tuyishimiz tabiiy hol. Ko'zni yumib, quloq va burunni bekitib yurish mushkul ish. Qarangki, Alloh rahmdil Zot, u shu uchta a'zolarimiz yig'adigan gunohlarni bartaraf etishi uchun biz insonlarga «tavba» ne'matini bergan. Modomiki shunday ekan, biz o'zimiz aql va farosatimizni ishga solib loaqal tilimizni jilovlay bilishimiz zarur. Bu o'rinda, avvalo, Allohning kalomi bo'lgan Qur'oni karim oyatlariga, payg'ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi vassallamning Hadisi shariflariga amal qilishimiz shart. Shuningdek, xalq tomonidan yaratilgan og'zaki ijod namunalari sanalmish ertak, qo'shiq, doston, rivoyat va afsonalardan kelib chiqadigan xulosalarga, buyuk allomalарimiz yaratgan asarlardagi pand-nasihatlarга amaliy yondoshmog'imiz zarur. Shundagina biz so'zimiz va nutqimizning qanchalik kuch-qudratga ega ekanligini his etib yashaymiz.

Notiqlikni o'rgatuvchi va targ'ib qiluvchi qadim adabiyotlardan tortib bizning davrimizda yozilgan va yozilayotgan maqola va kitoblarda notiqlik, notiqlik, nutq odobi, notiqlik san'ati; voiz, voizlik, voizlik san'ati kabi atama va tushunchalarni o'qiyemiz. Og'zaki nutqda odamlar orasida «so'z ustasi», «so'zga chechan», «so'zga usta», «so'zamol», «so'zni boplaydi», «gapni do'ndiradi», «gapga usta», «chiroyli gapiradi»; «suxandon», «tilchi-da», «adabiyotchi-da», «shoir-da» singari iboralarni eshitamiz. To'g'ri, hamma ham nutqiy nuqsonsiz tug'lsa, albatta, gapiradi. Biroq hamma odamlar ham gapga chechan bo'lavermaydi. Gapga chechanlik, ya'ni notiqlik bu – qobiliyat va iste'dod. Notiqlik bu – san'at. Qachonki Alloh bergan tabiiy qobiliyat bilan cheklanib qolmay, o'z nutqi va tili ustida erinmay ishlasa, mashq qilsagina chinakam notiqlik mahoratini egallashi mumkin.

Notiqlik bu – so'z san'ati, so'z san'ati bo'lganda ham ohangdan libos kiyib talaffuz bilan jilolangan so'z san'atidir.

Modomiki «so'z» qudratini chuqur anglagan, «so'z» ne'mati Alloh tomonidan faqatgina insonga in'om etilganini his etgan buyuk allomalargina uni qadrlaganlar va e'zozlashga undaganlar. Shu ma'noda notiqlik san'ati boshqa san'at turlari orasida alohida mavqega ega ekanligi tan olingan haqiqatdir. Qadimda mohir notiqlargina lashkarboshilik va davlat arboblari lavozimlariga saylanganliklari

ham bu haqiqatga aniqlik kiritadi. Tarix bizga hamisha saboq bergan, saboq bermoqda va bundan keyin ham saboq beradi. «Biz bugun shu sohada tarixdan saboq olyapmizmi?» – degan savol turibdi qarshimizda. Yo‘q, deyish ham joiz emas, harakat qilyapmiz. Bugungi kunda ko‘pgina idora rahbarlari nutqidagi kamchiliklar, muallimlar nutqidagi chaynalishlar, teleko‘rsatuvlardagi hatto jurnalistlar nutqidagi g‘alizliklar bizning ma‘naviyatimizga yarashmaydi. Chunki biz Mustaqillikning barcha chashmalaridan bahramand bo‘lib turgan ekanmiz, notiqlik san‘ati chashmasidan ham bebahro bo‘lmasligimiz kerak. Nima qilishimiz zarur? Avvalo, maktabda nutqni, uning grammatikasini chuqur o‘rganishimiz, fikrimiz va tafakkurimizning asosi bo‘lmish notiqlik san‘ati sirlarini o‘rgatishimiz va o‘rganishimiz juda muhim. Til va tafakkur bir-biriga chambarchas bog‘liq bo‘lgani holda, notiqlik san‘atini bilmasak, haqiqiy ijodiy tafakkur, go‘zal va chiroyli nutq so‘zlashimiz amri mahol. So‘zlayotgan nutqimizni maromiga yetkazib o‘z ona tilimizda ifodalashimiz uchun notiqlik san‘ati qoidalaridan xabardor bo‘lishimiz kerak. Hozirgi o‘quvchi va talaba yoshlarimiz nutqida uchraydigan nuqson, fikrlashdagi qisqoqlik, fikrini bayon etishda qolipdan chiqolmaslik, tafakkuridagi to‘ntoqlik, ortiqcha kirish so‘zlarni (anaqa, haligi, nima edi, nima desam ekan, kabi) ishlatish kabi qusurlarning kelib chiqishi teran notiqlik malakalarining zaifligi bilan bog‘liqligi ma‘lum. Maktabdan tortib, akademik litsey va kollej hamda institut va universitetlar, malaka oshirish institutlari o‘quv rejalariga notiqlik san‘ati darsini kiritib, bu darsning o‘quv yurtlarining o‘ziga xos xususiyatlariga qarab uning dasturi va darsligini yaratish juda dolzarb. Chunki Vazirlar Mahkamasining «Akademik litseylar va kasb-hunar kollejarini tashkil etish va ularning faoliyatini boshqarish to‘g‘risida»gi qarorida bir qancha muhim masalalar bilan bir qatorda Davlat ta‘lim standartlarini ishlab chiqish, yangi darslik va o‘quv qo‘llanmalarini yaratish vazifasi ham qo‘yilgan.

Milliy dasturda belgilangan vazifalarni jadal amalga oshirish mustaqil mamlakatimizning buyuk kelajak sari yuksalishini ta‘minlaydigan omillardan ekanligi muhim. Birinchi Prezidentimiz I. A. Karimov Oliy Majlisning XIV sessiyasidagi (1999-yil, 14-aprel) ma‘ruzarida: «Yana bir bor ta‘kidlab o‘tishga to‘g‘ri keladi: amalga oshirilayotgan barcha islohotlarning taqdiri shu masalaga, ya‘ni kadrlar tayyorlashga

chambarchas bog'liqligini biz aniq va ravshan anglab olishimiz lozim. O'zini shu mamlakatning haqiqiy vatanparvari deb biladigan har bir kishi bu Dasturni amalga oshirishga o'z mehnatini, o'z ulushini qo'shadi deb ishonaman», – degan edilar. Chunki bu Dastur O'zbekistonimizning madaniy va ma'naviy yuksalishi borasidagi dasturilamaldir. Bugun biz ziyolilar va barchamiz, xalqimiz va Vatanimiz uchun bunday mas'uliyatni chuqur va izchil anglamog'imiz shart.

2019 yil 20 iyunda O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasida Ijod mahsulotlarining 2018–2019 o'quv yili yakunlari va navbatdagi dolzarb vazifalarga bag'ishlangan ilmiy-amaliy seminarda ta'kidlanganidek, Prezidentimiz tashabbusi bilan Namangan viloyatida Ishoqxon Ibrat, Jizzax viloyatida Hamid Olimjon va Zulfiya, Qoraqalpog'iston Respublikasida Ibrayim Yusupov, Qashqadaryo viloyatida Abdulla Oripov, Farg'ona viloyatida Erkin Vohidov, Andijon viloyatida Muhammad Yusuf nomidagi ona tili va adabiyot fanlari chuqurlashtirilib o'tiladigan hamda chet tillarga ixtisoslashtirilgan ijod maktablari tashkil etilgani davlatimiz tomonidan iste'dodli yoshlarga yaratilgan yuksak g'amxo'rlik namunasi, qolaversa, adabiyotimiz ravnaqi, kelajagi yo'lidagi muhim qadam bo'ldi.

Anjumanda ixtisoslashgan ijod maktablari uchun «Nutq madaniyati», «Ifodali o'qish» singari predmetlar ham o'quv dasturlariga kiritilishi, buning uchun dastur va o'quv qo'llanmalar ishlab chiqishini nazarda tutgan holda adabiyotshunoslar tomonidan keyingi yillarda yaratilgan qo'llanmalardan foydalanish tavsiya etiladi. Shu ma'noda mazkur qo'llanma qayta to'ldirilgan holatda nashrga tayyorlandi.

Ma'lumki, jamiyat madaniy-ma'rifiy taraqqiyotining, millat ma'naviy kamolotining muhim jihatlari notiqlik san'atiga ham borib taqaladi. Shu bois ham mamlakatimizda madaniy-ma'rifiy islohotlarning davlat siyosati darajasiga o'sib chiqishi, farzandlarimizning notiqlik malakalarini oshirish, nutqiy madaniyati masalalariga e'tiborni qaratish har qachongidan ham dolzarblik kasb etmoqdaki, Respublikamizda «Davlat tili haqida»gi, «Ta'lim to'g'risida»gi qonunlar, Kadrlar tayyorlash bo'yicha Milliy dastur va boshqa ko'pgina hujjatlarda ma'naviy-ma'rifiy tarbiyaga, til masalalariga alohida e'tibor qaratilgan.

Fikrimizni o'z ona tilimizda mustaqil, ravon, go'zal va lo'nda ifodalash uchun bizda nutqiy madaniyat, notiqlik yetarli darajada shakllanmog'i kerak. Ayniqsa, o'qituvchining asosiy ish quroli uning nutqi ekanligini

hohga olsak, «Notiqlik san'ati» o'quv fani sifatida nafaqat filolog-  
shunolarga, balki barcha fan o'qituvchilari tayyorlaydigan bilim  
markazlarida o'qitilishi maqsadga muvofiq.

Umuman, yosh avlodda notiqlik qobiliyatini shakllantirish va izchil  
usullarni topish, bu yo'lda samarali usullarni izlab topish va ta'limga  
qaratilishni olimlarimiz va o'qituvchilarimiz o'zlarining asosiy va  
asosiy burchlari ekanligini unutmasliklari lozim.

### **«Notiqlik san'ati»ning predmeti, maqsad va vazifalari**

Notiqlik san'atining predmeti hali tuzilmagan, chiroyli sayqal bilan  
ozlashtirilgan bo'lgan so'z asaridir. Jozibali, teran so'z va gaplarning  
yaxshi nutq orqali ifodalanishi notiqlik san'atining predmeti sanaladi.  
Har bir nutq egasining nutqini kuzatish va tekshirish, undagi yutuq  
va nuqsonlarni aniqlash, har bir ijodkor shoir yoxud yozuvchining  
asarlardagi badiiy notiqlik mahoratini kuzatish, shu yozuvchi yoki  
shoirning og'zaki ommabop nutqidagi notiqqa xos yutuqlarni ko'ra  
olish mazkur fanning predmet obyekti sanaladi. Notiqlik san'atining  
predmeti ko'p. Jumladan, ijtimoiy-siyosiy notiqlik, bunda, asosan, davlat  
va jamiyat ahamiyatiga ega bo'lgan yig'inlarda so'zlanadigan ma'ruza,  
akademik nutq, bunda ilmiy yo'nalishdagi ma'ruzalar, auditoriya  
notiqligi, talaba va o'quvchilar uchun o'qiladigan ma'ruzalar, ijtimoiy-  
mehnatchiy nutq, turli tadbirlarda so'zlanadigan nutq kabilarning ham  
notiqiy kamchiliklarini va yutuqlarini (ham og'zaki, ham yozma  
shaklida) tekshirish jarayoni ham notiqlik san'ati predmeti doirasiga  
kiradi.

Notiqlik san'atining tekshirish obyekti notiq nutqidagi gap  
qurilmalari, u nutqida ishlatgan so'zning qudrati, jozibasi, go'zal ifodasi  
va maltunkorlik xislatlarini aniqlashga qaratilgan bo'lishi lozim. Notiqlik  
san'ati amaliy jihatdan chiroyli nutq tuzishning qonuniyatlari, sirlari,  
qoida normalari, nutqning sifatleri, notiqiy uslubning nozik tomonlarini his  
etish va notiq nutqida uchrashi mumkin bo'lgan nuqsonlar va talaffuzga  
dalo muammolarni hal etish yuzasidan bahs yuritadi. Eng muhimi,  
notiqqa o'z bilimi va dunyoqarashiga suyangan holda to'g'ri va chiroyli  
so'zlash yo'llarini o'rgatadi. Notiqlik san'atining og'zaki, yozma shakllari

mavjud bo'lib, har bir notiqning nutqi o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Bu holat esa notiqning o'ziga xos uslubi bilan o'lchanadi.

Notiqlik san'atining asosiy vazifasi notiq bo'lishga undovchi qonuniyatlarni o'rgatishdan iborat. Biroq hamma ham notiq bo'lavermaydi. Buning uchun bo'lajak notiqda qobiliyat va iste'dod bo'lishi kerak. Chunki u – san'at. Shuning uchun ham ba'zi notiqlar materialni chuqur bilgani holda o'z fikrini erkin nutqi bilan yetkazib berolmasligi, natijada tinglovchilar uni tushunmasligi mumkin. Mohir notiqlar nutqini esa tinglovchilar yaxshi tushunadi. U voqea-hodisa haqida aniq-ravshan va jonli ma'lumot berishi orqali tinglovchi ongiga ta'sir etishi, ularni kuldirishi, yig'latishi va xayolot olamini zabt etishi mumkin. Notiqlik san'atining maqsad va vazifalaridan asosiylardan ham ana shunday no'noq notiqlar kamchiliklarini aniqlash va mohir notiqlar yutuqlarini kuzatish va yo'l-yo'riq ko'rsatishdan iborat. Shu ma'noda notiqlik san'ati notiq bo'lishga undovchi qonuniyatlarni o'rganadigan fandır. Chunki nutqimizda uchrab turadigan nuqson va kamchiliklarni bartaraf etish notiqlik san'ati zimmasidagi umumdavlat ahamiyatiga ega bo'lgan ijtimoiy-siyosiy vazifalardan sanaladi. Shu ma'noda birinchidan notiqlik san'atini yetarli darajada egallash har bir jamiyat a'zosining madaniylik darajasini ham belgilaydi. Ikkinchidan O'zbekiston mustaqilligiga ko'z olaytirayotgan har qanday yo'l unsurlardan himoya qilishda mafkuraviy kurash keskinlashgan holatda yashayapmiz. Notiqlik esa mafkuraviy kurashning asosiy quroli sifatida faoliyat ko'rsatmog'i lozim. Notiqlik san'atining har qachongidan ham o'tkir va keskir bo'lmog'i bugungi kunning muhim talabi.

Yuqoridagi jiddiy sabablardan kelib chiqib notiqlik san'atini kamolot sari yuksaltirishga muntazam g'amxo'rlik qilish lozim bo'ladi.

Notiqlik haqidagi ta'limot uzoq o'tmishga ega. U, avvalo, qadimgi Rim va Afinada shakllangan bo'lsa ham, ungacha Misrda, Assuriyada, Vavilon va Hindistonda paydo bo'lganligi notiqlik tajribasidan ma'lum. U zamonlarda davlat arboblarning obro'-e'tibori va yuqori lavozimlarga ko'tarilishi ularning notiqlik mahoratiga ham bog'liq bo'lgan.

Notiqlik san'ati sarkardalik san'ati bilan teng qo'yilgan. Bungida Demosfen va Sitseronlar hayoti yorqin misol.

Bizning ota-bobolarimiz yashagan hududlarda, avvalo, xalq og'zaki ijodi, «Avesto», «O'rxun-Enasoy» yodgorliklari, Turon zaminining miloddan oldin yozilgan Alp er To'ng'a (VII asr eramizda)

haqidagi dostoni va boshqa yozma yodgorliklari xalqimiz tarixi, ma'naviy iqtisodiy hayoti, madaniyati, tilini o'rganishda muhim manba hisoblanadi. U bilan birga, notiqlikka undovchi materiallarga boyligi bilan o'qituvchilarga ham egadir.

Hollag, bu soha bugunning dolzarb muammosi ekanini sezib qolgan vaqtida keldi. Ko'pgina hollarda (teleko'rsatuvlarda, o'zaro suhbatlarda, o'quvchi va talabalarning mavzu yuzasidan savollarga berilgan javoblarida) yoshlarimizning chaynalib, o'z fikrini ravon ifodalayolmasliklarining guvohi bo'lamiz. Nega? Chunki nutqimizda kamchilik ko'p. Agar rus bolalarining, hatto bog'cha yoki maktab o'qituvchisining televizor orqali bo'ladigan savol-javoblarini ko'rgan bo'lsangiz, ular nutqida tutilmaydi, dovdiramaydi, qiziqimandan? Bizning yoshlardagi qusurga kim sababchi, degan savolga duch kelamiz. Buni bartaraf etish uchun esa oiladan tortib maktabgacha va maktablarda ham bolalarimiz nutqidagi kamchiliklarga e'tibor berish zarur. Birorta so'zni noto'g'ri talaffuz qilsa yoki noto'g'ri ishlatlsa, albatta, erinmasdan ulardagi shu kemtiklikni to'g'rilash lozim. Har qanday odamni gapidan, muomalasidan ko'z olinmasidan, o'zini dadil tutib gapirishidan bilib olish mumkin. «Ish ko'ngilga qancha gap bil», degan ibora bekorga aytilmagan. Albatta, gap ko'rgan odam ishni ham biladi. Ishni bilmasa, u o'sha ish haqida fikr tutmaydi. Bizning ota-bobolarimiz azaldan odamiylikni, qadr-qimmat va mehr-oqibatni har qanday zaru oltinlardan, ma'danu buyukliklardan afzal bilgan. Odamiylik, mehr-oqibat birinchi galda o'qituvchimiz orqali amalga oshiriladi. Insonga Alloh bergan ulug' qadriyatlaridan biri ham shu so'z va so'zlash ne'matidir. Buning o'qituvchilarga yetish muhim fazilat.

## «Notiqlik san'ati»ning boshqa fanlar bilan aloqasi va «Nutq madaniyati»dan farqi

«Notiqlik san'ati» azaldan mavjud ekan, u, albatta, boshqa fanlar bilan munosabatda bo'lib kelmoqda. Notiqlikning asosiy quroli yozma nutqda ifodalanadigan so'z san'ati – badiiy adabiyot bo'lib, u hozirgi o'zbek adabiy tili va o'zbek shevalariga asoslanib ish ko'radi. Chunki nutqning va talaffuzning hamda ohangning to'g'riligi uning asosiy fazilatidir va u grammatika qonuniyatlariga asoslanadi.

Notiqlik san'ati hamma vaqt mantiq va ruhshunoslikka suyanadi. Mantiqqa murojaat qilmasdan turib aniqlik va mantiqiylikni ta'minlash ham, baholash ham mumkin emas. Mantiq so'zlar butun bir gapdan kelib chiqadigan hukm va tushunchalarni belgilaydi. Ya'ni u mantiqiy hukmlar va tushunchalar bilan ish ko'radi. Agar so'zda tushuncha ifodalansa, gapda hukm va fikrlar o'z mavqeiga ega. Mazkur so'z va gaplar bir-biriga qarama-qarshi bo'lmasligi zarur. So'zlardagi ko'p ma'nolilik ham turlicha tushunchalarga sabab bo'ladi. Ba'zan hukm bilan gapda bir-biriga moslasholmaslik holati ham kuzatiladi. Masalan, «Notiq bo'lishni kim xohlamaydi, deysiz?» gapi so'roq gap, inkor shaklida, biroq unda tasdiq hukmi bor.

Talaffuz va ohang orqali ham bunday holatni kuzatish mumkin. O'qishga kirdi. – darak gap; O'qishga kirdi? – so'roq gap; O'qishga kirdi – undov gap. Sinonim so'zlarni ishlatishda ham tushuncha o'zgaradi. Masalan, *visol, jamol, oraz, chehra* kabi so'zlar tushunchasida ijobiy holat *bashara, turq, aft* kabi so'zlar tushunchasida salbiy holat kuzatiladi.

So'zlarning ma'nosi va ifodalanayotgan tushuncha o'rtasidagi munosabatni mantiq tekshiradi. Mantiq – so'zlar, gaplar, birikmalar orasidagi ma'no aloqalarini ta'minlaydi.

Nutq qurilishi o'rinli yoki o'rinsiz bo'lib ko'rinadigan holatlarda ruhshunoslikka murojaat qilishga to'g'ri keladi. Notiqlik bilan ruhshunoslik aloqasida notiq o'z fikrlarini bayon qilishda auditoriyani kuzatishi, har bir tinglovchining kayfiyatini hisobga olib nutq so'zlash

gani. Notiq va tinglovchi o'rtasida samimiy muomala asosiy vazifa bo'lishi kerak. Notiq zarur va muhim gaplarni aytishdan oldin butun tinglovchilarning diqqatini o'ziga qarata olsa, maqsadga muvofiq bo'ladi. Tinglovchilar hamma gapni ham qabul qilavermaydi. Ba'zan gapning boshida gaplardan ehtiyot bo'lish, auditoriyani qiziqtiradigan gapni e'tiborga olib kelish notiqning mahoratiga bog'liq. Ayniqsa, boshqa mavzu va mavzu hodisalarga o'tib ketmasligi kerak. Tilning o'rinsiz qo'llanadigan joylari yoki bu vositasi tinglovchilar ruhiy holatini qay darajada vayron qilishi ruhsunoslik aytib bera oladi.

Shu ma'noda ruhsunoslik notiqning o'z malaka va mahoratini ko'rsatish va mukammallashuvini o'rganishi orqali «Notiqlik san'atiga» yordam berishi mumkin.

Bulardan tashqari «Notiqlik san'ati» nafosat haqidagi fan bo'lib, tarix bilan, badiiy adabiyot, adabiyotshunoslik, tilshunoslik, adabiyot nazariyasi va adabiy tanqid bilan ham aloqadordir.

Oliy va o'rta maxsus ta'lim o'quv dargohlarida 90-yillardan buyon «Nutq madaniyati» fanini o'rgatish ko'zda tutib kelinmoqda. Bunday o'quv reja asosida notiqlik san'ati va nutq madaniyati aralash-quralash o'qatilmoqda. Biroq bu ikkala fan bir-biriga yaqinday tuyulgani bilan, farqida, o'zaro farqlanadi. Bu holatni ularning fan sifatida shakllanishi jarayonini kuzatish orqali ham o'z oldilariga qo'ygan vazifalari, maqsadi, predmeti, tasvirlash obyektlariga xos bo'lgan xususiyatlarida ham kuzatish mumkin.

Notiqlik qadimiy davrdan beri alohida mahorat, san'at sifatida muayyan aniq shaxsdagi noyob qobiliyatdir. Shu ma'noda notiqlik va nutq madaniyati orasida bog'liqlik bo'lsa-da, har qaysisi o'ziga xosligi bilan farqlanadi. Bu haqda professor E. Begmatovning (Qung'urov E., Begmatov E., Tojiyev Y., «Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari» Toshkent: O'qituvchi, 1992-y.) fikrlarini keltirib o'tish o'rinlidir:

1. Nutq madaniyati, chinakam ma'noda adabiy til bilan bog'liq hodisadir. Uning paydo bo'lishi lisoniy asosi, talab va mezonlari adabiy til va uning mezonlari bilan bog'liqdir. Notiqlik san'ati uchun bular asosiy belgilar emas. Notiqlar orasida adabiy til talablariga to'la amal qilmaydiganlar, ma'lum lahja yoki shevada ham chinakam notiqlik san'atini namoyish qiluvchilar uchraydi. So'zga chechanlik, notiqlik til materialining xarakteriga qarab emas, nutqning ta'sirchanligiga, nutqiy san'atga qarab belgilanadi.



2. Notiqlik – bu nutqning og‘zaki shaklidir. Notiqlik san‘ati – og‘zaki nutq san‘atidir. Nutq madaniyati esa nutqning ham og‘zaki, ham yozma shakli uchun taalluqli tushunchadir.

3. Nutq madaniyati jamiyat a‘zolarining umumiy nutqiy faoliyatini ko‘zda tutadi. Nutq madaniyati sohasining maqsad va pirovard orzusi barchaning, butun xalqning nutqini madaniylashtirishni mo‘ljallaydi. Klassik ma‘nodagi notiqlik esa alohida shaxslarning nutqiy mahoratini, san‘atini ifodalaydi. Notiqlik, asosan, nutq vositasida kishilarga muayyan g‘oya va maqsadlarni yetkazishni, ularni ma‘lum maqsadga safarbar qilishni ko‘zda tutadi. Ya‘ni notiqlik san‘atida tinglovchilarni ma‘lum maqsadga jalb qilish asosiy o‘rin tutadi. Shu sababli ham professor V. D. Kudryavsyev notiqlik nutqiga shunday izoh beradi: «Har qanday og‘zaki nutq notiqlik nutqi bo‘lib, u nimanidir tushuntirish va isbotlashningina emas, balki tinglovchilar tushunchasiga ta‘sir etishini ham maqsad qilib oladi» (Кудряцев В. Д. Основы ораторского искусства. Иркутск, 1966. С. 3).

4. San‘atkor notiq nutqi, asosan, ko‘pchilik tinglovchiga, keng auditoriyaga mo‘ljallangan bo‘ladi. Notiqni birdan ortiq shaxslar tinglaydi. Nutq madaniyati mana shunday tinglovchilardan tashqari kishilar orasida odatiy suhbatlarni, yakka kishiga qaratilgan nutqlarni ham o‘z ichiga qamraydi.

5. Har bir kishi ona tilining imkoniyat va boyliklarini yaxshi egallagan, nutq madaniyati talablariga javob beradigan so‘zamol shaxs bo‘lishi mumkin. Ammo har bir shaxs ham san‘atkor ma‘nosidagi notiq bo‘lmasligi, bo‘la olmasligi mumkin. Lekin adabiy tildan foydalanuvchi har bir notiq nutq madaniyatidan xabardor bo‘lishi shart. Bu o‘rinda T. A. Degterevaning ushbu fikrlarini keltirib o‘tish o‘rinlidir: «U (maktab – E. B.) kelajak so‘z san‘atkorlarida nutq madaniyati asoslarini shakllantiradi. Birorta yozuvchi ham, birorta siyosiy va ilmiy asarlar muallifi ham, notiqlik san‘atining birorta dahosi ham yo‘qki, nutq madaniyatining maktab beruvchi tayyorgarligidan o‘tmagan bo‘lsin» (Дегтерева Т. А. Становление норм. литературного языка. – М. 1963. С.170).

6. Nutq madaniyati ko‘pchilikni, keng xalq ommasini ko‘zda tutish ko‘ruvchi sohadir. Bu ma‘noda nutq madaniyati keng omma uchun mo‘ljallangan talabdir, ammo «notiqlik – bu, avvalo, qobiliyat shaxsiy qobiliyatdir» (Jalolov H. S. M. Kirovning notiqlik mahorati

Ushbu ma'lumot (O'zbekiston, 1981). Alohida san'atkorlik ma'nosidagi notiqlik (klassik ma'noda) nutqiy san'atni, nutqiy go'zallikni hisobga olmaydi. Nutq madaniyati esa kishilarning barchasini san'atkor, notiqlikni ko'zda tutmaydi. U, asosan, ona tilida yoki o'zga bir tilda o'qish, madaniy gapira olish va yoza olish faoliyatini tarbiyalashni maqsad qilib oladi. Shu sababli to'g'ri va mazmunli so'zlovchi barcha kishilar ham hali san'atkor notiqlikni da'vo qila olmaydi. Fikrimizning asosini uchun A. N. Kunitsinning «Lektorning notiqlik san'ati haqida» asaridan A. V. Lunacharskiyning notiqlik qobiliyati haqida aytilgan ibroya qilingan ushbu o'rinlarni keltiraylik: «1925-yili Rossiya Akademiyasi yubiley sessiyasiga butun ilm olamidani vakillar qatnashadi. U (Lunacharskiy – E. B.) bular oldida rus fanining shuhratini o'z ko'z qildi. Maorif xalq komissari Lunacharskiy 1917-yildan boshlab yetti yetti yarim yil davrida Rossiyada erishilgan fan yutuqlari haqida ma'ruza qildi. U bilardiki, ma'ruzani turli millat vakillari tinglaydilar. U o'z ma'ruzasini rus tilida boshlaydi, nemis, ingliz, fransuz, italyan tillarida davom ettiradi va sof klassik lotin tilida davom ettiradi. Hamma hayratda qolgan edi. Tinglovchilarning hech biri uning uddasidan chiqolmasdi. Parij gazetalaridan biri keyinchalik uning haqida shunday yozdi: «Dunyoda eng ma'rifatli maorif ministri bo'lganidir» (Куницын А. Н. Об ораторском искусстве лектора. М., 1969. С.11).

7. Nutq madaniyati – bu faqat nutq haqidagi nutqiy faoliyatga bog'liq tushuncha va soha emas, u til madaniyati bilan ham, ya'ni adabiyot va uning normalarini o'rganish va bu normalarni qayta ishlash ishi bilan ham shug'ullanadi. Notiqlik san'ati esa bunday ilmiy-normativ faoliyatni ko'zda tutmaydi.

8. Notiqlik ko'proq nutqning mazmuniga, mantiqiy asoslariga, tashkiliy tuzilishga e'tibor qiladi, nutq madaniyati sohasi esa ko'proq nutqning til qurilishi – lisoniy tuzilishiga e'tibor qiladi.

9. Notiqlik, asosan, aniq bir shaxs – notiq yoki guruhlar – notiqlik haqida qayg'uradi. Bunda u notiqni tinglayotganlar, ya'ni notiq ma'noda tinglovchilar ommasi nutqini ham ko'zda tutmaydi. Nutq madaniyati esa bundan farqli ravishda umuman kishilarning notiqiy faoliyatini, nutq madaniyatini ko'zda tutadi. Shu sababli nutq madaniyati maqsadiga ko'ra va nutqiy faoliyati nuqtai nazaridan keng maqsadli soha, notiqlik esa tor sohadir.



10. Notiqlik san'ati notiq uchun oldindan qanday so'zlash asosi va rejasini bermaydi va bu tip nutq doimo ham oldindan tayyorlangan tayyorgarlik ko'rgan nutq emas, nutq madaniyati sohasi esa jamoat a'zolarini ona tili, ya'ni adabiy til boyluklari va vositalaridan maqsadli muvofiq, sharoit va uslub taqozosi talabiga ko'ra o'rinli foydalana olinadigan ko'nikmasini beradi. Bunday ko'nikma, aslida, har qanday san'at uchun notiq uchun ham zarur.

II. Notiqlik va notiqlik san'ati haqidagi fan ancha qadimiy tariqaga ega, nutq madaniyati ilmiy muammo va ilmiy soha sifatida hali yangi va yoshdir. Professor E. Begmatovning yuqoridagi fikrlariga xayit qo'shilgan bo'lganimiz holda har ikkala fanning bir-biriga yaqinligidan tashqari alohida xususiyatlarga ham ega ekanligi, ularning alohida alohida fanlar sifatida faoliyat ko'rsatishiga imkoniyat beradi. Notiqlik san'ati va nutq madaniyatida yaqinlik na farqlarni etika va estetika fanlari bilan qiyoslash mumkin.

### **Qadimgi Yunon va Rim notiqligi tarixi**

Qadim zamonlardan beri jamoat oldida so'zga chiqib, odamlar o'z fikrini tushuntirish, ular ongiga ta'sir etib, o'z ortidan ergashtirib, biror narsa, voqea, hodisa haqida gapirganda ishontrish va isbotli berishga intilish insonlar orasidan so'zamol notiqlarning chiqishiga zarurat tug'dirgan hamda notiqlik san'atining paydo bo'lishiga sabab bo'lgan. Buning uchun esa, avvalo, ma'lum ijtimoiy sharoit va muhit zohir bo'lishi lozim edi. So'z erkinligi ana shunday sharoitlardan muhtaj sanaladi. Qadimgi Yunonistonda demokratiya tuzumining o'rnatilishi natijasi o'laroq, xalq yig'inlarida, senat kengashlarida davlat ishlaridagi sud ishlarida mamlakatning har bir ozod kishisi erkin nutq so'zlash huquqiga ega bo'lgan.

Davlat ishlarini boshqarishda qatnashishni istagan, lashka boshilikni xohlagan har bir kishi uchun chiroyli va ta'sirchan nutq so'zlash san'atini egallash majburiy bir ehtiyojga aylangan. Bunda shaxslar xalq yig'inlariga to'plangan odamlar oldida nutq so'zlab yutuq yoxud mag'lubiyat quchganlar. Ular orasida so'zga chechanlari, keskin dalillar bilan xalqni ishontrib, odob bilan so'zlagan davlat arboblari xalq nazariga tushib, yanada obro' orttirganlar, gapni eplab gapir olmaganlari esa xalq nazaridan qolganlar. O'sha davr notiqligi haqida

bu davr yozuvchilarining guvohlik berishlaricha, Femistokl va Afina demokratiyasining yo'lboshchilari bo'lishlari bilan bog'liq ahvolda kuchli notiq bo'lganlar. Afinada notqlik san'atining rivoj topishiga sud tartibot qoidalarining ham kuchli ta'siri bo'lgan. Dika davr sud majlislarida sudlanuvchi yoki da'vogar o'z qoida bahonchli isbotlar asosida gapira olishi lozim bo'lgan. Biroq sudlanuvchilarda bunday so'zga chechanlik qobiliyatiga ega bo'lganlar uchun bo'lmagan. Demak, ularga maslahat berib ko'maklashadigan, maslahat berishdan sudda gapirishi kerak bo'lgan gaplarni yozib berganlik riddo shaxslarga ehtiyoj paydo bo'ladi. Natijada qadimgi Yunonistonda «logograflar» deb ataladigan, tajribali, qonunni biladigan shaxslarga ehtiyoj tug'iladi. Logograflar esa sudda qatnashayotgan notiq va da'vogarlariga nimani gapirishi lozimligini yozib berganlar bo'lgan. Ular qatnashuvchilarning qatnashuvchilarni chiqarish hisobiga qalam haqi olib kun kechira boshladilar. Logografiyaning tirikchilik vositasiga aylanishi notqlik san'atining rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Dastlab «Notqlik san'ati»ning asta-sekin rivojlanishi va sud notqligi vujudga keladi, keyinroq mashhur voqealarni, masalan, sudlarni madh qiluvchi epidektik notiqalar maydonga keladi.

Afinada eramizdan oldingi V asr o'rtalarida notqlik san'ati rivojlangan bo'lsa-da, adabiy faoliyat o'rnida qabul qilinmagan va u notqlarning matnlari bosilmagan.

U notqlar san'atini ilk bor adabiy janr darajasiga ko'targan hamda notqlikka asos solgan yundoshgan kishilar sofistlar hisoblangan. Ular o'zlaridan oldin notqlarning faoliyatlarini nazariy asoslashga kirishib, «Ritorika» san'atini yaratadi. Oldin notqlarni «Ritor» so'zi bilan atashib, so'ngra notqlik san'atidan saboq o'rgatuvchilarni «Ritor»lar deb ataydilar.

«Ritorika» san'ati oroli ritorikaning asl vatani hisoblanadi. U joylarda V asr o'rtalariga kelib demokratiyaning yo'lga qo'yilishi notqlik taraqqiyoti bilan bog'liq bo'ldi. Qadimgi yunonlar sotsialistik Korak hamda Tisiylarni sofistlikning asoschilari deb tan olganlari holda, ulardan deyarli hech biri yotib kelmagan. Biroq ularga vatandosh bo'lgan sofist Gorgiy (427-376)ni ritorikaning birinchi namoyandasi deb bilishgan. Gorgiyning (Antik adabiyot tarixi, T.: O'qituvchi, 1969) asoschilikiga ko'ra: «Gorgiy 427-yilda o'z shahri Leontina uchun harbiy xizmatda bo'lib maxsus elchi sifatida Afinaga keladi va xalq majlisida notqlik san'ati bilan Afina yoshlarida juda kuchli taassurot qoldiradi.

Shundan keyin ko'p o'tmay Gorgiy butunlay Afinaga ko'chib kelib, shu yerda ritorika maktabi ochadi va o'z shogirdlariga so'z san'atini o'rgatib barobarida notiqlik bilan ham shug'ullanadi. Gorgiy, asosan, mifologiya ma'ruzalarida tantanali nutqlar so'zlagan, uning nomi ostida bir qancha qadar «Yelena» va «Palimed» sarlavhali ikkita yozma nutq yetib kelgan. Gorgiyning aytishicha, notiqlarning eng muqim vazifasi tinglovchilarni ishontirish, uni maftun etish, rom qilishdir. Maftun etishning asosiy vositasi sifatida yozuvchi birinchi o'ringa uslubni qo'yadi va shu maqsad bilan o'zining asarlarida «go'zal» uslubning namunasini namoyish qilmog'chi bo'ladi. Agar siz Gorgiyning asarlarini ko'zdan kechirasangiz, bu odam tashviq etgan «fusunkor» uslubning faqatgina jimjimada tashqi bezaklardan, tamtaroqli balandparvoz iboralardan boshqa narsa emasligiga aslo shubhangiz qolmaydi. Darhaqiqat, notiqlarning bir qancha qadar yetib kelgan asarlarida tantanali epigraflar, majoziy ifodalar haddan tashqari ko'p uchraydi. Yozuv hatto jummalarni ham bo'g'ib bo'g'inglarga bo'lib, ularning har birini bir xil uzunlikda to'qiydi va har qaysi jumlaning oxirini bir-biriga o'xshash qofiyadoshroq so'zlar bilan tugatadi. Qadimgi yunonlar Gorgiyning usulini «jimjimador uslub» yoki avtorning nomiga nisbat berib «Gorgiy uslubi» deb ataganlar (199 bet).

Gorgiyning bu uslubi zamondoshlariga yoqib qolgan va o'ta kuchli ta'sir uyg'otgan. Shuning uchun ham uning ijodi uzoq yillar notiqlik prozasining asosiy namunasi sifatida mashhur bo'ladi.

Ellinizm davrining olimlari Afinada yashab ijod etgan notiqlardan o'nta notiqni mashhur va ulug'laridan deb, ritorika ilmini o'rganishda ularning asarlaridan foydalanishni afzal bilganlar. Shuning uchun bo'lsa Demokrit, Antifont, Andokid, Lisiy, Isokrat, Isey, Likurg, Demosfen, Esxil, Giperd va Dinarxlarning asarlari bizgacha yetib kelgan.

### **Lisiy (taxminan 459–380)**

Afinada yashab ijod etgan mashhur notiqlar orasida eng ko'p o'qilgan va ko'p qatnashgan mo'tabarlaridan sanalgan sitsilyalik Lisiydir. Uning otasi Periklning taklifi bilan Afinaga kelib, shu yerda yashab qoladi. Uning oilasi o'ziga to'q xonadonlardan bo'lishiga qaramay, kelgindi bo'lgani sababli Afinada fuqaroligini ololmaydi. Peloponnes urushida Afinada yengiladi. Natijada demokratiyaning tarafdorlaridan sanalgan Lisiyning aka-

...ladi, o'zi esa zo'rg'a qochib qoladi. 403-yilda demokratiya  
...lengach, Lisiy yana Afinaga kelib, logograflik bilan mashg'ul

...logi yunonlarning fikriga ko'ra, Lisiy butun ijodi davomida uch  
...yiqin nutq yozgan. Shundan bizgacha sud nutqlaridan iborat

...ttasi saqlanib qolgan.  
...logograflik kasbi davomida unga ishi tushib kelgan kishilarning  
...littirishdan oldin, ularning dunyoqarashini, psixologiyasi va  
...rhuqar o'rganib, keyin ularga o'z qo'llaridan va tillaridan  
...ay qilib nutq yozib beradi. O'sha paytda Afina sudida ishtirok  
...kishilarning ko'p qismi davlat qonunlaridagi murakkabliklarni  
...tushunmaganlar. Juda ko'pchiligi tahsil ko'rmagan kishilar  
...bu sababli ular so'zga chechan, so'zamol odamlarning sud  
...alday ketishlaridan cho'chishib, ilmoqdor va balandparvoz  
...ga yomonshab qarashgan.

...larga kimdir bu so'zlarni to'qishda yordam bergan bo'lishi  
...dey qarashgan. Ikkinchidan, logograflardan yordam istab  
...lar orasida turli tabaqa vakillari, turli kasb egalari bo'gan.  
...u uchun ham Lisiy nutq yozib berishdan oldin undan yordam  
...belgan buyurtmachini o'rganadi. Shundan keyingina u odamga  
...y kelib chiqishiga, jamiyatda tutgan o'rniga, shaxsiy xarakteri  
...atiga moslab nutq yozib bergan. Lisiyga murojaat etayotgan  
...qar qishloqdan kelgan oddiy bir dehqon bo'lsa yoki shaharda  
...a ham o'rtacha dunyoqarashga ega bo'lsa, unday odamlar  
...y qo'ra va iboralarni, murakkab qonundagi kerakli boblarni isbot  
...ishonarli nutq so'zlashi qiyin va buning iloji yo'q. Agar nutqni  
...sunda oddalay olsa, nutqning soxtaligi bilinib qolishi tabiiy hol.  
...atkorligining asosiy siri shundaki, u nutq yozishga kirishar  
...bir maqsadni ko'zlaydi, u ham bo'lsa sudda gapirayotgan kishi  
...sud hay'atlari ko'nglida ishonarli taassurotlar qoldirish,  
...shuning har bir gap-so'zlari qalbidan chiqayotgan samimiy  
...shoniga ishonтира olishidir. Lisiy buyurtmachilari orasida  
...u'riga bino qo'ygan dimog'dor shaxsmi, tiyinni tiyinga urib  
...ko'raman deb yurgan xasis olib sotarmi, xotini izmida yurgan,  
...ri bo'lmagan laqma ermi yoki shallaqa ayolmi, maqtanchoqmi,  
...mi yoxud sodda omi insonmi, kim bo'lishidan qat'i nazar - Lisiy  
...ng har biri xarakter xususiyatiga, tabiatiga, bilimi va jamiyatdagi

mavqeiga mos keladigan o'z nutqi bilan tinglovchilarni ishonitirish uslubni topadi. Shuning uchun ham Lisiy yozgan nutqlar hammasida so'zlovchining tabiatiga mos gaplar o'rin olgan bo'lsa ham Lisiy uslubiga xos husn va latofat ham nutq tilining sodda, aniq fikrning lo'ndaligida ko'rinadi. Lisiydagi bu mahorat, ya'ni har bir o'z tiliga, o'z tabiatiga mos gapirtirish, gapiruvchining qiyofa to'la ko'rsata olish yunon tarixida o'tgan logograflarning birontasi uchramaydigan hodisa. Bu borada Lisiyga ulardan birortasi ham teng kelmaydi. Ularning Lisiydan farqli tomoni shunda edi, o'zlari yozib bergan nutqlarni ko'plab dalillar bilan to'ldirgan bo'lsa, shu dalillar asosida joy-joyiga qo'yib, da'voni isbotlashga, nutq shaklining chiroyli bo'lishiga ortiqcha e'tibor qaratganligida, o'z so'zlovchining tabiatini hisobga olmaganligida.

O'sha davr sud qoidalariga ko'ra sudlanuvchilarning nutqi qismdan tashkil topgan. Ular nutqlarini sud hay'atiga murojaat boshlagan va shu orqali hay'atning iltifotiga ergashishga urinishgan. Nutqlarining asosiy qismida esa voqea-hodisalar tafsilotini aniq va ravshan hikoya qilishga, nihoyat nutqining yakunida aytgan gaplarni to'g'riligiga, dalillarga ishonitirishga uringan. O'ziga raqib bo'lgan tomonlarning dalillarini puchga chiqarib, o'zining haq ekanligini mumkin qadar ishonitirishga bor kuchini sarflashgan.

Lisiyga qadar va undan keyin o'tgan logograflar yozib bergan nutqlarida bor kuchni nutqning kirish va xulosa qismiga berib, asosiy hikoya qilib beriluvchi bayonot qismiga ko'proq e'tibor qaratmagan bo'lsa ham Lisiy esa ulardan farqli o'laroq, butun fikrni kirish va xotima qismiga sarflamasdan, notiqlik mahoratini ko'rilayotgan ishning, ya'ni voqea-hodisalarning tafsilotini sodda va aniq, ravshan hikoya qilishga qaratadi. Lisiy yozgan nutqning bayonot qismidagi nafisligi kam bo'lsa ham logograflarga nasib etgan. Lisiy voqealar bayonini yozganida oddiy so'zlar orqali qisqa va lo'nda hikoya qilish yo'lidan borib, da'va va da'volarni bayonotga yog'day singdirib yuboradi. Natijada bitilgan nutq qanchalik sodda bo'lmasin, shu sodda nutq tagida yashirin yotgan tabiiy holat va samimiyat tinglovchilar qalbiga yetib boradi. Oqibatda hay'at a'zolari ko'nglida ham gunohkorga nisbatan rahmdillik kayfiyatini uyg'otadi. Bu o'rinda bir misolga fikrimizni qarataylik. Eratosfen ismli shaxsning Evfilet tomonidan o'ldirilishi haqida yozilgan majlisida bu holat yaqqol seziladi. Mazkur ish yuzasidan gunoh

Uning yolg'iz qotil Evfilet hay'at a'zolariga o'zining shaxsiy hayoti haqida hikoya qilib beradi. U uylanganining dastlabki yillarida xotuniga ishonolmay yuradi. Birinchi farzandi tug'ilgandan keyin xotuniga ishonchi va mehri ortadi. Xotinini ko'p tergamay qo'yadi. Uning kestarida Evfiletning onasi olamdan o'tadi. Dafn marosimida Evfiletning nigohi Evfiletning go'zal xotiniga tushib, unga yetishish uchun yo'l topib oladi. U maqsadiga erishish uchun Evfiletning uyida yashay boshlaydi. Uning qiladigan qizni qo'lga oladi. Qizning ko'magida Evfiletning xotini topib oladi. Evfilet esa xotinining xiyonatini sezmasdan davom etib yashayveradi. Shunday kunlarning birida notanish bir ayol Evfiletning sirlaridan ogoh qiladi. Ayolning gaplariga qaraganda, Evfilet bu ayolning ham bekasini yo'ldan urgan va tashlab ketgan. Evfiletning xotini eshitgan Evfilet uyidagi oqsoch qizni qistovga olib qistovga bo'lib chiqadi. Shundan so'ng Evfilet Eratosfen bilan Eratosfenning yordamini o'z yordamini ochishda cho'ri qizdan yordam olish uchun Eratosfenning yordami badaliga uning gunohidan kechishga va'da beradi.

Uning yordamida Evfilet oqsoch qizning xabariga ko'ra raqibini qo'lga oladi. Uning yordamida Evfilet qo'ni-qo'shnilaridan guvoh sifatida foydalangan Eratosfen bilan birga xotinining yotog'iga bostirib kiradi va Eratosfenni Eratosfenning uyida qo'lga olib, uni o'ldiradi.

Uning yordamida Evfiletning tabiatiga mos nutqni yozgan. Evfiletning soddalik bilan birga bo'lsa-da laqmaligini hisobga olgan, biroq vaqti kelganda Eratosfenning yordamida hech narsadan qaytmasligini, darg'azab qasoskorga qasos olishni ko'rsata oladigan nutq uslubini topgan. Evfiletning Eratosfenning yordamida aytdigan hikoyasini eshitgan har bir tinglovchi voqeani Eratosfenning yordamida ko'zlarini bilan ko'rgandek his etib, shohidlar safiga xayolan Eratosfenning yordamida sozmay qoladi. Bunday o'ylab qaralsa, aldangan er, uning Eratosfenning yordamida ko'zlarini, begona ayollarni yo'ldan uradigan olg'ir va olifta yigit, Eratosfenning yordamida qo'ldan chiqarilgan qisqich qizning qiyofasi ko'z o'ngimizda Eratosfenning yordamida bo'ladi.

Uning yordamida bitilgan har bir nutq sud minbaridan turib Eratosfenning yordamida qonunshunosning safsata gaplari emas, balki, mohir Eratosfenning yordamida qalamiga mansub bir asar sifatida ahamiyatli. Uni ijro etayotgan Eratosfenning yordamida sud minbari sahnasida rol ijro etayotgan aktyorni eslatib, Eratosfenning yordamida o'qishchilar ongiga hikoyasini singdirib, ular qalbini jo'nubushga Eratosfenning yordamida beradi.



Yunonlarda notiqlik san'atining quloch yoyishi sud notiqlikdan so'ng harbiy notiqlik va siyosiy notiqlik kabi notiqlik turlarining o'tmay epideyktik-tantanali notiqlikning paydo bo'lishiga olib ketadi.

Epideyktik notiqlikda balandparvoz so'zlar ishlatilar, shu bois bu bunday nutq matnini tayyorlash anchagina izlanishni talab qiladi. Natijada logograflar o'zlaridan oldingi voizlarning merosiga va og'zaki ijodiga murojaat eta boshladilar. Shu tariqa chiroyli so'z san'ati asta-sekin shakllanib, badiiy adabiyotning rivojida muhim ahamiyat kasb etdi. Ya'ni tragediya, komediya va roman janrlarining tug'ilishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Eng muhimi, notiqlik san'atining rivoji adabiy tilning shakllanish shuningdek, notiqlik san'ati nazariyasi bo'lmish « ritorika » ilmi vujudga kelishiga sabab bo'ldi. Rimdagi barcha shoirlar va notiqlar maktabda, ya'ni ritorika maktabida ta'lim olganlar.

Notiqlar tomonidan yaratilgan **nutq matnlari** nasriy va poetik **namunasi** sanalgan. Bunday **ijodkor notiq**larning nomi o'z manzab doirasidan chiqib, jahonga ma'lum va mashhur bo'lgan. Aristotel Demosfen va Sitseronlar shular jumlasidandir.

### **Aristotel (384–322)**

Markaziy Osiyoda Arastu nomi bilan mashhur bo'lgan Aristotel eramizdan avvalgi 384-yilda Stag'irda (Makedoniya yarim orol) shifokor oilasida dunyoga keldi. Uning otasi Nikomax Aleksandriya Makedonskiyning nabirasi podsho Aminti II saroyida shifokorlik qilgan.

Aristotel 17 yoshida Afinaga keladi va bu yerda o'z zamonasining mashhur olimlaridan bo'lgan Platonga shogird tushadi. Platoning vafotidan so'ng Aristotel 347-yili Afinadan Troad tomon o'tib, Assos boradi. Chunki bu yerda ustozning tarafdorlari ko'p edi. Unga, aydinlik zo'ravon, zolim Germiy homiylik qiladi. Aristotel Germiy vafotidan so'ng Lesbos yarim orolidagi Mitilen shahriga ko'chib o'tadi va u yerda 342-yilgacha yashaydi. 342-yili Makedoniya podshosi Filipp o'zining Aleksandr nomli 13 yoshli o'g'lining tarbiyasi uchun Aristotelni Mitilendan chaqirib oladi. Bu yerda u falsafa maktabini ochadi va kutubxona tashkil qiladi.

Bu asarda Gretsiyada chiroyli so'zlashga qiziqish kuchayib ketgan davrda qator notiqlik maktablari ochiladi. Bu maktablardan so'z ustalari yetilish chiqar edi. Keyinchalik chiroyli so'zlash haqidagi maktablar maydonga keldi. Shunday asarlardan biri Aristotelning asosiy nomli kitobidir. Buyuk olim uni mashhur «Poetika» nomli kitobining ya'ni darslikdan oldingi 330-yillarda Afinaga so'nggi asar sifatida yozgan edi.

Kitobni, umqacha Anaksimn, Lampsak ham «Ritorika» nomli asarlar yaratgan edi. Bu ikki asar bir-biriga tamoman o'xshamaydi. Birinchi kitobida qo'llanma bo'lsa, ikkinchisi chiroyli so'zlash haqidagi ilmiy mulohazalardan iborat.

Aristotelning «Ritorika»si uch kitobdan tashkil topgan. Asar-ning birinchi va ikkinchi kitoblari, asosan, chiroyli so'zlash, shuningdek uslublari haqidagi fikr va mulohazalardan iborat. Uchinchi kitobida nutq mantig'iga juda katta ahamiyat berilgan. Ushbu kitobning fikricha, 110 xil tildagi turli qorishmalar, ya'ni so'zlarning noto'g'ri va noo'rin talaffuz qilinishi, jummalarning noto'g'ri tuzilishi so'zlovchining katta xatosidir. Aristotel so'zlovchining asosiy fikrini ifodalashga qaratilishi, ravn va uslubni tushunadigan darajada sodda bo'lishini talab etadi. U uslubni mantiqiyot bilan so'zlashi mulohaza yuritayotgan fikrning uslubini qalbiga tez yetishida muhim omil bo'lishini alohida ta'kidlaydi. Bundan tashqari, Aristotel notiqning auditoriyani o'ziga jalb qilish uchun hazil-mutoyiba so'zlar bilan lirik chekinish uslubini tinglovchilarni hayajonlantira bilishi zarurligini, agar turli uslubdagi qurollardan foydalansa, xar xil epitet, chog'ishtirish, shiforalar qo'llansa, nutqning ta'sirchanligi yanada oshishini, shuningdek keltirilgan misollar ko'payib ketib, tinglovchini zeriktirib qo'yishi kerakligini ham ta'kidlaydi.

Aristotel notiqlik san'atini egallashni 5 qismga bo'lib o'rgatadi.

1. Materialni kashf etish (har tomonlama tayyorlash).
2. Materialni joylashtirish shakli (rejasi).
3. Materialni eslab qolish (o'zlashtirish).
4. Materialni so'z yordamida to'g'ri aks ettirish.
5. Materialni to'g'ri talaffuz etish.
6. Aristotelning fikrlari hozirgi kunda ham o'z qimmatini saqlab

## Demosfen (384–323)

Umrini ona vatanining gullab-yashnashiga bag'ishlagan davlat arbobi, mashhur notiq Demosfen eramizdan oldingi 384-yili Atina o'ziga to'q oilada dunyoga keldi. Uning otasining ismi ham Demosfen bo'lib, qurol-yaroq ustaxonasining egasi edi.

Bo'lajak notiq 5 yoshga to'lganida otasidan ajraladi. Demosfen bilan singlisiga otadan katta meros qoladi. Bolalarning tarbiyasi merosi vaqtincha tog'asiga topshiriladi. Tog'a esa barcha boyligi qo'lga kiritib olgach, bolalarning tarbiyasi bilan qiziqmaydi. Natijada Demosfen juda nimjon va kasalmand bo'lib o'sadi.

Demosfen voyaga yetgach, tog'asi unga faqat qullari, uyi va boshqa jihozlarini hamda pulning ma'lum bir qisminigina berib aldaydi. Demosfen tog'asidan mol-mulkning qolganini yaxshilik bilan qaytarib berishini so'raydi. Biroq tog'a bundan bosh tortganidan keyin u qolgan merosini sud orqali undirib olishga qaror qiladi. Sudda muvaffaqiyat qozonish uchun Afinaning davlat qonunlarini yaxshi bilish, shu bilan birga, ravon so'zlash, da'vosining to'g'riligini kishilarni ishontirish kerak edi. Shu sababli Demosfen notiqlik san'atini o'rganish uchun o'z davrining meros ishlari bo'yicha mashhur advokati Isey maktabida ta'lim olishga majbur bo'ladi. U to'rt yil davomida qunt bilan o'qiydi va bu davrda ko'pgina yozuvchilarning asarlari bilan tanishib chiqadi. Ayniqsa, mashhur tarixchi Fukidid (eramizdan oldingi V asrda yashagan Afina tarixchisi va davlat arbobi. U Pelopon urushida ishtirok etgan va uning tartibini yozgan) va faylasuf Platonning tanlangan asarlarini puxta o'rganadi. Bo'lajak notiq Fukidid asarlarini sakkiz marotaba qayta ko'chirib yozib, uni deyarli yoddan o'zlashtiradi.

Demosfen o'qishni tugatgach vasiylari bilan sudlashadi. Sud besh yil davom etadi. Bir necha yil surunkasiga bo'lgan kurash bo'lajak notiqning xarakterining toblanishida, bir so'zli va matonatli bo'lishida katta rol o'ynaydi.

Yoshlik chog'laridayoq ko'pchilik oldida so'zga chiqishni orzu qilgan yurgan Demosfen o'qish yillarida o'qituvchisi bilan sud majlislariga qatnashadi.

Demosfen notqlik bilan shug'ullanishdan avval o'z ustozini yo'lidan borib, boshqalarga sudda so'zlanadigan nutqning matnini yozib beradi.

Uning uchun yaxshiligina haq olar edi. Bora-bora nutqiy matnlar Demosfeni qoniqtirmaydi. U otashin vatanparvar sifatida o'z vatanini Vatani Vatan ravnaqi uchun sarflashni orzu qiladi.

Uning «alq» oldidagi birinchi nutqi ayanchli holda: to'polon, qo'ng'ir, hashak chalib masxaralash bilan qarshi olinadi. U o'z nutqini minbardan tushishga majbur bo'ladi.

Uning nutqining bunday ayanchli tugashi tabiiy edi, chunki Demosfeni nutqida past bo'lib, biroz duduqlanar, «r» harfini talaffuz qilishda qoldirib, mujmal gapirar edi. Bulardan tashqari, uning nutqida qamratib turadigan odati ham bo'lib, ko'pchilik orasida o'zini ko'rsatib bittas edi.

Uning nutqidan birida Demosfen o'zini ikkinchi bor sinab ko'rdi. U bu safar ham muvaffaqiyatsizlikka uchraydi. Shundan so'ng Demosfen o'z nutqidagi kamchiliklarni boshqa takrorlamaslik bilan qamratib bosh qotiradi. Har kuni bir necha soatlab noto'g'ri so'zlar ustida qayta-qayta mashq qiladi. Hatto bu so'zlar olib, qattiq va ravon gapirishga harakat qiladi. Demosfeni to'g'ri talaffuz etish maqsadida kuchuk bolasining yordamiga boradi va o'zi ham xuddi shu tovushni qaytaradi. Nihoyat, Demosfeni talaffuz qilishda mashqlardan so'ng, Demosfen o'z maqsadiga erishadi. Ammo, shunga qaramay, u Demosfeni tayyorgarliksiz nutq so'zlamas, oldindan yozib qo'yilgan nutqni talaffuz qiladi, har bir so'z ustida puxta o'ylar, jummalarni aniq talaffuz qilishga harakat qiladi. Ulug' notiqning nutqi shu holda ravon, mantiqan puxta va jozibali bo'lardiki, bu faqat Demosfeni mehnat samarasi edi.

Demosfen hech vaqt bo'lmag'ur safsatalarni yoqtirmas, xotirjamlik bilan talaffuz qiladigan fikrini o'ziga tortar, ularni o'zi himoya qilish uchun talaffuz qilishga harakat qiladi.

Demosfen 30 yoshga to'lganda davlat ishlarida ham ishtirok etadigan edi. U o'zining bugun mahorat va bilimini Vatanning dushmani Demosfeni podsho Filippga qaratadi. Afina davlati Makedoniya podshosiga o'tgach, Demosfen dushmanlari qaytadan bosh ko'taradilar. Demosfen bu voqeadan bir necha yil ilgari Xalq partiyasi Demosfenning mahoratini yuksak baholab, uni «Oltin gulchambar» bilan taqdirlashga tayyara etgan, Xalq majlisi ham buni ma'qullab, qaror

qabul qilgan edi. Makedoniya tarafdorlari bu qarorga qarshi chiqib, Hatto o'z davrining mashhur notiqalaridan bo'lgan Esxil majlis ustidan sudga shikoyat qilib, ariza beradi. U xalq majlisining qaror chiqarganligini isbotlashga urinib, Demosfenning bunda mukofotga munosib emasligini uqtiradi. Qayta bo'lgan sud hali notiqning yakkama-yakka olishuviga aylanib ketadi.

Sud bo'layotgan maydonga shunchalik xalq to'plagan edi, mavj urib turgan dengizni eslatardi. Demosfenni qoralab chiqqan Esxil tamomila kurakda turmaydigan gaplar bilan tashini ota boshlaydi. «Gulchambar»ni himoya qilish maqsadiga so'z olgan Demosfen esa Vatanining gullab-yashnashi yo'lida kurashganini, shu bilan birga, Esxilning sotqinlikdan iborat faqat yorqin nutqida obrazli tarzda tasvirlab beradi. G'animat qarshiligiga qaramay, sud juda to'g'ri va oqilona qaror chiqarib, hukmiga muvofiq Esxilga katta miqdorda jarima solinib, Afina badarg'a qilinadi.

Demosfenning «Gulchambar» haqidagi nutqi faqat Esxil qozonilgan g'alabagina emas, balki Afina va butun Gretsiya vatanparvarlarning tantanasi ham edi.

Suddagi muvaffaqiyatidan so'ng Demosfenning davlat obro'si yanada oshadi. Biroq, turli sabablarga ko'ra, Makedon bilan Afina o'rtasida boshlanib ketgan urushda afinaliklar bo'lib, barcha vatanparvarlar o'z yurtlaridan badarg'a qilinadi. Faqat aristokrat boylargagina siyosiy va iqtisodiy huquqlar bo'lib, Demosfen sirdan o'limga mahkum etiladi. Shundan so'ng u Afina oroliga qochib borib, Poseydon ibodatxonasiga yashirinadi. Bu vaqtlarda ibodatxonaga qochib kirgan odamni, kim bo'lishidan nazar qamash yoki o'ldirish mumkin emas edi. Chunki u xalq panohi va himoyasida hisoblanar edi.

Dushmanlari Demosfenning yashiringan joyidan xabar topib, tiriklayin qo'lga tushirishga harakat qiladilar. Ular notiqqa bo'lgan va'dalarni berib, Antipatra huzuriga olib bormoqchi bo'lgan Demosfen yovuz niyatni fahmlagach, uyga xat yozish bahonasi bilan ibodatxonaning ichkarisiga kirib, zahar ichadi.

Buyuk notiq eramizdan oldingi 322-yilning 12-oktabrida shu tariqat dunyodan o'tadi.

## Sitseron (103-143)

Sitseron eramizdan oldingi 103-yilda Rimdan uzoq  
Yunonistonning Krana shahrida badavlat oilada dunyoga keldi. Uning  
otasi Krana shahridagi otasiga qarashli yerlarda o'tadi. Otasi  
otasi tomonidan ma'muriy va hukumat ishlarida qatnashish maqsadida Rimga ko'chib  
ketadi. U yerdagi yunon murabbiylari qo'lida tahsil ko'radi. Yunon  
tilini mukammal egallagach, Yunonistonning mashhur so'z  
ustalari Platon, Krana va Mark Antony kabi notiqlardan so'z san'atining  
rafiqasini o'rganadi, ularning ajoyib nutqlarini tinglaydi.

Uning notiq ayini yaqtda falsafa bilan shug'ullanadi. Lekin uni  
notiqlik san'ati qiziqdir. Sitseron notiqning turli mimika va  
gestulyonini o'zlashtirib, notiq bo'lish uchun aktyorlikdan  
foydalanish kerak ekan, degan xulosaga keladi. Shuning uchun  
notiqlik san'atini o'z davrining mashhur aktyorlaridan saboq oladi.

Sitseron ma'muriy tayyorgarlikdan so'ng, 25 yoshida birinchi marotaba  
notiq bo'lish uchun qatnashishga jur'at etadi. U avval fuqarolik, so'ng  
davlat ishlarida qatnashishga kirishadi. Biroq uning bu nutqiga davlat  
shaxslari Sull hamda Kott ismli mashhur notiqlar qarshi chiqadi.  
U notiq bo'lish uchun ritorika va falsafa fanlaridan mukammalroq nazariy  
bilim maqsadida zamonasining buyuk notiqlaridan hisoblangan  
Attika shahrida o'z tahsilini davlat ma'muriyati tomonidan o'zlashtiradi.  
So'ngra mashhur so'z ustalaridan  
notiqlik san'atida Kichik Osiyoning bir qancha shaharlarini kechib

notiqlik san'atini o'zlashtiradi. U notiq bo'lish uchun qatnashishga  
kirishadi. U notiq bo'lish uchun qatnashishga kirishadi. U notiq bo'lish uchun  
qatnashishga kirishadi. U notiq bo'lish uchun qatnashishga kirishadi.  
U notiq bo'lish uchun qatnashishga kirishadi. U notiq bo'lish uchun  
qatnashishga kirishadi. U notiq bo'lish uchun qatnashishga kirishadi.

Sitseron zamonasining ko'pchilik so'z ustalarining o'z faoliyatining  
boshlanishida notiq bo'lish uchun qatnashishga kirishadi. U notiq bo'lish uchun  
qatnashishga kirishadi. U notiq bo'lish uchun qatnashishga kirishadi.

Sitseron Osiyoga sayohat qilib, notiqlik san'atining sirlarini o'rganib  
keladi. U notiq bo'lish uchun qatnashishga kirishadi. U notiq bo'lish uchun  
qatnashishga kirishadi. U notiq bo'lish uchun qatnashishga kirishadi.

Sitseron konsullik lavozimiga saylangach, butun notiqlik san'atini siyosiy nutqlarga bag'ishladi. U suddagi nutqlarida o'z fikrini ustubdan foydalanib, raqiblarini «qo'l-oyog'i bog'langan quyumonda qildi». Hukmdor Rull tomonidan qabul qilingan senat qonunlarini qoralab, Rull tarafdorlarini o'ldirib yuboradi. Kelgusi yili (59-yil) o'rniga Sezar konsul bo'lib saylangach, senatning Rull proektiga yaqin bo'lgan yangi qonunlari qabul etiladi. Gabini va Pizodlar konsul bo'lib ish boshlagan 58-yilning dastlabki davrida hukmdor Rimdan badarg'a etish haqida qonun chiqarishga harakat qildi. Dushmanlari tomonidan qasos olinishi muqarrar ekanligiga ishonib, notiq qonun loyihasi chiqmasdanoq Yunonistonga jo'nab ketadi.

Vatandan haydalishi Sitseron uchun nihoyat darajada og'ir bo'ladi. U bir yarim yildan se'nggina do'stlarining yordami tufayli Vatanga qaytib kelish uchun ruxsat oladi. Ona Vatanga bo'lgan muhabbat buyuk notiqning ilhomini jo'sh urdiradi. U nutq namoyishida tinimsiz ijod qila boshlaydi. Oradan ko'p o'tmay, mashhur mehnat samarasi sifatida, uning uch kitobdan iborat «Notiqlar haqida» nomli asari dunyoga keladi. Mazkur asar dialog shaklida yozilgan. Litsiniy, Kross, Mark Litoniy, Yuliy Sezar, Strabon, Katull, huquqshunosi Stsevola va uning shogirdlari Katt, Sulnitsiy Ruflarning ijtimoiy-siyosiy nutqlari, ularning notiqlik san'ati hamda bu san'atning mayda-chuyda masalalaridan tortib siyosiy muammolargacha bo'lgan fikr-mulohazalarini o'z ichiga oladi.

Sitseronning fikricha, notiq shunchaki sud ishlarining boshqaruv qonun-qoidalarini yaxshi biladigan qonunparast emas, balki davlat ishlarini chuqur tushunadigan, xalq qayg'usiga hamdardlik bilan oladigan davlat arbobi bo'lmog'i kerak. Shuning uchun notiqlik san'atini qiziqqan har bir kishi faqat «Ritorika» ilmiga oid ibtidoiy bilim bilan cheklanmasdan va o'zining tabiiy iste'dodiga ishonib qolmasdan, doimo turli fanlarni o'qib-o'rganmog'i, ilm va madaniyatning yutuqlarini cho'qqilariga intilmog'i darkor. Bundan tashqari, «Notiqlar haqida» asarining muallifi notiqlarning odamlar diliga qo'rquv, g'azab va qayg'u bilan solib berilishi va, aksincha, bu xildagi hayajonli holatlardan kishilarni o'chqirib qilib, ularning ruhida xotirjamlik, mehr-shafqat hislarini uyg'otadi, deb ta'kidlaydi. Uning fikricha, agar notiq odamlarning tashqi xarakterlarini sezmasa, inson tabiatidagi umumiy xususiyatni bilmasa va har bir kishini goh bezovta qiladigan, goh tinchlantiradigan

... erisha  
... (147-yil), «Notiq» (56-yil) nomli boshqa asarlarida  
... haqida batafsil fikr yuritib, attikachilarning  
... qarshi mulohazalar bilan maydonga chiqadi.  
... har qanday notiqning ko'zda tutgan asosiy  
... zavqini uyg'otib, ularni o'ziga moyil qilishdan  
... qarab mavjud uslublarning hammasidan  
... zarur.

... davom ettirib, «Kimki jo'n narsalar haqida  
... haqida o'rta darajada, ulug' hodisalar  
... bilan gapirsa, shu odam so'z san'atining  
... bo'ladi», deydi.

... va ohangdorligi, uzun va qisqa hijolarning,  
... oxiri va ikkinchi  
... kelishiga yo'l qo'ymaslik, so'zlarni  
... grammatik qoidalarga katta e'tibor berish kabi  
... ham Sitseron asarlarida o'zining  
...

... qo'ymaslik uchun nutq davomida ko'tarinki  
... shaxslar bo'lsa,  
... xarakteristikasini berish, ilgari o'tgan  
... latifani eslatib ketish, lozim bo'lganda  
... dramatik voqealarni eslash, o'rniga  
... maqol va qochiriq gapni qistirib o'tish -  
... usullaridan edi.

... Oktavian boshqaradi.  
... Senat  
... Biroq Sitseron  
... dushmanlari yangi hukumdorni  
... talab  
... qat'l etishni talab  
... jazoga  
... qirqib tashlanadi, so'ngra boshi  
...

... oshirgan  
... Uyg'onish davrida  
... insonparvar olimlari Sitseronning



ilhombaxsh nutqlarini sevib o'rgandilar. O'sha davrda chiroqli kishilar «Sitseronchilar» deb atalar edi.

Rimda bir qancha vaqtgacha notiqlik san'ati rivojlanishda qoldi. O'rta asrlarga kelib esa notiqlikning diniy va sxolastik avj olib ketdi. Din homiylari notiqlik san'atini o'z qo'llariga olib so'ng, uni o'zlarining maqsadlarini amalga oshirish uchun boshladilar. Din ahllarining o'rtasida ham iste'dodli notiqlar Ulardan, ayniqsa, Vasiliy Velikiy, Grigoriy Bogoslov, Ioann Avreliy Avgustinlar katta shuhrat qozondi.

O'rta asrlarning ikkinchi yarmidan boshlab, ya'ni XI-XII «universitet notiqligi» deb nomlangan notiqlik san'ati Dorilfununning tarix o'qituvchisi Yan Gus ilg'or (progressiv) uchun gulxanda yondirilgan. Oksford dorilfununining maqomi Skott, sxolastik falsafa o'qituvchisi parijlik Per Abelyarlar san'atning atoqli vakillari edi.

O'rta asrning so'nggi davrlarida ko'zga ko'ringan yetuk notiq biri florentsiyalik monax Savonarola edi. U ilk bor cherkov xristianlikning printsiplariga qaytishga chorladi. To'g'ri, Savonarola cherkovdan voz kechishni targ'ib qilmadi. Shunday bo'lsa ham, qaramasdan, uning maftunkor nutqlari o'z-o'zidan katolik cherkoviga ketma-ket zarba bo'lib tushaveradi. Natijada notiqning cherkov xizmati kun sayin og'irlasha boshladi. Ashaddiy dindorlar Savonarolaga xuddi Yan Gus kabi ta'qib ostiga olib, turli ig'volar tarqatdilar, tiriklayin gulxanda kuydirdilar.

XVI asrda burjuaziyaning tug'ilishi bilan yangi – insonparvar dunyoqarashi shakllana boshladi. Uning xarakterli xususiyati biri insonning kuch-quvvatiga, aql-zakovatiga ishonch hamda dunyo madaniyatiga katta qiziqish uyg'otish edi. Insonparvarlar yaratgan madaniy boyliklarni ko'z qorachig'idek saqlashni boshladilar. Shuning uchun ham ko'p vaqtlargacha «uyg'onish» va «gumanizm» termini bilan yonma-yon turib keldi.

Shu davrning ko'zga ko'ringan yetuk notiqsifatida Rotterdamskiy Ulrix fon Gutten hamda katolik cherkovining turli namoyishlariga o'zlarining ajoyib nutqlari bilan zarba bergan Martin Lyuter va Kalvinlarni sanab o'tish mumkin.

Bu davrda Olmoniyada notiqlik san'atini mukammal egallaganlari biri Tomas Myuntser edi. Myuntser dehqonlar o'rtasida shunday

... qadimiy yulda yashagan, uning yuragida yangi umid uyg'onar edi. Hatto shuning natijasida ... va feodallarga qarshi kurashga o'tlanib, ... ham ko'tardilar.

... Fransiya, Italiya, Olmoniya va Avstriyada burjuva ... g'alabasidan keyin notiqlik san'ati ... rivojlandi. Shuning uchun bu davr notiqlik san'atining ... ham deyiladi. O'sha davr notiqdari insonning mehnati va ... ulug'lab, uning kelajagini astoydil himoya qildilar.

### **Sharq va Markaziy Osiyoda notiqlik tarixi**

Notiqlik san'ati («Ritorika») tarixi haqida gap ketganda, jahon ... san'atining taraqqiyoti eramizdan oldingi V asrning ... deb tan olingan. Qadimgilarning fikricha, notiqlik ... («Ritorika») asl vatani Sitsiliya oroli bo'lgan. Notiqlik ... konsullari deb sitsiliyalik Korak hamda Tisiyni tan olganlar. ... hech narsa qolmagan. Ular hayoti va ... bilimida birozgina iz qolgani aytiladi. Keyinchalik ... sofist Gorgiy (483–376) hamda Lisiy (459– ... san'atining («Ritorika»)ning ulug' namoyandalari ... bo'lganlar, bo'ngra bu fan taraqqiyotida Aristotel, Demosfen, ... yanada yorqin o'rin egallagan.

Notiqlik san'atining («Ritorika»)ning fan sifatida tug'ilishi, ... va taraqqiyoti zaminida Gretsiya va Rimda notiqlik ... faoliyat boshlagani to'g'ri. Biroq Markaziy Osiyo va ... Turon zaminda joylashgan xalqlarning, jumladan, ... notiqlik san'ati tarixi manbalari eramizdan oldingi ... ham adabiy va tarixiy manbalardan ma'lum ... bo'lsa, qadimgi («Ritorika») notiqlik san'atining ... zaminida badiiy adabiyot janrlarining paydo bo'lganligi antik ... ma'lum. Ya'ni avval nutqning paydo bo'lishi, nutq ... yozilishi, (logograflar tomonidan) ularning to'planishi, ... badiiy tasvirlarning yoritilishi natijasida badiiy ... roman, drama kabi janrlari shakllanib taraqqiyot ... gususida gap bormoqda.

Madomiki, shunday ekan, miloddan oldingi VII asrlarda yaratilgan xalqimizning qadimiy adabiy va madaniy merosi sanalmish sof turkiy tilda bitilgan «Alp Er To'ng'a» dostoni ham xuddi Yunon va Rim notiqqlari matnlaridan badiiy ijod namunalari tug'ilib, shakllanib, taraqqiyotga yuz tutgani kabi bizda ham mavjud bo'lgan notiqlik matnlarining mevasi bo'lsa-chi? Chunki hech bir xalq tarixida badiiy ijod o'z-o'zidan paydo bo'lmagan. Nutq sohasida bo'ladimi, notiqlik sohasida bo'ladimi, badiiy ijod sohasida bo'ladimi, avval ularning og'zaki shakli namoyon bo'lgan. Aniqrog'i, yozma badiiy adabiyotdan oldin xalq og'zaki ijodi yaratilgan, keyinchalik yozma adabiyot shu og'zaki ijod zaminidan o'sib chiqqan. Buni hech kim inkor etmasa kerak?! Shu ma'noda bizda Turon zaminida yaratilgan «Alp Er To'ng'a» dostoni miloddan oldingi VII asrda paydo bo'lgan ekan, o'zbek notiqqligi tarixi ham Yunon va Rim notiqqligi tarixidan oldinroq yuzaga kelmaganmikan, degan xulosaga olib keladi. Masalani oydinlashtirish, albatta, tarixchi, tilshunos va adabiyotshunos olimlarimizning dolzarb ilmiy izlanishlarini talab etadigan muammo. Shunday bo'lsa-da, hozircha bizda mavjud bo'lgan ma'lumotlarga tayanib fikr yuritamiz. Bu o'rinda taniqli yozuvchi Pirimqul Qodirovning G'G'ulom nashriyotida 2005-yilda chop etilgan «Til va El» kitobi kengroq ma'lumot beradi. Turon zaminining miloddan oldingi turkiy tilda yozilgan «Alp Er To'ng'a» haqidagi doston hali atroflicha tahlil etilgani yo'q.

Bu doston bizgacha to'liq yetib kelmagan. Uning besh yuz satrga yaqin ayrim parchalari Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig» dostonida va Mahmud Koshg'ariyning «Devonu lug'atut turk» asarida keltirilgan.

Bu dostonga birinchi bo'lib katta e'tibor bergan olimimiz, professor Abdurauf Fitrat edi. Uning «Eng eski turk adabiyotining namunalari» deb atalgan va 1927-yilda nashr etilgan risolasida Alp Er To'ng'aga bag'ishlangan 40 satrli marsiya, tang'ug'lar bilan Alp Er To'ng'aning jangiga oid 32 satrli she'r, qish va yoz manzaralariga bag'ishlangan 86 satrli she'riy tasvirlarni adabiy tilimizning eng qadimgi namunalari deb baholanadi.

Fitrat Alp Er To'ng'aga bag'ishlangan qadimiy doston parchalarini Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig» dostonidan va Mahmud Koshg'ariyning «Devonu lug'atut turk» kitobidan olinganini ko'rsatib o'tadi.

Moskvalik sharqshunos olimi I. V. Stebleva ham «Devonu lug'atut turk»da keltirilgan Alp Er To'ng'aga bag'ishlangan 348 satr she'rni terib olib, ular orasidagi mantiqiy bog'lanishlarni topadi va ularni ming yillar davomida ko'p qismlari yo'qolib ketgan ulkan bir qahramonlik dostonining uzviy bo'laklari deb baholaydi.<sup>1 2</sup>

Bu olimlarning «Alp Er To'ng'a» dostoniga oid tadqiqotlarini yangi avlodga mansub adabiyotshunoslarimiz M. Ibrohimov va Sh. Xolmatovlar davom ettirdilar. Bu ishlarning yakuni sifatida Abdurashid Abdurahimovning so'zboshisi va tahriri bilan 1995-yilda «Alp Er To'ng'a yoki Afrosiyob jangnomasi» degan kitob nashr etildi.

Bu kitobning kirish qismida Alp Er To'ng'aga quyidagicha baho berildi: «Alp Er To'ng'a miloddan avvalgi VII asrda Turon davlati shakllanishiga asos solgan buyuk xoqondir... Eronliklar Alp xoqonni Afrosiyob deb ataganlar».

Og'zaki va yozma adabiyotda Alp Er To'ng'aning bahodirligini madh etuvchi katta doston yaratilgan. Doston qahramonlik mavzusida bo'lib, uning tiklanishi turkiy xalqlar dostonchiligi tarixini miloddan avvalgi asrlardan boshlashga imkon beradi.<sup>3</sup>

Alp Er To'ng'a haqidagi she'riy dostonidan kelib chiqqan holda adabiyotshunos olimlar bu qahramonga baho berishda tarixchilarimizga nisbatan ancha dadil fikr bildirmoqdalar.

Tarixchilarimiz Alp Er To'ng'aga oid to'liq ma'lumotlarni tarixiy manbalardan topolmaganlari uchun ularda «Alp er To'ng'a tarixiy shaxsmi yoki afsonaviy qahramonmi?» degan ikkilanishlar bor. Buning yana bir sababi, Firdavsiyning «Shohnoma» asarida Afrosiyob salbiy qahramon qilib ko'rsatilganligidir.

Buxoro tarixiga oid juda qimmatli ma'lumotlar berg'an Narshaxiy yozadi: «Afrosiyob Romtan (Romitan) shahrini bunyod qilgan. Romtan Buxorodan qadimiyroqdir. Afrosiyob har vaqt bu viloyatga kelganda Romtanda turgan, boshqa joyda turmagan. Forsiylarning kitoblarida aytilishicha, Afrosiyob ikki ming yil yashagan va jodugar bo'lgan, asli Huh payg'ambarning o'g'illaridan ekan. U o'zining Siyovush nomli kuyovini o'ldirgan. Siyovushning Kayxusrav nomli o'g'li bo'lib, otasining

<sup>1</sup> Fitrat A. Eng eski turk adabiyotining namunalari. Toshkent-Samarqand, 1927.

<sup>2</sup> Стеблева И.В. Развитие тюркских поэтических форм в XI веке. М., 1971. С270.

<sup>3</sup> Abdurahmonov A. «Alp Er To'ng'a yoki Afrosiyob jangnomasi». Toshkent, 1995,

xunini talab qilib Afrosiyobni o'ldirdi. Afrosiyobning qabri Buxorodan Ma'bad darvozasi yaqinidagi katta tepalik ustidadir.<sup>4</sup>

Narshaxiy o'z nomidan keltirgan tarixiy faktlarda Afrosiyobning buniyodkor podshoh bo'lganini, Buxorodan ham qadimiyroq Romitan qurganligini, bu viloyatga kelganda doim shu Romitanda turganligini «Afrosiyob» nomi bilan bizgacha yetib kelgan tarixiy Romitan qal'asi davriining podsholari turadigan poytaxt shahar bo'lganini yozadi. Buxoroning 2500 yillik to'yini o'tkazdik. Agar Romitan undan ham o'q qurilgan bo'lsa, demak, bu joyni qurdirgan Alp Er To'ng'a – Afrosiyob miloddan oldingi yettinchi asrda yashab o'tganiga ishonish mumkin.

Narshaxiyning bu ma'lumotlari tarixiy asosga ega bo'lganini Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilik»da yozgan quyidagi satrlari tasdiqlaydi:

*Tojiklar ayur ani Afrosiyob*

*Bu turk beklaridan, oti belguluk*

*To'ng'a Alp Er edi quti belguluk.*

Mahmud Koshg'ariy «Devonu lug'atut turk»da Yusuf Xos Hojibning bildirgan fikrni yanada aniqroq bayon qiladi:

«Turklarning mashhur qahramoni Afrosiyobni Alp To'ng'a deb atalishiga asoslariga sabab, uning sherni yiqitadigan botir pahlavon bo'lganligi edi».

... O'zbek milliy ensiklopediyasida Afrosiyobning «Avesto»da yozilgan uchinchi bir nom bilan tarixga kirganligi yoziladi: «Afrosiyob – mifologik obraz, «Avesto»da «Frang-Krisyan» deb atalgan deyiladi. Keyinchikda bu ijobiy obraz Firdavsiyning «Shohnoma»siga Afrosiyob nomi bilan faoliyati salbiylashgan holda o'tadi. Ensiklopediyada Afrosiyobning munosabat masalasida bir muhim nuqta ko'rsatib o'tiladi:

«Afrosiyobning Eron podshohlari bilan jangga kirishuvi, ya'ni Eron bilan Turonning mifologik raqobati g'oyasi «Avesto»da yo'q. Afrosiyob Eron shohlarining dushmani qilib ko'rsatish g'oyasi yozma abadiylikda birinchi bo'lib Firdavsiyning «Shohnoma»si orqali kirgan... Bu talqin Firdavsiy zamonida uchun muhim bo'lgan turk davlatchiligi va eron davlatlari orasida tarixiy yuzma-yuz turish harbiy-siyosiy muxoliflik fikrini aksini topgan.<sup>6</sup>

<sup>4</sup> Narshaxiy. Buxoro tarixi. 1991. 98–99-betlar.

<sup>5</sup> Mahmud Koshg'ariy. Devonu lug'atut turk. III jild. Toshkent, 1960

<sup>6</sup> O'zbek Milliy Ensiklopediyasi.. I jild. 2000, 517-bet.

Amu shu harbiy-siyosiy muxoliflik Afrosiyob – Alp Er To'ng'aga  
musibat turkiy tilli manbalarda ijobiy, «Shohnoma» kabi forsiyzabon  
manbalarda salbiy bo'lishga olib kelgan...

Hustonda ko'rsatilishicha, Alp Er To'ng'ani Eron shohi Kayxusrav  
davlat paytida mayga zahar qo'shib berib o'ldiradi.

O'lum muqarrarligini sezgan Alp Er To'ng'a sadoqatli yorini eslaydi  
va yolg'in odamlaridan iltijo qiladi:

*Turkon xotun huzuriga mendan yetkur vido qo'shig'in.*

*Aytgin: menga qilgan xizmatni qilar tobug'chi endi unga...*

Turon malikasi sevikli Alp yorini eslab musibat chekadi:

*Ketdi ko'zimning nuri,*

*Ketdi tanamning ruhi.*

*Qaydan topay sevganim,*

*Qoldi cheki yo'q qayg'u...*

Bunday iztirobga to'la samimiy so'zlarni faqat chindan yashab  
o'tgan va el-yurt orasida sevimli bo'lgan qahramon haqidagina aytish  
mumkin.

Bu Alp Er To'ng'aning o'limidan keyin turk davlatchiligi uzoq  
va muqaddas asrlarni (qariyb ming yildan oshiq ta'kid bizniki – N.B.)  
yashaganidan kechiradi.

Nihoyat, VI–VII (milodiy – N. B) asrlarga kelib Bilge xoqon va uning  
qahramon inisi Qultegin davrlarida turk buduni (xalqi) qaytadan qad  
qad o'stirilaydi. Biz buni O'rxon va Enasoy daryolari bo'yida VI–VII asrlarda  
yozilgan bitilgan dostonlardan bilamiz.<sup>7</sup>

Xalq og'zaki ijodining ilk tajribalari notiqlik san'atiga, badiiy so'z  
san'atining ravnaqiga, yozma adabiyotga boy manba bo'lib xizmat qilib  
kelgan va kelayotgani barchaga ma'lum, shu ma'noda «Alp Er To'ng'a»  
dostoni, muqaddas kitob «Avesto», O'rxon va Enasoy yodgorliklari va  
boshqa yozma yodgorliklar Markaziy Osiyo xalqlarining tarixi, ijtimoiy-  
iqtisodiy hayoti, madaniyati, tilini o'rganishda muhim manba bo'lish

<sup>7</sup> Pirimqul Qodirov. Til va El. Toshkent: G. G'ulom nashriyoti, 2005, 14-22 betlardan

bilan birga, ma'lum notiqlik san'atiga undovchi, unga manba bo'luvi qimmatga ham egadir.

«Avesto»ning muqaddas kitob sifatida to'la shakllanishi miloddan avvalgi birinchi ming yillik o'rtalariga to'g'ri keladi. «Avesto»da notiq foydalanishi lozim bo'lgan o'rinlar juda ko'p. Jumladan, «G'alla yerda unib chiqqanda devlar larzaga keladi, g'alla o'rib olinayotganda devlar nola-faryod chekadi, g'alla yanchib un qilinayotganda esa devlar mal bo'ladi... G'allaning mo'l-ko'l bo'lishi go'yo devlarning labiga qizdirilgan temir bosgandek ularni tumtaraqay qiladi...»<sup>8</sup> Bu jumlar orqada odamlarni mehnat qilishga, mehnatga muhabbat bilan yondashmoqqa chaqirish mumkin. Unda notiqlik kuchini oshiradigan da'vat mujassami Demak, notiq uchun bu kabi da'vatkorlikka undovchi misol sifatida «Avesto»dan keng o'rin olganligidan ko'z yumib bo'lmaydi. «Avesto»da o'rin olgan rivoyat va afsonadagi vatanni himoya qilishga chorlovchi qahramonlikka undovchi «Siyovush» («Siyovarshan» deb berilgan «Avesto»da) kabi qahramonliklarning butun xatti-harakati da'vatkorlik qudratiga ega. Biroq milodgacha notiqlik san'ati tarixi notiq maktablari uchun manba va material bera olgani holda, maktab darajasiga o'sib chiqmagan bo'lishi mumkin. Ammo kim kafolat beroladi, qadimgi Afinada, Yunoniston va Rimda paydo bo'lgan notiq maktablarida yoki maktab darsliklarining paydo bo'lishida «Alp To'ng'a» dostoni, «Avesto kabi muqaddas kitob» yoki «Bundaxishu» hamda «Denxard» kabi qimmatli manbalarning ta'siri bo'lmaganligi Albatta, ilm va fan qayerda bo'lmasin, qaysi bir xalqda yaratilmas o'zaro bir-biriga ta'siri bo'lishi tabiiy holat. Jahon ilmida o'zaro ta'lim hamisha bo'lgan va bundan keyin ham bo'ladi. Shu asosda jahon fan qaysi sohada bo'lmasin, bir-birini to'ldirib, boyitib boradi.

Sharqda, jumladan, Movarounnahrda badiiy, ilmiy ijodni taraqqiyoti, shuningdek, va'zxonlik, «Qur'on»ni targ'ib qilish bilan mushtarak holda so'zning ahamiyati, ma'nosi va undan maqsad muvofiq foydalanish borasida qadimdan ko'p yaxshi fikrlar aytilgan.

Vaz'xonlikning, balog'at (chechanlik, notiqlik) san'atining o'su barobarida nutq oldiga qo'yilgan talablar mukammallashib boradi. Buyuk allomalar Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr Farobiy, Ibn Sin, Abu Abdulloh al-Xorazmiy, Mahmud Koshg'ariy, Zamaxshariy, Al

<sup>8</sup> Mallayev N. O'zbek adabiyoti tarixi, Toshkent. 1965, 76-bet.

vaqub Sakkokiy tilga, lug'atga, grammatika va mantiqshunoslikka bog'langan asarlar yozdilar yoki boshqa sohalarga doir asarlarida bu mavzuga aloqador fikrlar bildirdilar.

Katta katta muayyid qomusiy olim Beruniy (973-1048) o'zining «Geodeziya» asarining kirish qismida fanlarning paydo bo'lishi va tarmoqlanib kelishini haqida so'z yuritib, har bir fanning inson hayotidagi ahamiyati va ehtiyojlar talabi bilan yuzaga kelishini aytadi. Uningcha, grammatika, aruz va mantiq fanlari ham shu ehtiyojning hosilasidir. Inson nutqi o'z tuzilishi, materialiga ko'ra rostini ham, yolg'onni ham ifodalashi mumkin. Bu ko'plab munozaralarga sabab bo'ladi. Inson bu munozaralar jarayonida rostni yolg'ondan ajratadigan «mezon»ni yaratadi. Bu mantiq fani edi. Inson nutqida shubhali fikrlar sezilsa, ma'lum «mezon» yordamida ular tuzatiladi. Olim mantiqni o'rganmasdan, uni malomat qilganlarga hayron qoladi va ularga achinib: «Agar u dangasalikni tashlab, oromga berilmasdan, gap o'ylan bog'lanib keladigan nahv (grammatika), aruz (she'r o'lchovi) va mantiqni (logika) mutolaa qilganida edi, so'zning (nutq) nasr va nazmga ajratilishini bilgan bo'lardi», - deydi (Beruniy. To'plangan asarlar. III tom, 62-64-bet). Demak, Beruniy nutqning ikki xil - nasr, nazm ko'rinishi haqida ta'kidlashni ta'kidlamog'da. Nutqning bu turlari ma'lum qoidalar asosida ajratiladi. Nasr nahv qonun-qoidalari, nazm aruz talablariga binoan ajratiladi. Aruzga qaraganda nahvning ta'sir doirasi keng, u nasr uchun zarur, nazm uchun ham zarur, Beruniy yozadi: «Nahv nasrda va aruzda aytilgan so'zning me'yorini o'lchov. U xatosini tuzatuvchi aniq mezon bo'lib qoldi, lekin nahv bular ikkisining umumiyrog'idir, bunda u nasrni ham, nazmni ham birgaliqda o'z ichiga qamrab oladi» (O'sha asar. 64-bet).

«Xullas, yaxshi nutq tuzish uchun nahv, aruz, mantiq fanlari birligidan foydalanish zarur bo'ladi. Ularning birontasiga ahamiyat bermaslik, bulardan birining qoidasi buzilishi qolgan ikkitasiga ta'sir bermay qolmaydi» (O'sha asar. 64-bet).

Beruniy shakl va mazmun birligiga katta ahamiyat beradi. Uningcha, shakl mazmunga xizmat qilishi kerak. Mazmunsiz har qanday chiroyli shakl ham el orasida e'tibor qozonmaydi. Nutqning nasriy shaklida ham, nazmiy shaklida ham mazmun bosh mezondir.

Ulug' vatandoshimiz Abu Nasr Farobiy (870-950) to'g'ri so'zlash, to'g'ri mantiqiy xulosalar chiqarish, mazmunder va go'zal nutq



tuzishda leksikologiya, grammatika va mantiqning naqadar ahamiyatli ekanligi haqida shunday deydi: «Qanday qilib ta'lim berish va ta'lim olish, fikrni qanday ifodalash, bayon etish, qanday so'rash va qanday javob berish (masalasi)ga kelganimizda, bu haqda bilimlarning birinchisi – jismlarga va hodisalarga ism beruvchi til haqidagi bilim deb tasdiqlayman».

Ikkinchi ilm grammatikadir: u jismlarga berilgan nomlarni qanday tartibga solishni hamda narsalar (substantsiya) va hodisalarning (aksidentsiya) joylashishini va bundan chiqadigan natijalarni ifodalovchi hikmatli so'zlarni va nutqni qanday tuzishni o'rgatadi.

Uchinchi ilm mantiqdir: «ma'lum xulosalar keltirib chiqarish va mantiqiy logik figuralarga binoan qanday qilib darak gaplarni joylashtirishni o'rgatadi. Bu xulosalar yordamida biz bilmagan narsalarni bilib olishni hamda nima to'g'ri, nima yolg'on ekanligi haqida hukm chiqarishni o'rgatadi» (Abu Nasr Farobiy. Risolalar. Toshkent: 1975. 54-bet).

Ko'rinadiki, grammatika va mantiq fanlarining nutq tuzishdagi ahamiyatini ikki buyuk olim ham yuksak darajada anglaganlar va ularga katta ahamiyat berganlar. Beruniy ham, Farobiy ham qadimgi arab falsafasiga va boshqa fanlarga oid asarlardan oziqlanibgina qolganlar, ularni to'ldirdilar, g'alat o'rinlarga izoh berdilar.

Beruniy bilan zamondosh bo'lgan Abu Abdulloh al-Xorazmiy (vafoti 997-y.) ham o'zining «Mafotix-ul-ulum (Ilmlar kalitlari)» asarida o'sha davr notiqligining ba'zi bir masalalari, adabiyotshunoslik, mantiq, istilohlari, ularning ta'rif haqida, shuningdek, devonxona ish qog'ozlari va ularning shakllari, ishlatiladigan terminlar (atamalar) haqida ma'lumot beradi. Asarning beshinchi bobida aruz va qofiya ilmi haqida she'riyatda ishlatiladigan badiiy tasvir vositalari, ularning fazilati va nuqsonlari ustida so'z boradi. Asarda aruz ilmi, undagi 15 ta ko'rinishlari she'riy misollar bilan beriladi. Aruz ilmiga tutash qadimgi arab ilmi, uning istilohlari ta'rif va izohlar bilan qayd etiladi. Asarning beshinchi bobi besh bo'linmadan tashkil topgan. Beshinchi bo'lim X asr O'rta Osiyo she'riyatiga bag'ishlangan. Bu shuni ko'rsatadiki, bu asrdayoq o'lkamizda badiiy nutq yuksak darajada rivojlangan, uning nazariyasi mukammal ishlangan edi». (X. Xayrullayev, R. M. Bahodir, Abu Abdulloh-al-Xorazmiy. M., 1988. 58-bet; «O'zbek. adabiyotshunosligi». 1989, 18-avgust).

gohi qadri, undan foydalanish, kam soʻzlab, koʻp maʼno yuklash, fikrlash kabi masalalar ustida XI-XIII asr mutafakkirlari Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiylar ham ibratli fikrlar bildirganlar.

Yusuf xohir Yusuf Xos Hojib turkiy xalqlarning XII asrdan ajoyib madaniyatining yodgorligi boʻlgan «Qutadgʻu bilig» («Baxt keltiruvchi bilim») asarida soʻzlarni toʻgʻri tanlash va qoʻllash haqida: «Bilib soʻzlasa koʻp sanalur» degan edi. Gapisrishdan maqsad soʻzlovchining aytgan narsa, hodisa, voqealarni tinglovchiga toʻgʻri, taʼsirchan tarzda taʼkididan iborat. Shunday ekan, nutqning toʻgʻriligi, ravonligi va mantiqiylikiga erishish muhim ahamiyat kasb etadi. Mutafakkir soʻzlovchini tilning ahamiyatini tushungan holda hovliqmasdan, maʼnolarini yaxshii anglab, ravon nutq tuzishga chaqiradi:

*Tilning foydasi talaydir, ortiqcha hovliqma,  
Goho til maqtaladi, goho soʻkiladi.  
Modomiki shunday ekan, soʻzni bilib soʻzla,  
Soʻzing koʻr uchun koʻz boʻlsin, (u) koʻra bilsin.*

Til va soʻzni avaylashga, ogʻziga kelgan soʻzni oʻylab gapirishga chaqiradi:

*Kishi soʻz tufayli boʻladi malik,  
Ortiq soʻz qiladi bu boshin egik,  
Tilingni avayla-omondir boshing,  
Soʻzingni avayla uzayar yoshing.*

Ahmad Yugnakiy (XP-XSh) ham soʻzlaganda nutqni oʻylab, mazmundor tuzishga, keraksiz, yaramas soʻzlarni ishlatmaslikka, mazmundor soʻzlashga chaqiradi. Notoʻgʻri tuzilgan nutq tufayli keyin davlat chekib yurmagin, deb soʻzlovchini ogohlantiradi:

*Oʻqib soʻzla soʻzni eva soʻzlama,  
Soʻzing kizla, kedin, boshing kizlama.*  
(A.Yugnakiy Hibat-ul-haqoyiq. Toshkent: 1971, 78-bet).

Amir Xisrav Dehlaviy (XV asr) ham nutqni taʼsirli, emotsional, mazmundor tuzishga daʼvat qiladi:

*So'zlaringda bo'lsin fikru o'y yoniq,  
Bo'lsin har so'zingda bir nuqta aniq.*

Aytilayotgan fikrning mazmunder va ohangdor bo'lishi lozim haqida yozadi:

*Nazm aytsam, aytaman ta'b o'lchovida o'lchabon,  
O'lchab aytilsa nuqta, bo'lmas uchov besamar.*

(Amir Xisrav Dehlaviy. Asarlar, Toshkent: 5-bet, 574)

## **ABU HOMID G'AZZOLIY**

Abu Homid Muhammad ibn Muhammad G'azzoliy 1085-yilda viloyatida ishchi Abu Homid oilasida tavallud topdi. G'azzoliy muhojirlikda taxallusidir.

Muhammad G'azzoliy ukasi Ahmad bilan yoshligidan otadan vaqif bo'lgan va qoldi. Muhammad va Ahmad otasining yaqin do'sti ko'magida diniy ilmlar o'rganib, ilm olishga kirishadi. Muhammad G'azzoliy bolalikda mashhur muhojir Ahmad Roziqoniydan fiqh darslari oladi, o'smirlikda Jurjon shahrida muhojir Abu Nasr Ismoilidan tavhid ilmidan saboq oladi. So'ng Nishapur shahrida Imom Horamayndan mazhab, rahbarlik, bahs, hadis usul va mantiq ilmlarini o'rganadi, ilm-fan arboblarning ta'limotini chuqur o'zlashtiradi. 20 yoshida sevimli va zukko shogird sifatida muhojirlikka og'ziga tushadi. Alisher Navoiy hazratlari «Saddi Iskandariy» dostonida muqaddimasida G'azzoliyni «Ko'k gumbazi uzra bezakli qal'ada» deb ta'riflaydi. «Falakdan turib kishilarga baxt va tole' ulashadi» deya ta'riflaydi (Alisher Navoiy. «Saddi Iskandariy». Nasriy bayoni bilan. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa birlashmasi, 1991. 513-514).

«Nasoyim ul-muhabbat» nomli asarining 439-raqamli maqolida muhojir esa Navoiy uni «Hujjat ul-islom Muhammad ibn Muhammad G'azzoliy» deb ta'riflaydi. «Tusiy, kuniyati Abu Homid va laqabi Zaynuddindir» deya qayd qiladi (Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. 17-tom. 249-bet).

Abu Ibrohim al-Bag'dodiy «Bag'dod tarixi» asarida yozadi: «U shunday kimsa ediki, bu dunyodagi ko'zlar uningday notiqni, uning zukko va oqilni ko'rmagan edi».

Ibn Mukriy «Tuhfat ul-irshod»da: «Uning muborak ismi bilan ta'riflar raklar masrur bo'lib ko'tarilib ketadi, nafaslar quvonchga to'ladi», - deydi.

Imonchilik ko'p va yuksak baholarga sazovor bo'lgan bu inson kim edi?  
Umma uchun hamma tabaqaga oid barcha insonlar uni munchalik  
egadilar?

G'azzoliy zamondoshlarining buzg'unchilik va gunohlarini, hayotni  
qayta qayta aldash tirgan bid'atchilarni, ikkiyuzlamachi va badnafs zolimlarni  
qayta fosh qilib, oddiy va halol mehnatkashlarning e'tirofiga yetishgan,  
imomining haqiqatlarini butun insoniyatga ochib ko'rsatgan, shubha  
so'zlarini tarqatib yuborgan qalbi iymon bilan to'la ajoyib bir siymo  
egasi. U o'qitgan ilmlar soyasida butun Sharq xalqlari tartibli yashashni  
egadilar. Uning nomini tilga olgan olimlar, uning kitoblarini qo'lma-  
qo'l olib yozib chiqqan, ko'paytirgan va tarjima qilib elga tarqatgan  
olimlar ham hurmatga sazovor bo'ldilar. Uning nomi tilga olingan  
egalar shovqin-suronlar pasayib, boshlar egila boshlaydi.

G'azzoliy har sohada adolat sohibi va imomlarning imomidir. Uning  
qaytib va daqiq tadqiqotlari sunnat ahliga dushman bo'lganlarning  
qaytiblarini olib tashlaydi. Uning kitoblari go'zalligi va komilligi  
qaytibdan quyosh nurlariga o'xshaydi. Do'stlar ham, dushmanlar ham  
uning dahosi qarshisida bosh egadilar.

Avvalo «G'azzoliy» kalimasini ko'raylik.

Imom Nabaviy «G'azzoliy» taxallusidagi «3» ni maddali, ya'ni ikkita  
degan ekan, ammo uning o'zi «at-Tibyon» asarida bitta «3» bilan yozib,  
bitta – Tus viloyatidagi bir qishloqning oti, deya izohlagan. Ibnul-  
Arab ham ikki «3» bilan yozgan va uning taxallusini otasining kasbi  
bilan bog'lagan. G'azzoliyning otasi «g'azzol», ya'ni ipchi bo'lgan. Ana  
otasi sabablarga ko'ra, turli mamlakatlarda taxallus turlicha yoziladi.  
Masalan, Turkiyada G'azzoliy yozish rasm bo'lgan, O'zbekistonda esa  
ipchilik mamlakatlar qatori, qadimdan G'azzoliy yoziladi.

G'azzoliyning ipchi otasi nihoyatda tadbirkor, uddaburon va aqli  
egasi bo'lgan. Ammo tirikchilik taqozosi bilan ilm ololmagan, «uylansam,  
otalarimni, albatta, o'qitaman», deb niyat qilgan. Ammo niyat boshqa,  
ammo boshqa – u uylanib ikki o'g'il ko'rganida o'lim to'shagiga yotib  
qolgan. Olamdan ko'z yumarkan, do'stlari uni ko'rgani kelishganida  
qaytib yum yig'lagan.

Bir yaqin do'sti unga:

– Menga qara, oshna, bu dunyoda faqat sen o'layotganing yo'q. Ertan  
biz ham ortingdan yetib boramiz, namuncha ko'z yosh? – deb uni  
kuyigan.

– Men bunga yig'layotganim yo'q. O'g'illarimni o'qitmoqchi edim  
orzuyim ushalmadi, – degan u.

– Armoning faqat shu bo'lsa, ularni o'qitish menga sendan omonat  
bo'lsin, men o'qitaman ularni, – deydi shunda do'sti.

Ota olamdan o'tganda ham sadoqatli do'st omonatga xiyona  
qilmadi – bergan va'dasining ustidan chiqdi: ikki o'g'il – Muhammad va  
Ahmadning yuksak ilm olishlariga imkon yaratdi. Keyinchalik bu ikki  
aka-uka Islom olamining ustun olimlari bo'ldilar. Imom Horamayn  
«G'azzoliy – butun olamni qamragan bir dengiz, Qiyo sahrasining to'la  
arsloni, Havofilni ham yoqib yuboradigan otashdir», deb ta'riflagan  
edi. 1085-yilda, 27 yoshida Imom Horamayn vafot etganidan keyin  
G'azzoliy turk sultoni Alp Arslonning mashhur vaziri Nizomulmuluk  
huzuriga boradi va saroyda uyushtirilgan bahslarda hamma olimlarni  
yengib chiqadi, mamlakatning eng nomdor Nizomiya madrasasiga bo'sh  
mudarrislikka tayinlanadi. O'n-o'n bir yil ichida shuhratning eng yuksak  
cho'qqisiga ko'tariladi, dunyoda eng katta muvaffaqiyat qozongan  
«Ihyo ulum ad-din» asarini yaratadi. Oddiy odamlargina emas, hattoki  
vazirlar, maliklar, amirlar ham uning fatvolariga quloq soladilar.  
Muhammad G'azzoliyning ukasi Ahmad G'azzoliy esa uni ilm uchun  
kam ishlayotganlikda ayblardi. Bir kuni Muhammad G'azzoliy xalqqa  
va'z aytayotganda ukasi ichkari kirib keladi va so'z so'rab, shunda  
she'r o'qiydi:

*Men kuchliman, xalq zaif deb, xalqqa berar  
bo'lding quvvat,*

*Xalqni kuchli qilmoq uchun sarf aylading  
qancha g'ayrat.*

*Xalq kuchlandi – olg'a ketdi, horib ortda  
qolding o'zing,*

*Hidoyatga boshlading-u, o'zing qolding behidoyat.*

*Nima bo'ldi, og'ajonim, gapim kirmas qulog'ingga,*

*«Aytsang hamki xalqqa shuncha go'zal o'git,  
va'z–nasihat?»*

*Ey, charxtoshi! Qachongacha temirlarni charxlaysan-u,  
O'zing o'tmas bir matohsan, ko'zlaringda*

*yo'q basirat.*

Umdan keyin Muhammad G'azzoliy o'zi haqida shubhaga tushadi, hech nimga hech nima demay, ishini tashlab ketadi. Faqat ilm bilan bog'lanadi. Ammo bosh vazir Nizomulmulk uning qayerdaligidan topib, undan zudlik bilan ishga qaytishini talab qiladi. Olim madrasaga qaytib, yana madrasada dars bera boshlaydi. Ammo bu ish unga uzoqqa cho'zilmaydi. G'azzoliy qaytadan Tusga ketib qoladi. Ushbu 300 talabani to'plab, xususiy darslar beradi.

Abu Homid Muhammad ibn Muhammad G'azzoliy 1111-yilda vafot bo'ladi.

G'azzoliy bor-yo'g'i 53 yil umr ko'rdi. Ammo shu umri davomida ko'plab asar yozib qoldirdi. Ular Islom dinining turli tarmoqlariga qimmatli bo'lib, dalillar qamrovi jihatidan juda katta miqyosga ega. Fiqh, hadis, tarix, falsafa, fiqh, tasavvuf olimlari uchungina emas, hech qanday ilm bilan shug'ullanmaydigan oddiy insonlar uchun ham kerakli asarlar behisobdir. Chunonchi, faqihlar (yuristlar) G'azzoliyning «Fihrist», «Vujib» kabi asarlaridan; tafsirchilar, kalom ilmining olimlari «Tafsir al-Aqoid», «Ar-Risolat al-Qudsiya», «Al-Iqtisod fil-e'tiqod» nomli kitoblaridan; tasavvufchilar va umuman barcha haqiqat muxlislari «Ihyo ulum ad-din» nomli buyuk asaridan bahramand bo'lib qolgan. Ruhiy quvonchni boshdan kechiradilar. Umuman barcha mo'min-musulmonlarga uning «Hujjat ul-Haq», «Mufassil al-Xilof», «Qavosim al-Hotiniya» kabi asarlari kundalik hayotiy muammolarni hal qilishda yordam beradi.

Yuqorida qayd etganimizdek, G'azzoliy 1111-yil davomida ikki marta shubhaga tushgan. Birinchisida, ukasining she'ri ta'sirida, o'zining ilmlarining hammasida kamchiliklar ko'p bo'lsa kerak, deb o'ylaydi, o'ziga mutloq haqiqatni izlay boshlaydi, haqiqat yo tuyg'ularda, yo aniq bilimlarda bo'lishi mumkin, har ikkalasida bo'lishi mumkin emas, degan fikrga boradi. Oldiniga haqiqat tuyg'ularda deb biladi, ammo tez orada tuyg'ular aldashi mumkinligini ko'radi va aniq bilimlar haqiqat degan xulosaga keladi, so'ng «balki aql ham aldar» deya taraddudga tushadi. Pirovardida esa Allohning hidoyati qalbga yorug'lik beruvchi asarlar kabi, aniq ilmlar ham haqiqat ekanligiga ishonch hosil qiladi.

G'azzoliyning ikkinchi ruhiy iztirobi 38 yoshida yuz berdi. Bir kuni «Qilayotgan barcha ilmlarim shon-shuhrat, amal-mansab, nufuz va mulkdunyo uchun emasmi?» – degan shubhaga tushadi. Haqiqat faqat mutatasavviflarning kamtarona yashash tarzida bo'lishi mumkin degan

xaloga kelib, tinchini yo'qotadi. Shuning uchun u madrasani tark etib qaytga hayot kechirishga o'tadi. Yeyish-ichishni ham keskin kamaytirib, jismonan zaiflashadi.

Shunda uning shaxsiy tabiblari nima qilishlarini bilmay dovdirab qoladi. Shu ahvolda u 10 yil darbadar kezadi. Bir dafa vazirning so'zini inobatga olib, Nishopurda ishlagan bo'lsa ham, baribir, ishga qatnashmagan bo'lganmaydi, tuzukkina mutasavvifga aylanib, umrining oxiriga qadar ko'zga tashlanmay yashaydi.

Gazzoliyning falsafiy ishlari ham talaygina. Ular ichida «Taxafut al-falosiya» hamda «Maqosid al-falosifa» asarlari yetakchi o'rin egallaydi. Bularda Farobiy, Ibn Sino, Abun Xayyon at-Tavhidiy, «Ihvon us-safu» risolasining ta'sirini ko'rish mumkin.

Apri chog'da G'azzoliy «Taxafut al-falosifa» asarida Farobiyni va Ibn Sinoni tanqid qilib, ularni Arastu va Aflotun ta'sirida bo'lganlikda ayblagan va umuman falsafachilikka qattiq qarshi chiqqan. Holbuki, Farobiyning asarlari ham, G'azzoliyning «Maqosid al-falosifa» asari ham lotinchaga o'girilgan va g'arbliklarning yunon falsafasini o'rganishlariga yordam bergan. Farobiy bilan Ibn Sinoni tanqid qilishdan maqsadi esa, aslida uning ba'zi mavzulari yanglish tushunilishini tuzatish uchun bo'lgan. Bu yaxshi niyatdir.

Gazzoliyning «Mukoshafat ul-qulub» («Qalblar kashfiyoti») asari haqida turk olimi va tarjimoni Yamon Oriyqonning so'zlari diqqatga sazovor:

«Mukoshafat ul-qulub»!.. G'azzoliy necha asrlar ilgari yoqqan yuzlaricha mash'aladan bir donasi. Hech qachon so'nmaydigan, sochgan nur dastalari zamon oralab so'ngsizlikka qadar to'ppa-to'g'ri oqib boradigan mash'ala. Inson nasli oxiratgacha bor bo'lganligiga ko'ra, bu asar ham insoniyat uchun bir nur manbai bo'lajak, turli azob-uqubatlar, g'am-tashvishlar va behuzurliklar ichida to'lg'anayotgan shaxslar, siymolar, jamiyatlar va millatlarga huzur va saodat yo'llarini ko'rsatajakk».

Shu bois bu asar biz mustaqillikka erishgan sharofatli yillarda ham millatimizning o'zini o'zi tuzatishi uchun, boshqacha aytganda, o'z baxtini o'zi yaratishi uchun, «kelajagi buyuk davlat»ni barpo etmog'i uchun, halol va to'g'ri yo'lni tanlashida bebaho ahamiyat kasb etadi. (Abu Homid G'azzoliy. «Mukoshafat-ul qulub», Toshkent: «Yangi asar avlodi» nashriyoti. 2004, 3-7-betlar).

## Kaykovus va uning «Qobusnoma» asari

Amr Unsurulmaoliy Kaykovus Kaspiy dengizining janubiy qirg'og'idagi Gilon qabilasiga mansub bo'lib, u hijriy 412-yilda, milodiy 1021-1022-yilda o'rtahol feodal oilasida tug'ildi. Kaykovus hayoti bosqichida keng ma'lumotlar bizgacha yetib kelmagan. Undan bizga mashhur asari «Qobusnoma» yetib kelgan. Kaykovus «Qobusnoma»ni hijriy 475-yilda, milodiy 1082-83-yilda yozadi. Bu haqda muallif quyidagilarni yozadi: «Sana 475da boshladim», deydi. Bu Kaykovusning 82 yoshiga to'g'ri keladi. «XI asrning 82-83-yillarida G'arbiy Eron podshohining nabirasi Kaykovus ibn Iskandar o'z o'g'li Gilonshohga bag'itlab «Nasihatnoma»sini yaratadi va o'sha davr an'anasiga ko'ra, onni bobosi podshoh Shams ul maoliy Qobus sharafiga «Qobusnoma» deb ataydi (Kaykovus, «Qobusnoma», O'qituvchi, 2006-y. 5-bet).

Qadimdan ma'lumki, ulug' zotlar farzand tarbiyasiga jiddiy etibor berganlar. Shu bois Sharqda «Kalila va Dimna» nomi ila mashhur bo'lgan «Utinoma» («Shukasaptati»), «Panchatantra» («Besh hikmat»), Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig» («Baxt-saodatga boshlovchi bilim»), Muslihiddin Sa'diyning «Guliston» va «Bo'ston», Nosiriddin Rahnabg'uziyning «Qissai Rabg'uziy», Alisher Navoiyning «Mahbub ul-qobul» («Ko'ngillarning sevgani») kabi o'nlab asarlar borki, ular asarlar davomida tarbiyaviy dastur namunasi bo'lib kelmoqda. Bunday qimmatli asarlar ajdod-avlodlarimizni halollik, poklik, to'g'rilik, merdlik, odamiylik kabi xislatlarga chorlab kelgan. Shular orasida Kaykovusning «Qobusnoma» asarining ham o'z o'rni bor. Unda bitilgan ko'plik rivoyat va hikoyatlar, kitobning yanada chiroyiga chiroy qo'shib, kitobxon ongini charxlashga xizmat qiladi.

«Qobusnoma»ning asosiy yo'nalishi Qur'oni karim suralari, Muhammad (s. a. v)ning faoliyati va ko'rsatmalarini ifodalovchi hadislar, hikmatli hikoyalar bilan uyg'unlashib ketadi. Aniqrog'i, «Parvardigori olamni tanimoq zikrida», «Payg'ambarlarning xilqati zikrida» boblari bilan boshlanadi.

«Qobusnoma» 44 bobdan iborat bo'lib, unda Kaykovus o'zining hayotiy tajribalari bilan o'g'li Gilonshohni tarbiyalashni maqsad qiladi. Kaykovus o'z o'g'liga nasihat qilar ekan, aslo zulm otiga minmaslikka davat etadi («Qobusnoma» T. O'qituvchi», 2006-y. 13 bet). Kitobdagi barcha pand-nasihatlarini o'g'li uchun bebaho meros deb biladi.



Kaykovus musiqa ilmini, adabiyot va san'atni, tabiyot fanlarini yaxshi egallagan olim kishi bo'lgan.

O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi Subutoy Dolimov hamda adabiyotshunos olim Ulug'bek Dolimovlarning yozishicha: «Qobusnoma» asrlar mobaynida G'arb va Sharq mutafakkirlarining e'tiborlarini o'ziga jalb etib kelgan: 1702–1705-yillarda turk tiliga, 1786–1787-yillarda Muhammad Siddiq Rashidiy tomonidan uyg'ur tiliga, 1881-yilda Qayum Nosiriy tomonidan tatar tiliga hamda XIX asrdayoq ingliz, farang, olmon, rus tillariga tarjima qilindi. 1935-yilda Tehron dorulfununining professori, atoqli adib Said Nasifiy «Qobusnoma»ni Tehronda bosmadan chiqardi.

1860-yilda «Qobusnoma» o'zbek tiliga birinchi marta Muhammad Rizo Ogahiy tomonidan (forschadan o'zbek tiliga, ta'kid bizniki N. B.) tarjima qilindi. Ogahiy tarjimasining qo'lyozma nusxasi O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Sharqshunoslik institutining qo'lyozmalar fondida va Sankt-Peterburgdagi Saltikov-Shchedrin nomli kutubxonada saqlanmoqda.

«Qobusnoma»ning Ogahiy tomonidan qilingan tarjimasini adabiyotshunos olim Subutoy Dolimov qayta ishlab nashrga tayyorlagan. Bu nodir asar Subutoy Dolimov tomonidan 1965, 1973 va 1986-yillarda uch marta nashr qilingan edi. 1992, 2006-yillarda esa adabiyotshunos olim Ulug'bek Dolimov (Subutoy Dolimovning o'g'illari, ta'kid bizniki N. B.) tomonidan qayta to'ldirilgan holda nashrdan chiqarildi. Mana shu so'nggi nashrdan chiqqan «Qobusnoma»ning yettinchi bobi «Suxandonlik bila baland martabali bo'lmoq zikrida» deb nomlangan.

Mazkur bobda Kaykovus farzandiga murojaat qilar ekan, quyidagilarni yozadi: «Kishi suxandon, suxango'y (notiq) bo'lishi kerak. Ammo, ey farzand, sen suxango'y bo'lg'il va lekin durug'go'y (yolg'onchi) bo'lmag'il. Rostgo'ylikda o'zing shuhrat qozong'il, tokim biror vaqq zarurat yuzidin yolg'on so'z desang qabul qilg'aylar. Har so'z desang ham rost degil na lekin yolg'onga o'xshag'on rostni demag'ilkim, rostga o'xshagan durug' durug'ga o'xshagan rostdin yaxshidur, nedinkim ul durug' maqbul bo'lur, ammo ul rost maqbul bo'lmas. Demak, nomaqbul rostni aytishdan parhez qil, toki mening bila Abu Suvor Shopur binni Abu al-Fazlning orasidag'i voqea mening boshingda sodir bo'lmasin.

Uy farzand, bilg'ilki, so'z to'rt nav bo'lur, undoqkim chaloyiq ham to'rt nav bo'lg'ondek. Biri ulkim, bilur va bilg'onin ham bilur. Ul ulkimdur, unga tobe bo'lmoq kerakdur. Biri uldurkim, bilmas va bilmag'onin bilur, ul qobildur, unga o'rgatmoq kerak. Biri uldurkim, bilur va bilg'onin bilmas, ul uyqudadur, uni bedor qilmoq kerakdur. Biri uldirkim, bilmas va bilmag'onin ham bilmas, u johildur, undan qochmoq kerakdur. Ammo deb erdimki, so'z ham to'rt navdur: biri bilinmayturg'on va aytilmayturg'on; ikkinchisi, aytilaturg'on va bilinaturg'on: uchinchisi, ham bilanturg'on va ham bilishga qaratsiz, ammo aytsa bo'laturg'on, to'rtinchisi bilaturg'on va aytilmayturg'on. Ammo aytilmayturg'on va bilinmay turg'on undoq bo'ldurki.... dunyoning salohi unga bog'liqdir. Ul so'zdin aytuvchiga ham, eshituvchiga ham ko'p naf yetar. Ammo bilinaturg'on, biroq aytilmayturg'on undoq so'zdirkim, bir muhtasham odamning aybi to'g'a ma'lum bo'lur. Lekin aql tariqidin xayolga kelsang uni aytmog' bo'sharmlig'ur. Chunki aytsang ul muhtashamning qahri yo u do'stning ozori senda hosil bo'lur, yoxud o'z boshingga ulug' sho'rish va g'ovg'o paydo qilursen. Shul vajdin ham bul so'z bilinaturg'on, ammo aytilmayturg'on so'zdur. Bu so'zlarning yaxshirog'i ham bilinaturg'on va ham aytulaturg'on so'zdur.

U to'rt nav so'zning ikki yuzi bordir. Biri xo'b va biri zisht. Har birni xaloyiqqa zohir qilsang, yaxshi yuz bila zohir qil, toki maqbul bo'lsin va xaloyiq sening so'z bila baland martabaga egalig'ingni bilasunlar. Nedinkim kishining martabasini so'z bilan bilurlar, ammo o'zining martabasini kishi bila bilmaslar, chunki har kishining ahvoli o'z so'zining ostida pinhondur, ya'ni bir so'zni bir iborat bila aytsa bo'lur, eshitg'on kishining esa ko'ngli undan tira (qorong'u) bo'lg'ay va yana o'shal so'zni bir iborat bila aytsa bo'lurkim, eshitg'on kishining jani undin rahatda bo'lg'ay.

Uy farzand, so'zning yuzin va orqasin bilg'il va ularga rioya qilg'il, har na so'z desang yuzi bila degil, to suxango'y bo'lg'aysan. Agar so'z aytib, so'zning nechuk ekanin bilmasang qushga o'xsharsanki, unga to'li derlar, ul doim so'zlar, ammo so'zning ma'nosin bilmas.

Suxango'y shu kishi bo'lg'ayki, ul har so'zni desa, xalqqa ma'qul bo'lg'ay va xalq ham har so'z desa unga ma'qul bo'lg'ay. Bunday kishilar oqillar qatoriga kirgay, yo'q ersa ul inson suratida mavjud bo'lg'on bir hayvondur.

So'zni bag'oyat ulug' bilg'il, so'z osmondin kelmas va ul har narsa emasdur. Qay bir so'zniki bilsang joyini o'tkarmasdan aytg'il, vaqtni zo'q qilmag'il, yo'q ersa donishg'a sitam qilg'on bo'lg'aysan. Har so'z desang rost deg'il va bema'nilikni da'vo qilg'uvchi bo'lmag'il.

Bilmag'on ilmdin dam urmag'il va undin non talab qilmag'il. Har na matlubing bo'lsa, bilg'on ilm va hunardin hosil bo'lur. Bilmag'on hunar da'vosidin hech narsa hosil bo'lmas, faqat behuda zahmat chekarsan...

Ammo, ey farzand, hech kishining oldida ifrot (haddan oshish) qilmag'il va ifrotni shumlig' deb bilmag'il. Har ishla miyona (o'rtacha) bo'lg'il, so'z aytmoqqa va ish qilmoqqa... sangip (og'ir) bo'lg'il. Rozingni (siringni) o'zingdan o'zga kishiga aytmag'il, agar aytsang so'ngra uni roz demag'il.

Xaloyiqning orasida bir kishining qulog'iga so'z aytish yaxshi emasdur. Agar bu so'z garchand yaxshi so'z bo'lsa ham, tashqarisidan uni yomon so'z deb gumon qiladilar va ko'p odamlar bir-birlaridan dargumon bo'ladilar. Gar so'z demoqchi bo'lsang, shunday so'z degilki, so'zingning rostlig'iga guvohlik bersinlar. Agar o'zingni zo'rlik bila aybdor qilmoq tilamasang, biror narsaga guvoh bo'lmag'il va agar guvoh bo'lsang, guvohlik berar vaqtda ehtiros (saqlanish, ehtiyotlanish) bo'lg'il. Agar guvohlik bersang, mayl bila bermag'il.

Har so'zni andisha bila boshlag'il, toki aytg'on so'zingdin pushaymon bo'lmag'aysan.

Andishani ilgari tutmoq ham bir nav karomatdur. Hech so'zni eshitishdan diltang bo'lmag'il. Ul so'z ishingga xoh yarasun, xoh yaramasun, uni eshitgil, to yuzingga so'z eshigi beklanmasun va foydasi favt (yo'qotish, o'lim) bo'lmasin.

Sovuq so'zlik bo'lmag'il. Sovuq so'z bir tuxumdur, undin dushmanlik hosil bo'lur.

Agar har qancha dono bo'lsang ham o'zingni nodon tutgil, toki senga hunar o'rgatish eshigi hamisha ochiq bo'lg'ay.

Har so'zni va hunarni yaxshi bilsang ham hech bir so'zni sindirmag'il, to'g'ri ta'rif qilg'il va uni bir rangda aytg'il: xosga xos so'z, omiyga omiy so'z deg'il, toki u hikmatga muvofiq bo'lsun va eshitg'on kishiga og'ir kelmasin, yo'qsa so'zingni dalil va hujjat birla ham eshitmag'aylar. Undin so'ng ularning rizosiga qarab so'zlag'il, to salomat bo'lg'aysan.

Ey farzand, agar har nechakim suxondin bo'lsang, o'zingni bilo'g'indin kamroq tutg'il, to so'zlash vaqtda nodon va beburd bo'lib qolmag'aysan.

ko'p bilib, oz so'zlag'il va kam bilib ko'p so'z demag'il. Nima uchunki ko'p shundog' kishi bo'lador - u ko'p so'zlar. Deb durlarki, xomushlik ko'pchilik sababidur, chunki ko'p so'zlaguchi oqil kishi bo'lsa ham, ko'p uni aqlsiz derlar. Aqlsiz kishi xomush bo'lsa, uni oqil hisoblaydilar. Ko'p naha pok, porso (xudojo'y), ravish (yo'l, yo'sin, qoida) bo'lsang ko'p zingni ta'rif qilmag'ilki, har kishi sening guvohlig'ingni eshitmas. Ko'p bilish qilkim, xaloyiq seni ta'rif qilsunlar va shundoq so'z degilkim, u ko'p parakun, bekor va zoye ketmasun.

Ko'p farzand, demak, yolg'on va bexudo so'z aytmoq devonalikning ko'p qomidir. Har kishiga so'z aytur bo'lsang qarag'il, ul sening so'zingga xaridor mu yoki xaridor emasmu? Agarda uni so'zingga xaridor topsang, ko'p so'zningni sotgil. Yo'q ersa, ul so'zni qo'yib, shundoq so'z degilkim, ko'p kush kelsin va sening so'zingga xaridor bo'lsin. Lekin inson bila ko'p bo'lg'il, odamiy bila odam bo'lg'il, nedikim inson boshqa, odamiy boshqadur.

Ko'p farzand, toki qila olsang, so'z eshitmakdin qochmag'ilkim, kishi ko'p eshitmak bila suxango'y hosil qilur. Avvalo, buni shundoq dalillash ko'p chunkin, agar o'g'lon onadan tug'ilsa, unga yerning ostidan bir joy qilib ko'p bo'rib, ul joyda parvarish qilsalar, onasi va doyasi unga gapirmasalar, ko'p o'g'lon hech kishining so'zin eshitmasa, ulug' bo'lg'onda lol (soqov) bo'lib, ko'rmasmusankim, barcha lollar kar bo'lurlar.<sup>9</sup>

Kaykovusning «Qobusnoma» asari hayotimizda yashashimiz uchun ko'p mavroda, qachon, qanday holatda muomala-munosabatga undaydi. Hatto bugunning odamlar o'rtasidagi muomala saboqlariga o'rgatadigan kitobi, deb ko'pchilik amerikalik sotsiolog Deyl Karnegining kitobini ko'p o'qib keltiradilar. To'g'ri, unda g'arbcha muomala keng o'rin olgan, Kaykovusning «Qobusnoma»si esa sharq axloqi yo'nalishida bo'lib, ham foiniy dunyo, ham boqiy dunyo saboqlaridan bilim berishi bilan ko'p amomatlidir. Shu ma'noda «Qobusnoma» bebaho kitob bo'lib qolaveradi. Ayniqsa, notiqlik bobida undan ko'p foydalanish mumkin.

Mavzuni «Qobusnoma»dagi ibratli fikr bilan yakunlamochimiz... Nutqni juda yaxshi va san'atkorona o'rga-nib ol, doimo gapga chechan bo'lishga harakat qil... Nutqi shirin kishining mehribon kishilari ham ko'p bo'ladi («Qobusnoma»dan).

<sup>9</sup> Kaykovus. Qobusnoma. Toshkent, «Meros», 1992. 31-37-betlar

## Alisher Navoiy notiqlik haqida

O'zbek xalqining buyuk mutafakkiri, insonparvar shoiri Alisher Navoiy o'z ijodini hamisha ijtimoiy faoliyat bilan birga qo'shib olib borgan. Alisher Navoiy o'zbek mumtoz adabiyoti va adabiy tilining asoschisi bo'lishi bilan birga barcha turkiy xalqlar adabiyoti va adabiy tili rivojiga ulkan hissa qo'shganligi shubhasizdir. Navoiy turkiy tilda go'zal nutq tuzish va bu tilda ajoyib o'lmas asarlar yozish mumkinligini ham ilmiy ham amaliy jihatdan isbotladi. Alisher Navoiyning «Muhokamat ul lug'atayn», «Mahbub ul-qulub», «Nazmul-javohir» va boshqa qat'iy asarlari o'zbek tilida nugq tuzishning go'zal namunalari bo'lish bilan birga, tilning yuksalishiga ham katta hissa qo'shdi.

Bizning ota-bobolarimiz qadimdan odamiylikni, qadr-qimmatni va mehr-oqibatni har qanday zaru oltinlardan, ma'danu boyliklardan duru gavharlardan ustun qo'yib kelishgan. Alisher Navoiyning:

*Odami ersang, demagil odami,  
Onikim yo'q xalq g'amidin g'ami?*

– misralari ham bu fikrimizning dalili sanaladi.

Hazrat Alisher Navoiy Husayn Boyqaroni «Sohibqiron» deb ulug'lagan bo'lsalar, Husayn Boyqaro ham Alisher Navoiyning turkiy tilda bitilgan «Xamsa»sini o'qigach «So'z sohibqironi» deb ataydi va Navoiyga bag'ishlangan risolasida buni qayd etadi:

*Erur so'z mulkining qahramoni,  
Erur gar chin desang sohibqironi.*

Navoiy so'z qadrini benihoya ulug'lagan va uning qudratini o'z davridayoq, hayotlik chog'idayoq sinab ko'rgan ulug' siymo edi. Shu bois ham hazrat Navoiy yozadilar:

*So'zdirki, nishon berur o'likka jondin,  
So'zdirki, berar jonga xabar jonondin.  
Insonni so'z ayladi judo hayvondin,  
Bilkim, guhari sharifroq yo'q ondin.*

insof, odamning tirikligidan nishona ham soʻz, oshiq-mashuqlar  
boʻladigan ishq-muhabbat tuygʻularini tarannum etuvchi ham soʻz,  
insonni olamidan odamni ajratib turuvchi ham soʻz ekanligini  
aytib, undan-da goʻzal narsa yoʻqligiga ishontiradi. Navoiy  
Gavharini, uning qadr-qimmatini va goʻzalligini, inson ruhida jon  
muhimligini taʼkidlaydi. Ulugʻ Navoiyning «Ey soʻz, ne balo ajib  
Gavhar, Gavhar neki, bahri mavjvarsen, Derlar seni, dur, savob emas,  
toʻy toʻyvaru ruhu dur quruq suv», kabi soʻz shaʼniga aytgan gaplarini,  
«Baharat ul-lugʻatayn» asarida tilimiz boyligini namoyish etganini,  
«Ushu un-nafois» asarida soʻzdan unumli foydalanish mahorati  
boʻladigan fikrlarini koʻz oldimizga keltiraylik.

Uning notiqlikning qudrati beqiyos ekanligi borasida  
yozgʻanmiz, Oʻzbekiston qahramoni Abdulla Oripov Alisher Navoiy  
toʻgʻrisida shunday xulosaga keladi:

*Temur tigʻi yetmagan joyni  
Qalam bilan oldi, Alisher.*

A. Oripov xulosasining toʻgʻriligini hazrat Navoiy oʻz ijodida ham  
koʻrsatgan. Bu oʻrinda taniqli olim Nusratilla Jumayevning (Istiqlol va  
Tilimiz, Toshkent: «Sharq». 1998, 46-47-betlar) fikrlarini keltiramiz:  
«Alisher Navoiyning:

*Olibmen taxti farmonimga oson  
Cherik chekmay Xitoydan to Xuroson,*

bu soʻzlarida ham shunday hikmat bor. Cherik – bu lashkar. Shoir  
tashar tortmasdan Xitoydan Xurosongacha boʻlgan sarhadni zabt  
etish haqida faxrlanib soʻzlamogʻda. Maʼlumki, Alisher Navoiyning  
shoir darajasi va darajasi har qanday sarkardadan ham ustun boʻlgan.  
«Ishq va tafakkur salohiyati uni vaziri aʼzam darajasiga koʻtardi».

Bobokalonimiz hazrat Alisher Navoiyning til va nutq, nutq odobi,  
notiqlik sanʼati haqidagi fikrlari aynan haqiqatligiga shubha boʻlishi  
imkonda emas.

Misolarga murojaat qilaylik:

Yaxshi soʻzlay olish (nutq) – sanʼatdir, noyob hunardir. Uni egal-  
lariga intilgan:

*Erdin soʻz hunar, enchidin boʻz hunar*

(«Mahbub ul-qulub». 82-bet).

Insonning odob-axloqini belgilaydigan omillardan biri uning soʻzi, nutqidir: Suvning mazasi muz bila, oshning mazasi tuz bila, odam yaxshiligʻi soʻz bila.

(Mahbub ul-qulub, 79-bet)

*Soʻz zohir etar zamir ishi koʻprigidin,  
Til muxbir erur koʻngil pihon emgagidin.  
Faxm ayla kishi holini soʻz demagidin,  
Kim berdi xabar hadisi koʻnglidagidin.*

(Nazm ul-javohir. 41-bet)

Kishining soʻzi (nutqi) uning aqliy kamolotidan darak beradi:

*Odamki demak birla kiromiydiru bas,  
Soʻz durri ishining intizomiduru bas,  
Sihat onchaki, ahli aql komiduru bas.  
Aqliga dalil aning kalomiduru bas.*

(Nazm ul-javohir. 25-bet)

Soʻzlaganda diling bilan tiling bir boʻlsin, chunki dildagi tilga chiqadi:

*Haq seni sevgay el bila boʻlsang,  
Tilu koʻnglingni bir qilib birroʻy,  
Nuqta sursang shukuftau xavdon,  
Zist qilsang, kushodou xushroʻy.*

(Arbain, 59-bet)

*Demonkim koʻngli poku ham koʻzi pok,  
Tili poku soʻzi poku oʻzi pok.*

(Xamsa, 175-bet)

*Tilki fasih va dilpazir boʻlgʻay – xoʻbroq boʻlgʻay,  
Agar kungul bila bir boʻlgʻay.*

(Mahbub ul-qulub. 60-bet)

*So'zlaganda o'ylab so'zla, tushunib bilib gapir:  
So'zni ko'nglungda pishqarmaguncha tilga kelturma,  
Harnakim ko'nglungda bo'lsa tilga surma.*

*(Mahbub ul-qulub. 83-bet.)*

Xushmuomala, shirin so'z bo'l. Tiling bilan kishilarga ozor berma:

*Har kimki chuchuk so'z elga izhor aylar,*

*Har neki ag'yor durur yor aylar.*

*So'z qattig'i el kunguliga ozor aylar,*

*Yumshog'i ko'ngullarni giriftor aylar.*

*(Nazm ul-javohir. 43 bet)*

*Tilni, so'zni qadrla, uni hurmat qil:*

*Donau dur so'zini afsona bil,*

*So'zni jahon bahrida durdona bil.*

*(«Xamsa», 34-bet)*

Oz gapirmoq – hikmatga sabab; oz yemoq – sog'likka sabab.  
Og'ziga kelganini demoq – nodonning ishi va oldiga kelganni yemoq –  
hayvonning ishi.

*Ko'p demak birla bo'lmagil nodon,*

*Ko'p yemak birla bo'lmagil hayvon.*

*(Mahbub ul-qulub. 83-bet)*

Chin, to'g'ri so'zla, nutqingda halol bo'l. Yolg'on so'z baxtsizlik  
keltiradi. Chin so'z mo'tabar, yaxshi so'z muxtasar...

*(Mahbub ul-qulub. 63-bet)*

Yaxshi, ezgu so'z (nutq) kishiga obro', baxt keltiradi. Ezgu so'zli bo'l:

*Kim istasa mazhari karomat bo'lmoq,*

*Har nav' ishda istiqomat bo'lmoq.*

*So'zdir anga mujibi g'aromat bo'lmoq,*

*Til zabtidatur anga salomat bo'lmoq.*

*(Nazm ul-javohir. 30 bet)*



Demak, shirinsuxanlik, chiroyli gapirishga intilish, notiqlik qadimiy tarixga ega ekan, bizning ham ajdodlarimiz intilgan qoidalarga amal qilishimiz lozim bo'ladi. Alisher Navoiyga qadar va unga zamondosh bo'lgan allomalarimiz asarlarida va o'git nasihatlarida inson uchun ma'naviy zebu ziynat bo'lgan shirin muomala, chiroyli va muloyim so'zlash, notiqlik san'atini egallashga chaqiriq, da'vat tarix o'zanida bizgacha kelib bog'lanadi. Bu muammoni hal etish esa har birimizning qo'limizda, chidam va iroda bilan harakat qilsak, albatta, erishish mumkin.

Alisher Navoiy hazratlari «Mahbub ul-qulub» asarining birinchi qismning 21-bandida «Nasihatgo'y va va'zxonlar to'g'risida» shunday yozadilar:

«Voiz haq so'zini targ'ib qilishi, payg'ambar so'zidan chetga chiqmasligi kerak, eng avval uning o'zi haq va payg'ambar yo'lga kirishi, so'ngra esa nasihat bilan elni ham shu yo'lga solishi lozim. O'zi yurmagan yo'lga elni boshlamoq – musofirni yo'ldan adashtirib biyobonga tashlamoq va sahroda uni yo'qotmoqdir. O'zi mastning elni hushyorlikka chaqirishi – uyquchi kishining odamlarni bedorlikda da'vat etganiga o'xshash bir narsadir.

*Uyqusida so'zlagan kasal odamdир,  
Unga quloq osgan esa tentaqdир.*

Va'z – murshidlar, pirlar, hushyor kishilarning ishidir va ularning nasihatini qabul etgan maqbul kishidir. Avvalo, uning o'zi bir yo'lga tushib olgan bo'lishi, keyin esa boshqa odamlarni o'sha tomon boshlab borishi kerak. Yo'lga bilmay kirgan yo'qoladi va maqsadidan boshlab yerga yetadi.

Va'zxon shunday bo'lishi kerakki, uning majlisiga bo'sh kirgan odam to'lib chiqsin; to'la kirgan odam esa yengil tortib chiqsin, xo'jay qaytsin. Voiz olim va halol ish ko'ruvchi bo'lsa, uning nasihatidan chetga chiqqanlar gunohkor bo'ladi.

Agar u boshqalarga buyursa-yu, o'zi qilmasa, uning so'zlari hech kimga ta'sir etmaydi va foyda keltirmaydi.

O'z yordamchilari orqali nasihat qiluvchi voiz – o'zi qolib, shogirdlik kuylatuvchi qo'shiqchidir (Mahbub ul-qulub. 31–32-betlar).

Alisher Navoiy ijodini dengizga qiyos qilish mumkin. Unda daryo gavharlar behisob, biz ulug' mutafakkirlarning so'zga, nutqqa

qaratilgan fikrlarini yoritishga harakat qildik. Bu hali  
emas. Mazkur mavzu katta ilmiy ishlarga manba, material  
aminimiz. Navoiydek ulug' alloma so'z qudratiga shunchalik  
qaratgan ekan, bizning burchimiz uning fikrlarini o'qimoq  
qolmasdan, qo'limizdan kelgancha unga  
insoniy burchimiz ekanligini esdan chiqarmaylik.

## Amir Temurning notiqligi

Muhammad Mir Alisher Navoiy «Majolis un-nafois» asarida shunday  
yozadi:

«Temur Ko'ragon agarchi nazm aytmoqqa iltifot qilmaydurlar,  
nazo nazm va nasrni andoq xo'b mahal va mavqe'da o'qibdurlarkim,  
shunday bir bayt o'qig'oni ming yaxshi bayt aytqonicha bor». Ya'ni ul  
she'r yozmagan bo'lsa-da, lekin she'riy va nasriy asarlardan  
ko'p yod olgan va ularni shunday yaxshi o'qir ekanki, bunga  
qoyil qolar ekan. Bunday qobiliyat esa faqat bilimdon, nozikta'b  
shaxslarda bo'ladi.

Ibn o'tkir, zakovati tengsiz Sohibqironning bu boradagi fazilatlarini  
xalq yozuvchisi Pirimqul Qodirovning «Amir Temur  
» kitobida ham muhim tarixiy manbalar asosida alohida  
tadqiqat qilgan. Amir Temur saroyida kotib bo'lib ishlagan va uning hayot  
yaxshi o'rgangan tarixchi Hofizi Abro' «Zubdat ut-tavorix» asarida  
yozadi: «Amir Sohibqiron maktabda o'z tengqurlaridan  
o'zib ketardi. Balog'at yoshiga yetguncha ilm, adab, xat va  
kasb etadi. Undagi teran bilim shijoatga payvand bo'ldi va  
shundan so'ng amirlik mansabini egalladi».

Ibn Arabshoh «Amir Temur tarixida taqdir ajoyibotlari» kitobida  
Sohibqironni shunday tasvirlagan: «Temur baland bo'yli, qadimiy  
shahonlarning ulkan qomatli, yelkalari keng, boshi shernikiday katta,  
qo'ng'or yo'g'on, oqu qizil tiniq yuzli, yo'g'on ovoqli, ikki ko'zi  
misoli ikki yoniq shamday olovli, badani pishiq, xuddi tosh misoli  
qattiq, o'limdan qo'rqmaydigan iztirobsiz vazmin odam edi».

Hofizi Abro' bejiz «Suxanvorlik kasb etdi» deb yozmagan. Ibn  
Arabshohning: «... yo'g'on ovoqli, vazmin odam edi», deb ta'rif berishida  
Sohibqironning Alloh yuqtirgan iste'dodiga ishora bor.

Notiq uchun vazminlik va tinglovchilarga zalvor bilan yetib boradigan ovoz juda muhim. Sohibqiron Amir Temur bobomizda notiq uchun kerakli bo'lgan barcha sifatlar jamuljam bo'lgan. Ul zotning notiqligini isbotlovchi misollar Nizomiddin Shomiyning «Zafarnoma» asarida ko'plab uchraydi.

Shomiy «Zafarnoma»sining ikki qo'lyozma nusxasigina saqlanib qolgan. Birinchisi Amir Temurga taqdim etilgan qo'lyozmani, 1425-yilda ko'chirilgan nusxasi bo'lib, u Istanbuldagi «Nuri Usmoniy» masjidi kutubxonasida 3367-raqam bilan saqlanmoqda. Ikkinchisi muallif tomonidan Amir Temurning nabirasi Mirzo Umar Bahodir ibn Mironshohga taqdim etilgan qo'lyozmadan ko'chirilgan nusxa bo'lib, u Londondagi «Britaniya muzeyi» kutubxonasida saqlanadi.

Mazkur asarning Amir Temur haqida yozilgan manbalardan farqli tomoni shundaki, unda Sohibqironning aytgan va so'zlagan nutqlari juda keng o'rin olgan. Bu holat esa Amir Temurning o'tkir notiqligini, nutqida ortiqcha so'z va iboralarga o'rin berilmaganligi, har bir so'zning o'z ohangi bilan, ixcham va lo'nda hamda keskin holatda ayta olish mahoratini namoyon etadi.

Ul zotning so'zlagan nutqlarida aniq maqsad, reja ko'zda tutilgan yorqin ko'rinadi. Nizomiddin Shomiy yozadi: «Sohibqiron hazrat menga «Shu uslubda yozilgan, tashbeh va mubolag'alar bilan oro berilgan kitoblarda ko'zlangan maqsadlar o'rtada yo'qolib ketadi. Agar so'z qoida- qonunidan nasibador bo'lganlardan birontasi ma'nisini fahmlab qolsa qolar, ammo qolgan o'ntasi, halki yuztasi uning mazmunini bilishdan, maqsadga yetishdan o'lib. Shu sababli uning foydasi barchaga barobar bo'lmaydi», degach, bunda (Nizomiddin) yer o'pib arz sharafiga shunday yetkazdim: «Harchand so'z martabalari ko'p va manzillari sanoqsizdir, ammo abadiyatga payvand ushbu davlat soyasida bu faqirning so'z san'atida baqadri imkon qudrati va uning uslublari borasida bu fan arboblari nazdida shuhrati bordir. Olimlar maqbul so'z haqida shunday deganlar: Yaxshi va ravon so'z uldirkim, avom xalq uning ma'nosini anglagay, xos kishilar esa unga ayb qo'ymagay. Shuning uchun aytmishlar (bayt):

*«Gar iste'dod bo'lmasa hech kim aytolmas,  
Xosga maqbulu omma tushungudek so'zni»*

Amir Sohibqiron hazrat: «Men ana o'shandoq so'zni xohlayman», dedi. Men duo marosimini bajo keltirgach, arz izzatgohiga shunday deb yetkazdim: «Agar hukmlari joriy bo'lsa, bu banda shu tariqa yo'ldan borgaymen, qudratim yetguncha uning uddasidan chiqishga harangaymen va xizmatini umrim sharafi deb bilgaymen».

Yuqoridagi suhbatdan ko'rinib turibdiki, Amir Temur so'zning qudratini teran his etgan o'ta bilimdon, so'z sehrini anglagan, notiqlik san'atini mukammal bilgan, so'z bilan amalga oshishi mumkin bo'lgan har bir neniki anglab yetgach yuksak ma'naviyat egasi bo'lgan. Amir Sohibqironning yosh yigitlik chog'i amakisi Amir Hoji Barlos Xurosonga jo'nashga qaror qiladi. Amir Sohibqiron unga shunday deydi: «Siz Xuroson tomonga borishga azm qilibsiz! Viloyat va mamlakat hokimsiz va boshliqsiz qolib, unga fitnayu futur yo'l topgay va zarar yetgay. Agar maslahat ko'rsangiz, men o'z viloyatimga borib, u joydan podshoh xizmatiga yuzlanay, uning amirlari va vazirlarini ko'ray, toki viloyat xarob bo'lmasin» (N. Shomiy, «Zafarnoma»). Sohibqironning bu so'zlari Hoji Barlosga ta'sir etib, maslahatga muvofiqligini bildi va uning gaplarini to'g'ri deb topdi. E'tibor berilsa, Amir Temur so'zlarida birorta ortiqcha, o'rinsiz so'z uchramaydi. Ular barchasi aql olovida toblanib, pishib yetilib, nutq orqali namoyon bo'lmoqda. Fikr aniq, tushunarli, lo'nda va ta'sirchan. Sohibqiron el-yurtni o'ylab, uning tinchligini ta'minlash haqida qayg'urmoqda.

Amir Temurning xalqparvar, yurtparvar zot ekanliklarini uning mana bu so'zlari ham tasdiqlaydi. Mag'lubiyatga uchragan Amir Husayn Amir Sohibqironga: «O'z xonadoning va elingni suvidan o'tkaz!» – deb buyuradi. Amir Sohibqiron javob beradi: «El-yurt, yaqin kishilar suvidan kechish maqsadida jo'nab ketdilar. Ammo bundan nima foyda? Axir, viloyat vayron bo'ladi-ku, yashashu tirikchilik odamlar uchun achchiq kechmoqda, shaharlar xarobaga aylandi. Maslahat shulki, siz salomat jo'naybering! Men yana bir necha kun turib, lashkar to'playman va bu dushmanlar bilan yana bir bor jang qilaman»<sup>10</sup>, – dedi. Uning bu nutqidan botirlik va dovyuralik balqib turibdi.

Amir Sohibqiron qaysi yurtga borsa, u yerda tartib va osoyishtalik o'rnatish yo'lini tutganlar. U zot Tufliis mavzeiga borganlarida amirlarini va arkoni davlatni yig'ib, shunday nutq so'zlaydi: «Men shu zamonda

<sup>10</sup> O'sha asar, 48-bet.

voqe' bo'lgan hodisayu xarobliklar, fitnayu fasod boisidan vujudga kelgan ajoyib holatlar va g'aroyib ishlarni ko'rmoqdamen; qonun qoidalar izdan chiqqan.

Podshohlik rasm-rusumi yo'qolgan. Albatta, qudratli podshohlar bo'lmaganidan keyin mamlakat ahvoliga tashvish va parishonlik yo'l topishi taajjubkim, o'tmish podshohlar va sobiq maliklarning tutgan siyosati va hokimiyati ustidadir. Ularning shunchalik ulug'vorligi, komronligi va jahondorligi bo'la turib... guriy jamoalari qanday qilib shu damgacha saqlanib, mamlakatni va saltanatni boshqarganlar»<sup>11</sup>

E'tiborlisi shundaki, Amir Sohibqiron notiqlikda ham, jasurlikda ham o'z tinglovchilariga ibrat rolini o'tagan. Uning nutqidan biron so'z olib tashlash qiyin. Hamma so'zlar o'z o'rnida maqsad nishoniga bexato tegmoqda. Bunday nutqni tinglagan amiru ulamolar, arkoni davlat Amir Sohibqiron maqsadu murodini chuqur anglab, unga ishonishni ergashishi tabiiy edi.

Sohibqiron bobomizning quyidagi nutqida xayrli ishlarga da'vat mujassam: «Nomdur podshohlar qudratining foydasi, adolat shior maliklar g'amxo'rligining manfaati xayrli ishlarni shoyi' qilish va yaxshiliklarni yoyishdir. Hozirda biz o'tmish podshohlardan qolgan asarlarni nazorat qilyapmiz. Biroq, albatta, bizdan ham biror yodgorlik qolishi lozimki, zamon o'tishi bilan bizning nomimiz o'sha yodgorlikda saqlanib qolsin va uning ajru savobi beandoza bo'lsin»<sup>12</sup>.

Amir Temur Tarag'ayning o'g'illariga aytgan vasiyat nutqiga e'tibor bersak: «O'g'illarim, millatning rohati, saodatini saqlamoq uchun sizlarga qoldirayotgan vasiyat va tuzuklarni yaxshi o'qing, asl unutmang va tatbiq eting.

Millatning dardlariga darmon bo'lmoq vazifangizdir. Zaiflarni ko'ring, yo'qsillarni zanginlar (boylar) zulmiga tashlamang. Adolat va iyilik (yaxshilik) qilmoq dastingiz, rahbaringiz bo'lsin. Men kabi uzun (uzoq) saltanat surmoq istasangiz, qilichlaringizni yaxshi o'ylab chekingiz. Bir da'fa chekikdan so'ngra-da, uni ustalik-la qo'llangiz. Orangizga nifoq tuxumlari ekilmasin uchun cho'q (ko'p) ziyrak, ehtiyotkor bo'ling. Ba'zi nodimlaringiz va dushmanlaringiz nifoq tuxumlarini sochmoqqa, bundan foydalanmoqqa til biriktiradilar. Faqat

<sup>11</sup> O'sha asar, 135 bet.

<sup>12</sup> O'sha asar, 318-bet

...oyatimda sizga idora shaklini, uning asosi – yo'riqlarini ko'rsatdim.

...kibga sodiq qolsangiz, toj boshingizdan tushmas.

O'lim to'shagida so'zlagan otangizning bu so'zlarini unutmangiz.

Mendan so'ng xoqon Pir Muhammad Jahongir bo'lajak. Unga menga  
...etgan kabi itoat etingiz.

[Yig'ilgan butun qo'mondonlar, saroy odamlari yig'lab turib  
...lariga fотиha tortdilar. Temurning so'nggi so'zi «La ilaha illoloh...»  
...tdi).<sup>11</sup>

Tarixchi Turg'un Fayziyev sohibqiron umrining so'nggi daqiqalari  
...vasiyati xususida shunday yozadi:

«Naql qilinishicha, Xitoy safariga o'tlangan Amir Temur yo'lda,  
...qirog'i, O'trorda betoblanib yotib qoladi. Amir Temurning yonida  
... Saroy Mulk xonimgina turishiga haqli edi. Hukmdorning  
...g'alishiga ham madori yetmas, binobarin, Saroy Mulk xonim uning  
...ahvolidan kechayu kunduzi xabardor bo'lib turar edi. Tunlarning birida  
... Saroy Mulk xonimni uyqu g'alaba qilib, bir nafas pinakka  
...otadi-yu, shu zahoti seskanib uyg'onadi. Va shu asno darhol hukmdor  
...tarafga ko'z tashlaydi. Biroq, qay ko'z bilan ko'rsinki, to'shakda  
...hukmdor yo'q edi. Saroy Mulk xonim sapchib turib, tashqariga yuguradi.  
... Posbon oldiga chiqib, hukmdorni so'raydi. Posbon unga ta'zim etib,  
...qorong'ilik tomonga ishora qiladi. Saroy Mulk xonim o'sha tomon  
...qolib-suqulib yelib borarkan, kichik bir tepalik ustida turgan qoraga  
...zi tushadi. Bu Jahongir Amir Temur edi. U yelkasida chopon, chuqur  
...ayolga cho'mgan holda qorong'ilikka tikilib turar edi. Saroy Mulk  
...xonim hayajonda:

– Bu qanday gap, ulug' amirim?! Izg'irinli tunda kasal holingiz bilan...  
...bu yerda turishingizda ne hikmat bor? – deya amirni o'rdagoh tomon  
...yotaklaydi.

Temur o'rdagohga kelib, o'z o'rniga yotgach, Saroy Mulk xonim  
...g'ayritabiy ahvolot sirini yana so'raydi. Amir Temur xo'rsinib, oh  
...tortgach, shu kecha ko'rgan tushini so'zlaydi:

– Har ikki chekkasi baland qamishlar bilan o'ralgan katta yo'lda  
...timni yeldirib borayotgan edim. To'satdan yo'l chetidagi qamishlar

<sup>11</sup> «Temurning o'lim to'shagida so'zlaganlari». Rafiq O'zdarkning «Turklarning  
... kitobi» (Istanbul, 1990-yil. «Tarjimon» ro'znomasi nashri), 2-jildidan To'ra Mirzo  
...li kelgan.

shitirlab qoldi. Men o'sha tomonga qaradim. Qaradim-u, hayratdan ot jilovini tortib, to'xtatdim. Qamishzor ichidan padari buzurukvorim shitob bilan chiqib kelayotir edilar. Men hayrat ichinda otdan tushib, otam istiqbollariga yurdim. Ammo padari buzurukvor menga iltifot qilmay, oldimdan o'tib borib, otimning egar-jabduqlarini yechib olib, o'z kelgan yo'llariga qaytib, qamishlar orasiga kirib, ko'zdan g'oyib bo'ldilar... Men katta yo'l ustida garangsib, yalang'och ot yonida turganim holda uyg'onib ketdim... Uyg'onganimga a'zoyi badanim titrab, qizib ketayotgan edi. Bu xosiyatsiz tush dahshatidan tashqariqa qanday chiqib ketganimni ham sezmay qolibman... Har holda paymona to'lganga o'xshaydir...

- Yaxshi niyat qiling, ulug' Amir, dard boshqa, ajal boshqa, shukr, salomatligingiz yaxshi! - tasalli berishga urinardi Saroy Mulk xonim.

- Yig'idan foyda yo'q, xonim! Taqdirni tabdil qilib bo'lmas... Shukr, tong ham yorisha boshladi. Posbonga buyuring, amir Shayx Nuriddin, amir Shohmalik va amir Xo'ja Yusuf huzurimga kirsinlar.

Amirlar va beklar sohibqiron qarorgohiga kirganlarida u to'shakda behol yotardi. Saroy Mulk xonim hukmdorga yaqinlashib, amirlar tashrifi haqida sekingina shivirlagach, u nursiz ko'zini ohista ochib, yaqinroq kelib o'tirishlariga ijizat berdi. Amirlar qisqagina hol-ahvol so'rashishgach, hukmdorning oyoq tomonida - poygohdan joy olib, butun vujudlari quloqqa aylangan holda yerga qarab o'tirardilar. Hukmdor ohista ko'zini ochib, amir va beklarga bir-bir razm solgach, entikib-entikib so'z boshlaydi:

- Ma'lumingiz bo'lgaykim, Jahongir Mirzoning farzandi Pir Muhammad Mirzoni valiahd etib tayinlaydurmen. Tokim Samarqand taxti va arkoni davlat aning hukmi-farmonida bo'lg'ay. Mamlakat va millatning osoyishtaligi, qo'shin salohiyatining mukammalligi, raiyatning xotirjamligi borasida foydali tadbirlar ko'rsin. Binobarin sizlar ham itoat va ehtirom borasida unga bay'at bildirib, saltanatni boshqarishda, el-yurtning tinchligi, musulmonlarning osoyishtaligi uchun hamjihat bo'lib, ko'maklashmog'ingiz lozim. Sizlarning hamjihatlik va ittifoq bilan qilgan ishlarigiz uzoq-yaqindagi do'st-dushmanlarga ko'rinib tursin. Tokim o'zaro nizolarga o'rin qolmagay va hech kim saltanatga qarshi isyon ko'tarishga o'zida jasorat topmag'ay. Bilaks o'zaro nizolar vujudga kelgay, raiyat boshiga tashvish

va nadomatlar ortib, mamlakat obodonligi barham topgay. Inchunun mening ko'p yillik sa'y-harakatlarim zoe ketgay...

Amir Temur holsizlanib ko'zini yumadi. Bu uning so'nggi vasiyati edi.

Amirlar, beklar va yurtning kattalari hamda shu yerda hozir bo'lgan shahzodalar, malikalar hukmdorning vasiyatini mukammal bajarishga qasamyod qilishgach, amir Shayx Nuriddin ohista so'z toshlaydi.

- Agar amri oliy bersangiz, Toshkent, Samarqand va Hirotga xabar yuborsak, toki farzandi dilbandlaringiz - shahzodalar zudlik birlan yetib kelib, janobi oliylarining husni tavajjuhlaridan bahramand bo'lib, gavharfishon nasihatlaringizni ixlos qulog'i birlan tinglab, itoat kamarini bellariga bog'lasalar, foydadin xoli bo'lmas erdi.

- Amir Temur asta ko'zini ochib, amirlarga mungli nazar solarkan, chap qo'lini ko'tarib, avval ko'rsatkich barmog'ini, keyin o'rta barmog'ini ko'rsatadi-da, qo'lini tushirib, ko'zini yumib oladi. Amirlar hukmdorning imo-ishorasiga tushuna olmay, sarosimada Saroy Mulkininga qaraydilar. Shu asnoda hukmdor tamshanib, ko'zini ochib amirlarga qaraydi.

- Vaqt o'tdi, bir-ikki kunlik umr qoldi. Afsus, ularni ko'rish nasib etmadi. Endi diydor ko'rishmak qiyomatga qoldi, - deydiyu, yana ko'zini yumadi.

Darhaqiqat, ertasi 17-sha'bon 807/1405, 18-fevral chorshanba kechasi shom bilan xufton namozi o'rtasida sahibqiron amir Temur ko'ragonning joni uzildi. Uning o'limi hammadan sir tutilib, tunda maxsus bezatilgan aravada amir Xo'ja Yusuf boshchiligida Samarqandga jo'natildi. Shundan so'ng amir va beklar kengash o'tkazib, uzoq-yuqindagi barcha shahzodalarga xabar yuborishga, sahibqironning valotini vaqtincha sir tutishga, toki saltanat dushmanlari oyoqqa qalqib layon ko'tarmasinlar, degan qarorga keldilar.<sup>14</sup>

Amir Sahibqironning so'zga benihoya e'tibori u ulug' zotning sarkardalik va davlatni boshqarish san'atida yorqin iz qoldirgan.

Amir Temur bobomizning bu boradagi o'ziga xos uslubini chuqur o'rganish, so'zga, notiqlikka shunchalar mas'uliyat bilan yondashganlaridan ibrat olish barkamol avlodni tarbiyalash jarayonida alohida ahamiyat kasb etadi.

<sup>14</sup> Ko'chirma: O'zbekim, Vatan seriyasi Toshkent, 1992-yil, 5-8-betlardan olindi.



Bu mavzuga yanada chuqurroq yondashish orqali Amir Temurning notiqlik borasidagi mahoratini teran yoritish galdagi vazifalardir.

Voizlik san'atining katta bilimdoni, Nizomiddin Mir Alisher Navoiyning zamondosh Husayn Voiz Koshifiy turfa fanlarga oid asarlar yaratishi bilan birga «Futuvvatnomayi Sultoniya», «Axloqi Muhsiniy» kabi bir qator asarlarini axloq, nutq odobi va notiqlik (voizlik) san'atining o'ziga xos sirlarini ochishga bag'ishladi. Uning «Futuvvatnomayi Sultoniya» hamda «Axloqi Muhsiniy» kitoblari o'z zamonasidayoq madrasalarda darslik sifatida qo'llanilgan. Husayn Voiz Koshifiy voizlikning uch xil ko'rinishida ham amalda bemalol nutq so'zlagan. Husayn Boyqaro topshirig'i bilan davlat ahamiyatiga ega bo'lgan xat, noma va yozishmalarni o'qib berishda notiqlik san'atining dabirlik turidan foydalangan. Hayit nomoz kunlarida, namoz juma va boshqa bayramlarda Husayn Voiz Koshifiy voizlik san'atining xatiblik ko'rinishidan foydalanib, unda odob, axloq, islom qoidalariga monand masalalarni sharhlab, xatoba ilmiga xos tamoyillarni ishga solib ma'ruza qilgan. Shuningdek, u voizlikning muzakkirlik ko'rinishida nutq so'zlaganda o'tgan tarixiy voqealar, turfa xil hodisalar haqida voizlikning muzakkirlik turidan foydalangan.

Husayn Voiz Koshifiy yuqoridagi asarlarida so'z tanlashda notiqning farosati va didi haqida, nutq jumllarida har bir so'zning o'rni muhimligini, tinglovchilarning esa bilim saviyalarini hisob olgan holda va'z o'qish sirlariga e'tiborni qaratgan va bunga o'zi to'liq amal qilgan. Shuningdek, voizning shakli-shamoilidan tortib tili va dilidagi mushtaraklik ham muhimligini ta'kidlagan. Professor Nizomiddin Mahmudovning yozishicha: «Juda katta iste'dodi va qamrovli bilimi bilan shoh Husayn Boyqaroning e'tibori, Alisher Navoiyning e'tirofiga sazovor bo'lib, davlat voizi sifatida nom qozongan Koshifiy va'z, uni tayyorlash va aytishda zarur bo'ladigan sifatlarning hech birini, kattasini ham, kichigini ham nazardan soqit qilmagan. U nutqning ta'sirchan va jozibador, aniq va ravon, maqsadli va jo'yali bo'lishida ovozning balanu-pastligi, tovlanishlarining ahamiyati haqida gapirgan. Va'zxonning o'zini tutishi, tashqi qiyofasi, so'zlash tarzi, mimikasi, bosh, yuz, qo'l, umuman tana harakatlarining nechog'lik muhimligiga diqqat qilgan.<sup>15</sup> Koshifiy taxminan 1440-yillarda Xuroson viloyatidagi Sabzavor

<sup>15</sup> Mahmudov N. «O'qituvchi nutq madaniyati», Toshkent. Alisher Navoiy rahbarligida O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2007-yil, 15–16-betlar.

shaharning Boyxak kentida taxminan 1504-1505 yillarda vafot etgan. Mashg'ul ma'lumotni Sabzavorda olib, yoshligidanoq notiqlikka qaratadi. 1455-1468-yillarda Mashhadda notiqlik san'ati bilan mashg'ul bo'ladi. 1468-yil oxirlarida Hirot shahriga kelib yashay boshlaydi. Koshifiyning ikki qiz va bir o'g'il farzandi bo'lgan. O'g'li Faxriddin Ali Safiy zamonasining shoiri va olimi bo'lgan. U Xurosonda Husayn Boyqaroning bosh voizi hisoblangan. Koshifiyning o'g'li Faxriddin Ali Safiy «Latoyifut tavoyif» nomli asarida otasi haqida shunday yozadi: «Ustozlarning birida ahli majlisga Mavlono Sayd G'iyosiddin degan mashhur so'z ustasi ancha kechikib kelgan. Shu majlisda Abdurahmon Jomiy undan so'rabdi:

- Nechun kechikdingiz, Mavlono G'iyosiddin?

- Meni ma'zur tuting, ustod, – debdi G'iyosiddin, – kelayotgan edim, majlisdagi jome'da Xusayn Voiz nutq so'zlayotgan ekan, shunga mahliyo bo'lib qolibman».

Husayn Voiz Koshifiy nutqlari o'zining jozibadorligi bilan har qanday kishini jalb qila olgan. Aytishlaricha, Husayn Boyqaro Xurosonga podshohlik qilgan yillarida mamlakatda bo'lib turgan norozilik qo'zg'olonlarini bostirishda va mamlakat fuqarolari o'rtasida rasmiy nutq so'zlash lozim bo'lgan paytlarda Husayn Voiz Koshifiyning aytisli, targ'ib-tashviq qiluvchi otashin nutqlaridan, xalq o'rtasidagi katta obro'-e'tiboridan foydalangan. Shuningdek, 1499-yil 8-noyabrda buyuk shoir mavlono Navoiyning ustodi Abdurahmon Jomiyning dafn marosimida Alisher Navoiy o'zining ta'ziya marsiyasini, ya'ni motam nutqini o'qib eshittirishni, shu ta'ziya marosimida va'z aytgan Husayn Voiz Koshifiyga topshirganligi bejiz emas.<sup>16</sup>

Koshifiydagi bu noyob iste'dod Navoiydek buyuk «so'z sohib-qironi»ning ham unga bo'lgan hurmatini oshirgan. Uning nutqlaridagi ta'alifchilik va mazmundorlik, tinglovchilar qalbini zabt etish qudrati nutq matnidagi badiiy tasvir vositalaridan hamda o'zbek tili bayliklaridan ustalik bilan foydalana olganligida, o'z nutqida shirin va sharobdek mast qiluvchi yaxshi so'zlardan o'rinli foydalana bilganligida, ya'ni Koshifiydagi katta mahoratdan darak beradi. Bu haqda uning o'zi quyidagi misralarni bitgan:

<sup>16</sup> I. Inomxo'jayev. Alisher Navoiy notiqlik san'ati haqida. T.: «Bilim» jamiyati, 1968, 113-bet.

*Yaxshi so'zdin ko'rgaysan mehru vafo,  
Nomunsib quldan yetgay jafu.  
Fahsh so'zdin tilni xomush aylagil,  
Balki, ko'nglingdin faromush aylagil.  
Har so'z kim sodir bo'lsa bemahal,  
Etgay andin obro'yingga xalal.*

(R. Mahmudov. Deganimni ulusqa marg'ub et  
T.: O'zbekiston, 1992, 84 bet).

### **Husayn Voiz Koshifiyning hayoti va notiqlik faoliyati**

Husayn Voiz Koshifiy notiq uchun ovozning ahamiyati muhimligini teran anglagan. Bu haqda yuqoridagi risolada R. Mahmudov quyidagilarni yozadi: «Ovozning ingichkaligi badgumonlik, vahmonlik dalilidir. Ovozning mo'tadil (yoqimli) bo'lishi tadbirkorlik, har ishga yaxshi saranjom bermak nishonasidir. Ovozning dimog'da chiqishi kibru ahmoqlik va kamfahmlik alomatidir. Ohistalik birla so'zlamog' xo'blilik (go'zallik va yaxshilik) nishonasidir. So'z aytish vaqtida qo'l tebratmaslik ziyraklik va yaxshilik nishonasidir».

Darhaqiqat, o'ylab gapirish notiqning donoligi, bilimi aqli teranligining belgisi, gapira turib o'ylash buning aksi bo'lishi tabiiy. Notiqning ichki kechinmalari, bilim darajasi, ma'naviy dunyoqarashi, obro'si uning nutqida ko'rinadi. Qisqacha qilib aytganda, notiqning har bir so'zi uning o'zi, o'zligini namoyish etadi.

Husayn Voiz Koshifiy so'zlash vaqtida odamlarga xos muomala munosabat muvozanatini saqlashga chaqiradi:

Birinchi, yolg'on gapirishdan, zero yolg'onchi Xudoning dushmanidir. Ikkinchi, va'daga xilof gapirish va munofiqona so'z aytishdan. Uchinchi, g'iybat va bo'hton gaplardan, chunki bo'hton fosiqlar ishidir. To'rtinchi, behuda bahsu munoqashadan, ayb qilishdan va gap topishdan. Bular shayton vasvasasiga kiradi. Beshinchi, o'zini maqtash va ta'riflashdanki, bu xudbinlikka olib keladi.

Oltinchi, navkar va xizmatkorlarni la'natlashdan. Yettinchi, qarg'ishdan, duoyibad qilishdan, chunki bu jonu dilning ofatidir. Sakkizinchi, mazax-masxara qilish va hazil-huzuldan». <sup>17</sup>

<sup>17</sup> Husayn Voiz Koshifiy. Futuvvatnomayi Sultoniyyoxud javonmardlik  
T.:1994, 51-bet

Husayn Voiz Koshifiy o'zining «Futuvvatnomai Sultoniy yoxud Tinnomardlik tariqati» kitobida voizni eshitayotgan odamlarni ham ikki martabaga ajratadi.

1. Martabaga erishganlar. 2. Martabaga erishmaganlar.

Ularga so'zlanadigan nutqda voiz nimalarga e'tibor berishligini aytilib beradi: «Agar martabaga erishganlar suhbatida qaysi qoidaga amal qilishi kerak, deb so'rasalar, aytgil, quyidagi sakkiz qoidani aytishlari kerak: birinchidan, har kimning ahvoliga qarab, munosib bo'lsin. Ikkinchidan, dag'allik qilmasdan, lutf va muloyimlik bilan gapirsin. Uchinchidan, gapirayotganda tabassum qilib, ochilib gapirsin. Dettinchidan, ovozini baland ko'tarmasin, eshituvchilarga malol keltirmaydigan qilib gapirsin. Beshinchidan, odamlarga nafi tegadigan gaplarni gapirsin. Oltinchidan, agar so'zning qimmati-qadri bo'lmasa, uni tilga olmasin, chunki ulug'larning so'zi bamisoli urug'dir, agar urug' puch yoki chirigan bo'lsa, uni qayerga ekmang, unib chiqmaydi.

Agar martabaga yetmaganlarning suhbat odobi nechta, deb so'rasalar, bu ham sakkizta deb aytgil. Birinchidan, so'ramagunlaricha gapirmasin. Ikkinchidan, gapirayotganda ovozini baland ko'tarmasin. Uchinchidan, gapirayotganda o'ngu so'liga qaramasin. To'rtinchidan, zararli va kinoyali gaplarni gapirmasin. Beshinchidan, qattiq gapirmasin va betgachoparlik qilmasin. Oltinchidan, pushaymon bo'lmaslik uchun o'ylab gapirsin. Yettinchidan, odamlar gapini bo'lib, qotmasin. Sakkizinchidan, ko'p gapirmasin. Chunki ko'p gapirish ko'ngil noqislik belgisidir. Oz bo'lsa ham, ammo soz gapirishni inkor etmasin» (o'sha kitob, 58-bet).

O'tmish ajdodlarimiz tarixida qissaxonlik ham muhim o'rin tutadi. Ular soha bilan shug'ullanuvchi roviylar, hikoyat va nasriy qissa aytuvchilar, she'rxonlik qiluvchilar ham savodxon odamlardan chiqqan. Ular ijrosida aytilgan qissaxonlikning inson ma'naviyatiga ta'siri, tarbiyaviy ahamiyatini Husayn Voiz Koshifiy biz fikr yuritayotgan kitobida quyidagi fikrlarini bildiradi.

«Shuni bilki, qissa o'qish va qissa eshitishning foydasi katta. Birinchidan, kishi o'tgan ajdodlarining ishi va ahvolidan xabardor bo'ladi. Ikkinchidan, odam g'aroyib va ajoyib voqea, sarguzashtlarni eshitsu, fikri va ko'zi ochiladi. Uchinchidan, o'tganlarning zahmatu muvqabatlaridan xabardor bo'lsa, hech kim bu dunyoda tashvish-g'amdan ozod emasligini anglab, ko'ngli taskin topadi. Tasalli bo'ladi.

To'rtinchidan, o'tgan podsholar davlati va mulkining zavolini eshitgan dunyo moliga mehri susayadi. Beshinchidan, qissa eshitgan behad ko'p ibrat oladi, tajriba orttiradi. Bas, ma'lum bo'ladiki, o'tmish ajdodlarining qissalarida foyda ko'p, agar bo'lib o'tgan voqealar bo'lsa, aytuvchi va o'quvchi bilan birga eshituvchi ham undan naf topadi va agar g'ayri voqe (to'qima) bo'lsa, aytuvchi uchun gunoh hisoblansa-da, ammo eshituvchi uchun foydali va savobdir... (o'sha kitob, 81-bet).

U Maddoh notiqalar haqida ham ibratli fikrlarni bildirgan:

«Shuni bilingki, Futuvvat ahli (yaxshi shadd) orasida maddohlarning martabasi eng balanddir. Buning sababi shulki, ahli bayt, xonadon muhabbati barchaning ko'nglida mavjud va agar biror boshqa birovni sevsa, sevgilisining ta'rifini tilidan qo'ymaydi... Maddohlar shunday xususiyatga ega kishilardir va uzluksiz ahli bayt ta'rifida so'z aytadilar va xonadonning yodida so'z aytish bilan vaqt o'tkazadilar (o'sha kitob 76-bet)

Qisqasi, ajdodlarimiz orasida mashhur notiqalardan tortib, savodli qissaxonu, mashhur «qori»lar, so'z ustalariyu, maddohlarning chiqishi o'tgan ota-bobolarimiz, momolarimiz ma'naviyatining boyishida muhim rol o'ynagan. Ular o'z tinglovchilari huzurlariga chuqur bilim va ijod bilan chiqqanlar. Ular o'zlariga xos talabchan bo'lib, ajdodlarimizni haq yo'lga boshlashda bosh-qosh bo'lganlar. Bunday o'ylab qaralsa, dunyoni so'z boshqarmoqda. So'zning qudrati beqiyos. Jaloliddin Rumiy hazratlari aytganidek, «So'z amal daraxtining mevasi», «So'z Allohning yerdagi soyasi» ekan, faqat «so'z»gina odamlarni to'g'ri yo'lga boshlaydi. Mana, O'zbekistonimiz Mustaqillikka erishib, istiqbol davrida yashayotgan ekanmiz, buning qadriga yetmoq, mustaqillikni ko'z qorachig'idek asramoq xalqimizning muqaddas burchi ekanligini unutmasligimiz kerak. Modomiki, shunday ekan, ona tilimiz bo'lgan o'zbek tilida chiroyli gapirish san'atini egallash pallasi yetildi. Bu ishni bog'cha yoshidagi go'daklarimizdan tortib, maktab va oliygohlarda o'qib ta'lim olayotgan o'g'il-qizlarimiz, ularga ta'lim va tarbiya berayotgan tarbiyachi va o'qituvchilarimiz, diyorimizning barcha jabhalarida xizmat qilayotgan yurtdoshlarimiz oldida turgan katta vazifalardan eng asosiysi sanalgan «Millatning ruhi» bo'lgan ona tilimizda go'zal so'zlash san'atini o'rganishimiz bugunning dolzarb vazifasi ekanligini unutmaylik. Bu haqda Birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning Oliy Majlisning IX sessiyasida: «O'z fikrini mutlaqo mustaqil, ona tilida ravon

... va lo'nda ifoda eta olmaydigan mutaxassisni, avvalambor rahbar ... o'tirganlarni bugun oqlash ham tushunish ham qiyin» – deb ... so'zlari barchamiz uchun dasturulamal bo'lmog'i shart. Keyingi ... respublikamiz miqyosida o'tkazib kelinayotgan «Notiqlar ... xuddi shu yo'ldagi savobli va xayrli ishlardan sanalib, kelajakda ... notiqlarning yetishib chiqishiga keng yo'l ochadi.

## **Zahiriddin Muhammad Boburning badiiy nutq mahorati**

Zahiriddin Muhammad Boburning «Boburnoma» asari badiiy ... go'zal namunasidir. Bobur o'zi hammabop yozishi bilan birga ... qalarga ham shunday ish tutishni maslahat beradi. Jumladan, o'z ... Humoyunga yozgan bir xatida bировga yuboriladigan maktubni ... o'zi bir necha bor o'qib ko'rish lozimligi, uning ravonligiga, ... ko'zda tutilgan ma'noni to'g'ri aks ettirayotganligiga ... hosil qilishi, shundan so'nggina uni jo'natish mumkinligini ... So'zlarning xato yozilishi aytilmoqchi bo'lgan fikrni ... o'quvchini qiynaydi: «... yana men degandek, bu ... bitibsen va o'qimaysen, ne uchunkim, agar o'qur xayol ... edi, o'qiyolmas eding. O'qiyolmagandan so'ng, albatta, ... bo'lur eding. Xatingni xud tashvish bila o'qisa bo'ludur, vale ... mug'laqdur. Nasri muammoni hech kishi ko'rgan emas. Imlong ... emas. Agarchi xili rost emas, iltifotni to bila bitibsen. Qulunjni ... bilan bitibsen. Xatoingni xud har tavr qilib o'qisa bo'ludur, vale ... mutloq alfozingdin maqsud tamon mafhum bo'lmaydur. G'olibo ... biturda kohilliging ushbu jihattindur. Takalluf qilmay deysan, u ... mutloq bo'ludur. Bundin nari betakalluf va ravshan va pok ... bila biti: ham senga tashvish ozroq bo'lur va ham o'qig'uvchiga ...» Toshkent: «Fan», 1960, 421-bet).

Bobur hayoti va sulolasini chuqur bilgan, romanlar yozgan taniqli ... Primqul Qodirovning («Til va El» T., G. G'ulom nashriyoti, ... y.) yozishicha: «Bobur Mirzo so'z bilan jonli tasvir yaratish ... mukammal egallagan adib edi. Buni o'zi ham sezardi. ... uchun umrining oxirida o'g'li Humoyunga «Boburnoma»ni ... taqdim etganda unga bir ruboiy ilova qiladi:

*«Bu olam aro ajib alamlar ko'rdum,  
Olam elidin turfa sitamlar ko'rdim.  
Har kim bu vaqoyi'ni o'qir, bilgaykim,  
Ne ranju, ne mashaqqatu, ne g'amlar ko'rdim»*

(Bobur. Tanlangan asarlar. Toshkent, 1958, 153-bet.

«Voqe'» – «Boburnoma»ning dastlabki nomi edi. Bobur o'z zamoni boshidan kechirgan barcha ko'rguliklarni haqqoniy tasvirlash intilganining sababi bu ruboiyda aniq ko'rsatilgan. Uning eng istagi «Voqe'»ni o'qiganlar haqiqatni bilsinlar, u qilgan xatir takrorlamasinlar.

«Boburnoma» ham «Temur tuzuklari» kabi avlodlarga ulkan hayot tajriba, saboq va qisman vasiyat tarzida yozilgan edi.

Adibning Hindistonda tartib bergan so'nggi devonida uning dastxat saqlanib qolgan. Bu dastxat bilan ikki satr she'r yozilgan:

Har vaqtqi ko'rgaysen mening so'zimni,

So'zumni o'qib sog'ingaysan o'zumni.

Ushbu satrlar bitilgan sahifa chetiga Bobur Mirzoning chevarasida Shohjahon tomonidan quyidagi sharh bitilgan:

«Ushbu turkiy bayt jannatmakon Hazrat Bobur podshohning o'z qo'llari bilan bitilgan dastxatdir.

Shohjahon binni Jahongir, binni Akbar, binni Humoyun, binni Bobur Podshoh (S. Azimjonova. Boburning hind devoni, 1966, 38-bet.)

Bu noyob sahifada biz ham Bobur Mirzoning, ham Shohjahonning dastxatlarini ko'ramiz. Eng muhimi va bizning mavzuimizga bevosita aloqador tomoni shundaki, Bobur Mirzo so'z orqali odamning o'zini ko'rish mumkin, deb hisoblagan «Har vaqtqi ko'rgaysen mening so'zimni» degan satrida so'z ko'rinadigan bir mavjudot sifatida baholanadi.

Albatta, so'zning shakli faqat qog'ozda ko'rinadi, ammo so'zning ichki mazmunida surati chizilgan tasvir ham bor. Bu tasvir Boburning hayoti, boshidan kechirganlari, uning tilida aks etgan didi va fe'l-atvori, ichki kechinmalari – hammasi mavjud. Bobur shuni hisoblab olib, «So'zimni o'qiganda o'zimni ko'rganday bo'larsen» («Sog'ingaysan o'zimni») deydi.

Badiiy tilga bunday tirik jon ato qilishga faqat daho darajasidagi realist adiblarga muvassar bo'ladilar. Ajoyibi shundaki, «Boburnoma» memuar asar sifatida Bobur she'riyatning hayotiy asoslarini o'z

shu bilan ularning ta'sir kuchini oshiradi. Boburning she'riy qalbidagi uning nasriy asarida aytilmagan ichki kechinmalari va qalbini ta'sirini she'riyat vositalari bilan yanada ta'sirliroq qilib ifoda

«Boburnoma»da 1506–1507 yil voqealari orasida qish kunida qor tushib qolgan. Qobulga qorli dovondan oshib o'tib borish mashaqqati bo'ladi. Bir hafta davomida qor tepib yo'l ochib boradilar. Qor tepib chiqaradi. Otlar yurolmaydi. Devon tepasida qor bo'roni kuchayib qor tepib sovuq behad qattiq. Ba'zi bek va navkarlarning qo'l-oyog'ini tepib chiqaradi. Boburni tor bir tog' kamarida panalashga undaydilar. Qor tepib chiqarilgan kechdikim, barcha el qorda va chopqunda, men issiq uyda bo'lib qolgan bilan... Muruvattin yiroq va hamjihatlikdin yiroq ishdur. Men qor tepib chiqarib tashvish va mashaqqat o'lsa ko'rayin, har nechuk el toqat qilib chiqarib chiqarayin... Xuftongacha qor oncha chopqilab yog'diki, boshimga va qor tepib chiqarilgan ustiga to'rt ellik qor bor edi... O'shal kecha qulog'imga qor tepib chiqarib ta'sir qildi» (O'sha kitob, 256–258-betlar)

«Andoqekim, borchaga o'lim xavfi bo'ldi», deydi Bobur devon qalbidagi xatarli ahvolni yakunlab, yana shu og'ir vaziyatda u she'riyatdan qalbidan chiqariladi. Eng yetuk g'azallaridan birining matla'i o'sha mashaqqatli ahvolda topiladi. Bu haqda muallif o'zi shunday guvohlik beradi.

«Muddatul umr (butun umr davomida) muncha mashaqqat kamroq ko'rgan edi. Bu matla'i o'sha fursatda aytildi:

«Charxning men ko'rmagan jabru jafosi qoldimu Xasta ko'nglim ko'rmagan dardu balosi qoldimu».

Devonga ko'tarilishda eng pahlavon yigitlar qatori bir hafta qor tepib mashaqqat chekkani – bir mardlik. Eldan ajragisi kelmay xatarli joyda bo'lgani yana bir mardlik. O'shanda Boburning qulog'iga sovuq yomon ta'sir qiladi. Buning asorati Hindistonga borganda ham bilinadi. Issiq mamlakatda ham quloq og'rig'idan qiynalganlarini, simob qo'shilgan dorilardan iste'mol qilganini oradan yigirma yil o'tgach, 1628 yil voqealarida yozadi. Simob esa quloq orqali asab tizimiga salbiy ta'sir qilishini u davrdagi tabiblar bilmagan bo'lishlari mumkin. Umrining oxirida Boburni ko'p qiynagan uyqusizliklarga shu quloq og'rig'ini davolash uchun iste'mol qilingan simob sabab bo'lgan bo'lishi mumkin.

Devon ustida topilgan she'riy baytga qaytaylik. Bu bayt Bobur qalbidan chiqarilgan tug'yoni. «Charxning men ko'rmagan jabru jafosi qoldimu?» degan nido Yaratganga rahm-shafqat so'rab qilingan munojotdek



buyuladi. Bu bayt o'lim bilan yuzma-yuz turgan odam tomonida aytilayotgan nasr bilan yozilgan tasvirda yaqqol ko'rsatilganligi uchun Bobur qalbining o'sha paytdagi nidosi bizni larzaga soladi.

G'azalning oxirgi bayti - maqtasi yanada kuchli taassurotni uyg'otadi:

*Ey, ko'ngil, gar Bobur ul olamni istar qilma ayb,  
Tengri uchun de bu olamning safosi qoldimu?*

«Boburnoma»da tasvirlangan o'ta dramatik voqealar, ulug' bo'lib iste'dod o'z vatanidan judo bo'lib, o'zga yurtlarga ketishi, atrofida odamlarning xoinliklari va boshqa ming xil salbiy hodisalar bu marhamatli shayxning ham jonidan to'ydirgan paytlar bo'lganligi so'nggi baytda yaqqol sezilib turadi.

Ayni paytda, Boburning azob-uqubatiga to'la foniy olamidan ko'ngil ul olamni», ya'ni boqiy dunyoni afzal ko'rishi tasavvuf ta'limotiga ham mos keladi.

Ko'pgina adabiyotshunoslar Bobur she'riyatida ruboiy janrini ustun qo'yadilar. Oybek domla Boburni turkiy ruboiyning Umar Xayyomi deb ataganini ko'pchilikka ma'lum.

Chindan ham, Bobur ruboiylaridagi mazmun va shakl mukammalligi falsafiy fikr teranligi va badiiy til go'zalligi Umar Xayyomning ruboiylari bilan bemalol musobaqa qila oladi.

*Ko'ngli tilagan murodiga yetsa kishi,  
Yo barcha murodlarni tark etsa kishi.  
Gar bu ikkisi muyassar o'lmasa olamda.  
Boshini olib bir sorig'a ketsa kishi*

(Bobur. Tanlangan asarlar. 1958, 138-bet)

Qatrada quyosh aks etganidek, bu to'rt satrda «Hind sorig'a bosh olib ketgan» Boburning o'z taqdiri aks etib turadi. To'rttagina satrda ulug' bir shaxs taqdirini bo'rttirib ko'rsata olish, yana bu tasvirni mardona ruh va teran bir falsafiy fikrga yo'g'irib, uning ta'sir kuchini oshirtib, daho darajasidagi shoirgagina nasib etadigan ijodiy kashfiyotdir.

Bu ruboiyda birorta ortiqcha so'z ham, harf ham yo'q. Nafaqat so'zlar va iboralar, balki alohida harflar va tovushlar she'riy vazn, tu...

qo'lyozmalarga shunday mahorat bilan joylashtirilganki, birortasining o'rnini almashtirib bo'lmaydi. Masalan, «Boburnoma»ning ko'p joylarida «bo'ldi» yoki «bo'lmadi» so'zlari uchraydi. Ammo yuqoridagi baytda «bo'lmasa» shaklida «bo'lmasa» shaklida ishlatiladi. Chunki «bo'l» tushirib qoldirilib, «o'lmasa» shaklida ishlatiladi. Chunki «bo'l» qo'yilgan bo'lsa, aruzning nozik ohangi xiyol buzilishi mumkin edi. Yoki «bo'l» so'zi yo'nalishini bildiradigan «borgan sari» degan adabiy tilimizda «bo'l» qo'yilgan iborani oling. Agar ruboiydagi «erig'a» so'zi o'rniga «erig'a» so'zi ishlatilgan bo'lsa edi, aruz vaznining qoidasi buzilgan bo'lardi. Chunki «sari»da «a» qisqa talaffuz etiladi. «Sorig'a» degandagi «o» esa uzun talaffuz etishga imkon beradi, shu tufayli aruz vazniga yaxshi mos keladi. «G» o'rniga andijoncha sheva bilan «G'» deb aytish ham bo'lmaydi. «G» o'rniga andijoncha sheva bilan «G'» deb aytish ham bo'lmaydi. «G» o'rniga andijoncha sheva bilan «G'» deb aytish ham bo'lmaydi. «G» o'rniga andijoncha sheva bilan «G'» deb aytish ham bo'lmaydi.

Boburning kuyga solib aytiladigan g'azallari orasida eng mashhuri «Yaxshilik» g'azali ekanligi bejiz emas. Bu yerda asrlar davomida yashagan Boburning umrboqiy hayot falsafasi nihoyatda kjsak san'atkorlik bilan ochib berilgandir. «Ahli jahon yomonlik qilsa ham, sen unga g'azalima, undan yaxshi bo'l», degan fikr beshinchi baytda o'zining umrboqiy falsafiy ifodasini topadi:

*Bori elga yaxshilik qilg'ilki, mundin yaxshi yo'q,  
Kim degaylar dahr aro qoldi falondin yaxshilik.*

G'azalning xulosaviy bayti kishini chuqur o'yga toldiradi:

*Yaxshilik ahli jahondan istama Bobur kibi  
Kim ko'ribdir, ey ko'ngil, ahli jahondin yaxshilik  
(O'sha kitob. 125-bet).*

«Jahonda yaxshilik istamaydigan odam yo'q. Nega Boburga g'azal bilan yaxshilik istamaslik kerak?» Mana shu yerda yana tasavvuf falsafasi esga tushadi. Tasavvuf doim beg'araz yaxshilik qilishga undaydi. Yaxshilik qilib qo'yib, unga javoban yaxshilik kutish tasavvuf falsafasining asosiy qoidasi bo'yicha tamagirlik hisoblanadi. Demak, Boburning ushbu g'azali chin musulmonlarcha beg'araz yaxshilik qilishga undaydi.

Ayni vaqtda, «Kim ko'ribdir, ey ko'ngil, ahli jahondin yaxshilik» degan satr g'azal xulosasida takrorlanishi Boburning ilk g'azalida

shakllana boshlagan e'tiqodiga mos keladi. Bobur o'zingni o'rgatib berishni, jahonni. Shuncha qilib, yor topmadim» degan bo'yi Boburning esidan chiqmaydi. Chunki u o'z davri uchun ketgan, o'z muhitidan beqiyos darajada baland topgan ich-ichidan his qiladi. Shu sababli, najotni faqat tashvish o'z kuchiga ham ishonishni, xudo bergan ulkan taqdirni yashashni doimiy e'tiqodga aylantiradi. Bu e'tiqod uning bir yuksaklikka ko'targan eng zo'r omillardan biri.

Javohirla'l Neru «Bobur dilbar shaxs, Uyg'onish hukmdori, mard va tadbirkor siymo bo'lgan» fikrini Hindistonning kashf etilishi. M. 1955-y. 272 beti orqali jahonda birinchi bo'lib aytgan. Bu fikrning yangilik sifatida yillarda Uyg'onish (G'arbda «Vozrojdenie» deyilgan) fikri Sharqdan chiqqan buyuk siymolarga nisbatan talqin.

«Boburnoma»ni ingliz tiliga tarjima qilgan V. F. L. siyomosining mislsiz belgisi – uning tabiiyligi, hayotiyati. Osiyo tojdorlari orasida Bobur singari daho darajada kishilar kamdan-kam uchraydi». («Boburnoma»ning 1921, 8-bet).

Bu yuksak baholarning hammasi asosli faqat bitta bo'lsa ham bor. Bobur singari daho faqat Osiyo hukmdorlari orasida balki butun jahon tojdorlari orasida yana necha marta ekan? Masalan, Angliyaning o'zida faqat toju tashvishni qayta suyukli o'g'liga baxshida qilgan qirol bo'lganmi? Bobur eng mashhur podshohlardan Ulug' Pyotr ham, Ivan the taxt tufayli o'g'lini o'limga hukm qilganligi tartibdan ma'lum.

Ehtimol, shu narsalar ham sabab bo'lib, «Boburnoma»ning qilingan tarjimalaridan uning oxirgi lavhasi – Bobur o'z jonini bag'ishlab, uni bir o'limdan olib qolgan bo'lgan ketgan. Asarning ruscha tarjimasida bu muhim lavha ham Nazarimizda, bu lavha Bobur Mirzoni boshqa mamlakat podshohlardan baland qilib ko'tarib yuborishini istagan.

Sovet mafkurasining «podshohlar ideallashtirish» ko'rsatmasidan kelib chiqib, tarjimonlar tengsiz bir fikr bo'lgan lavhani tarixiy asardan chiqarib tashlaganida

<sup>18</sup> Pirimqul Qodirov. Til va El, Toshkent. 2005, 184–191 betlar.

...ki, nafaqat Boburning badiiy ijodi, hatto hayotining  
...an saboq daryosi ekanligi sir emas. Boshqacha aytganda,  
... va shoir sifatida qanday uyg'unlashgan bo'lsa, uning ijod  
...si bilan tashvishlarga to'la hayoti ham bir-biriga monand  
... ketgan. Ularni ayricha tasavvur etish aslo mumkin emas.  
... badiiy notiqlik mahorati uning asarlarida shundaygina  
... deb ko'rinib turadi. Uni faqat o'qib his etish mumkin.

### **Irshod va Qozi O'shiy haqida**

...k juda uzoq tarixga ega, ana shu davr ichida u shakllandi,  
... kamol topdi. Albatta, bu tarixiy jarayonda nasldan-naslga  
...shga arzigulik an'analar ham yetib keldi.  
... va xususan Markaziy Osiyoda juda ko'plab notiqlar yetishib  
... hatto ular notiqlik asoslarini va maktabini yaratib, butun  
... butun dunyoga mashhur bo'lganlar.

...an, Mavlono Faxriddin Ali Safiyning «Latoyif ut-tavoyif»  
...ytilishicha, Sulton Husayn Boyqaro bir kuni Sherozga, shoh  
...lga rasmiy davlat ishi bilan muzokara olib borish uchun  
...yubormoqchi bo'lgan. Arkoni davlat bilan maslahatlashib,  
...Irshoddan boshqa munosib kishi topa olmaydilar.

... Irshod Sherozga borib rasmiy ishlarni oz muddatda  
...l etadi. Ammo uning notiqlik mahoratiga qoyil qolgan  
...Irshodga javob bermay, bir majlis qurib, keyin ketishi  
...igini aytib, iltimos qiladi. Notiq majlisni juma kuniga  
...li. Boshqa odamlar qatori shoh va uning a'yonlari ham masjidi  
...yig'iladilar. O'sha kuni Mavlono Irshod shunday ehtirosli nutq  
...iki, yig'ilgan xaloyiq ho'ng-ho'ng yig'lay boshlaydi. Notiq  
...ning nutqqa berilib ketib yig'layotganini ko'radi. Shunda  
... Irshod o'z notiqligining yana bir kuchini namoyish qiladi –  
...an shunday kutilmagan burilish yasaydiki, hamma birdaniga  
...hi aralash qah-qah soladi.

...n Shijo' ham xaloyiq, ham buyuk notiq Mavlono Irshodni hur-  
...rom bilan kuzatib qo'yadilar.

...ok xalqi orasida Mavlono Irshodga o'xshagan notiqlar juda ko'p  
...Ulardan biri farg'onalik mashhur notiq Qozi O'shiy bo'lgan. U

O'sh shahrida qozilik lavozimida ishlagani uchun Qozi O'shiy taxallusiga ega bo'lgan.

U xalq o'rtasida juda katta obro'ga ega edi. Yuqoridagi asarda yozilishicha, Eronning Seiston viloyati xalqi qattiqqo'lligi bilan don qochiq chiqargan bo'lib, hatto gadoyga ham non bermas ekan. Qozi O'shiy esa bu xalqning ko'ngil qulfini so'z kaliti bilan ochib yumshataman deydi. U Seistonga borib, bir-ikki hafta shu xalq ichida yuradi, ularning holatini o'rganadi. Shahar qozisidan ruxsat olib, juma kuni masjidi Jomeda katta nutq so'zlaydi, notiq bilan baravar xalqning fig'oni falakka ko'tariladi. Seiston xalqi topgan-tutganini minbar ostiga tashlaydi. Lekin Qozi O'shiy nutqi uchun hech kimdan haq olmasligini aytadi, buni eshitgan xalq notiqni yanada e'zozlaydi. Notiq bu xalqning xasis emas, aksincha, olijanob ekanini, xalqning mehr xazinasini ochish uchun munosib kalit topa olish kerakligini isbot etadi.

Mutaxassis notiqnlarni voizlar deb ataganlar. Ularning o'z matnlari odatda, chiroyli va badiiy yuksak saviyada bo'lgan. Nutq matnlarining aksariyati nasriy she'r va hatto, she'riy shakllarda yozilgan.

O'tmish Sharq notiqnlari orasida o'z zamonasining Demosten va Sitseronlari juda ko'p bo'lgan. O'zbek va yunon san'atkor mutafakkirlarining nutq talqinlari ta'sirchanligi va notiqlik san'ati asoslari bo'yicha olg'a surgan fikrlari jahon taraqqiyparvar notiqligining shu masaladagi talqinlari bilan hamohangdir. Hazrat Navoiy ham «Majolis un-nafois» asarida qator voizlar haqida ma'lumot bergan. Bas, shunday ekan, o'zbek voizlarining salmog'i boshqa xalqlarnikidan ko'p bo'lsa ko'pki, kam emas.

### **Xoja Muayyad Mahnagiy**

U o'z zamonasining yetuk notiqnlardan bo'lishi bilan birga, oddiy mozor shayxlaridan bo'lgan. Alisher Navoiyning yozishicha, u «zohir ulumin takmil qilib erdi», ya'ni yuzadagi ilmlar, o'ziga ayon bo'lgan fanlarning hammasini o'zlashtirganga emas, balki uni to'ldirgan va rivojlantirgan ham edi. Uning va'zlari jo'shqin o'tgan, tinglovchilarida nutqiga nisbatan xayrixohlik qo'zg'ata olgan. Shuning bilan birga u o'z tinglovchilari qalbiga qo'l sola olgan, ularni faqatgina tinglovchilikdan,

bu birini faol fikr yurituvchi, va'z mazmuniga nisbatan faol mu-  
sabatda bo'luvchi ijodkor tinglovchilar darajasiga ko'tara olgan. O'z  
notiqlarining qizg'in o'tishiga erisha olgan.

O'sha davrlarda Xoja Muayyad kabi otashnafas notiqlar soni juda  
kam bo'lgan. Shuning uchun ham ular nomi ulkan adiblar nomi qatorida  
erishish sahifasidan sharaflari o'rin olgan. Uning ijodiy mahorati boshqa  
notiqlar uchun namuna bo'la oladi. Chunki u o'sha davrdagi mavjud  
notiqlarning barchasini to'la o'zlashtirgan va ularni takomillashtirgan  
olimdir.

Xoja Muayyad kabi mahorat va bilimga ega bo'lgan har bir notiq  
tinglovchilari qalbini larzaga keltirishi, ularni hayajonga sola  
bilishi turgan gap. Ana shunday qudrat zakovati tufayligina sultonlar,  
podshohlar ham uning mahorati, iste'dodi oldida bosh egganlar.

## Mavlono Riyoziy

Mavlono Riyoziy Zova deb atalgan viloyatda o'sdi, ulg'aydi. O'zining  
notiqlari zakovati ila shu viloyatning qozilik lavozimigacha ko'tarildi. Biroq  
Alisher Navoiy «Majolis un-nafois» asarida yozishicha, u ayrim o'rinsiz  
harakatlar uchun qozilik lavozimidan chetlashtirilgan, kishanga  
olib badarg'a qilingan. Natijada bir umr ta'qib ostida yuradi, g'ariblikda  
kun kechiradi.

Mavlono Riyoziyning notiqlik darajasiga erishuvida mamlakat  
hukmdorlari mafkurasi bilan uning insonparvarlik qarashlari o'rtasidagi  
kelishmovchilik, turli ziddiyatlar asosiy omillardan biri bo'lgan. Riyoziy  
notiqligining tabiiy tomonlaridan biri – hamdardlik tuyg'ularini birinchi  
o'ringa qo'ya bilishdir.

Alisher Navoiy: «...va'z aytib, minbarda o'z ash'orin o'qub, yig'lab  
vajdi hol qilur erdi», – deydi. Shoirning bu so'zlari ancha diqqat-  
e'tiborga loyiq, chunki el oldida rasmiy nutq bilan chiqib, yig'lash  
darajasiga borib yetish va bu ko'z yoshiga nisbatan tinglovchilarda  
kulgi emas, balki hamdardlik kayfiyatini uyg'ota olish uchun katta  
san'atkorlik mahorati kerak. Mavlono Riyoziy nutq paytida ko'z yoshi  
darajasiga yetib borar ekan, qalbidagini yig'ib bayon etar va kishilarni  
shunga ishontira olar ekan, demak, shubhasiz, u juda iste'dodli notiq,  
chinakam so'z san'atkori bo'lgan.

Mavlono Riyoziy ajoyib soʻz sanʼatkori boʻlishi bir qatorda, oʻz davrining koʻzga koʻringan pedagoglaridan ham biri boʻlgan. U dunyoviy fanlar: tabiatshunoslik, geografiya, tarix, adabiyot nazariyasi va boshqa fanlarni chuqur oʻrganib, uni yoshlar oʻrtasida targʻib qilgan.

Mavlono Riyoziy oʻz nutqlarida boshqa notiqlar qatori xalq ogʻzaki ijodidan va ayniqsa, badiiy adabiyotdan juda ustalik bilan foydalangan. U oʻz zamonasining zabardast notigʻi, olimi, pedagog va shoirlaridan boʻlgan.

### **Notiq va tinglovchilar muloqotining shartlari**

Notiq tinglovchilar bilan muloqotga kirishganda oldin auditoriyaning holatini hisobga olishi shart. Bu, avvalo, auditoriyaning toza va ozodaligi, stol va stullarning tartibli joylashtirilganligi, barcha tinglovchilarning oʻzlari uchun qulay oʻrnashib oʻtirganligi, bir-birlariga xalaqit bermasligi, nutqni erkin eshitish imkoniyati borligini kuzatishi shart. Notiqning oʻzi ham toza va ozoda kiyingan boʻlishi, oʻzining tashqi koʻrinishiga jiddiy eʼtibor bermogʻi lozim. Yaʼni soch-soqoli tartibga keltirilgan, kiyim-boshlari oʻziga yarashgan holatda boʻlishi kerak. Agar biz bularni notiq va auditoriyaning tashqi shakliy koʻrinishi deb olsak va ularning bir-biriga mosligini taʼminlasak muloqotni yoki nutqimizni boshlayversak boʻladi.

Notiq oʻz nutqini boshlash uchun minbarni egallashi va auditoriyaga savol nazari bilan qarab salomlashishi hamda mavzuni eʼlon qilib tinglovchilar diqqatini oʻziga jalb etmogʻi lozim. Agar texnik vositalardan foydalanish lozim boʻlsa, uni boshqarishni bilishi yoki biladigan odamni tayinlab qoʻyishi shart.

Agar auditoriyada gʻala-gʻovur bosilmasa nutqini boshlamay turishi, biroz chetga burilib birdan auditoriyaga (tinglovchilarga) tik boqishi (bunday holatda gʻala-gʻovur tinadi) va nutqini barchaning eʼtiborini tortadigan gap va jumlar bilan boshlamogʻi kerak. Notiq endi auditoriyaning hokimi. Hammaning eʼtibori unga qaratilgan. Endi buyogʻi notiqning oʻziga bogʻliq. Agar gapirayotganida tinglovchilar uchun ular eshitmagan yangi fikrlarni aniq, loʻnda, qisqa va tushunarli etib yetkazib bersa, tinglovchilar miq etmay eshitishadi. Bordi-yu, shu qoidalarni buzib qoʻysa, yana auditoriyani tartibga chaqirishga toʻgʻri

bo'ladi. Gapirganda bosqlik bilan, hovliqib qolmasdan, vazminlik orqali shirali ovoz va shirin muomala bilan, ortiqcha xatti-harakatlar qilmasdan fikrlarini ritorik savol va unga aniq javoblar asosida nutqini davom ettiradi, o'zi bilan tinglovchilar o'rtasidagi muloqotning shartiga amal qilgan bo'ladi. Yo'l-yo'lakay (nutqi davomida) auditoriyaga savollar berib va tinglovchilarning o'tirgan joyida bergan qisqa savollariga aniq va qisqa javoblar berib borsa, muloqot yanada jonli va muvaffaqiyatli bo'ladi. Bu o'rinda notiqning xalq orasidagi obro'-e'tibori muhim rol o'ynaydi, eng muhimi, notiqdagi aql-zakovat va so'zamollik muloqotning asosiy shartlaridan sanaladi. Nutq davomidagi kerakli pand-nasihat ham bugungi kunlardagi yoki shu holatdagi vaziyat bilan bog'lab olib borilsa, juda o'rinli hisoblanadi.

Endi notiq bilan auditoriya-o'rtasidagi muloqotga ta'sir ko'rsatadigan xalqiy holatlarga kelsak, ular yuqoridagi ijobiy holatlarning teskarisi. Auditoriya pala-partish, tinglovchilar o'rnashish holatida tartibsizliklar bo'lsa, notiq nutqida chaynalishlar sodir bo'lsa, ortiqcha kirish (anaqa, o'z-o'ziga, aytaylik kabi) lar ko'p ishlatilsa, berilgan savollarga aniq va qisqa javob berilmasa, notiq va tinglovchi o'rtasidagi muloqot zil ketadi.

Ko'ryapsizmi, hamma narsa notiqning aql-farosatiga, bilimi va ixtirakligiga, vaqtdan unumli foydalanishiga va auditoriyani nutqidagi aqlli so'zlari va yangi fikrlari bilan ushlab turishiga bog'liq.

### **Ommabop nutq mas'uliyati**

Notiqlik san'ati – ijtimoiy hodisa. Ayniqsa, ommabop nutqda notiqning nutqi va uslubi muhim ahamiyatga ega. Ommabop nutq hamma uchun – uning tinglovchilari oddiy dehqondan tortib inje-bergacha, pedagogdan tortib tibbiyot xodimigacha, boringki jamiyatimizda taraqqiyot uchun xizmat qilayotgan ommaga mo'ljallanadi. Ya'ni badiiy asar o'z bahosini faqat adabiy tanqidchidangina emas, ommadan kutgani kabi ommabop nutqning tinglovchilari turli turlardagi omma bo'lishi mumkin. Aniqroq aytadigan bo'lsak, teleko'rsatuvlardagi nutqday, ko'pchilik e'tiborini tortadigan (televiziondagi hamma ko'rsatuvlarni ommabop deyish qiyin) sodda uslubdagi yoshu-qari tushunadigan va uni eshitib fikrlaydigan aniq, ravon va xalq tilidagi va dilidagi nutq bo'lishi kerak.



Ommabop nutqda haqqoniylik, mantiqiy mutanosiblik, uslubiy sayqaldorlik, badiiy jozibadorlik, ma'nan yetuklik, aniqlik va lo'ndalik kabi sifatlar o'z aksini topmog'i lozim.

Buning ustiga talaffuzning tiniqligi ifodali so'z tanlash, har bir so'zga ohangdan libos kiydirilishi muhim.

Gapning grammatik qurilishi til-qonun qoidasiga asoslanmog'i shart. Nutq davomida keltirilishi lozim bo'lgan she'riy parchalar nutqdagi fikrlarni qo'llab-quvvatlashga va mustahkamlashga xizmat qildirilishi tinglovchilar diqqatini oshiradi.

Ommabop nutq og'zaki (matn bo'lsa-da) matnga qaralmasdan o'qilishi, iloji bo'lsa mikrofonisiz so'zlanishi tinglovchi omma e'tiborini yanada o'ziga jalb etadi. Bunday nutqda ilmiy jumlarlar (agar ishlatilsa, iloji boricha ishlatilmagani ma'qul) chet tillaridan olingan (oke, koroche, shes sekund, stavka, shapka, shef kabi) so'zlar me'yorini saqlash ham notiqqa mas'uliyat yuklaydi. Demak, notiq bir so'zning sodda shaklini tanlamog'i, sheva va jargonlardan foydalanishning afzal tomonlari va me'yorlarini bilishi kerak.

Notiq o'z Ma'ruzasida tinglovchilar hushyorligini oshiruvchi turli savollar qo'yishi va unga javobni lo'nda qilib, esda qoladigan sodda usul bilan tushuntirmog'i muhim ahamiyat kasb etadi.

Notiq ommabop nutqda til imkoniyatlaridan samarali foydalanishni bilishi uning o'ziga xos uslubidagi mahoratdan darak beradi. Ko'p ma'noli va ma'nodosh so'zlardan foydalanganda shu so'zlarni shevadagi variantlariga qiyoslash ham samarali foyda beradi. Ayniqsa, notiq mavzuni o'z so'zlari bilan (kitobiy emas) so'zlash mahoratini egallagan bo'lishi kerak. Ommabop nutqqa xos yana bir muhim jihat – nutq jarayonida hayotiy misollardan ma'ruza o'qilayotgan joyning, hududning o'zidan kelib chiqadigan hayotiy misollardan foydalansa ayni muddao bo'ladi. Demak, notiq uchun mas'uliyat og'ir. U Andijonda Ma'ruza o'qiydimi, Qarshi yoki Buxoro, Xorazmda o'qiydimi, o'sha hududdning tashqi va ichki faktik materiallarini aniq bilmog'i, agar bilmasa, o'sha «materiallarni» o'qib, eshitib o'rganmog'i darkor. Shuningdek, shu hudud bilan bog'liq rivoyat va afsonalardan o'rni bilan foydalanish nutqning yanada jozibali bo'lishini ta'minlab, tinglovchilarning e'tiborini oshiradi. Ayniqsa, nutqda milliylik va mahalliy xususiyat saqlanishi muhimdir.

## Notiqlik san'ati turlari va shakllari

Jamiyatda turli kasb egalari hamkorlikda ish olib borayotgani ularning o'zaro bir-birlari bilan chambarchas bog'liq ekanligi ma'rifatimizni ta'minlaydigan omillardan sanaladi. Shunga ko'ra turli soha va kasb egalari va guruhlariga qarab ularga mo'ljallab tayyorlanishi lozim bo'lgan nutq ham turlicha ko'rinishga ega bo'ladi. Shu ma'nida notiqlik san'atida notiqlikning bir necha turlari mavjud. Jumladan, ijtimoiy-siyosiy notiqlik – bunga davlat va jamiyat ahamiyatiga ega bo'lgan yig'inlarda, majlislarda o'qiladigan ma'ruzalar kiradi. **Akademik notiqlik** – bu barcha turdagi ilmiy konferensiyalardagi, olimzodlik va doktorlik dissertatsiyasi himoyalardagi ma'ruzalar, bakalavr talabalari uchun bitiruv malakaviy ish hamda magistr talabalari uchun magistrlik dissertatsiyalari yuzasidan qilinadigan Ma'ruza (axborot)larni qamrab oladi. **Auditoriya notiqligi** esa universitet, institut, kollej talabalari hamda litsey va maktab o'quvchilari uchun dars-ma'ruzalarni o'z ichiga oladi.

**Ijtimoiy-maishiy notiqlik** – bunga turli tadbir va yig'inlarda, yubiley tantanalarida so'zlanadigan qisqa va lo'nda nutq yoki suxan so'zlar kiradi. **Sahna notiqligi** (kino, teatr aktyorlari, konsert boshlovchilari yoki konsertni olib boruvchi aktyorlar nutqi) – bu og'zaki notiqlikning alohida turi hisoblanib, tinglovchi tomoshabinlar uchun umum-tushunarli bo'lgan adabiy tilda, chiroyli talaffuz orqali amalga oshiriladigan nutqdir. U yana boshqa nutqlardan diologik xarakteri bilan ham farqlanadi. **Teleradio jurnalistlari notiqligi** – bunda ko'rsatuv yoki eshittirish olib borayotgan jurnalist adabiy tilda omma uchun tushunarli bo'lgan zaylda nutq so'zlashi, so'zlarni aniq va ravshan ohang bilan talaffuz etishi muhim. Shuningdek, fakt va voqealarni bayon etishda, o'z nutqida qaytariqlarga yo'l qo'ymasligi uchun oldidagi matndan foydalanishi yoki uni mukammal o'zlashtirgan bo'lishi lozim. **Diniy va'zxonlik** (notiqlik) – bunga juma namozida, amri ma'ruflarda imom tomonidan qilinadigan ma'ruzalar kiradi. **To'y, «o'rtakash»lari notiqligi** – bu holatda «o'rtakash»ning notiqligi uning bilim saviyasi bilan bog'liq. Ba'zilarining gaplari tuturuqsiz, ba'zilar ma'nili notiqlik bilan to'yni boshqaradi. Ular orasida bilimsizlari bo'lsa, notiqligi ham bachkanalashib boraveradi. Ular so'zlarining ohangi bilan, baland ovozi bilan to'y-yig'inni boshqaradi. Bunday no'noq

o'rtakashlarni notiq deyish qiyin. Ko'pincha obro'li to'ylarni aktyorlar boshqarmoqda. Ularning nutqida «o'rtakash»lar notiqlikni kuzatish mumkin.

Qo'shimcha notiqlikning yana bir qancha mayda turlariga o'g'rib, suhbat, bahs-munozara, suhbat-semenar, oilada va do'st tengqul o'rtasidagi notiqlik ham kiradi.

Notiqlik san'atining shakllari ham mavjud bo'lib, ular monologik va diologik notiqlik hisoblanadi. Monologik notiqlikka ma'ruf muzokora kabilar kirsa, diologik notiqlik bahs-munozara, suhbat kabilarni qamrab oladi. Notiq monologik nutqida tayyor matndan foydalanish imkoniyatiga ega. Biroq diologik notiqlik bundan mustasno. Buning ustiga munozara va bahs jarayonida amal qilish lozim bo'lgan omillarga qat'iy amal qilish tavsiya etiladi. Bular quyidagilar: milliy-madaniy qoidalarga amal qilish, milliy etikaga rioya qilish, raqibining gapini bo'lmaslik, suhbatdoshga hurmat, reglamentga rioya qilish, eng muhimi sabrli bardoshli bo'lish, o'zini bilish, tiliga to'g'ri kelgan har bir so'zni aytishdan o'zini tiyish, har bir so'zni o'ylab gapirish, ya'ni «yetti o'lchab, bir kesish», kesganda ham A. Oripov aytganidek:

*Mana, o'tib olding asal oyidan,*

*Endi suv ichgaysan turmush soyidan.*

*Yetti o'lchab bir kes, yetmish o'lchab kes,*

*Lekin kes, Yoshulli aytgan joyidan.*

Muzokaralarda yumshoq, shirin muomala va yoqimli so'zlarni qo'llashning muhimligini his etish zarur.

Matn asosida nutq so'zlashning ijobiy va salbiy tomonlari bor. Ijobiy tomon deganda, notiq o'z fikrlarini oldindan o'ylab tayyorlagan matn asos qilib oladi; fikr o'zining mantiqan birligini ta'minlaydi. Faktik va takroriy xatolarga yo'l qo'ymaydi. Salbiy tomoni esa tinglovchilar nazarida bilimsizday, notiqlik san'atini eplay olmaydiganday ko'rinadi. Notiq va tinglovchilar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik ancha susayadi.

Matnsiz nutq so'zlash, notiqning xotirasi o'tkirligi matn mazmunini chuqur o'zlashtirib olganini ko'rsatadi. O'ziga ishongan notiqqina matnsiz nutq so'zlay oladi. Bu notiqning mazkur san'atni mukammal egallab olganligini, bu sohada u erishgan mahoratdan darak beradi.

## Nutqqa tayyorlanish va nutq ustida ishlash

Notiqlik san'ati, avvalo, og'zaki nutq orqali amalga oshadigan jarayon hisoblanadi. Og'zaki nutq esa ikki ko'rinishda sodir bo'ladi. Birinchi ko'rinishi oddiy so'zlashuv orqali, ikkinchisi esa adabiy til normalariga qat'iy amal qilish borasidagi adabiy so'zlashuv nutqi shaklida bo'ladi.

**Oddiy so'zlashuv** – sheva ta'sirida bo'lgan kundalik so'zlashuvning oddiy shakli. U so'zlashuvda nutq bazasini adabiy til tashkil etmaydi. **Adabiy so'zlashuv nutqi** – adabiy til madaniyatiga adabiy til normalariga muvofiq ravj topib nutq so'zlashdir. Adabiy tilda so'zlash adabiy tilda yozishga o'xshashdan ancha murakkab kechadi. Bunga sabablar quyidagicha: og'zaki nutqda, albatta, shevaning ta'siri bo'ladi, juda bo'lmaganda notiqning talaffuzida seziladi; og'zaki nutqda yozma nutqdagi kabi o'ylab fikr yozish imkoniyat vaqti kam bo'ladi. Chunki og'zaki nutq tezkor jarayon, boshni qashlab o'tirishga vaqt yo'q; og'zaki nutqda talaffuz, shuning, imo-ishora vositalaridan foydalansa bo'ladi; og'zaki nutqning muvaffaqiyatli chiqishi notiqning kayfiyatiga, sog'ligiga, auditoriyadagi muvaffaqiyatga juda bog'liq; notiq so'zlayotganda yozma nutqidagidek yetarli e'tibor berolmaydi. Ko'ryapsizmi, notiqning nutqi mukammal bo'lishi uchun u ishni nutqining yozma ko'rinishi ustida ko'proq mehnat qilishi va uning o'zlashtirib olishi hamda notiqlik mahoratini ishga solib ijroga solinishi lozim.

Notiq muayyan mavzu asosida nutqi uchun kerakli materiallarni topish, izlab topishi va ulardan saralashi lozim. Topilgan materiallardan (materiallardan) kerakli joylarini o'qishi va o'qib olishi kerak. So'ngra mavzu yo'nalishini to'g'ri belgilashi, fikrni nimadan boshlab qanday yakunlashini aniq tasavvur etishi lozim. Keraksiz fikr va gaplarni nutq yozish jarayonida tushirib qoldirish, imkoniyati darajasida, aqli yetganicha o'qib tushungan fikrlarni o'z so'zlari bilan qayta o'zga tushirgani ma'qul. Tayyor bo'lgan ma'ruza matnini qayta o'qib o'zlashtirishi, kerak bo'lsa gapirish jarayonida o'zining talaffuzi ko'rinishini, holatini o'zi kuzatishi uchun oynaga qarab, o'ziga o'zi nutq so'zlashi lozim. Ovozining ohangini va talaffuziga e'tiborini qaratib tovush yozish texnikasiga yozib olib, o'z nutqining to'g'ri va aniq chiqayotganiga o'zini o'zi ishontirsin, ashulachi san'atkorlar bekorga ovoz yozish studiyasiga qatnamaydi. Notiqlik ham san'at ekanligini,

ayniqsa, notiq unutmash kerak. Shunday qilib, birinchi bosqichda to'plan materialni o'zlashtirib, aniq reja asosida matn yoki tezis tayyor bo'lgach, ikkinchi bosqichda, o'zi tayyorlagan matn tezisini ovoz chiqarib, o'qib yoki gapirib ko'rgach, uchinchi bosqichda tinglovchilarning oldida nutq so'zlashi lozim bo'ladi. Ana shu uchta bosqich nutqqa tayyorlanish va nutqning ustida ishlash va uni amalga oshirish jarayoni hisoblanadi. Notiqning nutq matni ustida tayyorgarlik ko'rishi, nutq ustida jiddiy ishlashi asosida tayyorlangan to'liq matn, teks yoki konspekt (matnning yozma shakli), albatta, tayyorlanishi muhim ahamiyatga ega. Shu mehnat jarayonida notiq muhim mavzu materiallarini o'z ongiga singdirib oladi. Notiq uchun adabiy til normalarini egallash hamda o'zining notqlik mahoratini oshirishda badiiy adabiyot namunalarini o'qish, o'rganish, taniqli notiqning nutqlarini kuzatish va o'rganish, teleradio nutqiga e'tibor berish, gazeta va jurnallar tiliga amal qilish ham notiq nutqining go'zallashuviga, tinglovchilar e'tiboriga tushishiga sabab bo'ladi. Notiq o'z mahoratini shu kabi yo'llar bilan oshirib boradi.

### **Muallimning insoniylik fazilati va notqlik mahorati**

Avvalo, muallim tarbiyachi va ta'lim beruvchi inson. Shu ma'noda muallim ma'naviy-axloqiy jihatdan qalbi pok, yetuk inson bo'lishi kerak. Muallimning tili va dili bir-biriga mutanosib bo'lmog'i, so'zi va amaliy faoliyatida muntazam muvofiqlik bo'lmog'i juda muhim. Tashqi ko'rinishi yoqimli, istarasi issiq, yuzida nim tabassum sezilib turishi lozim. Har bir so'zida mayinlik, gapirgan gaplarida muloyimlik va shirinlik sezilib turmog'i darkor. U doimo ozoda va shinam kiyinishi muhimki, pala-partish kiyinish, soch-soqollarini o'stirib yurishi muallimga yarashmaydi. Chunki undan ta'lim va tarbiya olayotgan shogirdlari unga katta ishonch bilan qarab, uning ko'p jihatlariga havas bilan qaraydi va unga taqlid qila boshlaydi. O'z navbatida muallim ham o'zi ta'lim-tarbiya berayotgan shogirdlariga mehribon va talabchan bo'lishi kerak. **Agar muallimning shogirdlari qizlar bo'lsa, o'zining qiziday ko'rishi, shogirdlari o'g'il bolalar bo'lsa, o'zining o'g'illariday ko'rib muomala qilishi, shogirdlariga hech qachon tamagirlik ko'zi bilan yoki qiz shogirdlariga noto'g'ri ko'z bilan qaramasligi muallim qalbining pokligidan darak beradi.**

Muallim boyligi shu shogirdlari ekanligini esdan chiqarmasligi kerak. Nainki, u shu shogirdlariga ma'naviy oziq bermoqda, kelajak uchun ulardan hosil kutmoqda. Shogirdlarini biridan birini tanishtmasin, dilini og'ritmasin. «Toyni toy dema, toy ham bir kun ot bo'ladi», – deydi xalqimiz.

Dehqon uchun dalasi, dalasida o'stirayotgan paxtasi uning rizqi, boyligi. Dehqon dalasidagi paxtasining hamma nihollari, navlari bir xilda o'smasligi mumkin. Ba'zi birlari egri yoki nimjon o'sishi mumkin, bunda dehqon hech qachon nimjon yoki egri paxta niholni og'urib otib yubormaydi, uni qo'lidan kelganicha parvarishlaydi, undan hosil kutadi. Muallim shogirdlarining ham zehni bir xil bo'lmaydi, zehni ustalari, tarbiyasi sal chatoqlari ham bo'ladi. Ularni sening zehning ustasi, o'zlashtirolmayapsan, deb davradan chiqarib haydab yuborish insoniy insofdan emas, u bilan qattiq, astoydil ishlash kerak. Dehqon o'zining paykalidagi nimjon yoki hosili kam niholga muomala – mehnat qilganday munosabatda bo'lish muallimning insoniy burchi. Chunki muallim ham shu shogirdlariga ta'lim-tarbiya berish hisobidan haq olib, o'z bola-chaqasini boqadi, ro'zg'orini tebratadi. O'ylashi kerak, shu shogirdlar bo'lmasa, uning muallimligi kimga kerak. Demak, shular uning rizqi, obro'si, kelajagi. Bu yo'lda xatoga yo'l qo'ygan muallimni Alloh kechirmaydi. Muallim o'zi o'qitadigan fanini yaxshi bilishi, o'z xalqining milliy mafkurasini anglashi, o'z millatining tilini va adabiyotini, tarixini yaxshi bilishi zarur. Dunyoqarashi, fe'l-atvori keng bo'lib, o'z ona tilida ravon va aniq nutq so'zlashi, katta so'z boyligiga ega bo'lishi kerak. O'zi ilm va tarbiya berayotgan o'quvchilarni, talabalarni har tomonlama yaxshi bilishi muhim. Ular bilan muomala-munosabatda chegara-oraliq saqlay olishi zarur. Muallim nutqiy kamchiliklardan mutlaqo xoli bo'lishi, bosiq, og'ir bo'lishi kerak. Agar muallimda haybat va salobat bo'lmasa, Sayfi Saroiy aytganidek:

*Haybatli bo'lmasa, ey muallim yor,  
Saqolindin tortqilab o'g'lonlar o'ynar*

– holati sodir bo'lishi mumkin.

Qadimgi ota-bobolarimiz ustoz-muallimga katta ishonch, umid bilan qarashib, izzat va hurmatlarini joyiga qo'yishgan. Ular qo'lga tarzandlarini olib borib topshirganlarida «Eti sizniki, suyagi bizniki»

deyishlari bejiz emas. Ana shunday ulug' ehtirom va hurmatni joyiga qo'ymagan muallim bu nomga loyiq emas.

Muqaddas kitob sanalgan «Avesto»da yomon muallim haqida shunday deyilgan: «Rostini aytsam, yomon ustoz hayotni g'amga qiladi, johillarni ulug' sanab, buyuk ayolu erlarni Yazdon ne'matlariga yetishishdan mahrum etadi. Bunday ustozlar o'z ta'limi bilan xalqni eng yaxshi yumushlardan bezdiradilar, noto'g'ri pandlar bilan xalqni yo'ldan urib, yomon yo'lga boshlaydilar... Hayot chirog'ini so'ndiradilar. Johillarni buyuk bilib, eng mo'tabar ayolu erkaklarni Tangri yo'ldan qaytaradilar. Nodonliklari bilan xalqni eng yaxshi xislatlardan yuqori o'girtiradilar, jahon xalqlari hayotini yolg'on gaplar bilan parishon qiladilar». Kitobning boshqa bir o'rnida Zardushtning mana shu tarzda iltijosi ham bor: «Noshud, nodon muallim o'quvchi qalbidan xiradmandlikni yo'qotar ekan, ey Yazdon, yomon ustoddan o'zing asra!».

Professor Jo'ra Yo'ldoshev Mirzo Ulug'bekning bu boradagi qarashlarini o'rganar ekan, quyidagilarni yozadi: «Ulug'bek mudarrislarining insoniy xislatlariga, bilimi, mahoratiga katta ahamiyat bergan. Talabalarning o'qishdan sovib ketishiga o'qituvchining razolati sabab deb hisoblagan. U davlat ishlari bilan o'ta band bo'lishiga qaramay, mudarrislarining darslarini tahlil qilishga, ilmiy munozaralarda ishtirok etishga doimo vaqt ajrata olgan. U Qozizoda Rumiy, Mavlono Koshiy Ali Qushchi, Avaz Kirmoniylarning darslaridagi mahoratlarini yuksaltdi va qadrlagan. Ayni paytda u mudarrislarining dars berishdan tashqari ilmiy tadqiqotlarda faol ishtirok etishlarini talab etgan. Ilmiy izlanishlar, tadqiqotlar olib bormagan o'quvsiz mudarrisarni ishdan bo'shatgan» (Ko'chirmalar professor N. Mahmudovning «Ma'rifat manzillari» kitobidan olindi. T.: «Ma'naviyat» 1999, 24-bet)

O'qituvchining asosiy quroli uning notiqligidir. Agar muallimda notiqlik qobiliyati sust va past bo'lsa, u o'z fani sohasidagi bilimni shogirdlari ongiga singdirolmaydi. Ikki o'rtada ham ustoz, ham shogird qiynaladi. Agar muallim notiq bo'lsa, barcha bilganlarini talabalar va o'quvchilar qalbiga yo'naltiradi va bundan o'zi ham, tinglovchilar ham rohatlanadi.

Ba'zi bir o'qituvchilar darsga kirib, «charchab chiqdim» desa, ba'zi bir o'qituvchilar dars o'tib «dam olib chiqdim», deydi. Dam olib chiqdim degan muallim, o'z bilimini o'z ona tilida, notiqlik mahoratini ishga solib

ohlatidan rohatlangan. Charchab chiqqani esa buning aksi sifatida  
qatnashda no'noq. U, albatta, charchaydi-da, chunki tinglovchilar uni  
qabul qilmagan, fikrlarini ko'ngildagidek qilib yetkazolmagan.  
Uning nutq quroli nosoz, uni charxlash va moylash kerak. Buni o'sha  
muallimning o'zi ham yaxshi biladi.

## Muomala madaniyati

«Muomala» so'zi zamirida butun insoniyat taqdiri mujassam. Uning  
Odam Ato va Momo Havo o'rtasidagi muomala va muloqotlariga  
qarab taqalsa ham ajab emas. Shundan buyon insoniyat muomalaning  
to'g'ri va ravon yo'llarini izlaydi, ba'zan topganday bo'ladi, yana  
izlaydi va yana izlaydi...

Shunchalar mushkulmi muomala madaniyatiga erishish? Bu yo'lda  
qiyomatga nima to'siq bo'lmoqda, deya o'ylaysan, kishi. Birdan-bir  
to'siq bu – inson qalbidan chuqur joy olgan «men»ni emasmikan? Odam  
bolasi eng ko'p o'z «men»ini o'ylaydi. Bu «men» qurg'ur shunchalar  
topishqoq illat ekanki, inson qalb to'riga shu qadar o'rnashib olganki,  
hatto «men» egasini dunyoga keltirgan zot – volidai muhtaramasidan,  
madari buzrukvoridan ham o'zini usgun qo'yarkan. O'z «men»ni soyasida  
qolgan odam o'zligini yo'qotib qo'yarkan. Hazrat Navoiy aytganlaridek:  
«H netib topgay menikim, men o'zimni topmasam».

Modomiki, shunday ekan, biz «muhtaram» «men»lar orasida ya-  
shayotgan ekanmiz, ularning do'q-po'pisalari bilan ham, qiliqlari-yu  
maqtanchoqliklari bilan ham, o'zaro muloqotlarimizda sal kechirim-  
liroq bo'lishimizga to'g'ri keladi. Ayniqsa, o'smir yoshidagi «muhtaram  
men»larning g'ururiga tekkan gap-so'zlarimiz oqibatida turli ko'ngil-  
siz, noxush hodisalar kelib chiqishi hech gap emas. Bunday voqea-hodi-  
saga hayotimizda guvoh bo'lib turibmiz. Bunaqa «men» otiga mingan-  
larga faqat Yaratgandan insofu to'vfiq, sabr va insoniy kayfiyat tilaymiz.

Manmansirash va keraksiz g'urur odamlar boshiga ne-ne kulfatlarni  
yoq'dirmagan. Islom tafakkurining so'nmas mevasi so'fizmda inson o'z  
«men»idan, g'ururidan kechmay turib Allohni tanimaydi, degan aqida  
mavjud. Inson bolasi shu aqidaga amal qilsagina, o'zlaridagi ortiqcha  
g'ururni sindirishga qurbi yetadi. Harbiy xizmatga chaqirilgan yoshlar  
xizmat taqozosi bilan bir-birlaridagi ortiqcha g'ururni sindirishadi



va bu darddan bir-birlarini xalos qilishadi. Qarabsizki, xizmatdan qaytganlarning deyarli ko'pchiligi muloyim, odamshinavanda bo'lib muomala madaniyatida ham o'zgarish yasaydi.

Qisqasi, insoniyatning asab torlari taranglashgan hozirgi serg'alva zamonda odamlar bilan shirin muomalada bo'lish uchun har birimizdan sabr-toqat, bag'rikenglik va yuksak saxovat talab etiladi.

Tasavvur qiling, farzand o'z ota-onasini hurmat qilsa, shogird ustozining yuziga oyoq qo'ysa, fuqaro o'z hokimining gapini ikki qilsa, u yurtida osoyishtalik, farovonlik bo'lmaydi. Musulmonchilik qonun-qoidalariga ko'ra, Allohga, uning Rasuliga hamda hokimlarga nisbatan e'tiqodda bo'lish buyurilgan: «Ey mo'minlar, Allohga itoat qilingiz va payg'ambarlarga hamda o'z'laringizdan bo'lgan hokimlarga bo'ysuningiz!»

*(Qur'oni karim, Niso surasi, 59-oyat)*

Yaratganga beadad shukurlar bo'lsinki, istiqolga erishganimizdan so'ng yurtimizda juda katta o'sish-o'zgarishlar sodir bo'lmokda. Ulkan qurilishlar, shifo maskanlari, o'quv dargohlaridagi yutuqlar, shaharlarimizdagi obodonchilik va osmono'par binolaru, ko'priklar - barchasi, birgina Toshkent shahridagi o'zgarishlarning o'ziyoq haq qanday odamni o'ylashga undaydi. Agar Shayxzoda hayot bo'lganlarida «Toshkentnoma» dostonini qayta yozgan bo'lardilar. Ayni kunlarda kishilarimiz o'rtasida bir-birlariga nisbatan hurmat-e'tibor qaytadan tiklanmoqda. Bu - yurt obodligidan el ko'nglini shod etadigan yagona omillardandir.

Ajdodlarimiz orzu qilgan kunlar bizga nasib etgan shu kunlarda ma'naviyatimizda, muomala madaniyatimizda ba'zan oqsoqlik sezamiz. Inson bolasidan qoladigan eng ulug' meros faqat bitta - shirin muomala. Barcha narsaga yetgan aqlimiz shunga qolganda charchaydi. Nimagadir bir-birimizdan shirin so'zimizni qizg'onamiz. Odam hamisha - ochmi, to'qmi, qiynalib yashayaptimi, farovon yashayaptimi, baribir, shirin gapning gadosi. Shirin so'z insonning ruhiy ozug'i bo'lmaganida akademik shoirimiz G'afur G'ulom xalq boshiga og'ir musibatlar tushgan yillarda «Bir og'iz shirin so'z nondek arzanda» - deb yozmagan bo'lardi. Inson qalbiga ham oddiy va nondek kabi tabiiy shirin so'zlar bilan kirib boriladi. Biroq bunga hammasi ham erisha olmaydi. Oddiy bo'lib ko'ringan muomala madaniyati murakkab, asrlar osha yechimini topgani holda amalda bajarilishi

Har bir bo'lgan muammo. Chunki uni inson o'zi bajarishi kerak, bunga g'urur yo'l bermaydi. Uni yengish, sindirish hammaning ham yo'lidan kelmaydi. Modomiki, shunday ekan, insonning o'zi muammo. Agar muammo bo'lmaganida edi, G. Byuxner: «Inson tubsiz. Unga berilgan kishining boshi aylanib ketadi» demagan, Erkin Vohidov insonni bejizga tirik sayyoraga mengzagan, Abdulla Oripov «Har bir inson – bir Vatan», deb atamagan bo'lardi. Inson sirligicha qolmoqda. Dalamzod bir-birini anglab yetmaguncha olam tinch bo'lmaydi. Bir-birini anglamoq uchun esa, eng avvalo, har kim o'zligini anglashi zarur. Ko'ryapsizmi, qanchalar murakkabmi?! Bundan cho'chimang, har narsaga qodir inson, muomala madaniyatini ham joyiga qo'ya oladi. O'zingiz o'ylab ko'rganmisiz? Nima uchun hamma yoshu qari bitroyli bo'lishni xohlaydi, nima uchun ko'zgu oldida o'zining u yoqini yoqini yog'ini to'g'rilaydi? Nega? Odamlarga yoqish uchunmi? O'smir yoshidagilarning va o'rta yoshdagi erkak-ayollardagi bu harakatni qanday baholaysiz? Keksa yoshdagilarning bu xushxulqini-chi? Bu savollarga har kim o'z dunyoqarashi nuqtai-nazaridan javob berishi mumkin. Yoki turli xil atir upalaru turli xil bo'yoqlar bilan ko'rsatish-chi? Bu talabaga berilgan topshiriqmi, ishxona rahbarining topshirig'imi? Yoki boshqalarning havasini keltirishmi, maqtanishmi, nima? Ayniqsa, ayollar va qizlarimizdagi qomatlarini bir maromda saqlab turishga bo'lgan xatti-harakatlarni aytmayisizmi?! Ana shunday boshqirish shakli go'zalligini saqlash va ta'minlash uchun qanchalar vaqt va pul sarflanadi. Ayniqsa, shunday shakli shamoyilga erishganlar orasida qisman bo'lsa-da, bechora va kambag'al kishilar ustidan o'qib o'qib va ularni masxaralash kabi xatoliklarga yo'l qo'yish hollari ko'rinib qolaydi. Bu hol ulardagi manmanlikni keltirib chiqarmoqda. Masxaralanganlarning esa dillari og'rismoqda.

Har bir odam o'zining shakli shamoyil go'zalligiga vaqt va pul sarflash hisobiga erishadi. Agar odamlardagi shakli go'zalligiga ta'minlash naviy-axloqiy go'zallik, muomala madaniyati ham qo'shilsa bormi, har bir odam ustiga a'lo nur bo'lardi. Bundaylarni komillikka intilish yo'lidan ko'rib, odamlarga shirin so'zlari bilan ruhiy madad beradiganlar safiga kiritish lozim.

To'g'risini aytganda, pulni ham, vaqtni ham, so'zni ham tejab ko'rilgan ma'qul. Chunki pul ham, vaqt ham, so'z ham boylik. Ana shu so'z boyligimizni qadrsizlantirmaylik.

Avvalo, muomala madaniyati salomlashishdan boshlanadi. Buning yorqin misolini o'zbek xalq ertaklaridagi devlar, yalmog'iz kampirlar huzuriga kelgan kishilarga: – «Gar saloming bo'lmaganda, ikki yamlab bir yutardim», degan kechirish holatlarida ham kuzatamiz. «So'z boshi salom» deganlaridek, salomda gap ko'p. Biroq salomlashishning ham o'ziga yarasha qonun-qoidalari bor.

Bizda qadimdan amalidan qat'i nazar, o'zidan bir yosh bo'lsa ham katta kishilarni senlab gapirish odobsizlik sanalgan. Birniki mingga, mingniki tumanga, deganlaridek, onda-sonda uchrasa-da ba'zi 10-15 kishiga rahbar bo'lib qoiganlar o'z qo'l ostidagilarga senlab muomala qilishi g'alati tuyuladi. Abu Lays As-Samarqandiy «Bo'ston ul-orifin» kitobida: «Ey farzand, sollallohu alayhi vasallam kattami yo kichikmi, albatta, sizlab murojaat etar edilar. Sollallohu alayhi vasallamning har bir odatlari biz – mo'minlar uchun qonun bo'lmog'i shartdir» deb yozadi.

Ma'lumki, yil sayin tabobat ilmi kuchaygani sari kasallik turlari ham ko'payib bormoqda. Hozir qayoqqa qaramang, dorixonaga ko'zingiz tushadi. Dorilar ko'p, uni sotib olishga pul kerak. Kimlargadir bilinmas, ammo qo'l uchida kun kechirayotganlar uchun og'irlik qiladi. «Besh qo'l barobar emas» deganlaridek, hammaning ahvoli ham birday yaxshi bo'lib ketayotgani yo'q. Bu holat oldin ham bor edi, hozir ham bor, keyin ham bo'ladi.

Ajdodlarimiz qadim zamonlardan beri arzon va hammabop dorini izlab keladilar. Ana shunday dori haqidagi fikrni ham bobokalonimiz Abu Ali ibn Sino topganlar. Buyuk allomaning fikriga qaraganda, bemorni dori-darmon bilan birga so'z bilan davolagan ma'qul ekan.

Bir og'iz shirin so'z... Qiziq, zamonaviy tibbiyot uskunalari noyob chet el dori-darmonlari ham ojizlik qilgan-da, shu bir og'iz shirin so'z yoki muomala kasalga ruhiy dalda, jismoniy qudrat bag'ishlaydi. Chunki shirin muomala bosh miyaga ta'sir qiladi. Bosh miya esa inson tanasidagi borliqni boshqaradi. «Yaxshi so'z – jon ozig'i, yomon so'z bosh qozig'i», deganlaridek, shifokor doimo shirin so'z va muomala ustasi bo'lmog'i shart.

Bir rivoyatda keltirilishicha, Luqmoni Hakim ko'chada ketayotib bir qizning dam-badam qon tuflab ketayotganini kuzatibdi. Hakim qizidan tushib, qaysi darvozaga kirganini ko'ribdi-da, qiz kirib ketgan

Arvozani taqillatibdi. Qizning otasi chiqib, tabibni tanib qolib, uyiga qolib qilibdi. Suhbat orasida Luqmoni Hakim: «Qizingiz bedavo dardga choldimibdi, afsus, muolajaning iloji yo'q», – debdi. Tabibning so'zlarini o'qib oshik ortida eshitib turgan ekan. Birdan yuragi tez urib, yiqilibdi va choldidan ketibdi. Shu bir og'iz so'z ta'sirida qiz ruhiy dardga uchrab shotut etibdi. Oradan ma'lum fursat o'tgach, qizning otasi tabibni uchratib qolib so'rabdi.

Taqsir, qizimning bedavo dardini qanday bilgandingiz? – deb so'rabdi.

Qizingiz ortidan kelayotib, uning qayta-qayta qon tupurganini ko'rgandim.

Bu javobni eshitgan ota peshonasiga urib:

– E, attang, qizim o'sha kuni shotut yegandi, siz ko'rgan tupuk shotut harbati edi-ku! Eh, attang! – debdi.

Shunda tabib choldan uzr so'rabdi. Shundan so'ng Luqmoni Hakim: «Bir so'z bilan soppa-sog' odamni o'ldirish yoki bemorni shirin so'z bilan sog'aytirish mumkin ekan», degan xulosaga kelgan. Yunon tibbiylari: «Dardni bilmasang, yaxshisi, bemorni tinch qo'y», deb bekorga aytmagan ekanlar...

Bugungi kunda beburd, bebosh, betayin kimsalarning do'q-po'pisa telefon qo'ng'iroqlaridan xastalangan yoki bu olamni tark etganlar ham yo'q emas. So'zning qudratini ko'ryapmizmi?

Butun boshli sobiq Sovet davlatini (SSSRni) M. S. Gorbachyov gap bilan tarqatib yubordi. To'g'ri, bu tarix hukmi edi. Vaziyat pishib yetilgan edi. Shu tufayli Birinchi Prezidentimizning hushyorligi va sa'y harakatlari bois Mustaqillikni qo'lga kiritdik. O'zbek tiliga davlat tili maqomining berilishini eslaylik. Bu ham oson kechmadi. O'sha kezlarda bir guruh olimlarni viloyatlarga «Til qonuni»ni ommaga tushuntirish bo'yicha safarbar etishdi. Ular orasida kamina ham bor edi. O'shanda bir tumandagi ichki ishlar xodimlari bilan uchrashib, ma'ruzamni tugatdim. Men bilan birga yurgan tuman rahbarlaridan biri:

– Domlaga savollar bo'lsa, marhamat, – dedilar.

Shunda bir kapitan yigit ilmoqli, dilni larzaga keltiradigan qaltis savol bilan murojaat qildi.

– Domla, hozir matbuotda, radio, televideniya nihoyatda qaynoq voqealar haqida gap bormoqda, shunga fikringizni bildirsangiz, – deb qoldi.

Savolni eshitishim bilan yuzimda qo'rquv aralash nim tabassum paydo bo'ldi. Bir zumda xayolimdan matbuotdagi bo'lar-bo'lmas, ba'zan shaxsiy g'arazgo'ylik bilan yozilgan maqolalar o'ta boshladi. Bildimki, u yigit o'zi bilsa-da, meni sinab ko'rmoqchiligini sezdim. Agar men qaysi maqola haqida so'rayapsiz desam ham chalkashib ketishim turgan gap edi. Chunki hali to'lqin tinmagan. Agar daryodan yoki ariqdan bir chelak suvni olib, diqqat bilan kuzatilsa, chelakdagi suvda har xil gardlarni kuzatish mumkin. Chelakni bir chetga qo'yib bir necha daqiqadan keyin qarasangiz, cho'kindilar chelak tagiga cho'kadi va suvni iste'mol qilish mumkin bo'ladi. O'sha paytda e'lon qilingan maqolalar daryodan yoki ariqdan olingan chelakdagi suvning dastlabki holatini eslatardi. Hali voqealik tinmagan edi. Lekin men savolga javob berishim shart. Shunda xayolimdan daraxtni kesayotgan bolta haqidagi rivoyat o'tdi. Tanasi jarohatlanayotgan daraxt zorlanib: «Sopi o'zimdanda, bo'lmasa, boltaning qo'lidan hech ish kelmasdiya», deb ingragan ekan.

Demak, javobga savolning o'zidan sop yasash kerak, degan fikr keldi miyamga va shunday javob berdim:

– Juda to'g'ri va o'rinli savol berdingiz, ukam. Haqiqatan ham, matbuotda qaynoq voqelik haqida tinimsiz maqolalar chiqib turibdi. Sizga bir iltimosim bor, shu voqeliklar haqidagi maqolalarni qaynoqligicha iste'mol qilmang, og'zingizni kuydirib qo'yasiz, – deyishim bilan zaldagilar chapak chalib yuborishdi.

Yonimdagi hokimning muovini ham qo'rqib o'tirgan ekan, shekilli, birdan qo'limni siqib tabriklay boshladi. Chapaklar tingach:

– Ukajon, – deya yana o'sha savol bergan yigitga murojaat qildim, – o'ta sovitib ham yubormang, tomog'ingizni og'ritib qo'yasiz.

Zalda yana chapak chalindi va ular orasidan kimlardir: «Rahmat, domla!» deyishdi. Shundan so'ng garchi zaldagilarning javobidan ko'nglim to'lgan bo'lsa ham, haligi yigitni mulzamlikdan, xijolatdan chiqarish uchun muomala madaniyatini ishga solib Abdulla Oripovning quyidagi she'rini o'qib berdim:

*Juda yaxshi deymiz, mana bu narsa,  
Go'yo hukm kabi yangrar so'zimiz.  
O'ylab ko'rganmizmi hech biror marta,  
Xo'sh, kimmiz o'zimiz.*

*Juda yomon deymiz, mana bu narsa,  
Go'yo hukm kabi yangrar so'zimiz.  
O'ylab ko'rganimizni hech biror marta,  
Xo'sh, kimmiz o'zimiz.  
Kimgadir yoqamiz biz o'zimiz ham,  
Kimgadir yoqmaymiz biz ham o'zimiz.  
Shunchalik charxpalak ekan, bu – dunyo,  
Demak, nisbiy erur har bir so'zimiz.*

O'sha yigit kelib:

– Rahmat, domla, meni kechiring, – deb kechirim ham so'radi.

Agar shu she'rni o'qimasam, o'sha yigitning dilini og'ritgan bo'lardim. Xayriyatki, bu xijolatdan qutuldim.

Hozirgi yoshlarni «sodda» deb bo'lmaydi. Bugungi fan-texnika taraqqiyoti yoshlar va o'smirlar ongini ancha charxlab, o'tkirlashtirib qo'ygan.

O'tgan asrning 50-yillaridagi kattayu kichikni sodda, desa bo'ladi. Birgina misol: paxta dalasini chigit ekishga tayyorlashda kuzda qilingan hudgdordagi kesaklarni maydalash uchun zanjir oyoqli traktorga o'nlab tishli baranalar taqilib ortidan 8–10 metr keladigan osti va usti 40 sm keladigan maxsus mola yog'och bog'lanardi-da, ustiga 2–3 ta odam o'tkazilardi. O'sha odamlar changdan himoyalaniish maqsadida faqat ko'zini ochiq qoldirib, boshi bilan burkab ro'mol yoki biror matoni o'rab olardi. Bu mart–aprel oyining ikkinchi yarmiga to'g'ri kelardi. Traktor esa kecha-kunduz ishlardi. Yog'och mola ustida o'tirgan odam tunda navbat almashardi. Kechasi uxlab qolib, oyog'ini sindirib, shikastalanganlar ham bo'lardi. Lekin brigadirning gapi ular uchun qonun edi. Endi, o'ylaymiz-da, nahotki o'sha payt rahbarlarining tayoliga kelmagan. Shu bitta odamning og'irligi 80–100 kilo kelar, shularning o'rniga 4–5 ta qop tuproq solib, yog'och ustiga tashlab qo'yilsa ham bo'lardi-ku, deysiz-da. Mana buni soddalik desa bo'ladi. O'sha mehnatkash bechoralar bir-birining ko'ngliga yarasha, dilini og'ritmaydigan muomalada bo'lishardi. Qish kechalarida yig'ilishib, televizor, radio yo'q, qora chiroq yorug'ida biz o'quvchilarga tong otguncha dostonlarni o'qitib tinglashardi.

Biz bozor iqtisodiyoti sharoitida yashamoqdamiz. Buni boshqacha qilib aytadigan bo'lsak, dunyo bozorga aylanmoqda.

Xullas, biz tom ma'nodagi bozor iqtisodiyotiga kirib bormoqdami?  
Bunday sharoitda har kim o'z molini maqtaydi:

*Bozorga o'xshaydi asli bu dunyo,  
Bozorga o'xshaydi bunda ham ma'ni.  
Ikkisi ichra ham ko'rmadim aslo,  
Molim yomon degan biror kimsani.*

(Abdulla Oripov)

Demoqchimizki, shu kunlarda faqat mahsulot, pul va boylik ketidan quvib, ma'naviyatni, imonni, jumladan, so'z qadrini unutib qo'ymaslik ham insoniy burchimiz. Yanayam boshqacharog'i shu kunlarda ko'pchilikning sotuvchi va xaridorga aylanib borayotganligi rost.

Shu bois sotuvchi xaridorni salom berib kutib oladi, uning kayfiyati bilan hisoblashadi, xushmohalalikni o'ziga odat qiladi va hatto so'zning ham narxini biladigan darajaga erishadi. Aslida, savdo va ma'naviyat jumladan, muloqot odobi hamisha bir-biri bilan bog'liqdir.

Agar o'tmishga nazar tashlaydigan bo'lsak, eng qadimiy davlatlardan biri hisoblangan Gretsiyada notiqlik san'atining rivojlanishida savdo ham muhim ahamiyat kasb etganining guvohi bo'lamiz. Chunki Gretsiya savdo davlati. Savdo aloqalarini, savdo ishlarini muhokama qilish, yakunini ko'rib chiqish, qolaversa, xaridorlar sonini ko'paytirish uchun savdogarlar so'z san'atidan ham yaxshi xabardor bo'lishlari talab etilgan.

Iqtisodning kelajagini, barqarorligini o'ylagan davlatlarda hamisha moddiylikni ma'naviyatdan ajratib qo'ymaslikka, aksincha, ma'naviyatni taraqqiy ettirish orqali iqtisodni rivojlantirishga harakat qilinadi.

Jumladan, mashhur sotsiolog olim Deyl Karnegi Amerikadagi biznesmenlarga (tabdirkorlarga) notiqlik mahoratidan dars bergan va ular o'rtasida tez orada katta shuhrat topgan. Chunki Karnegidan saboq olganlaridan keyin tadbirkorlarning kishilar bilan muloqatga kirishishlari ancha oson ko'chgan va ularning savdo ishlari juda jonlanib ketgan. Shuning uchun avvaliga bu yigitcha savdogarlardan notiq tayyorlamoqchimi, deb o'ylagan va uning ma'ruzalariga 2 dollarni ham ko'p ko'rgan biznesmenlar keyinchalik Karnegining har bir kuni uchun 30 dollardan haq to'lab saboq olganlar». (S. Mo'min. So'zlashish san'ati, Farg'ona, 1997-y. 46-bet.)

«To'g'ri so'z tuqqaningga yoqmas» deganlaridek, ba'zi haqiqatgo'y  
inamlar hamisha rost va haq gapni aytishdan tortinmaganlar. Faqat  
bir xil mazmundagi gapni turli ko'rinish va har xil ohangda aytgan-  
lari uchun ba'zilari jazo olib, ba'zilari mukofotlanganlar. Bir rivoyat-  
tiltirilishicha: «Xorun ar-Rashid tush ko'rsa, o'ttiz ikki tishi tushib  
qolmish. Shunda u munajjim va ta'birchilarni chaqarib, tush ta'biri-  
ni so'rabdi. Shunda muabbir (ta'birchi)lardan biri:

– Ey, amir al-mo'minin, butun qavm-qarindoshing va urug'-  
qo'ng'ing o'lib, o'zing yakka-yu yolg'iz qolar ekansan, – debdi.  
Xorun ar-Rashid yurak-bag'ri ezilib, sovuqnafas muabbirni yuz  
qara uringlar, deb buyuribdi. Ertasiga boshqa ta'birchini chaqirib,  
uning ma'nosini so'rabdi:

– Ey, amir al-mo'minin, Alloh sizga uzoq umr, katta davlat bergan,  
qarindosh avlodlaringizdan ko'ra uzoq umr ko'rar ekansiz, – debdi.  
Uu gapdan Xorun sevinib:

– Ikkalasi ham bir gapni aytdi, ammo bunisi fikrini odob bilan,  
shiroyli iboralar topib aytgani uchun yuz dinor mukofotga sazovor  
bo'ldi, birinchisi qo'pol so'zlar aytib yuz darra yedi», – degan ekan.

Demak, har qanday yomon xabarni ham aql-farosat bilan yumshoq  
qilib yetkazishga hamisha ajdodlarimiz amal qilishgan. Ba'zan oddiy  
gapni ham «tomdan tarasha tushganday» qilib yetkazish orqali har  
qanday odamni dovdiratib qo'yish hollari muomala madaniyatini  
olmaslikdan kelib chiqadi.

O'zbek xalqining qadimiy udumlariga ko'ra, chaqaloq tug'ilgandan  
bir hafta o'tar-o'tmas uning qulog'iga azon aytiladi. Chaqaloq vujudiga  
qanday bor Yaratganning nomi, musulmon ohanglari kirib borarkan, bola  
qahriyasi xuddi shu damlardan boshlanadi.

Ohang – so'z va gapning libosi. V. G. Belinskiy: «Gap so'zda emas,  
ohangda qaysi so'zning qanday talaffuz etilishi-da», – deydi. Ohang  
gapning mazmunini butunlay o'zgartirib yuborishi mumkin. Afandining  
so'z ahmoq, odam emassiz», deya uzr so'ragani kabi.

Bolangizga ertalab «Turaqoling, o'g'lim!» degan jumlangizga,  
o'g'lingiz (buyruq, taklif, iltimos, yolvorish yoki yalinish) ohangiga  
qarab munosabat bildiradi. Agar buyruq ohangida aytadigan  
bo'lsangiz, bolangiz sizni «nimaga baqirasiz?» – deb jerkib soladi.  
Demak, bu muomala madaniyatini o'rniga qo'ya olmaslik oqibati. Ham  
so'zning, ham bolangizning kayfiyati buziladi.



Bir rivoyat o'qigan edim. Tabib bemorni davolash uchun ilon izlab topadi. Yo'lda kelayotib ilon tilga kiradi:

- Sen meni o'ldirib, zahrim bilan bir odamning hayotini saqlab qolmoqchi bo'lyapsan, to'g'rimi?

Tabib:

- To'g'ri.

- Endi quloq sol, - debdi ilon. - Bekor qilasan, bemor mening zahrim bilan tuzalmaydi. Agar biz chaqqanimizda tuzalar edi. Uni do'sti chaqqan. Odamning zahri ilonning zahri yo'q qila olmaydi. Bilasanmi, Alloh bizni shunday sovuq, badbashara qilib yaratdi, qo'l-oyoq ham, aql ham bermadi. Ammo biz ilonlar bir-birimizni chaqmaymiz. Siz insonlarga esa aqlga qo'shib butun borliqni berdi. Shunda ham noshukurlik qilib, bir-birlaringizni chaqasizlar.

Tabib ilonni o'ldirmay qo'yib yuboribdi. Haqiqatan ham bemorni o'z do'sti chaqqan ekan, hech qanaqa dori kor qilmay olamdan o'tibdi. Tishi bilan chaqqan deb o'ylamang, tili bilan, zahar-zaqqum gaplar bilan chaqib boshiga yetgan. Shunday zaharli odamlardan o'zi asrasin. Bundaylarga qarab turib:

*Namuncha zaharsiz, zaharsiz biram,*

*Turqingiz chaplashga chidamas qalam.*

*Buncha zuqqumni qanday yig'dingiz,*

*Yorilsa, to'kilsa rasvoi olam, (N.B)*

- degingiz keladi.

Agar siz odamning ko'nglini ovlamoqchi bo'lsangiz, muomala madaniyatingizni ishga soling, bu qo'lingizdan keladi. Bunga osonlik bilan erishishingiz mumkin. Inson qalbi «ochilmagan qo'riq».

*Kimgadir yaxshilik istasa ko'ngling,*

*Guldayin ochilar yonog'ing, yuzing.*

*Tik qarab turasan qochirmay ko'zing,*

*Ishonchli chiqadi har aytgan so'zing. (N.B)*

Qadimda donishmandlardan o'ntasi yig'ilib «Bu dunyoda kim baxtli hayot kechiradi?» degan savolga javob izlashibdi. Hammalari bir

larga kelishib: «Bu dunyoda shirin muomalali odam baxtli yashaydi»,  
deyishibdi. Shunda ulardan biri «Agar u mehnatkash bo'lsa», deb  
qo'shimcha qilgan ekan.

### So'z haqida so'z

Payg'ambarimiz Muhammad (s. a. v.) bunday deb marhamat  
qilganlar: «Menga farzlarni ado etish buyurilgani kabi, insonlarga  
xushmuomalada bo'lish ham buyurildi», «Insonlarga xushmuomalada  
bo'lish sadaqadir», «Til sadaqasidan (shirin so'zdan) ortiqroq sadaqa  
yo'q».

So'fi Olloyor yozadilar:

*Kel, ey obid, o'zingni aylagil xok,  
Haromu shubhadin xulqingni qil pok.  
Ochiqqo'llik, kushoda yuzli bo'lg'il,  
Muruvvatlik, muloyim so'zli bo'lg'il.*

Yaxshi muomala va samimiy munosabat qalblarga sevinch  
bag'ishlaydi. Sevgiga to'la qalblar faqat yaxshilik istaydi. Hamsuh-  
batingiz qalbiga sevinch taqdim etishingiz gunohlaringiz kechiri-  
lishiga sabab bo'ladi. Bu Payg'ambarimizning (s. a. v) bashoratla-  
ridir.

Buni aslo unutmang! («Hidoyat» jurnali. 2006-yil, 3-son. 2-bet)

«Yaxshi so'z, ochiq yuz, xolis yordam ko'rsatish amal bilan yaxshilik  
qilishdir. Hadisi sharifda marhamat qilinadi: «Yaxshi so'z sadaqadir»,  
«Birodaring yuziga tabassum bilan qarashish sadaqadir». («Hidoyat»  
jurnali 2006-yil 4-son, 4-bet.)

*So'z guhariga erur oncha sharaf  
Kim, bo'la olmas anga gavhar sadaf.  
To'rt sadaf gavharning durji ul  
Etti falak axtarining burji ul -*

deb Alisher Navoiy so'zga ta'rif beradi. Shuningdek, «Farhod va Shirin»  
dostonida ham shoir so'zga alohida urg'u berib:

*So'zdin o'likning tanida ruhipok,  
Ruhdog'i tan aro so'zdin halok.  
Turguzib o'lganni kalomi fasih  
O'ziga «Jonbaxsh» laqab deb Masih.  
So'zdin etib o'tqa azimat xalil,  
So'z yukiga xomil o'lub Jabroil.  
Tangriki insonni qilib ganju roz,  
So'z bila hayvondin ancha imtiyoz...  
Donovu dur so'zini afsona bil,  
So'zni jahon bahrida durdona bil. –*  
deb ta'riflaydi.

*Quloqda asra garonmoya so'zniyu fikr et,  
Ki dursiz o'lsa ne bo'lg'usidir sadaf xoli.  
So'zingni dog'i ko'ngil ichra asragilkim, hayf,  
Kim o'yla durni go'xaridin etgasen holi.*

Navoiy

*Bilib so'zlagin, so'z bilikka sonur,  
Biliksiz so'zi o'z boshini yeyur.  
O'qushqa, bilikka bu tilmochi til,  
Yorutochi erni yo'riq tilni bil.*

Yusuf Xos Hojib

*So'z ichra mudom aql yashirindur,  
So'z chimildig'-u aql kelindur.*

Nosir Xusrav

*Tildagi ketma-ket xatoga, hayhot,  
Chiroyli kiyimlar berolmas najot.  
So'zing kiyimingdek bekamu ko'st qil.  
Yoki kiyimingni so'zingga rost qil.*

Abdurahmon Jomiy

*Nodonlardek yuzlab so'zni qilma qator,  
Donolardek bir so'z degil, lek ma'nodor.*

Sa'diy Sheroziy

*Har so'zning o'z joyi bor,  
Har nuqtaning makoni*

Hofiz Sheroziy

*So'z bilan bo'lub bu olam paydo,  
So'z bilan bo'lub bu odam paydo.*

Muhammad Solih.

Men, aql barkamolligi nuqtai nazaridan qaraganimda, so'zdan mo'tabarroq va qalbidan buyukroq hech narsa topmadim. Chunki undan afzalroq biror narsa bo'lganida edi, haq taolo payg'ambarga (s. a. v.) o'sha narsa bilan murojaat qilgan bo'lardi.

Umar Xayyom «Navro'znoma» kitobi.

*Agar bo'lsang ipak kabi muloyim,  
Muloyim sen bo'lsang, quling bo'layin.  
Kulog'imga bergan panding olayin,  
Kishiga qattiq so'z aytuvchi bo'lma.  
Oqmasdan qolmaydi bir oqqan ariq,  
Bir tanda odam goh semiz, goh oriq.  
Bir yuzi qoradir, bir yuzi yorug',  
Qora deb qattiq so'z aytuvchi bo'lma...*

Maxtumquli.

So'z qolip, fikr uning ichiga quyilgan g'isht bo'lsin.

A. Qodiriy.

## **Notiq uchun 41 qoida**

Yuqorida ko'rganimizdek, har qanday shaxs shoir yoki yozuvchi, aktyor yoxud rassom bo'lolmaganidek, mohir notiq ham bo'lolmasligi mumkin. Lekin «izlanganga tole yor», deganlaridek, chindan intilgan shaxs bunday mavqeni egallashi mumkin. Quyidagi qoidalarga amal qilinsa, notiq zarar qilmaydi:

1. Nutqingiz rejasi varaqning birinchi betiga yozilgan bo'lishi. Rejani bir necha varaqqa yozmang, adashib ketasiz.

2. Ommabop yo'sinda so'zlanayotgan muayyan nutqingiz taxminan o'ylangan va tayyorlangan bo'lishiga erishing.

3. Tajribali notiqgina o'zining ommabop nutqini o'z tajribasiga tayangan holda ko'pchilik oldida dadil namoyon etishi mumkinligi yodingizda bo'lsin.

4. Ommabop nutq oldidan, albatta, chuqur o'ylab, anglab, tinglaydigan auditoriya va gapiradigan gap o'zingizga bog'liq ekanligi his etib olmog'ingiz shart.

5. Agar reglament belgilangan bo'lsa, nutq mazmunini qisqartirib, ko'p yomon gapirgandan ko'ra, oz va soz so'zlang.

6. Har bir nutqning boshlanishi, o'rtasi va oxiri bo'ladi. Eng muhim, nutqingiz oxirini qanday tugatishni esda saqlang.

7. Nutqingizda faktlar ko'p bo'lsa, yaxshisi nutq rejasini tuzib, Rejada asosiy punktlar saqlansin. Aniqlik talab qiluvchi xabarlar vaqit, statistik ma'lumotlar va iqtiboslar (sifat), murakkab yoki kam tanish bo'lgan so'zlar, terminlar va hokazolar.

8. Siz notiqsiz, birinchi jumladan va nutqning xulosasini o'ylashga majbursiz, qolgan gaplarni o'z yo'nalishda bog'lab boraverishingiz mumkin. Agarda juda o'zingizga ishonangiz, chiqish qilish oldidan rejani unutishingiz, undan foydalanmasdan tashlab yuborishingiz mumkin. U holatda nutqingiz yanada go'zal chiqadi.

9. Rasmiy hujjatlarni, notanish matnlarni o'qib berishingiz mumkin. Nutqning boshqa turlari esa o'qiganlaringizni mustahkamlaydi. Ya'ni yuqorida ko'rsatilgan matnlardan tashqari qo'shimcha nutq matnini yozish shart emas. Chunki yozgan matnlaringiz gapirishingizni qiyinlashtiradi. Tajribasiz notiq yozilganlardan notanidir tushirib qoldirishdan qo'rqib, battar xatoga yo'l qo'yishi mumkin.

10. Ommaviy auditoriyada chiqish qilayotgan notiq o'ziga ishongan, jismoniy ko'rinishi dadil, jasur va vazmin hamda tashqi ko'rinishi bilan jozibali bo'lmog'i lozim. Shuning uchun omma oldida chiqish qilishdan oldin tashqi qiyofangizning go'zal bo'lishiga intiling.

11. Ko'pchilik, jumladan, tajribali notiq ham gapirish oldidan hayajonlanadi. Bu hayajonlanish tabiiy va foydali. Agar hayajonlanish bo'lmasa, demak, notiq o'z nutqiga mas'uliyatsiz, auditoriyaga e'tiborsiz.

12. Juda qattiq hayajonlanish zararli. Undan qochish kerak. Chiqish qilish oldidan yaxshi narsalarni o'ylab, nutq mazmunidan o'zingizni chalg'iting. Auditoriya haqida vahima qilmang. Agar buning iloji

almasa yoki chalg'ish yordam bermasa, qo'llaringizni yelka kengligida tutib, harmoqlaringizni buking. So'ngra sakrab, bir qancha harakatlar orqaga chalqaying. Agar buni eplay olmasangiz, oyoqlaringiz harmoqlarini kuchli harakat qildiring.

13. Nutq oldidan va gapirayotgan paytingizda suv ichmang – suv bo'lingizga keraksiz yuk bo'ladi va ovozingizni bo'g'adi. Chiqish qilish bilan keraksiz gaplardan gaplashmang.

14. Gapirish vaqti kelganda tashqi ko'rinishingizni to'g'rilab, dadil harakatlilar bilan nutq so'zlash lozim bo'lgan joyni egallang.

15. Ustingizdagi kiyim-kechaklaringiz keng yoki o'ta tor bo'lmagan, poyafzalaringiz oyoqlaringizni siqib qo'ymasiz, galstuingiz bo'yungizni bo'g'ib qo'ymasiz. Liboslaringizdagi kenglik va torlik erkin harakatlaringizga va o'zingizni erkin tutishingizga xalaqit beradi.

16. O'zingizni to'g'ri tuting, yelkangizni biroz buring. Iyagingizni biroz ko'tarib, boshingizni to'g'ri tuting. Oyoqlaringiz yelka kengligida bo'lsin. Qo'llaringizni qorin ustida siqib ushlamang, buklamang, harmoqlaringizni chalkashtirmang, qo'llarni orqaga qilmang, cho'n-cho'kka tiqmang, oyoqlaringizni chalishtirmang.

17. Notiq qotib turmasligi, qo'llarini erkin tutishi, gapirayotgan paytda qo'llarini silkitmasligi, juda qotirib, gavgaga yopishtirib ham turmasligi lozim. Gapirish tempini, ovozin mazmunga qarab o'zgartirib tutishi kerak. Nutq yumshoq va ishonchli bo'lishi, lekin juda cho'zilib ketmasligi kerak.

18. Gapirayotganda og'izni me'yorida ochib gapirish, me'yorida nafas olish va chiqarish lozim. Ovozni auditoriyaning katta-kichikligiga qarab moslash, o'ta baland ovozda baqirib gapirmaslik kerak.

19. Ovozni yuqoriga va pastga yo'naltirmang, tinglovchilarga to'g'ri yo'naltiring.

20. Imkoni boricha mikrofondan foydalanmang: mikrofon auditoriyadagilar bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'lanishga xalaqit beradi.

21. Auditoriyaga tabassum bilan yuzlaning, ular diqqat bilan sizga boqmoqda. Ularga kuchli nazar va xush kayfiyatda ko'rinasiz.

22. Oz fursat jimlik saqlang. Agar shovqin boshlansa, jimlikni cho'zing va birdan auditoriyaga qattiq nazar tashlang.

23. Nutqingizni yumshoq va yengil qilib boshlang. Kuchli zarb bilan boshlamang, bo'lmasa nutqingizni yakunlashga kuchingiz yetmay qoladi, tinglovchilarning ham toqati toq bo'ladi.

24. Gapirayotganingizda unutmang, sizni eshitishni istagan odamlarga murojaat qilyapsiz, nimani yozsangiz ham sig'diraveradigan qog'ozga emas.

25. O'zingizni tutib, ishonch bilan gapirsangiz, sizni ham zavq bilan tinglashadi.

26. Temp oralig'ini saqlagan holda baland ovozda gapiring. Keng va muhim ma'lumotni qisqa vaqtga sig'dirishga urinmang. Shoshilib gapirgan notiq ma'lumot berishdan ko'rqadi va minbardan tushirib yuborishlarini kutadi.

27. Gapirayotgan vaqtingizda auditoriyani kuzating. Tinglovchilarning diqqati sizga qaratilgan. Biroq nutqingiz davomida bir shaxsga hadeb murojaat qilavermang, chunki har bir tinglovchi qaysi nuqtaga qarayotganingizni, kimga qarab gapirayotganingizni kuzatib turibdi.

28. Og'zaki ommabop nutqingiz ko'pchilikdan kuchli: notiq ko'pchilikning diqqatini tortadi, fikrini qo'zg'aydi. Kuchli auditoriyani to'liqlantiradi.

29. Katta auditoriyadan qo'rqmang, kichik auditoriyadan qo'rqing. Auditoriya qancha katta bo'lsa, ishontirish shuncha oson bo'ladi.

30. Ortiqcha gapirmang. Notiq nimaniki gapirsa, omma shuni gapiradi, nimani o'ylasa, shuni o'ylaydi. Shuning uchun notiq nima gapirishini hamisha o'ylab gapiradi. Lekin u nimani o'ylasa, hammasini gapirolmaydi. Gapirib ulgurmaydi.

31. Insonsevar bo'ling – iloji boricha qisqa gapiring, nutqingiz ommabop jaranglashi tinglovchilarning butun borlig'iga ta'sir qiladi. Ayni damda tinglovchilar aytilayotgan narsalarning o'zlari uchun eng kerakli ekanligini anglaydi.

32. Iloji boricha adabiy tilda gapirishga odatlaning, chet el so'zlaridan imkon darajasida kamroq foydalanishga harakat qiling.

33. Ba'zi notiqalar bir so'zni qayta-qayta takrorlaydilar (ya'ni parazit so'zlarni). Siz bunday yaramas odatdan qoching.

34. Nutqingizni so'z bilan emas, jumla bilan bezashga odatlaning. Jumlalar bir-biriga mantiqan bog'lansin. Boshlagan jumlangizni yakuniga yetkazing. Gapirayotgan jumalaringizning uzun-qisqaligini auditoriya va xonaning kengligiga qarab tuzing. Auditoriya qancha katta binoda bo'lsa, gapirayotgan jumalaringizning o'rtacha uzunligi shuncha qisqa bo'lishi kerak.

37. Nutqda so'z va jimlikning (pauza) o'rni galma-galdan tanib turishi kerak. Jim turish so'z va jumlaning tuzilishiga vaqt berish demakdir. Jim turishda auditoriyaning sizning fikrlaringizga qaratilgan bahosini anglaysiz. Ammo to'g'ri kelgan joyda tinimsiz jimlik yaratilmaydi. Jimlik auditoriyadan javob kutayotgan paytingizda kerak.

Ommabop nutq ohangga bog'liq: ohang jummalarga a'zo bo'lgan ohangga sayqal beradi. Nutq mazmuniga notiqning munosabatini bildiruvchi ohang tabiiy va ishonchli bo'lishi kerak. Ohangni hech qanday ohang jumla bilan oxiriga surmang.

37. Notiq ommabop nutq so'zlayotganda o'zini bulbulday his qilish kerak. Siz odamlarning foydasiga gapiryapsiz, o'zingizni ko'zda tutish uchun emas. Shuning uchun hamma vaqt nutqingiz ustida bo'ling, uning auditoriyaga ta'sirini kuzating. Odamlarning ma'lum bo'lishi sizni qo'llash-qo'llamasligini aniqlang. Sizga e'tiborlimi yoki e'tiborsizlikni ko'rish uchun qiziqib eshityaptimi yoki ahamiyatsiz, do'stonami yoki raqibimmi, qanday ekanini kuzating. Notiq gapirayotganda auditoriyada o'z ma'nosini ko'rib turishi lozim va o'z vaqtida auditoriya e'tiborini izga solib turish kerak.

38. Agar auditoriyada shovqin ko'tarilsa, ovozingizni baland tutmasdan, aksincha, pasaytiring yoki jimgina auditoriyaga diqqat bilan qarang.

39. Zaldagi qochiriq gaplardan qo'rqmang. Nutq so'zlayotganingizda diskussiyaga yo'l qo'ymang. Mo'ljaldagi gaplaringizning hammasini aytishingiz shart.

40. Nutq davomidami yoki undan keyinmi, sizga berilgan savollarga javobni aniq, tushunarli, qisqa qiling, to'liq javob berish shart emas.

41. Har qanday nutqning yakuni dadil va mustahkam bo'lsin. Yakunlovchi ohangda ovozni ko'tarib kerakli gaplarning hammasini aytganingizni sezdiring, auditoriyaning diqqat-e'tibori uchun minnatdorchilik bildirishni unutmang.



## FOYDALI MASLAHATLAR

### G'azabdan tushish

G'azablangan kishi uchun g'azabdan tushish zarur bo'ladi. G'azabdan tushishning bir necha bosqichlari bor.

**Birinchisi** – Alloh taolodan panoh so'rash. Sulaymon ibn Sard (r. a.) dedi: «Ikki kishi Rasululloh (s. a. v.) oldida so'kishdi, ulardan biri g'azablanganidan, yuzlari qizarib, qon tomirlari shishib ketdi. Shunda Rasululloh (s. a. v.) unga qarab dedi: «Men bir kalimani o'rgataman, uni aytsa, xotirjam bo'ladi. U kalima: «Toshbo'ron qilingan shaytonga aldanib qolmaslik uchun Allohdan panoh so'rayman». Sard Rasululloh (s. a. v.)dan eshitgan narsasini bir kishiga (yetkazish uchun) dedi: «Rasululloh (s. a. v.) dedi: «Men bir kalimani o'rgataman, uni aytsa, undagi jahl ketadi. U kalima: «Toshbo'ron qilingan shaytonga aldanib qolmaslik uchun Allohdan panoh so'rayman» (Buxoriy va Muslim rivoyati).

**Ikkinchisi** – g'azabdan tushishning ajrini eslash. U kishi Alloh indirgan narsaga rag'bat qilib, jahlidan tushadi. Ibn Umar (r. a.)dan rivoyat qilinadi: «Rasululloh (s. a. v.) dedilar: «Allohning jamoli istagida g'azabidan tushgan bandaning ajri miqdorichalik ajr yo'q» (Ibn Moja rivoyati).

Abdurahmon ibn Maymuna Saxl ibn Maoz ibn Anas (r. a.) dan rivoyat qiladi: «Rasululloh (s. a. v.) dedilar «Kim g'azabini bossa, Alloh u bandani xalqlarning boshiga chiqaradi va xohlagan hur ayollardan tanlab beradi» (Termiziy, Ibn Moja rivoyati).

**Uchinchisi** – jim turish. Sukut uni xatoga yo'l qo'yishidan saqlaydi.

Ahmad, Ibn Abu Dunyo, Tabaroniy Ibn Abbos (r. a.)dan rivoyat qilinadi: «Agar g'azabnok bo'lsang, jim tur».

**TO'RTINCHISI** – o'tirish yoki yotib olish.

Ahmad, Abu Dovud, Ibn Hibbon Abu Zar (r. a.)dan rivoyat qiladi: «Agar oralaringizdan kimdir g'azablansa, o'tirsing, shunda ham hovuri bosilmasa, yotib olsing».

Termiziy, Abu Sa'id al-Xudriydan rivoyat qilinadi: «Rasululloh (s. a. v.) dedilar: «Ogoh bo'linglar, odam bolalari turli tabaqalarda yaratildi. Ogoh bo'ling, ularning eng yaxshilari g'azabi sekin chiqib, tez qaytganidir. Eng yomoni esa tez g'azablanib, sekin qaytganidir. Ogoh bo'ling, g'azab odam bolasining qalbida yonayotgan bir parcha

...dir. Sizlar g'azablangan odamning ko'zlari qizarib, qon tomirlari  
...ganini ko'rsangiz, uni darhol yotqizinglar.

Beshinchisi – g'azablangan paytda tashqi ko'rinishini tasavvur  
... chunki bu g'azabni qaytaradi.

Oltinchisi – uzrni qabul qilish. Bu yaxshilikning Alloh huzuridagi  
... haqida o'ylasin. Ushbu narsa Allohning rizoligi uchun savob  
... qilishga undaydi.

Musulmon g'azabini yutsa, nafsini muttaqiylar odatiga xosligi  
... ladi. Agar kechirsa, muhsinlarning darajasiga ko'tariladi. Ibn Abbos  
... (r. a.) dan rivoyat qilinadi: «Alloh dedi: «G'azabni chiroyli narsa evaziga  
... qill».

G'azabi kelganda sabr qiladigan kechirimli bandalarini Alloh  
... domon holda tutib turadi va ularga dushmanlari bo'ysunadi»  
... (Bukoriy rivoyati).

Hasan al-Basriy dedi: «Muslimning belgilari: dinda mustahkam tu-  
... sh, yumshoq ko'ngilli bo'lish, mehribon, haq yo'lida fidoyilik, mulkda  
... tejamkorlik, yo'qchilikda sabr, to'qlikda esa ehson qilish; g'azabga qul  
... bo'lmaslik, shahvatparastlikdan qochish, bechoralarni qo'llab-quvvat-  
... lashi, ham tejamkorlik, ham saxovatpeshalik, zolimlarni kechirish, qi-  
... yinchiliklarda o'zi bilan, ro'shnolikda esa insonlar bilan bo'lish».

Yettinchisi – o'zini so'kkishdan va boshqani la'natlashdan tiyilish.  
... chunki bu sifat tentaklargagina xosdir.

Salmonni bir kishi so'kkanda: «Agar pallam yengil kelsa, aytgan  
... narsangdan tutaman. Agar pallam og'ir kelsa, senga zarar bermayman»,  
... dedi.

Bir kishi Abu Bakr (r. a.) ni so'kkanida u: «Alloh ko'p narsaga sendan  
... qilmabdi», dedilar.

Bir ayol Molik ibn Dinorga: «Ey munofiq», dedi. Shunda u: «Sizdan  
... boshqasi meni bunday atamagan», dedi.

Ahnaf ibn Qays: «Menga biror kishi dushmanlik qilmadi. Men har  
... uch ishdan birini tutdim. Agar mendan ulug' bo'lsa, uni qadrladim;  
... agar mendan kichik bo'lsa, qadrimni bildim; agar teng bo'lsa, muruvvat  
... qildim.

G'azab ikki turli bo'ladi: kimdir nafs yo'lida g'azablanadi, kimdir  
... Alloh yo'lida. Birinchisi qoralangan. Ikkinchisi qadrlangandir. Zero,  
... Rasululloh (s. a. v.) ham shariatga zid ishlarni ko'rganlarida g'azabdan  
... yuzlari qizarib, ishni bostirmaguncha tinchimas edilar.

Rasululloh (s. a. v.) masjid qiblasida shilimshiq narsani ko'rib, uning qo'llari bilan ishqalab yubordilar va jahllari chiqib: «Agar sizlarning birortangiz namozda bo'lsa, Alloh uning qarshisidadir. U namoz o'zining qarshisiga balg'am tashlamasin!» dedilar (Buxoriy va Muslim rivoyati).

Ushbu hadisdan ko'rinib turibdiki, agar Allohning hurmati (harom qilgan narsalari) toptalsa, Rasululloh (s. a. v.) g'azablanardilar.

«Yana bir gap: kimdir sizning g'azabingizni qo'zg'atayotgan bo'lsa, so'kinyapti, aft-basharasi g'alati. Shu paytda siz unga rahm ko'zi bilan qarab ichingizda «Eh, Alloh shu bandangni shu ko'yga solib qo'yibsan», shunday holatdan meni o'zing asra», desangiz, jahlingiz chiqmaydi».

Yoki qaynona urishib turgan bo'lsa, «Shunday qaynona bo'lishdan o'zing asra, Allohim», deng, g'azab bosiladi» (ta'kid bizniki - N. B.).

## Kibrli insonlarning turlari

1. Ba'zi insonlar podshohligi yoki jamiyatdagi o'rni bilan kibrlanadi. Ushbu insonlarning kibri xushomadgo'ylarning madh qilishlari va riyo-yuzasidan ortib boradi.

Kibrning belgilari, asosan, podshohlar va mansabdorlarda yaqqol ko'zga tashlanadi. Kibr ularni halokatga duchor qiladi. Kibrланuvchi podshohlar podshohlilari to'g'risida fikr yuritsalar, buning abadiy emasligini, balki bir necha kungina davom etishini bilib olishadi.

2. Ba'zan insonlar boyligi bilan kibrlanadi va bunday insonlar johildirlar. Chunki u agar aqlli inson bo'lganida qo'lidagi boylik abadiy emasligini, Alloh uni xohlagan vaqtida olib qo'yishini bilgan bo'lardi.

Qorun boyligi bilan kibrlandi. Uning boyligi shu qadar ko'p ediki, xazinaning kalitlarini yetti kishi ham ko'tarolmas edi. Alloh taolo uni va boyligini yerga berdi, natijada u ochiqdan-ochiq ziyon ko'rdi. Agar Alloh o'sha podshohni bir kasallikka duchor qilganida edi, butun boyligi evaziga sog'ligini qaytarib berishni orzu qilardi.

3. Ba'zi insonlar quvvati va sog'ligi bilan kibrlanadi. Bunday insonlar ham g'ofillar qatoridadir. Chunki quvvat insonlar orasidagi obro' o'lchovi emasdir. Bunday kishilarning quvvati eshak yoki xachirning quvvatichalik bormi? Agar quvvat o'lchov birligi bo'lganda, eshak - mudir, xachir - vazir, fil esa podshoh bo'lur edi. Lekin o'lchov

qalbi nisbatandir. Aql yordamida inson Rabbisini taniydi va bu bilan insonlar orasida yaxshi xulq sohibi bo'ladi. Aql o'z xojasini halokatdan saqlaydi.

Abu Hanifa rahmatullohi alayh oyoqlarini uzatib olib, shogirdlariga dars berayotganda bir chiroyli kishi masjidga kirib xalqaga qo'shildi. Shunda Abu Hanifa oyoqlarini yig'dilar va darslarida davom etdilar. Shom vaqti quyosh botib, qizil shafaq yo'qolguncha» degan joyda xalqaga qo'shilgan kishi: «Ey shayx, quyosh botmasligi haqida ham aytilib ko'rganmisiz?» dedi. Abu Hanifa: «Abu Hanifaga oyog'ini cho'zish uchun imkon berildi», dedi.

4. Ba'zan insonlar o'z ilmlari bilan kibrlanadilar. Ular johil degan nomga loyiqdirlar. Agar ilm o'z sohibini tavozeli qilmasa, u manfaatdan yitqoqdir. Ilm ham ikki xil bo'ladi: tildagi ilm va qalbdagi ilm. Tildagi ilm Allohning maxluqotlariga nisbatan zararli hujjatdir. Qalbdagi ilm qo'rqinchdir.

Usoma ibn Yazid (r. a): «Nabiy (s. a. v.): «Qiyomat kuni bir kishi olib kelinadi va Do'zaxga uloqtiriladi. Uning ichaklari chiqib turadi va shu holda eshak tegirmon bilan aylangani kabi aylanadi va do'zax ahli uning atrofida yig'ilishadi. Ular: «Ey falonchi, senga nima bo'ldi? Amri ma'ruf, nahiy-munkar qilmaganmisan?» deb so'raydilar. U: «Amri ma'ruf qilardim-u, o'zim unga amal qilmasdim, sizlarni qaytarib, o'zim qaytmas edim», deydi.

2. Ba'zilar jamoli va qomati bilan kibrlanadi. Ko'pincha ayollar shunga moyildirlar. Agar o'sha ayollar yaxshilab tafakkur qilsa, o'sha chiroy qurtning nasibasi ekanini tushunib yetardilar. Agar qabrdagi holatni tasavvur qilsangiz, bir qo'rqinchli, jirkanch manzaraning guvohi bo'lasiz.

### **Kibrning ko'rinishlari**

Haqni inkor qilish kibrning ko'rinishlaridan. Ba'zi kishilar xato ishga qo'l urayotganini biladi va haqqa qaytmaydi, chunki uni qabul qilmaydi. Ko'plab shayx, olimlar kichik shogirdlari bilan tortishib, haqni qabul qilmaganlarini isbotlab turishadi. Bu hol hozirgi ulamolar bilan bog'liq. Ammo oldingilar haq narsaga ro'baro' kelishdan qo'rqmasdilar. Abu Hanifa: «Soch olish odobini sartaroshdan o'rgandim», dedilar. Imom

Molik taloq masalasini shogirdi imom Shofi'iy so'zlari bilan belgiladi. Kibrning ko'rinishlaridan yana biri insonlarni mensimaslik va o'zlaridan ustun bilishdir. Payg'ambarimiz (s. a. v) shunday dedilar: «**Haqqa norozi bo'lish va insonlarning hurmatini joyiga qo'ymaslik**» (Muslim rivoyati).

Kibrning sifatlaridan faqat tavoze'li bo'lish bilan qutulish mumkin. Iyoz ibn Hammor (r. a)dan: «Rasululloh (s. a. v.): «Alloh taolo tavoze'li bo'lmoqlaringni menga vahiy qildi, toki biringiz biringiz bilan faxrlanmasin va bog'iylik qilmasin», dedilar (Muslim, Ibn Moja rivoyati) Abu Hurayra (r. a.)dan: «Rasululloh (s. a. v.): «Biror kishi Allah taologa tavoze'li bo'lsa, Alloh uning darajasini ko'taradi», dedilar (Muslim, Termiziy rivoyati).

### Maqtovni suyish

Ey musulmon birodarim, shuni bilginki, agar maqtovni yaxshi ko'rsang, halok qilguvchi faxr eshigidan shayton sening ichingga kiradi. Agarda o'zingdagi yaxshi xislatlar bilan seni madh qilishsa, xato ishlaringni esla. Bir solih kishi uni maqtagan kishiga shunday degan ekan: «Gunohlarda hid bo'lsa edi, menga hech kim yaqinlasha olmasdi».

Agarda o'zingda yo'q xislatlar bilan seni madh qilishsa, u bilan faxrlanish jinnilikdir. Ba'zi hukamolarga o'zida yo'q xislatlar bilan madh qilishlariga rozi bo'lgan kishi o'z ustidan kulishlariga imkon beribdi, deyishgan.

Maqtov oxir-oqibat madh qilingan kishini halokatga duchor qiladi.

Abu Muso al Ash'ariy (r. a.)dan: «Nabiy (s. a. v.) bir kishi bir insonni maqtayotganini va madhni juda me'yoriga yetkazayotganini eshitib qolib: «Bir kishini halok qildingiz yo kesdingiz», dedilar.

Abu Bakr (r. a.): «Bir kishini payg'ambarimiz (s. a. v.) ning oldilarida zikr qilishdi. Shunda kimdir uni maqtadi. Rasululloh (s. a. v.): «Holingga voy bo'lsin! Do'stingning bo'ynini kesding», deb bir necha bor qaytardilar va: «Agar yo'q. Bas, u kishi: «Shunday, shunday deb hisoblayman», desin. U kishi haqiqatda shunday

kanligini ko'rsa ham. Chunki uning hisoblovchisi Allohdir», dedilar.

Madh maqtalmishning ayblarini yashiradi, natijada u o'zini yola qilolmaydi. Madh ko'p toat-ibodat qilishdan insonni to'sadi va maqtalmish o'zini yaxshi deb o'ylaydi.

Ziyod ibn Abu Muslim: «Biror kishi o'zi haqida yaxshi narsa aytgansa, shayton unga ko'rinadi», dedilar.

Ba'zi salaflar: «Kimki madhdan g'ururlansa, shayton uning ko'ziga kirishga imkon topadi», dedilar.

Umar ibn Hattob: «Madhdan saqlananglar, chunki u so'yishdir», dedilar.

Abu Homid Al-G'azzoliy: «Insonlarda yomonlovchi va maqtovchilarga nisbatan to'rtta holat bor:

Birinchi holat: Maqtov bilan xursand bo'lish va unga rahmat aytish, maqtovdan g'azablanish va yomonlovchiga zarar yetkazishni qasd qilish.

Ikkinchi holat. Yomonlovchini ichida yomon ko'radi, lekin unga g'aziyat berishdan tiyiladi. Maqtovchining maqtovidan xursand bo'ladi, lekin xursandchiligini oshkor qilishdan saqlanadi. Bu ham noqislikdir.

Uchinchi holat. Maqtovni ham, tanqidni ham birday qabul qiladi.

To'rtinchi holat. Ibodatdagi sodiqlik: maqtovchining dinga nisbatan yomonlik qilayotganini sezib, undan nafratlanadi va yomonlovchidan xursand bo'lib, unga hech narsa demaydi».

Rasululloh (s. a. v.) maqtovchilarning yuziga tuproq sepishni buyurdilar. Miqdod (r. a.) kunlardan birida Usmon (r. a.)ni bir kishi madh qilayotganini ko'rib, tiz cho'kdilar-da, uning yuziga tuproq sochdilar, shunda Usmon (r. a.): «Nima qilyapsan?» dedilar. U: «Rasululloh (s. a. v.): «Maqtovchini ko'rsangiz, yuziga tuproq sochingiz» dedilar», dedi.

### **G'iybat nima?**

Rasululloh (s. a. v.) g'iybatni tushuntirdilar: «G'iybat nima ekanligini bilasizlarmi?» deydilar. Sahobalar: «Alloh va uning rasuli bilguvchiroqdir», dedilar. «Sen o'z birodaringni yomon ko'rgan narsasi bilan eslashing g'iybatdir». So'radilar: «Agar aytgan narsam birodarimda bo'lsa-chi?» Rasululloh (s. a. v.) dedilar: «Agar aytgan

narsang birodaringda bo'lsa, o'sha g'iybatdir. Agar aytgan narsang birodaringda bo'lmasa, u bo'htondir» (Muslim rivoyati).

G'azzoliy (r. a.) dedilar: «Bilginki, g'iybatning chegarasi birodaringni yomon ko'rgan narsasi bilan eslashingdir. Garchi, bu narsa u kishiga yetib borgan bo'lsa ham. Bu narsalar uning nasabi, dini va dunyosidagi kamchiliklarini eslashingdir. Bu narsaga hokimiyatdagi, hovlidagi kamchiliklar ham kiradi».

Badandagi nuqson: ko'r, shol, g'ilay, uzunlik, kaltalik, qorachilik, sariqlik, kallik va boshqa shu kabi inson yomon ko'radigan sifatlar ham bir kishini eslash g'iybatdir.

Nasabdagi kamchiliklar: uning otasi oddiy xalq vakili yoki hokim yoki fosiq yoki xasis o'tgan bo'lsa, bularni nasabga qo'shib gapirish g'iybatdir.

Xulqdagi kamchiliklar: baxil, mutakabbir, g'azabnok, qo'rqoq, qalbi zaif bo'lsa, shu kabi so'zlar bilan atash g'iybatdir.

Agar dinida ochiq nuqsonlar bo'lsa, masalan, u yolg'onchi, aroqsoy, xoin, zolim, namoz va zakotga sustkash, najosatdan saqlanmaydigan ota-onasiga yaxshilik qilmaydigan, ro'zada ham g'iyobat va yomon so'zlardan saqlana olmaydigan bo'lsa, buni gapirish yoki eslatish g'iybatga kirmaydi.

Agar kishi odobsiz, dangasa va mutakabbir bo'lsa, shularga nisbatan berib aytilgan so'zlar g'iybatdir:

Kishining kiyimini gapirish ham g'iybatga kiradi.

## G'iybat qilish muboh bo'lgan narsalar

Navaviy (r. a.) dedi: «Bilginki, shariatda maqsadiga g'iybatni yetishishning iloji bo'lmagan vaqtda g'iybat qilish muboh sanaladi. U quyidagi 6 holatda kuzatilishi mumkin:

1. Mazlum kishi sulton, qozi yoki valiyning oldiga borib, zolim haqida: «Menga falonchi zulm qildi», - deyishi joizdir.
2. Gunohkorni to'g'rilikka boshlash maqsadida yordam so'rashda, masalan, ana shunday odamning o'zini isloh qilishiga yordam berib deyishi joizdir.
3. Muftiydan fatvo so'raganda: «Meni otam, onam, ayolim yoki falonchi shunga undadi», qabilida so'zlash orani isloh qilish uchun

Bu paytda eng to'g'ri yo'l ayolning ismini aytmaslikdir. Shu bilan ismini aytisa ham joiz.

5. Musulmonlarni yomonlikdan ogoh qilib, ularga maslahat berishdir. Masalan, bir kishi fosiqdan ta'lim olayotgan bo'lsa-yu, uning fosiqligini bilmasa, tolibning ustozini fosiq ekanligini nasihat tarzida aytisa bo'ladi.

6. Fosiqlik, g'iybatchilik, zulmkorlik bilan tanilgan bo'lsa, u kishini shu narsalar bilan eslash gunoh hisoblanmaydi.

7. Ko'rlik, shollik, garanglik, g'ilaylik kabi nuqsonlardan biri bo'lgan kishining laqabiga aylanib qolgan bo'lsa, u kishini eslatish maqsadida aytish joizdir, lekin ayblov maqsadida ishlatish harom. Bu nuqsonni eslatmasdan tanishtirish yaxshiroq».

Havaviy dedi: «Ushbu oltita sababni ulamolar zikr qilishgan. Ularning aksariyatiga ijmo ham bo'lgan. Ularning dalillari quyidagi hadis hadislardir:

Oysha (r. a.) dan: «Rasululloh (s. a. v.) dedilar: «Falonchi, falonchini tanimlarni biladi deb o'ylayman» (Buxoriy rivoyati). Ibn Sa'd dedi: «Bu kishi munofiq bo'lgan».

Oysha (r. a.) dedilar: «Abu Sufyonning ayoli payg'ambarimizga dedi: «Abu Sufyon baxil, berayotgan nafaqasi men bilan bolamga yetmaydi. Uning uchun unga bildirmay nafaqamni olaman». Rasululloh (s. a. v.) dedilar: «Sening o'zingga va farzandingga kifoya qiladiganini olgin» (Jinayatlardan saqlanish yo'llari. T.: Movarounnahr, 2006. Kitobning 104-104-betlaridan terib olindi.)

## FOYDALI MASLAHATLAR

Dunyoda to'rtta narsa borki, ularning kami ham ko'p hisoblanadi:

### 1. Olov. Uning ko'pi ham, ozi ham kuydiradi.

Ya'ni kichik gulxanga ham nihoyatda jips o'tirsangiz kuydiradi. U kattalikka alangaga aylanib ketishi ham mumkin.

2. Qarz. Qarz so'rab keluvchilar tufayli tug'iladigan xijolatpazlik. Bu bir tanga uchun ham, ming tilla uchun ham barobar.

3. Bemorlik. Har qanday kasallik ham odamni behuzur qilib, zaiflashtiradi.

4. Dushman. Dushman qanchalik xor va zaif bo'lmasin, oxir birkun o'z ishini qiladi.



## II. Baxtsizlikning yetti turi:

1. G'am-g'ussa.
2. Do'stlardan judo bo'lish.
3. Kambag'allik.
4. Dushmanga yaqin bo'lish.
5. Xastalik.
6. G'ariblik.
7. Eng yomon o'lim.

## III. Baxtli bo'lishning yetti yo'li:

1. Yaqin kishilaringizni (qarindosh-urug'larni) sevib yashang.
2. O'z kasbingizni sevib, u bilan faxrlanib yashang. Buning uchun eslatilgan baxtli yo'lga qaratilgan.
3. Qo'lingizdan kelsa, boshqa odamlardan yordamingizni ayamang. Bundan quvonsangiz, u sizga rohat bag'ishlaydi.
4. Nimaiki kayfiyatingizni ko'tarsa, undan dilingiz yorishsa (to'lganlik yo'lidagi istak bo'lsa), quvontirsa, shunga intiling va erishishga harakat qiling.

5. Jismoniy jihatdan faol bo'ling. Agar uning foydalisini sezsaniz, sizga zavq baxsh etadi. Jismoniy harakatlaringiz sizda baxt hissiyatini uyg'otadi.

6. Bizda hamma narsaga tartib bilan yondashish odat bo'lib qolgan. Ana shu bir xillik ba'zan odamni zeriktiradi. Vaqti-vaqti bilan kundalik tartibdan chiqib turish ham kerak. Masalan, har kuni bir yo'ldan ishg'ar bo'lmash, bir oshxonada ovqatlanish, ishingizdagi jihozlar... Ularni o'zgartirish, o'rnini almashtirish ta'til olishning vaqtini ham boshqa sanaga o'tkazish kerak. Bir so'z bilan aytganda, hayotingizga yangiliklarni kiritishga intiling.

7. O'zingizni ezilgan va baxtsiz his qilsangiz, tushkunlikka tushmang. Yomon kunlar ortidan yaxshi kunlar ham keladi. «Oyning o'n beshi qorong'i bo'lsa, o'n beshi yorug'» degan maqolga amal qiling. Quyosh bob qorong'i tushadi, bundan qayg'urib, baxtsizlikka yuz burmang. Axir oltob yana chiqadi-ku!

## IV. Besh ta xislatli odam xor bo'lmaydi:

1. Odamlarga ozor bermaydigan.
2. Shubhali ishlar bilan shug'ullanmaydigan.
3. Odob-axloqli.
4. Oliyjanob.

O'z qadrini bilib qadam tashlaydigan.

#### **V. To'rt xil jonzot sababsiz qo'rqadi:**

1. Chittak osmon yiqilib tushmasin deb oyog'ini osmonga qilib tutadi.
2. Laylak ikki oyog'ini qo'ysa, yerga botib ketishidan qo'rqib bittasini ko'tarib turadi.
3. Chuvalchang ko'p loy yeb qo'ysam, loy tugab qoladi, deb och yuradi.
4. Ko'rshapalak odamlar qafasga solib qo'yadilar deb kunduzi uyusidan chiqmaydi.

#### **VI. Besh toifa ayol – erkakning boyligi va baxti:**

1. Oliyjanob, pokiza va go'zal.
2. Aqlli, qanoatli, iffatli va vafodor.
3. Erini oldida ham, orqasidan ham hurmat qiladigan, o'zining nomusini saqlaydigan.
4. Yaxshi va yomon kunlarda fidoyi.
5. Yuzidan tabassum arimaydigan, tili shirin, qo'li barakali, qadami qutlug'.

#### **VII. Sakkiz xil odam bilan do'stlashib bo'lmaydi:**

1. O'z so'zida turmaydigan.
2. Nonko'r.
3. Odob qonun-qoidalariga rioya qilmaydigan.
4. Osonlikcha xiyonat yo'lga tushadigan.
5. Yolg'onchi.
6. Ochko'z, pastkash, maishatparast.
7. Odamlardan asossiz shubhalanib, ularni asossiz gunohkor qiluvchi.
8. Hayosiz

#### **VIII. Sakkiz xil odam bilan do'stlashish mumkin:**

1. Qanoatli.
2. O'z so'zidan qaytmaydigan.
3. Olim va hunar sohiblarini qadrlaydigan.
4. Xiyonat va nomardlikdan nafratlanadigan.
5. Yaxshi xulqli, nazokatli.
6. Darg'azab vaqtida o'zini qo'lga oladigan.
7. Saxiy-saxovatli.
8. Badaxloq odamlarning aysh-ishlar majlislaridan nafratlanadigan.

### **IX. Uzoq umr ko'rishning sakkizta yo'li**

Odam borki, uzoq umr ko'rsam, umrim mazmunli va faroqatda o'tsa, deb yashaydi. Insondagi tabiiy imkoniyat 120 yil va undan ham ortiq yashashga moslangan. Hayotda bo'ladigan asabiylashish, ko'ngilsizliklar, yoqimli faoliyat bilan shug'ullanmaslik, jahldorlik, o'zaro munosabatlardagi befarqlik, loqaydlik, sovuqqonlik holatlari inson umrini qisqartirar ekan. Bir so'z bilan aytganda, o'zini boshqartirish eplagan odam uzoq umr ko'radi.

1. Uyda va ko'cha-ko'yda, ishda asabiylashmaslikka harakat qiling.

2. Odamlarga va bajaradigan ishiga samimiy, hurmat bilan munosabatda bo'ling.

3. O'zingizni nima bilandir band eting, bekor turmang, foydali ish bilan shug'ullaning.

4. Yaqin insonlaringizni qo'llab-quvvatlang, ularga yordam berib yaxshilik qiling va bundan lazzatlaning.

5. Odamlarni sevib yashashga intiling. Sevgan insonlaringiz qancha ko'p bo'lsa, shuncha katta kuch beradi. Jismoniy va ruhiy imkoniyatingizni kengaytiradi. Sevib-sevilgan kishi 10-15 yilga yosh ko'rinishi isbotlangan.

6. Ruhiyatingizni boshqara biling.

7. Imkon darajasida harakatdan to'xtamang, chaqqon, abjir bo'ling.

8. O'zingizni kamtarlikka o'rgating, manmanlik, kibr umr zavoli ekanligini yodda tuting.

### **X. Uzoq yashash uchun oltita salbiy illatdan voz kechmoq zarur**

1. Hayotdan nolish va atrofdagilarni yoqtirmaslik.

2. Maqsadsizlik. Yashashdan maqsad bo'lmasa, umr qisqaradi. Hayotdan bahra olish lozim. Tashqi va ichki olamingiz go'zal bo'lishiga intiling.

3. Jizzakilik, arzimagan sabab tufayli asabiylashish.

4. Tartibsizlik. Tartibli kishilar intizomsiz odamlardan ko'ra to'rt yil uzoq yashaydi.

5. Tushkunlik. Uzoq davom etgan hayajon, g'am-alam, g'ama-kuduratlarni unutish kerak.

6. Dam olmaslik – ta'tilga chiqmasdan ishlash, kompyuter qarshisida tinimsiz o'tirish, qo'l telefonidan me'yorida foydalanmaslik.

### **XI. Salomatlikni asrashning sakkizta yo'li:**

Luqmoni Hakim deydiki:

1. Kunduzi ko'p uxlama.

2. Kechasi oz uxla.

3. Peshobni tutma.

4. Ko'p jimo qilma.

5. Kechasi ko'p suv ichma.

6. Haddan ziyod to'yib ovqat yema.

7. Ochiqmay, yemak ustiga yemak yema.

8. Oz ovqat bilan qanoatlan.

Barcha kasalliklarning sababi ana shu sakkiz narsadir.

### **II. Qorinni kichraytirishning to'qqizta yo'li:**

Barchaga ma'lumki, qorinni «qo'yib» yuborish, ya'ni uning o'chib ketishini qomatni ko'rimsiz qilib qo'yadi. Ayniqsa, erkak kishini qorindador ayolga o'xshatishi mumkin. Ko'pgina kasalliklarga muhtalot ham ehtimoldan xoli emas. Xususan, qon bosimi, qand va yomon kasalliklari, umurtqa bo'g'imlarida grijalarning paydo bo'lishi, ayoning to'laqonli ishlamasligi, ovqat hazm qilish yo'llaridagi dardlarda bivosir kasalliklari shular jumlasidan. Qorinni kichraytirishga qo'ldirib e'tibor bermoq kerak.

1. Kuniga 300 gramm yog'siz kefir iching.

2. 1, 3, 5 kunlik parhez tuting.

3. Uxlash oldidan bir soatlik ohista yugurish bilan mashg'ul bo'ling.

4. Har kuni uch osh qoshiq tuyilgan no'xat yeng.

5. Uch kun oftobda toblaning.

6. Har haftada hammom (sauna) qiling.

7. Xamir ovqat yemang.

8. Har haftada bir kun och yurib, kun oxirida bir litr qatiq zardobini ichib, mol qilib, ichingizni yuving.

9. Har kuni ozmi-ko'pmi jismoniy ish, mashg'ulot bilan shug'ullaning.

Agar ushbu to'qqizta amalni uch oy davom ettirsangiz, qorningiz qayta qaytadi, qomatingiz chiroyli va go'zal ko'rinishga ega bo'ladi.

Udan mustahkam iroda, chidam, qanoat talab etiladi, xolos.

### **XIII. Sevgan insoningiz haqida bilishni xohlaysizmi?**

1. Yuzi ozg'in va cho'zinchoq bo'lsa, har jihatdan abjir bo'ladi.

2. Burni yirik va uzun bo'lsa, ziyrak va mahoratli bo'ladi.

3. Qulog'i to'g'ri shaklli inson aqlli va farosatlidir.

4. Peshonasi kenglik – donolik belgisi.

5. Og'iz kichik bo'lsa, kamtarlikdan dalolatdir.

#### **XIV. Har bir odamning mehriboni, dushmani hamda ota-ona haqida:**

1. Har bir odamning beshta mehriboni bo'lib, u bilan dolm bo'ladi. Faqat bu mehribonlardan ikkitasi ko'rinmaydi, uchtasini ko'rib bo'lish ko'radi:

- a) odamzod Allohni ko'rmaydi va o'zining kamchiligini ko'rmaydi.
- b) ota-ona, ustoz, vatanni ko'zi bilan ko'radi.

2. Odamzodning dushmani uchta: ulardan biri shayton, ikkinchisi o'zining nafs, ammo ular ko'zga ko'rinmaydi. Ko'zga ko'rinadigan dushmani esa uni yomon ko'radigan odam yoki hasadgo'ydir.

## ILOVALAR

### Nutq odobi

Nutq odobi insonning umumiy axloqini belgilovchi asosiy omildir. Markaziy Osiyoda axloqiy tarbiya o'z an'analariga egadir. Axloq haqidagi ibratli fikrlar qadimgi turkiy yodnomalarda, buyuk olimlarning asarlarida va boshqa yozma yodgorliklarda bizgacha yetib kelgan.

Axloq fan sifatida o'rta asrlarda yuzaga keldi. Bu fanning o'z olimlari mavjud bo'ldi, nazariyasi yaratildi. Ibn Muskaveyx, Forobiy, Ibn Sino, Nasriddin Tusiy, Jaloliddin Davoniy, Sabzavoriy, G'iyosiddin Mansur shaxslar axloq fanining mavzui, vazifalari, maqsadining nazariy va amaliy jihatlari asoslab berishga hissa qo'shdilar. Afsuski, ko'p yillar davomida bu merosni o'rganish, ommalashtirishga imkon bo'lmadi, juda ko'p yirik olimlarimiz hamon xalq uchun noma'lum bo'lib kelmoqda. Aslida esa deyarli hamma davrlarda bu fan taraqqiy etib bordi, yangi-yangi asarlar paydo bo'ldi, axloq va ta'lim-tarbiya sohasida ilmiy tadqiqot olib borgan juda ko'p olimlar yetishib chiqdi, qator mutaxassislarning asarlari asossiz ravishda o'rganilmay kelindi. Ibn Arabiyning (XIII asr) «Tahzibul axloq» (Xulqiy tarbiya haqida) va «Kitobul axloq» («Axloq kitobi»), Abu Bakr Qalandarning (XIII asr) «Qalandarnoma», Yunayn Voyz Koshifiyning (XV asr) «Axloqi Muhsiniy», Poshshoxo'ja Abdurahobxo'janing (XVI asr) «Gulzor» va «Miftoh ul-adl» («Adolat kaliti»), Abdurahmon ibn Abdukarimning (XVII asr) «Muftoh ul axloq», Hakim Qooniyning (XVIII asr) «Parishon» va «Guliston», Abu Tohir Ko'janing (XIX asr) «Axloqi Muzaffariy» va «Axloqi Muhammadiy», Abdurahmon Sharafning (XIX asr) «Ilmi axloq», Salohiddinning (XIX asr) «Maxosini axloq» («Axloq fazilatlar»), Abdurahmon Sayyohning (XIX–XX asr) «Me'yori axloq», («Axloq me'yori») kitoblari ana shunday asarlardandir. Ma'lum bo'ladiki, Markaziy Osiyo xalqlari, jumladan, o'zbek xalqi ham boy axloqiy merosga egadir. Ma'lum sabablarga ko'ra,

o'zbek xalqi avlod-ajdodlariga axloqiy tarbiya berib kelgan bu ham merosdan bahramand bo'la olmadi.

Kishining odobi, eng avvalo, uning nutqida ko'rinadi. Nutq odobi nima? Nutq odobi deganda aytilishi zarur bo'lgan xabarlarini, tinglovchiga hurmat qilgan holda, uning ko'ngliga mos, adabiy normadagi ifodalari bilan yetkazish tushuniladi. Har qanday xunuk xabarni ham tinglovchiga beozor yetkazish mumkin. Buning uchun so'zlovchi tilni, adabiy normalalarini mukammal bilishi lozim. Muloyim, yoqimli, odobli so'zlash ham o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi. Unga yoshlikdan ongli mashqlar qilish, tilning lug'at boyligini egallash, bu borada nutqi ibratli kishilarga taqlid qilish, ulardan o'rganish orqali erishiladi. O'quvchi uchun eng yaxshi namuna o'qituvchi nutqidir. Buni o'qituvchi har doim o'zida his etib turishi, o'z nutqida hech vaqt odob-axloq nutq madaniyat normalalaridan chiqmasligi lozim.

Nutqiy muomala salomlashishdan boshlanadi. Salomlashishdagi xushmuomalalik undan keyingi yaxshi suhbatga debocha bo'ladi. Tinglovchida yaxshi kayfiyat paydo qiladi. Agar salomlashish qurboni iltifotsiz bo'lsa, keyingi suhbatga salbiy ta'sir etishi mumkin. Ko'p asrlik odatiy an'analarimizga ko'ra, «Assalomu alaykum»ning javobi «Va alaykum assalom»dan iborat. Keyingi davrlarda yoshlar orasida salom ham, alik ham tumtoqlashib ketdi, ya'ni salom berish uchun ham uning javobi uchun ham birgina «Salom» ishlatiladigan bo'ldi. Bu tariqat an'analarimizdan chetlashishdir.

Xalq tilida salomlashish uchun ham, xayrlashish uchun ham alohida vositalar mavjud. O'qituvchi ularni o'z o'rnida ishlatishda hamma vaqt o'z shogirdlari uchun o'rnakdir.

Madaniyatli kishi o'z aybini bo'yniga ola bilish, aybi uchun kechirim so'rashni ham bilishi lozim. O'z aybi uchun kechirim so'rash o'z g'ururini yerga urish emas, balki odoblilik, xushmuomalalik alomatidir. «Kechirasiz, mendan o'tibdi» yoki «afv eting, bundan so'ng takrorlamaslikka harakat qilaman» deyish bilan kishi o'zining odobliligini namoyish etadi, xolos.

Yetuk kishiga xos fazilatlardan yana biri xayrlashuv odobidir. Tilimizda xayrlashganda ishlatiladigan «xayr, sog' bo'ling», «xayr, ko'rishguncha», «xayr, omonlikda ko'rishaylik» kabi ta'sirchan iboralar mavjud. O'qituvchi sinfdan chiqayotganda «xayr, sog' bo'ling», «xayr, yaxshi qolinglar» iboralarini ishlatib, o'rinli bo'ladi.

bolaga yaxshilik qilgan, aytilgan yumushni, iltimosni bajargan kishilarga minnatdorchilik bildirish odobini o'rgatib borish lozim. Ushbu bilimda rag'batlantirishni, minnatdorchilikni ifodalaydigan chiroyli so'zlar bor. Ularni kundalik muomalaga kiritish, o'z o'rnida ishlatish xalqni xulqini naqadar bezaydi. O'qituvchi topshiriqni yaxshi bajargan o'quvchilarni «ofarin», «barakalla», «rahmat», «otangizga rahmat», «minnatdorman» kabi so'zlar bilan rag'batlantirishi mumkin.

O'qituvchining nutqi hamma vaqt o'zbek adabiy tili normalariga mos bo'lib qoladi, adabiy tilning go'zal va ta'sirchanligini o'zida saqlaydi. Adabiy til ma'lum qo'shimchalar, grammatik kategoriyalarning qo'llanilishidagi bir xilligi, barqarorligi bilan umumo'zbek xarakterida bo'ladi va shevalardan ustun turadi. Uning ustunligini bir tomondan adabiy normalar belgilaydi.

### **O'qituvchining ish faoliyatida fikrni ifodalash usullari**

O'qituvchi o'z ish faoliyatida fikrni ifodalashning xilma-xil shakllari va janrlaridan foydalanadi. Ularning har biri til materiallari asosida yuzaga keladi. Nutq va til alohida hodisalar bo'lsa ham, ularni bir-biridan ajratib qarab bo'lmaydi. Har qanday nutq matndan iboratdir.

«Matn» tushunchasi «til», «nutq» tushunchalari bilan mustahkam aloqadadir. Buning uchun «til», «nutq», «matn», «matn ma'nosi», «nutq madaniyati» tushunchalarini bir-biriga munosabatdoshlikda o'rganish zarur bo'ladi.

**Til** – ma'lum kishilar jamoasi a'zolarining muloqoti uchun muhim va asosiy vosita hisoblangan o'ziga xos belgilar sistemalaridan biri bo'lib, jamiyatda tafakkurning rivojlanishi uchun, madaniy tarixiy an'analarni avloddan avlodga yetkazish uchun xizmat qiladi.

**Nutq** – ifodalangan ma'lumot talabiga mos holda til qoidalari asosida tuzilgan til belgilarining tartibidir. Til nutqqa aylangach, moddiy ahamiyat kasb etadi. Nutq – nutq (a'zolari) organlari harakatining natijasi sifatida paydo bo'ladi. Nutq a'zolarining harakati nutq faoliyati hisoblanadi. Nutq faoliyati deganda inson organizmining nutq tuzish uchun zarur hisoblangan ruhiy-fiziologik ishining yig'indisi tushuniladi.

Aniq aytilgan (yoki yozilgan) bir gap yoki o'zaro mantiqiy bog'langan gaplar yig'indisi **nutqiy asar** deyiladi. «Nutqiy asar» tushunchasi og'zaki yoki yozma nutqining har qanday parchasini ham, xalq og'zaki ijodi



asarlari va badiiy yozma adabiyotning tugallangan asarlarini ham o'z ichiga qamraydi. Har qanday nutqiy asar matn sifatida yuzaga chiqadi.

Matn deb u yoki bu holda tugallangan mazmun (ma'no) va nutqning birligini o'zida shakllantirgan ifodalagan og'zaki yoki yozma asarga aytiladi.

Matnning belgilari quyidagilar: 1. Matn gap yoki gaplardan tashkil topadi. 2. Matndagi gaplar o'zaro ichki ( mantiqiy) va tashqi ( grammatik) bog'liqlikda bo'ladi. 3. Matnda u yoki bu hodisa-voqea haqidagi mazmun bo'ladi.

Nutqda ifodalangan va uning ishtirokida inson ongida shakllangan aniq bir mantiqiy, hissiy (emotsional) estetik ma'lumotlar matn mazmunini (ma'nosini) tashkil etadi.

Birdan ortiq gaplardan tashkil topgan matnlarda gaplar o'zaro ichki bog'lanishda bo'ladi, aks holda ularda umumiy bir fikr ifodalanmaydi. O'zaro ichki bog'lanishga ega bo'lmagan gaplar yig'indisini matn deyish mumkin emas. Matnni tashkil etuvchi gaplarda til vositalari «zanjirli» va «teng» aloqada bo'ladi. «Zanjirli» bog'lanishda til vositalari ma'lum fikrni yuzaga chiqarish uchun bir-birlari bilan shunday zichlashadilarki, gap tarkibidagi birorta so'z yoki biror boshqa vosita tushirilsa fikrga ziyon yetadi, u tinglovchiga muallif ko'zda tutgandek yetib bormaydi. «Yurtim senga she'r bitdim bu kun, Qiyosingni topmadim aslo» (A. Oripov). Bu qo'shma gapdagi so'zlar «zanjiri»dan istalgan so'z-halqani olib tashlash fikrni ochib bermaydi.

Matnda so'zlar yonma-yon aloqaga kirishganda, ular huquq jihatidan teng bo'ladi, fikrning rivojlanishiga baravar hissa qo'shadi. Shuning uchun ulardan birini matndan chiqarish «zanjirli» bog'lanishdagidek ta'sir ko'rsatmaydi, fikr mantiqan buzilmaydi. Ammo o'zaro teng bog'langan til vositalari ham matn uchun ma'lum ahamiyat kasb etadilar. Ular matnda fikr yuritilgan voqea-hodisalarni keng va to'laligicha ko'rsatish vositasi sanaladilar. Teng bog'lanish teng bog'lovchilar, bog'lovchi vazifasidagi vositalar va ohang yordamida amalga oshadi. «Tongda, quyosh chiqish oldida, sharqdan mayin shabada esadi». Bu jumlada «tongda» va «quyosh chiqish oldida» o'zaro teng aloqaga kirishgan. Keyingisi oldingisini izohlab, unga vaqt jihatidan aniq ma'lumot berayotir. Ularning birini matndan chiqarish mumkin.

Ko'pgapli matnlarda gap matnning tarkibiy qismi hisoblanadi. Matnda gaplar bir-biri bilan mantiqan va grammatik jihatdan bog'langan bo'ladi.

Mantiqan turli gaplardan tashkil topgan matnlarda har bir gap fikrning rivojlanishida o'ziga hos bosqich hisoblanadi. Tashqi jihatdan gaplar bir-biri bilan grammatik bog'lovchi vositalar yordamida (bog'lovchilar, yuklamalar, modal so'zlar va hokazolar yordamida) birikadilar.

Hajm jihatidan katta matnlar gapdan tashqari yana abzas (xat boshi) bo'lgan ham ajraladi. Gap hajm va mazmun jihatidan matnning eng kichik bo'lagidir. Unda birgina nisbatan tugallangan fikr ifodalanadi. Xat boshi umumiy fikrning kattaroq bo'lagi bo'lib, bir va undan ortiq gaplardan tashkil topadi. Xat boshi ko'p gapli bo'lganda uni tashkil etgan gaplar o'zaro mantiqiy bog'lanadi. Xat boshi matnda ifodalangan fikrning rivojlanish bosqichi sanaladi. Matn bir xat boshidan yoki bir necha xat boshidan iborat bo'lishi mumkin.

*Tijorat ahli – savdogarlar halol rizq uchun uzoq mashaqqatli yo'llarni bosib o'tadi. Bir yurtida serob mollarni boshqa yurtga olib borib, o'sha yerdagi tanqislikka barham beradi. Bu bilan ular dehqon va hunar egalari mehnatining qadrsizlanib qolmasligini – bozor muvozanatini saqlaydilar...*

*Bozor, ming yillardan beri tarixning zalvorli yukini yelkasida ko'tarib, hani bashar farzandlarini ahillikka undab, moddiy va ma'naviy hayotning botiniy va zohiriy rishtalari bilan turmushning oltin qozig'iga qantara olgan muqaddas ro'yoga aylandi (Jurnaldan).*

Bu matn ikki xat boshidan iborat. Birinchi xat boshi 3 ta gapdan, ikkinchi xat boshi 1 ta gapdan tashkil topgan. Birinchi xat boshida tinglovchiga havola etilgan fikr ikkinchi xat boshida yangi dalillar bilan to'ldirilib, rivojlantiriladi. Bu ikki xat boshida bayon etilgan fikrlar birgalikda matnning umumiy mazmunini tashkil etadi.

So'zlovchi matn mazmunini turli usullarda yuzaga chiqarishi mumkin. Bunda uch janr – tasvir, hikoya qilish, mulohaza alohida ajralib turadi.

**Tasvir.** Nutqda ifodalangan narsa yoki hodisani maxsus til vositalari orqali xarakterlash, uning xususiyatlarini, sifatlarini ko'rsatish usuli tasvir deyiladi. Tasvir fikr yuritiladigan shaxs, narsa yoki voqea-hodisani tinglovchi tasavvurida yorqin shakllantirish uchun ishlatiladi.

*«Uning ko'z oldida bolalik yillari gavdalanadi. Shahar chekkasidagi tor, katalak hovli, darvoza oldidagi chorkunj, kichik mehmonxonada otasi Zaynish ko'sa maxsi tikardi. Hamma do'zandalar singari uning ham angiz zahil ko'zlari yoshlanib turar, yelkalari ho'kkaygan va bo'yni bir oz*

qiyshiqroq edi. Ishlaganida ham, yurganida ham doim xayol su... (A. Aminov).

«Bahor kechikib, may oyining oxirlarida ham ustma-ust yomg'ir yoqqani uchun, hademay yoz chillasi kiryapti-yu, yo'l chetidagi durkoo g'ozalarning shonasi kam, hatto bel shoxlarida ham ko'proq qog'ozsimon rangpar gullar ko'zga chalinadi. Havo issiq yillarda, bu paytda hammasi yoq qovjirab, uvatlardagi ajriqlargacha kuyib bitar edi. Hozir tevarak atrof to ufqqacha ko'm-ko'k, g'ozalar suvga qongan. U yer-bu yerda asfalt yo'l chetlarida, uzoqdan qoramoydek yaltirab ko'ringan halqobda ham bu yil suv mo'lligidan darak beradi (U. Usmonov).

O'qituvchi o'z nutqida tasvirdan keng foydalanadi. O'quvchilarga voqea-hodisalar, shaxslar haqida ma'lumot berishda tasvir muloto ahamiyat kasb etadi. Badiiy asar qahramonlarining tashqi ko'rinishi va fazilatlarini maxsus so'zlar orqali sifatlab berish o'quvchilarda o'sha asar va uning qahramonlari haqida katta qiziqish uyg'otadi. Bu darsdagilar faolligini oshirishga, darsning yaxshi o'zlashtirilishiga olib keladi.

**Hikoya qilish.** Bo'lib o'tgan va yuz beradigan voqea-hodisalarini batafsil so'zlash **hikoya qilish** hisoblanadi. Kichik hajmdagi nasriy asarlar, katta asarlarning ayrim parchalari darsda hikoya qilib beriladi. Hikoya qilishda voqealar batafsil yoki ma'lum qisqartirishlar bilan bayon etilishi mumkin. Bunda har bir narsa va hodisa o'z nomi, sifatlar bilan bayon etiladi.

«Qishli-qirovli kunlar boshlandi. Bir necha kungacha kechalarda muttasil shamol xuruj qilib, shovqin-suron eshitilardi.

Norin yuzi qaymoq tusini oldi. Uzoq yo'l bosib holdan toygan kabi erinibgina siljir, asta-sekin suv ustini muz qoplardi. Avvaliga dala dashtni yuzalab yog'ayotgan qor birdan bo'ralashga o'tdi. Tez-tez bo'ron huruj qiladi. Ertalab tursangiz, hammayoq tizza bo'yi oppoq qor. Shu alfozda ko'p o'tmay daryoni butunlay muz qopladi. Bordi-yu, xiyolgina havo tinchib, quyosh salgina jamol ko'rsatadigan bo'lsa, daryo yuzi bola-baqruga to'lib ketar, yaxmalak otish, olg'ish - xokkey o'yiniga ishqibozlarning allamahalgacha qiy-chuvlari tinay demasdi» (I. Abdullaxonov).

Mulohaza. Kuzatilgan, eshitilgan yoki o'qilgan narsalar ustida fikrlash, uning turli tomonlarini ko'z oldiga keltirish mulohaza hisoblanadi. Mulohaza ilmiy fikrlashning birinchi shartlaridandir.

Umrini ona vatanining gullab-yashnashiga bag'ishlagan davlat arbobi, mashhur notiq Demosten eramizdan oldingi 384-yili Afinada o'ziga to'q oilada dunyoga keldi. Uning otasining ismi ham Demosten bo'lib, guroi-yaroc ustaxonasining egasi edi.

Bo'lajak notiq 5 yoshga to'lganida otasidan ajraladi. Demosten bilan singlisiga otadan katta meros qoladi. Bolalarning tarbiyasi va merosi vaqtincha tog'asiga topshiriladi. Tog'asa barcha boyliklarni qo'lga kiritib olgach, bolalarning tarbiyasi bilan qiziqmaydi. Natijada Demosten juda nimjon va kasalmand bo'lib o'sadi.

Demosten voyaga yetgach, tog'asi unga faqat qullari, uyi va uy jihozlarni hamda pulning majmua bir qismingina berib aldaydi. Demosten tog'asidan mol-mulkning qolganini yaxshilik bilan qaytarib berishini so'raydi. Biroq tog'a bundan bosh tortganidan keyin u qolgan merosini sud orqali undirib olishga qaror qiladi. Sudda muvaffaqiyat qozonish uchun Afinaning davlat qonunlarini yaxshi bilish, shu bilan birga, ravon so'zlash, davosining to'g'riligini kishilarni ishonitirish kerak edi. Shu sababli Demosten notiqlik san'atini o'rganish uchun o'z davrining meros ishlari bo'yicha mashhur advokat Isey maktabida talim olishga majbur bo'ladi. U to'rt yil davomida qunt bilan o'qiydi va bu davrda ko'pgina yozuvchilarning asarlari bilan tanishib chiqadi. Ayniqsa, mashhur tarixchi Fukidid (eramizdan oldingi V asrda yashagan Afina tarixchisi va davlat arbobi. U Pelopon urushida ishtirok etgan va uning tarixini yozgan) va faylasuf Platonning tanlangan asarlarini puxta o'rganadi. Bo'lajak notiq Fukidid asarlarini sakkiz marotaba qayta ko'chirib yozib, uni deyarli yoddan o'zlashtiradi.

Demosten o'qishni tugatgach vastiyarlari bilan sudlashadi. Sud besh yil davom etadi. Bir necha yil surunkasiga bo'lgan kurash bo'lajak notiq xarakterning tobilanishida, bir so'zli va matonati bo'lishida katta rol o'ynaydi.

Yoshlik chog'laridayoq ko'pchilik oldida so'zga chiqishni orzu qilib yurgan Demosten o'qish yillarida o'qituvchisi bilan sud majlislariga qatnashadi.

Demosten notqlik bilan shug'ullanishdan avval o'z ustozlari yo'llanib borib, boshqalarga sudda so'zlanadigan nutqning matnini yozib berib

Yunonlarda notiqlik san'atining quloch yoyishi sud notiqligidan so'ng harbiy notiqlik va siyosiy notiqlik kabi notiqlik turlarining, sal o'tmay epideyktik-tantanali notiqlikning paydo bo'lishiga olib keladi.

Epideyktik notiqlikda balandparvoz so'zlar ishlatilar, shu bois ham bunday nutq matnini tayyorlash anchagina izlanishni talab qilardi. Natijada logograflar o'zlaridan oldingi voizlarning merosiga va xalq og'zaki ijodiga murojaat eta boshladilar. Shu tariqa chiroyli so'zlash san'ati asta-sekin shakllanib, badiiy adabiyotning rivojida muhim ahamiyat kasb etdi. Ya'ni tragediya, komediya va roman janrlarining tug'ilishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Eng muhimi, notiqlik san'atining rivoji adabiy tilning shakllanishiga, shuningdek, notiqlik san'ati nazariyasi bo'lmish « ritorika » ilmining vujudga kelishiga sabab bo'ldi. Rimdagi barcha shoirlar va notiqlar shu maktabda, ya'ni ritorika maktabida ta'lim olganlar.

Notiqlar tomonidan yaratilgan **nutq matnlari** nasriy va **poetik ijod namunasi** sanalgan. Bunday **ijodkor notiqlarning** nomi o'z mamlakati doirasidan chiqib, jahonga ma'lum va mashhur bo'lgan. Aristotel, Demosfen va Sitseronlar shular jumlasidandir.

### Aristotel (384–322)

Markaziy Osiyoda Arastu nomi bilan mashhur bo'lgan Aristotel eramizdan avvalgi 384-yilda Stag'irda (Makedoniya yarim oroli) shifokor oilasida dunyoga keldi. Uning otasi Nikomax Aleksandr Makedonskiyning nabirasi podsho Aminti II saroyida shifokorlik qilgan.

Aristotel 17 yoshida Afinaga keladi va bu yerda o'z zamonasining mashhur olimlaridan bo'lgan Platonga shogird tushadi. Platonning vafotidan so'ng Aristotel 347-yili Afinadan Troad tomon o'tib, Assosga boradi. Chunki bu yerda ustozning tarafdorlari ko'p edi. Unga, ayniqsa, zo'ravon, zolim Germiy homiylik qiladi. Aristotel Germiy vafotidan so'ng Lesbos yarim orolidagi Mitilen shahriga ko'chib o'tadi va u yerda 342-yilgacha yashaydi. 342-yili Makedoniya podshosi Filipp o'zining Aleksandr nomli 13 yoshli o'g'lining tarbiyasi uchun Aristotelni Mitilendan chaqirib oladi. Bu yerda u falsafa maktabini ochadi va katta kutubxona tashkil qiladi.

Shu davrda Gretsiyada chiroyli soʻzlashga qiziqish kuchayib ketgan edi. Natijada qator notqlik maktablari ochiladi. Bu maktablardan soʻz sanʼati ustalari yetishib chiqar edi. Keyinchalik chiroyli soʻzlash haqidagi qoʻllanmalar maydonga keldi. Shunday asarlardan biri Aristotelning «Ritorika» nomli kitobidir. Buyuk olim uni mashhur «Poetika» nomli asaridan soʻng, yaʼni eramizdan oldingi 330-yillarda Afinaga soʻnggi marta qaytib qelganda yozgan edi.

Maʼlumki, ungacha Anaksimion, Lampsak ham «Ritorika» nomli qoʻllanma yaratgan edi. Bu ikki asar bir-biriga tamoman oʻxshamaydi. Ularning birinchisi qoʻllanma boʻlsa, ikkinchisi chiroyli soʻzlash nazariyasi boʻyicha ilmiy mulohazalardan iborat.

Aristotelning «Ritorika»si uch kitobdan tashkil topgan. Asarining birinchi va ikkinchi kitoblari, asosan, chiroyli soʻzlash, shontirish uslublari haqidagi fikr va mulohazalardan iborat boʻlsa, uchinchi kitobida nutq mantigʻiga juda katta ahamiyat beriladi. Olimning fikricha, 110 xil tildagi turli qorishmalar, yaʼni soʻzlarning notoʻgʻri va nooʻrin talaffuz qilinishi, jummalarning mantiqan har xil tuzilishi soʻzlovchining katta xatosidir. Aristotel har bir jumlaning asosiy fikrini ifodalashga qaratilishi, ravon va tinglovchi tushunadigan darajada sodda boʻlishini talab etadi. U notiqning hissiyot bilan soʻzlashi mulohaza yuritayotgan fikrning tinglovchi qalbiga tez yetishida muhim omil boʻlishini alohida koʻrsatadi. Bundan tashqari, Aristotel notiqning auditoriyani oʻziga jalb etishi uchun hazil-mutoyiba soʻzlar bilan lirik chekinish qilib, tinglovchilarni hayajonlantira bilishi zarurligini, agar turli koʻrgazmadagi qurollardan foydalansa, xar xil epitet, chogʻishtirish, metaforalarni qoʻllasa, nutqning taʼsirchanligi yanada oshishini, ammo keltirilgan misollar koʻpayib ketib, tinglovchini zeriktirib qoʻymasligi kerakligini ham taʼkidlaydi.

Aristotel notqlik sanʼatini egallashni 5 qismga boʻlib oʻrgatadi.

1. Materialni kashf etish (har tomonlama tayyorlash).
2. Materialni joylashtirish shakli (rejasi).
3. Materialni eslab qolish (oʻzlashtirish).
4. Materialni soʻz yordamida toʻgʻri aks ettirish.
5. Materialni toʻgʻri talaffuz etish.
6. Aristotelning fikrlari hozirgi kunda ham oʻz qimmatini saqlab qolmoqda.

mavqeiga mos keladigan o'z nutqi bilan tinglovchilarni ishontiradigan uslubni topadi. Shuning uchun ham Lisiy yozgan nutqlarning hammasida so'zlovchining tabiatiga mos gaplar o'rin olgan bo'ladi. Lisiy uslubiga xos husn va latofat ham nutq tilining sodda, aniq va fikrning lo'ndaligida ko'rinadi. Lisiydagi bu mahorat, ya'ni har kimni o'z tiliga, o'z tabiatiga mos gapirtirish, gapiruvchining qiyofasini to'la ko'rsata olish yunon tarixida o'tgan logograflarning birontasida uchramaydigan hodisa. Bu borada Lisiyga ulardan birortasi ham teng kelmaydi. Ularning Lisiydan farqli tomoni shunda ediki, ular o'zlari yozib bergan nutqlarni ko'plab dalillar bilan to'ldirgani holda, shu dalillar asosida joy-joyiga qo'yib, da'voni isbotlashga, nutqlari shaklining chiroyli bo'lishiga ortiqcha e'tibor qaratganligida, nutq so'zlovchining tabiatini hisobga olmaganligida.

O'sha davr sud qoidalariga ko'ra sudlanuvchilarning nutqi uch qismdan tashkil topgan. Ular nutqlarini sud hay'atiga murojaatdan boshlagan va shu orqali hay'atning iltifotiga ergashishga urinishgan. Nutqlarining asosiy qismida esa voqea-hodisalar tafsilotini aniq va ravshan hikoya qilishga, nihoyat nutqining yakunida aytgan gaplarining to'g'riligiga, dalillarga ishontirishga uringan. O'ziga raqib bo'lgan tomonlarning dalillarini puchga chiqarib, o'zining haq ekanligiga mumkin qadar ishontirishga bor kuchini sarflashgan.

Lisiyga qadar va undan keyin o'tgan logograflar yozib bergan nutqlarida bor kuchni nutqning kirish va xulosa qismiga berib, asosiy hikoya qilib beriluvchi bayonot qismiga ko'proq e'tibor qaratmaganlar. Lisiy esa ulardan farqli o'laroq, butun fikrni-kirish va xotima qismiga sarflamasdan, notiqlik mahoratini ko'rilayotgan ishning, ya'ni voqea-hodisalarning tafsilotini sodda va aniq, ravshan hikoya qilishga qaratadi. Lisiy yozgan nutqning bayonot qismidagi nafisligi kamdan-kam logograflarga nasib etgan. Lisiy voqealar bayonini yozganida oddiy so'zlar orqali qisqa va lo'nda hikoya qilish yo'lidan borib, dalil va da'volarni bayonotga yog'day singdirib yuboradi. Natijada bitilgan nutq qanchalik sodda bo'lmasin, shu sodda nutq tagida yashirin yotgan tabiiy holat va samimiyat tinglovchilar qalbiga yetib boradi. Oqibatda hay'at a'zolari ko'nglida ham gunohkorga nisbatan rahmdillik kayfiyatini uyg'otadi. Bu o'rinda bir misolga fikrimizni qarataylik. Eratosfen ismli shaxsning Evfilet tomonidan o'ldirilishi haqida sud majlisida bu holat yaqqol seziladi. Mazkur ish yuzasidan gunohkor

sifatida sudga tortilgan qotil Evfilet hay'at a'zolariga o'zining shaxsiy turmushi haqida hikoya qilib beradi. U uylanganining dastlabki paytlarida xotiniga ishonolmay yuradi. Birinchi farzandi tug'lgandan ko'ng xotiniga ishonchi va mehri ortadi. Xotinini ko'p tergamay qo'yadi. Shunday kezlarda Evfiletning onasi olamdan o'tadi. Dafn marosimida Eratosfenning nigohi Evfiletning go'zal xotiniga tushib, unga yetishish uchun yo'l izlaydi. U maqsadiga erishish uchun Evfiletning uyida oqsochlik qiladigan qizni qo'lga oladi. Qizning ko'magida Evfiletning kotini bilan topishadi. Evfilet esa xotining xiyonatini sezmasdan kotirjam yashayveradi. Shunday kunlarning birida notanish bir ayol uni xotining sirlaridan ogoh qiladi. Ayolning gaplariga qaraganda, Eratosfen bu ayolning ham bekasini yo'ldan urgan va tashlab ketgan. Bu sovuq xabarni eshitgan Evfilet uyidagi oqsoch qizni qistovga olib ko'rasaki, haqiqat bo'lib chiqadi. Shundan so'ng Evfilet Eratosfen bilan kotini o'rtasidagi jirkanch jinoyatni ochishda cho'ri qizdan yordam so'raydi. Qizning yordami badaliga uning gunohidan kechishga va'da beradi.

Tez orada Evfilet oqsoch qizning xabariga ko'ra raqibini qo'lga olib turadi. Uch-to'rt qo'ni-qo'shnilaridan guvoh sifatida foydalangan Evfilet ular bilan birga xotining yotog'iga bostirib kiradi va Eratosfenni jinoyat ustida qo'lga olib, uni o'ldiradi.

Ushbu Evfiletning tabiatiga mos nutqni yozgan. Evfiletning soddaligi, biroz bo'lsa-da laqmaligini hisobga olgan, biroq vaqti kelganda jinoyati yo'lida hech narsadan qaytmasligini, darg'azab qasoskorga qaratilishini ko'rsata oladigan nutq uslubini topgan. Evfiletning oddiy tilda aytgan hikoyasini eshitgan har bir tinglovchi voqeani ko'zoq ko'zlari bilan ko'rgandek his etib, shohidlar safiga xayolan o'chirilganini sezmay qoladi. Bunday o'ylab qaralsa, aldangan er, uning go'zal xotini, begona ayollarni yo'ldan uradigan olg'ir va olifta yigit, shahar qo'shmachilik qilgan oqsoch qizning qiyofasi ko'z o'ngimizda saqlanib bo'ladi.

Ushbu tomonidan bitilgan har bir nutq sud minbaridan turib etayotgan qonunshunosning safsata gaplari emas, balki, mohir qalamiga mansub bir asar sifatida ahamiyatli. Uni ijro etayotgan shaxs go'yo sud minbari sahnasida rol ijro etayotgan aktyorni eslatib, tinglovchilar ongiga hikoyasini singdirib, ular qalbini jo'nbushtga olib kiradi.



Shundan keyin ko'p o'tmay Gorgiy butunlay Afinaga ko'chib kelib, shu yerda ritorika maktabi ochadi va o'z shogirdlariga so'z san'atini o'rgatish barobarida notiqlik bilan ham shug'ullanadi. Gorgiy, asosan, mifologik ma'ruzalarda tantanali nutqlar so'zlagan, uning nomi ostida bizga qadar «Yelena» va «Palimed» sarlavhali ikkita yozma nutq yetib kelgan. Gorgiyning aytishicha, notiqning eng muqim vazifasi tinglovchini ishontirish, uni maftun etish, rom qilishdir. Maftun etishning asosiy vositasi sifatida yozuvchi birinchi o'ringa uslubni qo'yadi va shu maqsad bilan o'zining asarlarida «go'zal» uslubning namunasini namoyish qilmoqchi bo'ladi. Agar siz Gorgiyning asarlarini ko'zdan kechirsangiz, bu odam tashviq etgan «fusunkor» uslubning faqatgina jimjimador tashqi bezaklardan, tamtaroqli balandparvoz iboralardan boshqa narsa emasligiga aslo shubhangiz qolmaydi. Darhaqiqat, notiqning bizga qadar yetib kelgan asarlarida tantanali epigraflar, majoziy ifodalar haddan tashqari ko'p uchraydi. Yozuv hatto jummalarni ham bo'g'in-bo'g'inlarga bo'lib, ularning har birini bir xil uzunlikda to'qiydi va har qaysi jumlaning oxirini bir-biriga o'xshash qofiyadoshroq so'zlar bilan tugatadi. Qadimgi yunonlar Gorgiyning usulini «jimjimador uslub» yoki avtorning nomiga nisbat berib «Gorgiy uslubi» deb ataganlar (199 bet).

Gorgiyning bu uslubi zamondoshlariga yoqib qolgan va o'ta kuchli ta'sir uyg'otgan. Shuning uchun ham uning ijodi uzoq yillar notiqlik prozasining asosiy namunasi sifatida mashhur bo'ladi.

Ellinizm davrining olimlari Afinada yashab ijod etgan notiqlardan o'nta notiqni mashhur va ulug'laridan deb, ritorika ilmini o'rganishda ularning asarlaridan foydalanishni afzal bilganlar. Shuning uchun bo'lsa kerak, Antifont, Andokid, Lisiy, Isokrat, Isey, Likurg, Demosfen, Esxin, Giperd va Dinarxlarning asarlari bizgacha yetib kelgan.

### **Lisiy (taxminan 459–380)**

Afinada yashab ijod etgan mashhur notiqlar orasida eng mo'tabarlaridan sanalgan sitsilyalik Lisiydir. Uning otasi Periklning taklifi bilan Afinaga kelib, shu yerda yashab qoladi. Uning oilasi o'ziga to'q xonadonlardan bo'lishiga qaramay, kelgindi bo'lgani sababli Afina fuqaroligini ololmaydi. Peloponnes urushida Afina yengiladi. Natijada demokratiyaning tarafdorlaridan sanalgan Lisiyning akasi

qatl etiladi, o'zi esa zo'rg'a qochib qoladi. 403-yilda demokratiya qayta tiklangach, Lisiy yana Afinaga kelib, logograflik bilan mashg'ul bo'ladi.

Qadimgi yunonlarning fikriga ko'ra, Lisiy butun ijodi davomida uch yuzga yaqin nutq yozgan. Shundan bizgacha sud nutqlaridan iborat oltiz to'rttasi saqlanib qolgan.

Lisiy logograflik kasbi davomida unga ishi tushib kelgan kishilarning hojatini bitirishdan oldin, ularning dunyoqarashini, psixologiyasi va tabiatini chuqur o'rganib, keyin ularga o'z qo'llaridan va tillaridan yozganday qilib nutq yozib beradi. O'sha paytda Afina sudida ishtirok etuvchi kishilarning ko'p qismi davlat qonunlaridagi murakkabliklarni chuqur tushunmaganlar. Juda ko'pchiligi tahsil ko'rmagan kishilar bo'lgan. Shu sababli ular so'zga chechan, so'zamol odamlarning sud hay'atini aldab ketishlaridan cho'chishib, ilmoqdor va balandparvoz so'zlarga gumonsirab qarashgan.

Bularga kimdir bu so'zlarni to'qishda yordam bergan bo'lishi mumkin deb qarashgan. Ikkinchidan, logograflardan yordam istab kelganlar orasida turli tabaqa vakillari, turli kasb egalari bo'gan. Shuning uchun ham Lisiy nutq yozib berishdan oldin undan yordam so'rab kelgan buyurtmachini o'rganadi. Shundan keyingina u odamga ijtimoiy kelib chiqishiga, jamiyatda tutgan o'rniga, shaxsiy xarakteri va tabiatiga moslab nutq yozib bergan. Lisiyga murojaat etayotgan kishi agar qishloqdan kelgan oddiy bir dehqon bo'lsa yoki shaharda yashasa ham o'rtacha dunyoqarashga ega bo'lsa, unday odamlar kitobiy so'z va iboralarni, murakkab qonundagi kerakli boblarni isbot keltirib ishonarli nutq so'zlashi qiyin va buning iloji yo'q. Agar nutqni shu yo'sinda uddalay olsa, nutqning soxtaligi bilinib qolishi tabiiy hol. Lisiy san'atkorligining asosiy siri shundaki, u nutq yozishga kirishar ekan, bir maqsadni ko'zlaydi, u ham bo'lsa sudda gapirayotgan kishi haqida sud hay'atlari ko'nglida ishonarli taassurotlar qoldirish, so'zlovchining har bir gap-so'zlari qalbidan chiqayotgan samimiy gaplar ekaniga ishontira olishidir. Lisiy buyurtmachilari orasida oltita o'ziga bino qo'ygan dimog'dor shaxsmi, tiyinni tiyinga urib foyda ko'raman deb yurgan xasis olib sotarmi, xotini izmida yurgan, o'z fikri bo'lmagan laqma ermi yoki shallaqi ayolmi, maqtanchoqmi, ayyormi yoxud sodda omi insonmi, kim bo'lishidan qat'i nazar – Lisiy ularning har biri xarakter xususiyatiga, tabiatiga, bilimi va jamiyatdagi

qiyshiqroq edi. Ishlaganida ham, yurganida ham doim xayol su... (N Aminov).

«Bahor kechikib, may oyining oxirlarida ham ustma-ust yomg'ir yoqqani uchun, hademay yoz chillasi kiryapti-yu, yo'l chetidagi durkun g'o'zalarning shonasi kam, hatto bel shoxlarida ham ko'proq qog'ozsimon rangpar gullar ko'zga chalinadi. Havo issiq yillarda, bu paytda hamme yoq qovjirab, uvatlardagi ajriqlargacha kuyib bitar edi. Hozir tevarak atrof to ufqqacha ko'm-ko'k, g'o'zalar suvga qongan. U yer-bu yerda, asfalt yo'l chetlarida, uzoqdan qoramoydek yaltirab ko'ringan halqohlur ham bu yil suv mo'lligidan darak beradi (U. Usmonov).

O'qituvchi o'z nutqida tasvirdan keng foydalanadi. O'quvchilarga voqea-hodisalar, shaxslar haqida ma'lumot berishda tasvir muhim ahamiyat kasb etadi. Badiiy asar-qahramonlarining tashqi ko'rinishi va fazilatlarini maxsus so'zlar orqali sifatlab berish o'quvchilarda o'sha asar va uning qahramonlari haqida katta qiziqish uyg'otadi. Bu darsdagilar faolligini oshirishga, darsning yaxshi o'zlashtirilishiga olib keladi.

**Hikoya qilish.** Bo'lib o'tgan va yuz beradigan voqea-hodisalarni batafsil so'zlash **hikoya qilish** hisoblanadi. Kichik hajmdagi nasriy asarlar, katta asarlarning ayrim parchalari darsda hikoya qilib beriladi. Hikoya qilishda voqealar batafsil yoki ma'lum qisqartirishlar bilan bayon etilishi mumkin. Bunda har bir narsa va hodisa o'z nomi, sifatleri bilan bayon etiladi.

«Qishli-qirovli kunlar boshlandi. Bir necha kungacha kechalari muttasil shamol xuruj qilib, shovqin-suron eshitilardi.

Norin yuzi qaymoq tusini oldi. Uzoq yo'l bosib holdan toygan kabi erinibgina siljir, asta-sekin suv ustini muz qoplardi. Avvaliga dala-dashtni yuzalab yog'ayotgan qor birdan bo'ralashga o'tdi. Tez-tez bo'ron huruj qiladi. Ertalab tursangiz, hammayoq tizza bo'yi oppoq qor. Shu alfozda ko'p o'tmay daryoni butunlay muz qopladi. Bordi-yu, xiyolgina havo tinchib, quyosh salgina jamol ko'rsatadigan bo'lsa, daryo yuzi bola-baqraga to'lib ketar, yaxmalak otish, olg'ish - xokkey o'yiniga ishqibozlarning allamahalgacha qiy-chuvlari tinay demasdi» (J. Abdullaxonov).

Mulohaza. Kuzatilgan, eshitilgan yoki o'qilgan narsalar ustida fikrlash, uning turli tomonlarini ko'z oldiga keltirish mulohaza hisoblanadi. Mulohaza ilmiy fikrlashning birinchi shartlaridandir.

bu mulohaza orqali yuz bergan voqealar haqidagi haqiqatni topa  
ladi. Buning uchun mulohaza turli, ilmiy asosda bo'lishi lozim. «...  
narsalarning haqiqatini bilish faqat farosat yo'li bilan amalga oshadi»  
(Ibn Sino).

Darsda va darsdan tashqari paytlarda o'quvchilarni hodisalar ustida  
mulohaza yuritishga o'rgata boriladi. Darsda o'quvchilar e'tiboriga  
amammoli voqealarni havola qilib, ular ustida mulohaza yuritish  
olab etib borilsa, yaxshi natijalar beradi, o'quvchilarning mulohaza  
qilish qobiliyati kuchaya boradi. Bu borada boshlang'ich sinflarda  
topishmoqlar qo'l keladi. Bola topishmoqda berilgan shartlar ustida  
har tomonlama mulohaza qilib, o'ylab, uning javobini topishga harakat  
qiladi. Bu bilan bola mantiqiy fikrlashga o'rgana boradi. Maktabda  
o'quvchilar tabiat va jamiyat hodisalari ustida ham mulohaza kiladilar.

### **Fikrni og'zaki bayon etish**

Fikrni og'zaki bayon etganda o'qituvchi suhbat, muhokama,  
munozara usullaridan foydalanadi.

**Suhbat.** Ma'lum bir mavzu yuzasidan dialog (yoki polilog) tarzida  
ikki yoki bir necha kishi o'rtasida bo'lib o'tgan **nutqiy muluqot suhbat**  
deyladi. O'qituvchining o'quvchilar bilan o'tkazadigan suhbatlari,  
asosan, ta'lim-tarbiya mavzularida bo'ladi. Suhbatning o'ziga xos  
xususiyati shundaki, suhbatdoshlar o'zlariga noaniq narsalar yuzasidan  
bir-birlariga savol beradilar, berilgan savollarga javob qaytaradilar.  
Bu xususiyati bilan suhbat Ma'ruzadan farq qiladi. Ma'ruza ma'lum  
mavzu yuzasidan notiqning mulohazalari bayonidan iborat bo'ladi.  
Ma'ruza tugaguncha notiqqa hech kim savol bermaganidek, u ham  
tenglovchilarga biror masala yuzasidan savol tashlamaydi. Ma'ruza  
orasida tinglovchilar notiq fikrlarini to'ldirmaydilar. Suhbat birdan  
ortiq kishilarning erkin so'zlashuvidan hosil bo'ladi.

**Muhokama** – ma'lum bir masala yuzasidan ko'pchilikning fikrini  
to'plashni, ma'lum to'xtamlarga kelishni anglatadi. Muhokamada bahs  
predmetining hamma tomonlariga nazar tashlanadi, har bir ishtirokchi  
o'zining erkin fikrlarini o'rtaga tashlaydi. Mavzu ishtirokchilarining  
turli hajmdagi dialoglari, monologlari asosida yoritiladi. Muhokamada  
fikrni og'zaki bayon etishning har xil usullaridan foydalaniladi.

**Munozara** – biror masala yuzasidan taraflarning bahs-hisob tortishuvini anglatadi. Bahs jarayonida har bir ishtirokchi o'zining haqiqatlik ekanligini isbotlashga intiladi. Munozarada so'zlanadigan nutq mazmuni mazmunini ochuvchi dalillarga, hayajonli, tinglovchilarni qiziqitadigan va muhokamaga tortadigan bo'lmog'i lozim. Nutqda so'zlovchining barcha tuyg'ulari ham aks etadi. O'quvchilarni munozara qilish malakasiga va o'dobiga o'rgatib borish lozim. Munozarada notiq o'zini vazmin tutadi, suhbatdoshini hurmat qiladi, uning shaxsiga tegadigan so'zlardan foydalanmaydi.

Munozarada qatnashuvchi oldiga quyidagi uch talab qo'yiladi:

1. Munozara bo'ladigan mavzuni to'g'ri tushunish.
2. O'z fikrlarini quvvatlaydigan ashyoviy va mantiqiy dalillar topa bilish hamda ularni til orqali to'g'ri ifodalay olish.
3. Keltirilgan dalillardan mantiqiy xulosalar chiqara bilish.

Bu talablarga javob bermaydigan nutq tinglovchilarga ta'sir etmaganidek, notiqning munozarada yutib chiqishiga imkon ham yaratmaydi.

Ma'lumki, har qanday og'zaki muhokama va munozara bosh qaruvchisiz o'tmaydi. Maktabda munozaraga o'qituvchi yoki bilim baquvvat o'quvchi rahbarlik qiladi. Munozarani olib boruvchi shaxs keng bilimli bo'lishidan tashqari, odobli, sezgir, muzokara ishtirokchilarining nutqlaridan kerakli narsalarni ajrata oladigan, har bir ishtirokchining to'g'ri va noto'g'ri fikrlariga izoh bera oladigan kishi bo'lishi kerak.

**Notiqona so'zlash.** Aytilayotgan fikrning tinglovchiga yetib borishi va uning xulqiga ta'sir etishi notiqning so'zlash mahoratiga bog'liqdir. Oddiy gaplashuvdan notiqona nutqning farqi shundaki, notiq har bir aytilayotgan so'zga, gapga, so'z bog'lamalariga alohida munosabatda bo'ladi. O'z fikrlarini qanday «libos»da taqdim etayotganligi bilan qiziqadi. So'zlaganda turli ohang va harakatlardan foydalanadi. Qo'l, gavda, boshning tasdiq yoki inkorni bildiruvchi harakati, imo-ishoralar bilan auditoriyaga yuzlanib turadi. «Shunday emasmi?» «To'g'ri-da» kabi luqmalar orqali tinglovchilarga undaladi. Ritorik so'roq gaplar, tayyor jumladan, maqol, matal, hikmatli so'zlar, gaplar (aforizm) kabilardan foydalanadi. Bu harakatlari bilan nutq davomida tinglovchilar bilan bog'lanib, ularning diqqatini mavzuga tortib turadi.

Notiqona nutqni maqsadi va xususiyatlariga ko'ra tashviqiy, tanqidiy, tabrik nutqlariga ajratish mumkinn.

**Tashviiy nutq** deb, muallif ko'zda tutgan biron voqea-hodisani boshqa tinglovchilarni da'vat etuvchi, undovchi nutqqa aytiladi. Uning mavzuni dalillar asosida tinglovchilarga ifodalab beradi. Ularni keltirishga intiladi. Tashviiy nutqda xalq hayotidan, tarixidan, odat, an'analardan olingan tanish dalillarga va boshqa misollarga murojaat qilinadi. Ushbu nutqning ta'sirchanligini oshiruvchi barcha vositalardan foydalanish yaxshi natijalar beradi. Tashviiy nutqning namunasi sifatida xassos shoir H. Olimjonning «Men o'zbek xalqi nomidan qancha ayman!» – deb boshlangan nutqini keltirish mumkin. Unda muallif o'zbek jangchilarini birdamlikka, qahramonlikka, dahshatli balo-qazo o'zida matonat ko'rsatishga chaqirishni maqsad qilib qo'ygan. Bu maqsadni notiq o'zbek xalqiga xos bo'lgan eng yaxshi urf-odatlarini, xususiyatlarni mantiqan baquvvat, tuzilishiga ko'ra hayajonli gaplarda ifodalash orqali yuzaga chiqaradi. Xat boshidan xat boshiga o'tilgan sari yangi-yangi dalillar asosida rivojlanib, mukammallashib boradi.

**Tanqidiy nutq.** Yuz bergan hodisalar, shaxslar xatti-harakatlariga o'tirozli munosabatda bo'luvchi nutq tanqidiy nutq hisoblanadi. Tanqidiy nutq ham kuchli mantiqiy mushohadalarga suyanadi. Notiq ishonchli dalillar asosida nutq manbaini tanqid qiladi.

Tanqidiy nutq madaniyati notiqdan o'ta hayajonlanib ketmaslikni, haqiqatdan chetlashmaslikni taqozo etadi. Bunday nutqda tanqid manbai bo'lgan narsa, shaxs va hodisalarga mensimasdan qarash, kishining shaxsiga tegib ketadigan jumlalar ishlatish, dalilsiz balandparvoz gaplar aytish nutq madaniyatini, umuman madaniyatni egallamaganlikni ko'rsatadi.

Tanqidiy nutq tuzilishi jihatidan darak, so'roq, ritorik so'roq, his-hayajon gaplardan tuziladi. Muallif o'z muxolifiga nimalarnidir uqtiradi, kinoya qiladi, so'raydi. Qandaydir dalillarni bir-biriga muqoyasa qiladi. Shu usullar zaminida o'zining haqligini isbotlaydi.

Tanqidiy nutqda ham notiqona nutqning boshqa ko'rinishlarida bo'lganidek, nugqning qurilishi, jozibadorligi, ohangdorligi tinglovchiga ta'sir etishning birinchi vositasidir.

Tinglovchilar bilan muloqotda bo'lish madaniyati notiqdan xushmuomala, xushchaqchaq bo'lishni, turli xil yumor va hazillarni xalq latifalarini o'rinli ishlatish o'quvini o'rganishni taqozo qiladi. Bu usul nutqning yaxshi yetib borishini ta'minlash bilan birga, tenglovchilarni ajratib berikishdan saqlaydi.

**Tabrik nutqi.** To'ylarda, tantanalarda, yubileylarda, kunlarda so'zlanadigan nutq tabrik nutqidir. Tabrik nutqi shaxs va hodisalarning yaxshi xususiyatlarini ko'rsatishga maqtashga qaratilgan bo'ladi. Shuning uchun ham bu nutq tantanalari ruhda so'zlanadi. Til boyligidan ham shunga muvofiq bo'ladi.

Tabrik nutqida ham notiq turli dalillardan foydalanadi. Tabrik nutq atalgan shaxsning fazilatlarini, yaxshi xulqat, intonatsiyasini, oldidagi xizmatlarini ko'rsatishga qaratiladi. Notiq dalil sifatida tarjimai holidan, ijodidan, ishlaridan, u haqidagi boshqalar fikrlardan parchalar keltirishi mumkin. Ko'rinadiki, tabrik nutq xilma-xil shaklda so'zlasa bo'ladi. Ammo haqiqatdan uning tabrik nutqiga tinglovchiga qaratilgan shaxs haqida to'g'ri tasavvur yaratish va ta'sir etadi.

Tabrik nutqi hajm jihatidan ixcham, mazmunan boy tinglovchining vaqtini ko'p olmasligi lozim. Tabrik nutqini qilib shoir A. Oripovning «Teran qalb», «Insonty tuyg'uladi ko'ngil», «Aningdek inson bo'l» asarlarini ko'rsatish mumkin.

Maktabda o'quvchilar pastki sinflardan o'qituvchilarga rahbarlikka o'rgatib boriladi.

Sinfning peshqadamlari, faollari aniqlanadi va ular vasitasi bilan ta'minlanadi. Sinfda turli majlislarni o'tkazish, o'quvchilar yig'ini tashkil etish o'quvchilarning o'zlariga yuklatiladi. O'qituvchi o'quvchilar tashkiloti mutasaddisi ularga ko'maklashib, bilimlarni o'rgatib boradi. Bunday ishlar yosh o'quvchilarning umumiy fikrlashlarini o'stiradi, nutqini sayqallashtiradi. Ular yig'ini boshqarish san'atini egallay boradilar.

## Nutqning yozma shakllari

**Konspekt.** Konspekt bayonning ko'rinishlaridan biridir, konspekt uch xil bo'ladi: to'liq konspekt, qisqa konspekt, tezisli konspekt.

Biror asar konspektlashtirilganda quyidagi tartibda ish bo'ladi: avval asar sinchiklab o'qib chiqiladi, mazmun anglab olinadi va ko'chirma qilish mo'ljallangan parchalarga belgilar qo'yib chiqiladi (tag chiziladi yoki boshqa bir belgi qo'yiladi). Konspektlash boshlanganida a) muallifning ism-sharifi (famiyasi, ismi, otasining ismi, tasallusi); b)

... boshlangan shahri, yili; v) asarning mazmuni – konspekt manbadan olingan parchalarning beti ko'rsatiladi. Lozim muallifning ayrim fikrlariga munosabat bildiriladi.

... konspektida matnning mazmuni muallif fikrlariga ba'zan qisqacha gaplar qo'shish orqali keng bayon qilib beriladi. Ko'pincha konspekt qilinganda unda bayon etilgan hamma fikrlar muallifniki bo'ladi. Bunday konspektni o'qiganda asar haqida yetarli fikrga ega bo'lish mumkin.

... konspektida matndagi eng muhim deb hisoblangan fikrlar bayon etiladi. Voqealarning tafsilotlari berilmaydi. Muallif o'z asarida, fikrlar ustida to'xtalganligi sanab o'tiladi.

... konspekt manbaning asosiy qoidalari eng muhim fikrlarini bayon etishdir. Tezis, odatda, ilmiy maqolalar, ma'ruzalarning siyiq xulosa hisoblanadi. Tezisdagi fikrlar ko'pincha raqamlab beriladi. Tezisning har bir qismida eng ko'p deganda 1–4 varaqdan oshmaydi. Lekin bu qat'iy qoida emas. Ba'zi siyosiy masalalarga bag'ishlangan Ma'ruzalarning har bir qismida ko'pincha 1–2 varaqdan oshmaydi. Ma'ruzalarning har bir qismida ko'pincha 1–2 varaqdan oshmaydi.

... xulosa (**rezyumi**). Siyiq xulosa ma'ruza yoki boshqa asariarda bayon etilgan fikrlar bilan bayon etilgan fikrlarning 3–4 gapli xulosa hisoblanadi. Muallif rezyumida kuzatish va mushohadalaridan yuzaga kelgan to'xtamlarning eng zarurlarini ko'rsatadi.

... annotatsiya. Annotatsiya badiiy, ilmiy, metodik asarlarning muallifi, muallifining nomi, manbasi, unda ko'tarilgan asosiy masalani ko'rsatishga qaratilgan qisqa xabardir. Annotatsiya o'zining kam so'zligi, hajm jihatidan nihoyatda kichikligi bilan bayonning boshqa turlaridan ajralib turadi.

... o'ziri (fikr). Saylanma bayonning yana bir turi otzivdir. U badiiy, metodik va boshqa asarlarga berilgan bahodir. Otziv, odatda, bayonning yaxshi tomonlarini ko'rsatishga qaratilgan, unga «Oq yo'l» deb nom beriladi. Bu jihatdan taqriz (retsenziya)dan farq qiladi. Retsenziyada asar tanqidiy tahlil etiladi, shu nuqtai nazardan baholalanadi. Asarning yutuqlari ham, nuqsonlari ham ko'rsatiladi. Taqrizchi o'zining da'volarini turli dalillar asosida isbotlay boradi, taqrizchi ilmiy izohlar beradi.

... o'ziri ko'pincha asarlarni himoyaga, nashrga tavsiya etish, asar muallifini quvvatlash maqsadida yoziladi. Shuning uchun unda asarning kamchiliklari ustida deyarli so'zlanmaydi. Manbadan olingan



parchalar ham uning ijobiy tomonlarini ko'rsatishga bo'ladi.

Ammo otzivda ham, retsenziyada ham ilmlar xolislikni, haqiqatdan chetlashmaslikni talab etadi. Taqdimot asarning yutuq va kamchiliklari, nazariy va amaliy ahamiyati ko'rsatilishi lozim. Asarga baho berishda muallifning shaxsiyat emas, balki uning (asarning) xususiyatlari, ahamiyati bo'ladi.

**Referat.** Biror ilmiy, metodik, pedagogik mavjudotni qisqacha mazmuni haqidagi bayon (yozma ma'ruza) referatdir. Referat muallifning o'z asari haqida bo'lsa, avtoreferatdir. Avtoreferatda asarning qisqacha mazmuni, yangiliklari, usullari, ilmiy qurilishi, foydalanilgan adabiyotlari ustida fikr yoziladi. Amalda ilmiy va obzor referatlari ko'proq uchraydi. Ilmiy referatlar fanga, metodikaga, tarbiyaga va texnikaga oid ishlar ustida amaliyotda sinab ko'rilganligi haqida ham xabar beriladi.

Sharx (obzor) referati ilmiy va boshqa asarlarga sharh berish uning umumiy xususiyatlarini qisqacha bayon qilib bershaxsni tutadi.

**Biografiya va avtobiografiya.** Kishilarning hayoti va faoliyati haqida ma'lumot beruvchi bayon biografiya (avtobiografiya)dir. Biografiyada bayon kishining tug'ilgan joyi va yilidan boshlab Biografiya (avtobiografiya) quyidagi tartibda yoziladi:

1. Ism-sharifi, tug'ilgan yili, tug'ilgan joyi, tumani, shahar, viloyat haqida ma'lumot.
2. Ota-onasi, aka-ukalari haqida ma'lumot.
3. O'qigan maktabi, unga borish va tugatish yillari, maktabning qanday ma'muriy hududiy bo'limiga tobeligi.
4. Mehnat faoliyatini qachon, qayerda, kim bo'lib boshlaganligi, qayerlarda ishlaganligi.
5. Oilaviy ahvoli.
6. Qaysi jamoat tashkilotlarida faol ishtirok etganligi.
7. Mehnatlari evaziga hukumatimizdan olgan taqdironomalar.
8. Keyingi davrdagi faoliyati haqida ma'lumot.

Avtobiografiyada bayon birinchi shaxs tilidan, biografiyada III shaxs tilidan ifodalanadi. Avtobiografiyada tarjimai holi yozilayotgan kishining tavsifnoma berilmaydi. Biografiyada esa tavsifnomaga old jumladan berilaveradi.

...larning o'z shaxsiy hayoti bilan bog'liq materiallar asosida yaratilgan asari avtobiografik asar hisoblanadi. Avtobiografik asar muallifning hayoti bir vosita bo'lishi mumkin. Bunday asar ham hayot keng, ziddiyatlari bilan aks ettiriladi, o'z obrazlarini o'ziga bo'ladi. Avtobiografik asarlar avtobiografik roman, avtobiografik qissa, esdaliklar deb yuritiladi.

Avtobiografik janrning o'ziga xos xususiyatlaridan biri unda muallif tilidan hikoya qilinishidir. Roviylar (hikoya qiluvchi) muallifning birinchi shaxsning boshidan kechirganlari, ko'rganlari haqida bayon etadi.

Avliyoning «Esdaliklar»i, Oybekning «Bolalik» qissasi, A. Qahhorning «O'tmishdan ertaklar»i avtobiografik asarlardir.

**Tavsifnoma.** Kishilarning ijtimoiy faoliyati, jamiyatda tutgan o'rni haqida muhokama tarzida aytilgan yoki yozilgan bayon tavsifnoma hisoblanadi. Tavsifnomada shaxsning ijtimoiy faoliyatda erishgan muvaffaqiyatlari va kamchiliklari, xulqidagi ibratli xususiyatlari, kishilar bilan va jamiyat bilan munosabatlari bayon etiladi. Shaxsning faoliyati bilan bog'liq muvaffaqiyatli dalillar keltirilib, ular asosida shaxsga baho beriladi.

Tavsifnoma beruvchi shaxs yoki tashkilot o'zi baholayotgan kishini yaxshi bilishi, undagi yaxshi yoki yomon fazilatlarini chuqur anglagan bo'lishi lozim. Maktabda bolaga tavsifnoma yozuvchi o'qituvchi, yoshlar tashkiloti mutasaddisi uni sinchiklab kuzatishi, iqtidori qaysi fanlarga qiziqganligini, nimalarga qiziqishi, tashkilotchiligi, tabiatida qanday kamchiliklar borligini yaxshi bilgan bo'lishi kerak.

Tavsifnoma ikki yoki bir guruh kishilarga ham yoziladi. Kishilarga qiyosiy tavsifnoma ham beriladi. Bunday tavsifnomalar bir-biridan farq qiladi. Bularning xususiyatlari, til qurilishi bilan farq qiladi. Masalan, bir o'quvchiga yozilgan tavsifnomada o'sha o'quvchining xulqi, faoliyatidagi yaxshi yoki yomon xususiyatlari ko'rsatilsa, ikki kishiga yozilgan tavsifnomada ularning o'xshash tomonlari, qiziqishlari va hokazolar umumiy tarzda ko'rsatiladi.

Hutun bir sinfga yozilgan tavsifnomada sinf yaxlit holda olinib, unga xos umumiy xususiyatlar – fanlarni o'zlashtirishi, jamoat ishlariga qatnashishi, qiziqishi, ozodaligi kabilar haqida so'zlanadi.

Qiyosiy tavsifnomada ikki shaxsning xususiyatlari chog'ishtiriladi. Bunda biri o'zining ijobiy tomonlari bilan, ikkinchisi salbiy tomonlari bilan ko'proq ko'zga tashlanadigan kishilar tanlanadi.

Tavsifnoma berish (yozish) madaniyati kishining yosh, ta'lim, bilim, qobiliyat, fazilatlarini, faoliyatini yoritishda adolatli, haqqoniy bo'lishi zarur bo'lgan holat etadi. O'qituvchi bunga har doim amal qilishi shart.

**Intervyu.** Matbuotda e'lon qilish, radioeshittirish yoki teleeshittirishda foydalanish uchun muxbirning biror kishi bilan o'tkazgan suhbatning matbuotda e'lon qilingan matn intervyu deyiladi. Suhbat (suhbat) jamiyatimizdagi istalgan kishi bilan o'tkazilishi mumkin. Intervyu radio va televideniaga xos janr bo'lib, unda muhbirning ishtirok etayotgan shaxsning ijtimoiy faoliyati, ishdagi yutuqlari, kamchiliklari, bu boradagi muammolar haqida fikr yuritishi, shaxsiy va oilaviy hayoti yuzasidan savollar berilishi mumkin.

Intervyu uchun savollar ma'lum bir mavzu asosida puxta tayyorlanib, nutq sharoitiga mos qilib tuziladi.

Beriladigan savollar shunday tuzilsinki, intervyu beruvchi shaxsning xulqiga ta'sir etib, uni so'zlashga undasin. Savollar qisqa va mazmunda bo'lsin. Buning uchun intervyu o'tkazuvchi suhbatga puxta tayyorgarlik ko'rgan bo'lishi lozim.

**Ma'ruza.** «Ma'ruza» so'zi, odatda, ikki ma'noda ishlatiladi.

1. Rahbar yoki boshliqqa og'zaki yoxud yozma berilgan xabar. Masalan, «Bayramoldi topshiriqlarining bajarilishi yuzasidan» yoki «Tashkiloti mutasaddisining maktab direktoriga yozma ma'ruzasida».

2. Biror mavzu yuzasidan jamoatchilik oldida berilgan xabar.

Ikkinchi ma'noda ma'ruza omma orasida so'zlanadigan nutq ko'rinishlaridan bo'lib, turli mavzularda yoziladi; ya'ni puxta tayyorlangan mavzudagi ma'ruza, adabiyotlar obzoriga bag'ishlangan ma'ruza, hisobot ma'ruza, hisobot ma'ruzasi kabi.

Ma'ruza ma'lum tayyorgarlikdan keyin yig'ilgan materiallarga asoslangan holda yoziladi. Shunga ko'ra, ma'ruza yozuvchi unda ma'lum maqsadni amalga oshirishni ko'zda tutadi va rejalashtiradi. Dalillar, manbalardan olingan parchalar bo'lingan maqsadni ochadigan qilib tanlanadi. Masalan, o'qituvchi maktab yoki sinf haqida ota-onalar majlisida Ma'ruza qilmoqchi bo'lsa, u maktab sinf hayotini yaxshi o'rganishi, dalillarni tahlil etib, ma'lum xususlarga kelib qo'yishi, sinfning o'zlashtirishi, unga sabab bo'layotgan ijobiy yoki salbiy hodisalar, sinf o'zlashtirishini ko'tarish borasidagi rejalarni, fikr-faraz va vazifalar avvaldan yaxshi o'ylab olinishi kerak. Ma'ruzada turli xil raqamlar, ularni bir-biri bilan solishtirish, o'zlashtirish foydalarini

qiziqarish ham ko'zda tutiladi. Ammo haddan tashqari ularga qiziqib ma'ruzani zerikarli qiladi.

Ma'ruza uchun kerakli dalil va materiallar tayyor bo'lgach, endi ma'ruza tuzilishi ustida, fikrlarni ifodalash vositalari, ohang, ma'ruza uslubini ustida mashq qilinadi. Bu jarayonda tinglovchilar bilan ma'ruza o'qib turishning vositalari – undalma, kiritma gap, kirish so'z, ma'ruza xulosa, humor, kinoya va boshqalardan foydalanish ustida o'ylab o'tish ham yaxshi natija beradi.

Ma'ruza tuzilishining umumiy rejasi quyidagi qismlarni o'z ichiga olishi

1. Kirish qismi. U asosiy masalaga o'tish «ko'prigi» hisoblanadi. Ma'ruza muhokama, kundalik siyosat, ma'ruza uchun sabab bo'lgan voqealar, muammas va muammolar ustida so'zlanib, asta-sekin mavzuni yoritishga o'tiladi. Ma'ruza mazmunining bayoni.

2. Bayon etilgan fikr-mulohazalardan kelib chiqadigan xulosalar.

3. Taklif, tavsiyalar. Bu punkt aksar ma'ruzalarda bo'lmasligi ma'ruza uchun zarur bo'lmaydi.

Ma'ruza tuzilishining yana bir ko'rinishi oliy o'quv yurtlarida, omma ma'ruza uchun biror mavzu yuzasidan bayon tarzida o'tkaziladigan dars ma'ruza tuzilishidir. Shu mashg'ulotda tinglangan nutq ham ma'ruza tuzilishiga qaratiladi. Ma'ruza ikki xil 1. Monolog ma'ruza 2. Dialog ma'ruza (muammas muhokama).

Monolog ma'ruzada notiq ma'lum mavzu bo'yicha o'zi bilgan savollarga javoblar haqida so'zlaydi. Savollar ma'ruza tugagandan so'ng beriladi. Dialog ma'ruza tinglovchilarning faol ishtirokida o'tadi. Notiq ma'lum muammasdagi savollarni nutqida yoritib borar ekan, o'z fikrlarining qanday muammasni hal qilayotganligini aniqlash maqsadida tinglovchilarga murojaat qiladi, ularning javoblarini tinglashi, savollariga javob berishi, ular bilan muammasni bahslashishi mumkin. Ana shu savol-javoblar, fikr olishuvlar jarayonida mavzuning mazmuni ochila boradi. Ma'ruza tuzilishining qiziqarli muammasni notiqning tayyorgarligiga, nutq oqimini tinglovchilarning fikriga ta'sir etadigan tarzda olib borishiga bog'liq. Notiqning bilimi, ma'ruza uslubiyati, dunyoqarashi, hayotiy tajribasi, tilni bilishi va undan mohirona foydalanishi muvaffaqiyatlarning garovi sanaladi.

Ma'ruzaga tayyorlanish ham xuddi ommaviy ma'ruzaga tayyorlanish muammasidir. Albatta, dalillar to'plamasdan, nazariy adabiyotlar bilan tanishib chiqmasdan turib yaxshi ma'ruza qilib bo'lmaydi.

**Hisobot.** Hisobot xizmatga doir ma'lumot va mulohazalar hujjat bo'lib, unda biror yumush, biror soha bo'yicha qilingan ish haqida xabar beriladi. Masalan, maktabda to'g'arak ishlar o'tkazish metod birlashmaning ishi to'g'risida hisobot berishi kabi og'zaki yoki yozma bo'ladi. Hisobotda ishning oldiga qo'yilgan vazifa uning hajmi haqida umumiy ma'lumot berilgandan so'ng bajarilganligi, belgilanganlardan qaysilari amalga oshmagani, muammolar monelik qilgan to'siq-sabablar ko'rsatiladi. Qo'lga kiritilgan natijalar va natijalar asosida amalga oshganligi, yangi metod va usullar yaratilishi. Hal etish qiyin bo'lgan muammolar (agar bo'lsa) sanab o'tiladi va ularni yechish borasida shaxsiy maslahatlar, takliflar aytiladi.

**Maktub.** Maktub bir kishining boshqa bir (yoki bir qancha) kishi bilan ma'lum qilgan o'z ahvoli, ichki kechinmalari yoki yuz bergan hodisalar haqidagi xabaridir. Maktub turli mavzularda bo'lishi mumkin, ya'ni harbiy xizmatdagi askarning o'z otasiga yoki shogirdning ustozga maktubi, mushtariyning gazeta yoki jurnaldagi shikoyat maktubi, tahririyatiga maktubi, oshiqning ma'shuqiga maktubi kabi.

Maktubda muallif erkin fikrlaydi. O'zini qiziqtirgan, tashvishlanadigan voqealarni keng va har tomonlama bayon etadi. Maktub asosan o'z fikr uslubida yoziladi. Unda ishlatilgan til birliklari muallifning kundalik hayotida qo'llaydigan so'zlardan iborat bo'ladi. Maktubning mazmuni sodda, hamma tushunarli bo'lishi muallifning fikrlash usuliga bog'liqdir.

Shaxsiy yozishmalar (maktublar) da shaxsning madaniyati, odati, ta'limi va axloqi aks etib turadi.

Sharqda qadimdan bir-biriga noma yozish odat bo'lgan. Bu odat oddiy savodxon kishilar orasida bo'lganidek, atoqli olim va shonli davlat arboblari ham xat yozishib turganlar. Dalil sifatida XV asr ikkinchi yarmida yaratilgan A. Navoiyning «Muraqqa'i Alisher Navoiy» dasturida maktublar to'plamini ko'rsatish mumkin. To'plamdagi maktublar turli mavzularda yozilgan. Unda Abdurahmon Jomiy tomonidan Navoiy nomiga yozilgan anchagina maktublar ham bor. Bu maktublar Navoiy tomonidan to'plab borilgan. Jomiy ba'zi xatlarida ayrim shaxslarga iste'dodli yoshlarga yordam qilishni Navoiydan iltimos qiladi. Bu kishilarning ko'plari Navoiy tarbiyasida yetuk shaxslarga aylandi.

Maktub yozish an'anasi keyingi davrlarda ham davom etadi. Muqimiy va Furqat maktublari shunday asarlardir.

ular nazm va nasrda yozilar edi. Muqimiyning «Assalom», «Salam», «Javobi salomi Muqimiy ba Furqat», «Javobi ruqayi Muqimiy», «Javob nomai Muqimiy ba Furqat» asarlari, «Muqimiyga xat», «Bumbaydan xat» asarlari nazm bilan Muqimiyning shoir Kamiyga, jiyani Ro'zimuhammadga nasr bilan bitilgandir.

U adabiyotda asar qahramonlarining bir-biriga yozgan xatlar tarzida yozilgan asarlar maktub janrini tashkil etadi. Maktub muntoz adabiyotida maktub janri qadimdan mavjud bo'lib, asarlarini xalqimiz sevib o'qib kelgan. Masalan, «Maknunoma», «Taashshuqnoma» kabi dostonlar badiiy san'atning namunalari. Ulug' Navoiyning «Xamsa»sidagi Farhod va Layli va Majnunning bir-biriga yozgan xatlari o'zining mazmunli, go'zalligi bilan kishini lol qoldiradi.

**Kundalik (xotira, esdalik).** Kishilar shu kungi hayotini, yuz bergan hodisalarni keyin eslash maqsadida xotira yozib boradilar. Xotira maktub yozuv bo'lib, odatda, so'zlashuv uslubida yoziladi. Xotiralar mazmun jihatidan xilma-xildir: tabiat hodisalarini kuzatish kundaligi, Ishqiy-intim kundalik, ish-mutaxassislikka bog'liq kundalik kundaliklarda xuddi maktublardagidek shaxsning o'y-fikrlari, o'z va jamiyat hodisalariga bo'lgan munosabati, odob-axloqi, bilim va madaniyati aks etadi.

Ba'zi xotiralar ma'lum bir maqsadni ko'zlab yozib boriladi. Yozuvchi o'z xotiralarida o'z ishi, undagi mushkulliklar, ularni yechishga ko'maklashadigan fikrlar, usullar, o'quvchilarning hulqidagi kamchiliklar, o'z jamoadoshlari haqida, o'z ishidan olgan zavq-shavq haqida yozib boradi. Bunday xotiralar oradan ancha yillar o'tgach xotira, kishiga allaqanday zavq berganidek, ulardan ilmiy-pedagogik jihatda, o'quvchilarga berilgan tavsifnomalarda dalil sifatida foydalanish mumkin.

## XULOSA

Bizda notiqlik mahoratini, uning sirlarini, qonun qoʻyilgan toʻliq egallamasdan oliy maktablarni bitirib chiqarotgan mutaxassislarning joylardagi faoliyatida bu kamtlik seziladi. Hatto telekoʻrsatuvlarda gapirayotganlar nutqida ham «Nima ekan?», «Nima edi?» degan ortiqcha kirish soʻzlari uchraydi. «Nima deyishni bilmasangiz, nima uchun soʻz ochdingiz», deyish odam yoʻq. Xullas, bu soha bugunning eng dolzarb muammasi ekanini anglash vaqti keldi. Koʻpgina bogʻcha bolalari va oʻquvchilarining duduqlanib, oʻz fikrini ravon aytish holatlariga guvoh boʻlamiz. Nega? Chunki oiladan tortib maktab bogʻchalarda ham bunga eʼtibor berish zarur. Har qanday odam gapdan, muomaladan, qarashidan, dadil oʻzini tutib gapirishni sezish mumkin. «Ish bilguncha gap bil», degan ibora hali ham aymagagan. Albatta, gap bilgan odam ishni ham biladi. Ishni bilgan u oʻsha ish haqida fikr bildirmaydi.

Biz qadimdan odamiylikni, qadr-qimmat va mehr oqibatini koʻrib qanday zaru oltinlardan, maʼdanu boyliklardan afzal bilgan boʻlgan xalqning avlodlarimiz. Bulardan-da qadrliroq Alloh bergan bir necha narsa bor - bu soʻz va soʻzlash neʼmatidir. Shu bois buyuk allomalarning tomonidan «soʻz»ning barcha narsadan ustun ekanligi taʼkidlanib kelingan:

*Soʻzdirki, nishon berur oʻlukka jondin,*

*Soʻzdirki, berar jonga xabar jonondin.*

*Insonni soʻz ayladi judo hayvondin,*

*Bilkim, guhari sharifroq yoʻq ondin,*

Bu soʻzning buyuk qudratini ulugʻlagan hazrat Navoiyni Husayn Noyqaro «Soʻz sohibqironi» deb, zamondosh shoirimiz Oʻzbekiston rahramoni Abdulla Oripov esa:

*Temur tig'i yetmagan joyni  
Qalam bilan oldi Alisher,*

... bo'lardi.

... so'z» xususida ketayotgan ekan, bu ne'matni nihoyatda  
... tilimiz orqali namoyon bo'ladi. Tilimizdan chiqayotgan  
... qo'liga aylanadi. O'sha nutq esa so'z va nutq egasining kimligini  
... yordam beradi. Chunki odamning yaxshi-yomon xislatlarini  
... bilib olamiz.

... turibdiki, so'z san'ati tarixdan zamonamizga qadar bo'lgan  
... bir-biriga bog'laydi. Shu ma'noda yoshlarimiz o'z so'z va  
... kamchilik va nuqsonlar, tillaridagi qusur va g'alizliklar  
... qayg'urishlari lozim.

... boshi salom», deganlaridek, ba'zi yoshlarimizning salom-  
... kelsak, qo'shtirnoq ichida «madaniyatli» lari «privet»,  
... desalar, boshqalari «som alaykum» deyishadi. Bunday  
... «som» arab tilida «o'lim» degani ekanini bilsalar edi, bunday  
... masdi, deb o'ylaymiz. Bu narsa oila, bog'cha, maktab va o'quv  
... o'rgatilishi lozim bo'lgan muammo.

Ayniqsa, ko'cha-ko'yda, bozorda, yo'lovchi transportlarida, hatto  
... daroghlarida ham quloqqa tez-tez eshitilib turadigan «korochoche»,  
... «otvechat qilasanmi» kabi so'zlarga ham, qanchalar  
... bo'lmasin, quloqlarimiz o'rganib boryapti. Yoki «brat», «bratan»,  
... «atashka» kabi so'zlar ham shular jumlasiga kiradi. Bunday holatlar  
... o'zbek tilimizga hurmatsizlik emasmi? Qolaversa, O'zbekiston  
... eng buyuk ne'matlaridan biri bo'lgan tilimiz mustaqilligiga  
... emasmi bu?

«Yaxshining so'zi moy, yomonning so'zi loy», – deydi dono xalqimiz.  
... kulq, eng avvalo, nutqda ko'rinadi.

Yoshlarning o'z otasini «paxan», «boboy», onasini «mamulya», «ba-  
... atashi; do'stlarini o'z ismi bilan atamay, Bobur-  
... Horya, Temurni – Tolik, Muhammadni – Misha, Alisherni – Alik, Sa-  
... Sano, Rahimani – Raya, Gulchehrani – Gulya deb chaqirishlari;  
... ham jismoniy kamchiliklari bilan atab: qiyshiq, cho'loq,  
... kal, cho'tir deb atashlari ularning ma'naviy qashshoq ekanliklarini  
... Ammo ular o'zlarini «madaniyatli» hisoblaydilar. Shaxsni  
... kamchiliklar bilan chaqirishni hazil deb tushunadilar.



Jismoniy kamchiligi bor tanishining ko'nglini o'ylab masxaralash, aslida, gunoh. Ayniqsa, «harif» degan so'z ishlatiladi. Bu so'z, asosan, musofir, tirikchilik uchun masxara bo'lib yurgan bechora odamlarga nisbatan ishlatiladi. Al-bahar esa:

*Kimki bir ko'ngli g'aribning xotirin shod aylagan  
Oncha borkim, Ka'ba vayron bo'lsa obod aylagan*

deydi.

Ya'ni ko'ngil ovlamoq Ka'bani qayta qurish bilan tenglashtirish. Demak, ko'ngil buzish ham Ka'bani buzish bilan barobar bo'ladi.

Bular og'zaki nutqdagi kamchiliklar. Bugungi kunda adabiy normalarini bilmaslik tufayli o'quvchi va talabalar, hattoki, adabiy murabbiylarning yozma nutqlarida ham uchraydigan ba'zi usulda imlodagi nuqsonlar xususida to'xtalsak.

Ma'lumki, o'zbek tilida oltita kelishik va har birtarafdagi qo'shimchalari bor. Ammo nutqda qaratqich kelishigi yoki tushum kelishigi, o'rin-payt kelishigi o'rniga jo'nalish kelishigining qo'shimchalarini almashtirib ishlatish hollari uchraydi.

Misol uchun, «Bu – Anvarning kitobi», deb aytish va yozish o'rniga «Bu – Anvarni kitobi» tarzida yoxud «Bu gapni uyda aytaman», deb aytish yoki yozish o'rniga «Bu gapni uyga aytaman» (Uyning qabog'i bormi?) deb ishlatish holatlariga tez-tez duch kelamiz. Bu, albatta, shevaning ta'siri.

Aslini olganda, shevadagi so'zlar adabiy tilni boyitishga xizmat qiladi. Masalan, Abdulla Qahhor Qo'qon shevasidagi «Simchataki» so'zini adabiy tilga o'z asari bilan olib kirib, tilimizni boyitgani kabi. Biroq, shevaga xos qo'shimchalarni adabiy til qoidalariga mos holatda ishlatmaslik uslub va imlodagi xatolarning kelib chiqishiga ham sabab bo'lishini unutmash kerak. Matbuot ham bunday kamchilikdan so'q emas.

O'zbek tili grammatikasida: yozilishi har xil, mazmuni bir xil bo'lgan so'zlar sinonimlar deyiladi, degan qoida bor. Bunga amalda noto'g'ri yondoshsak ham xatoga yo'l qo'yishimiz mumkin. Masalan, yuz, aft, turq, bashara, chehra, ruxsor kabi so'zlarning ma'nolar bir xil deb «ruxsoringiz yoki chehrangiz chiroyli» deyish o'rniga «basharangiz

deb ishlatib bo'lmaydi. Aks holda «tushuncha» salbiy holatga aylangan bo'ladi. Shu boisdan so'z tanlash mahorati hamisha zarur bo'lishi lozim. Bu borada she'riyatda nozik ta'b bilan so'z tanlash kabi. Masalan, Erkin Vohidovning «O'zbekim» qasidasida:

*So'ylasin Afrosiyobu, so'ylasin O'rxun xati,  
Ko'lnu tarix shodasida bitta marjon o'zbekim, – deyilgan.*

Ushbu o'rinda «bitta» so'zi o'rnida «yakka» so'zi ishlatilsa, marjon o'zgaradi, ya'ni «tarix shodasida»gi marjonlardan «yakka»si marjon deya boshqalardan o'zni ustun qo'yish tushunchasini beradi. Bitta esa «bitta o'zim keldim», «yakka o'zim keldim» deyilganda marjon o'zgarmaydi. Biz hamisha chiroyli kiyinishni xohlaymiz va bu tashqi shaklga e'tibor beriladi. Lekin ma'naviy olamimiz uchun chiroyli gapirish va shirin muomalada ham muhim ahamiyatga ega ekanligini, ya'ni insonning muvaffaqiyatli va chiroyli bo'lishligini ta'minlaydigan omil ekanini unutmaymiz. Shuning uchun «shirin so'z», xushmuomala bilan odamlar ko'ngliga yo'l topaylik. Har qachon inson dilini og'ritmaslikka harakat qilaylik. Bu qo'limizdan keladiganidir.

Chunki:

*Hech kimsa dunyoga ustun bo'lmagan,  
Qora tuproq qa'ri hech ham to'lmagan.  
O'lim haq, tug'ilish to'xtamas bir dam,  
Dilozor odamning baxti kulmagan.*

*(«Hidayat» jurnali. 2005 yil, 7-son, 25-bet).*

Shirin muomalada bo'lish ham katta san'at. Odamzoddan qoladigan eng ulug' meros – bitta yaxshi va shirin so'zdir. Insonni o'rganish qiyin, uning qalbiga yo'l topish qiyii. Yo'l topilganda ham har qanday tezlikda yuradigan texnika bilan yetib bo'lmaydi, kirib borolmaysiz. Bunga erishuvimizga ko'mak beradigan bir ne'mat bor. Bu – Alloh bergan «so'z» ne'matidir. Inson – ochilmagan qo'riq, tirik sayyora. Uning qalbiga so'zni shundayligicha yalang'och kiritib bo'lmaydi. So'zga avval libos tanlang. Go'yoki, o'zingizga libos tanlagan kabi. Axir, siz o'zingizga yarashmaydigan, sizni chiroyli qomatli qilib ko'rsatmaydigan libos yoki

kiyimni kiymaslikka harakat qilasiz. So'zingizga libos sifatida mahalliy kiydiring. Gapingizning libosi ham ohangdan tashkil topadi. Ana shu tinglovchi o'sha «ochilmagan qo'riq» so'zingizni, gapingizni o'rganib qiladi, bag'riga oladi. Hattoki, tabobatda «shunday xastalar bo'ladi, ularni faqat «so'z» bilan davolamoq zarur», deydi Abu Ali ibn Sino. Donishmandlar «so'zni» doriga o'xshatadilar, ortiqchasi zarar keltiradi – deydilar. Bir rivoyatda keltirilishicha: yunon faylasofi Arastu huzuriga ezma va sergap bir yigit kelib, notiqlik san'atini o'rganmoqchi ekanini aytibdi. O'sha notiqlikni o'rganmoqchi bo'lib kelgan yigit Arastuga dabdabali so'zlarni izhor etganidan so'ng:

– O'rganganim uchun qancha haq to'layman? – deb so'raydi.  
– Sendan ikki barobar haq olinadi, – debdi Arastu.  
– Nima uchun? – hayron bo'libdi yigit.  
– Chunki sen bilan ikki barobar ishlashga to'g'ri keladi. Sen so'zlashni o'rgatishdan avval jim turishni o'rgatishim lozim, – degan ekan.

Eshitish qobiliyati tufayligina insonda til, nutq paydo bo'ladi. Quloqdan kirgan tovush, so'z, gap va iboralar og'izdan chiqadi. Dima xalqimiz: «Suv onasi buloq, so'z onasi quloq», – deb bejiz aytmaydi. «So'ramoq» so'zining o'zagi «so'r» bo'lib, inson so'ragan gapni qulog'i orqali «so'radi». Shu bois uning fikri, so'z boyligi ortib, nutq ravelonlashadi, yaxshi suhbatdoshga aylanadi.

Alisher Navoiy hazratlari: «Bilmaganni so'rab o'rgangan odam orlanib so'ramagan o'ziga zolim», – degan hikmatlarida shular haqida qayg'uradi. O'zimizga zamondosh O'zbekiston xalq yozuvchisi O'zbek Hoshimov: «Xalqning o'zidan tinglab, o'ziga qaytardim», deb yozgan bo'lsa, O'zbekiston Qahramoni, sevimli shoirimiz Erkin Vohidov ham:

*El ustozim, men esam tolib,  
So'z durlarin termoqdir ishim.  
Odamlarning o'zidan olib,  
Odamlarga bermoqdir ishim, –*

– deya haq gapni tan oladi.

Inson hamisha sodda va samimiy so'zni sog'inib, tabiiylikka intilib yashaydi. Maqtov so'zlar hammaga yoqadi, ayniqsa, san'atkor va

borlarga, yosh boladan tortib nuroniy bobolarimizzu mehribon bobolarimizgacha.

Har bir inson – soʻz xonadoni va soʻz hukmdori. Hatto odam oʻzining ovozini eshitish umidida tavallo qilganida, istigʻfor boʻlmida ham oʻzining soʻzini eshitadi. Soʻz vujudimizda yashaydi. Soʻzdan uzoqlashar va qaytar ekan, soʻz bizga tugʻilishimizdan boshlab, qazoyimizga qadar sidqidildan xizmat qiladi, oʻzida ruhning mavjudligi va olamning buyukligini saylaydiki, buni faqat soʻz sehri bilan his orqaligina his etish mumkin...

Soʻzni avaylash, asrash kerak. Soʻz tejamkorlikni yoqtiradi. Agar soʻz boʻlmachayu kunduz oqib yotgan suv misoli isrof qilinsa, har bir soʻz qadrlanmasa, oʻz kuchini yoʻqotadi, jonsiz boʻlib qoladi... Soʻz u boshqalar bilan birga baham koʻrilmasa, tugaydi, oʻladi...», dedi Chingiz Aytmatov. Darhaqiqat, suv insonni, borliqni, dunyoni qadrlaydi. U Allohning ish quroli.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, Toshkent, O'zbekiston, 1992.
2. O'zbekiston Respublikasining Davlat tili haqidagi (Yangi tabiatdagi) Qonuni. Toshkent, O'zbekiston, 1995.
3. Karimov I. A. Istiqlol va ma'naviyat, Toshket, O'zbekiston, 1994.
4. Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch, Toshkent Ma'naviyat, 2013.
5. Mirziyoyev Sh. M. «Iqtidorli yoshlarni aniqlash va malakali kadrlar tayyorlashning uzluksiz tizimini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida» qarori. 2019-y, 3-may. O'zbekiston adabiyoti va san'ati.
6. Mirziyoyev Sh. M. «Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» qarori, 2019 3 may. O'zbekiston adabiyoti va san'ati gazetasi.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis Senatining yigirmanchi yalpi majlisidagi nutqi. 2019-yil, 22-iyun «Xalq so'zi» gazetasi.
8. Mirziyoyev Sh. M. «O'zbekiston tarixi» telekanalini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori. 2019 yil, 11 iyul.
9. Аристотель. Риторика. М., 1978.
10. Abu Rayhon Beruniy. Tanlangan asarlar. III tom Toshkent, «Fan», 1982.
11. Abu Homid G'azzoliy. Mukoshafat ul-qulub. Toshkent. Yangi asr avlodi, 2004.
12. Amir Temur Ko'rog'on. Temur tuzuklari. Toshkent, 1991
13. Alisher Navoiy. Muhokamat ul-lug'atayn. Toshket, «Fan», 1982.

18. Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. Toshkent, Fan, 1982.
19. Alisher Navoiy. Nazm ul-javohir. Toshkent, Fan, 1982.
20. Alisher Navoiy. Majolis un-nafois» Toshkent, Fan, 1982.
21. Alimuhamedov A. Antik adabiyot tarixi. Toshkent, O'qituvchi, 1989.
22. Ahmedov A. Notiqlik san'ati. Toshkent, O'zbekiston, 1967.
23. Begmatov E. Adabiy talaffuz normalari. Toshkent, O'zbekiston, 1982.
24. Bobur. Boburnoma. Toshkent, «Fan», 1960.
25. Аннушкин В. А. Первая русская риторика. М., 1999.
26. Волков А. А. Курс русской риторики. М., 2001.
27. Введенская Л. А., Павлова Л. Г. Культура и искусство речи. Современная риторика. 2-е издание. Ростов на-Дону, Фенкс, 1998.
28. Jumaniyozov R., Salimov S. G'oyaviy tarbiyada notiqlik san'ati. Toshkent, 2002.
29. Jumaniyozov R., Muomala madaniyati. T., 2015.
30. Jumaхо'ja N.A. Istiqpol va ona tilimiz. Toshkent, Sharq, 1998.
31. Kaykovus. Qobusnoma. Toshkent, «Meros» 1992.
32. Kaykovus. Qobusnoma. Toshkent, O'qituvchi, 2006.
33. Карнеги Д. Как вырабатывают уверенность в себе и влияют на людей, выступая публично. Ташкент, Шарк, 1992.
34. Кузнетсов И. Н. Современная риторика. М., 2003.
35. Mallayev N. O'zbek adabiyoti tarixi. Toshkent, O'qituvchi, 1966.
36. Mahmudov N. Ma'rifat manzillari. Toshkent, Ma'naviyat, 1999.
37. Mo'min Siddiq. So'zlashish san'ati. Farg'ona, 1997.
38. Ortiqov A. Nutq madaniyati va notiqlik san'ati, Toshkent, 2002.
39. Qodirov P. Til va El, Toshkent. 2005.

36. Rustamov A. So'z xususida so'z. Toshkent, Fan, 1987.
37. Qudratov T. Nutq madaniyati. Toshkent, O'qituvchi, 1991.
38. Tohir Malik. Mehmon tuyg'ular. Toshkent, Sharq. 2002
39. Qo'ng'irov R., Begmatov E., Tojiyev Y. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. Toshkent, O'qituvchi, 1992.
40. Vohidov E., So'z latofati. T. O'zbekiston. 2014
41. Jin va shaytondan saqlanish yo'llari. Toshkent, Movarounnahu 2006
42. Ораторское искусство – [www.orator.ru](http://www.orator.ru)
43. [www.silasloga.ru](http://www.silasloga.ru) [www.besonus.ru](http://www.besonus.ru)
44. [narod.ru](http://narod.ru)

## MUNDARIJA

Soʻz boshi .....	3
Urish .....	5
«Notiqlik sanʼatining predmeti, maqsad va vazifalari .....	9
«Notiqlik sanʼati»ning boshqa fanlar bilan aloqasi va «Nutq madaniyati»dan farqi .....	12
Qadimgi Yunon va Rim notiqlik tarixi .....	16
Lisly (taxminan 459–380) .....	18
Aristotel (384–322) .....	22
Demosfen (384–323) .....	24
Sitseron (103–43).....	27
Sharq va Markaziy Osiyoda notiqlik tarixi.....	31
Abu Homid Gʻazzoliy .....	40
Kaykovus va uning «Qobusnoma» asari .....	45
Alisher Navoiy notiqlik haqida .....	50
Amir Temurning notiqligi .....	55
Husayn Voiz Koshifiyning hayoti va notiqlik faoliyati .....	64
Zahiriddin Muhammad Boburning badiiy nutq mahorati .....	67
Irshod va Qozi Oʻshiy haqida .....	73
Xoja Muayyad Mahnagiy .....	74
Mavlono Riyoziy .....	75
Notiq va tinglovchilar muloqotining shartlari .....	76



Ommabop nutq mas'uliyati.....

Notiqlik san'ati turlari va shakllari .....

Nutqqa tayyorlanish va nutq ustida ishlash.....

Muallimning insoniylik fazilati va notiqlik mahorati .....

Muomala madaniyati.....

So'z haqida so'z.....

Notiq uchun 41 qoida.....

Foydali maslahatlar .....

Ilovalar .....

Nutq odobi .....

O'qituvchining ish faoliyatida fikrni ifodalash usullari .....

Fikrni og'zaki bayon etish .....

Nutqning yozma shakllari.....

Xulosa .....

Foydalanilgan adabiyotlar .....

32

31

40

42

20

22

64

67

73

74

75

76

77  
79  
81  
82  
85  
95  
97  
02  
15  
15  
17  
21  
24  
32  
38

**Norqul, Bekmirzayev**

**Notiqlik san'ati** (Nutq madaniyati va ifodali o'qish sirlari) *To'ldirilgan va qayta ishlangan 2-nashri.* / Norqul Bekmirzayev – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi «Fan» nashriyoti, 2019. – 144 b.

ISBN 978-9943-19-524-0

NOTIQLIK  
SAN'ATI

(NUTQ MADANIYATI VA IFODALI O'QISH SIRLARI)

To'ldirilgan va qayta ishlangan 2-nashri

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi  
«Fan» nashriyoti davlat boshqaruvi  
Toshkent - 2019

Ushbu kitobni	tasvirlagan
M. Islomov	tasvirlagan
U. Saqayev	tasvirlagan
D. Murodov	tasvirlagan
D. Sobirov	tasvirlagan

Kitobning muhuratlashi 2019 yil 12 oy 12 kuni  
2019 yil 12 oy 12 kuni  
Yozuvchilarning shaxsiy huquqlari qamalgan  
Kitobning muhuratlashi 2019 yil 12 oy 12 kuni  
Boshqaruvi tomonidan amalga oshirildi

TOSHKENT VILOYATI HURRIYAT  
DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI  
AXBOROT RESURS MARKAZI  
2-FILIALI



Norqul Bekmirzayev

## NOTIQLIK SAN'ATI

(NUTQ MADANIYATI VA IFODALI O'QISH SIRLARI)

*To'ldirilgan va qayta ishlangan 2-nashri*

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi  
«Fan» nashriyoti davlat korxonasi  
Toshkent – 2019

Muharrirlar	E. Erkin N. Islomov
Badiiy muharrir	U. Sapayev
Texnik muharrir	D. Murodov
Sahifalovchi	O. Sobir o'g'li

Nashriyot litsenziyasi AI № 266, 15.07.2015-y.  
10.10.2019-yilda bosishga ruxsat etildi.  
Qog'oz bichimi 60 × 84 <sup>1</sup>/<sub>16</sub>, «Cambria» garniturası.  
Kegli 10. Shart. b.t. 8,4. Nash. h.t. 8,0. Adadi 1 000 nusxa.  
Buyurtma raqami 20. Bahosi shartnoma asosida.

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi  
«Fan» nashriyoti davlat korxonasida nashrga tayyorlandi va chop etildi.  
100047, Toshkent sh., I. G'ulomov ko'chasi, 70-uy.

**AXBOROT RESURS MARKAZI**  
2. II IAI I





Norqul Bekmirzayev – O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a‘zosi, filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti (oldingi ToshDU) dagi O‘zbek filologiyasi fakultetida 1989-2003 yillarda fakultet dekani o‘rinbosari va dekan lavozimlarida faoliyat olib bordi.

U "O‘zbek harbiy epopeyasi" (1978), "Jasorat va adabiyot" (1980), "O‘zbek harbiy prozasi" (1981), "Jasoratning badiiy talqini" (1991), "Ona yurt kuychisi" (2005), "She‘riyat ishqiga yo‘g‘rilgan yurak" (2007) nomli ilmiy kitoblarini e‘lon qilgan. Shuningdek, "To‘g‘riga to‘p o‘tmas" (1991) nomli qissasini chop ettirdi. U o‘nga yaqin o‘quv-uslubiy qo‘llanmalar, 250 dan ortiq ilmiy va ommabop maqolalar muallifi.

Uning "Notiqlik san‘ati sirlari" (2006), "Notiqlik asoslari" (2006), "Notiqning yon daftari" (2007), "Nutq madaniyati va notiqlik asoslari" (2007), "Notiqlik san‘ati asoslari" (2008), "Notiq, nutq, xulq" (2011), "Muallimning yon daftari" (2011), "Shifokorning shifo so‘zlari" (2013), "Dunyoda bo‘lmasa muallim agar" (2013), "Notiq va nutq" (2014), "Yurist nutqi madaniyati" (o‘quv-qo‘llanma, 2012), "Shifokorning shifo so‘zlari" (lotin alifbosida, 2013), "Notiq, nutq, xulq" (lotin alifbosida, 2014), "Notiqlik san‘ati asoslari" (o‘quv qo‘llanma) kabi kitoblari chop etilgan. "Yilning eng yaxshi darsligi va o‘quv adabiyoti muallifi – 2009" Respublika ko‘rik tanlovida faxrli 2-o‘ringa loyiq topildi.

Norqul Bekmirzayevga ritorika yo‘nalishida yozgan kitoblari uchun 2010 yilning dekabr oyida "Xalqaro Antik dunyo ilmiy akademiyasi"ning akademigi va sovrindori unvoni berildi.

"Dillar mushoirasi" (2019), "Cho‘llik yigit qo‘shig‘i" (2019) she‘rlar to‘plami, "Notiq, nutq, xulq" kitobining qayta to‘ldirilgan nashri (2019) chop etildi.

Norqul Bekmirzayevga fidokorona xizmatlari uchun 2019 yilning 6 may kuni "Birinchi darajali mehnat faxriysi" unvoni berildi. Hozirgi paytda Norqul Bekmirzayev malaka oshirish kurslarida turli kasb egalariга notiqlik san‘ati va muomala madaniyati yo‘nalishida ma‘ruzalar o‘qib kelmoqda.



ISBN 978-9943-19-524-0



9789943195240